

B.K. XAMDAMOV

AUDITNING XALQARO STANDARTLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HAMDAMOV B.Q.

**AUDITNING XALQARO
STANDARTLARI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2021**

UO'K: 330(075.8)

KBK: 65.9(0)-98ya73

**Hamdamov B.Q. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. -T.:
Toshkent moliya instituti, 2021 yil. 248 bet.**

«Auditning xalqaro standartlari» nomli mazkur darslik oliy ta'limning iqtisodiyot yo'nalishidagi bakalavriat talabalari va magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda auditning xalqaro standartlari izlanish predmeti sifatida ko'rib chiqilgan. Darslikda O'zbekiston Respublikasining nazorat tizimi tahlil qilinib unda tashqi audit, taftish va ichki audit tizimlari qiyosiy jixatdan o'rganilgan. Darslik Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashining (XAIBSK) sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlar bo'yicha standartlari, atamalar glossariysi va xalqaro standartlarga muqaddima, hamda to'la vakolatlari bo'Imagan Xalqaro audit amaliyoti izohlarini (XAAI) talqin qilgan. Auditning xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasida joriy qilish masalalari atroflichi yoritilgan.

Shunindek, darslik AM-FZ-20190813110 “O'zbekistonda auditning xalqaro standartlari asosida innovatsion audit xizmatlarini yaratish” mavzusidagi amaliy granti doirasida yaratilgan.

Taqrizchilar:

i.f.d., professor Karimov A.A.

i.f.d., professor Ilxomov Sh.I.

УДК: 330(075.8)

ББК: 65.9(0)-98ya73

**Хамдамов Б.К. Международные стандарты аудита.
Учебник. -Т.: Тошкентский финансовый институт, 2021 год.
248 стр.**

В настоящем учебнике как предмет исследования изучается положение Международных стандартов аудита и предназначен для бакалавров и магистров экономических вузов, слушателей системы послевузовского образования в области аудита. В учебнике сравнительно изучены аудит, ревизия и внутренний аудит и проанализирована система контроля Республики Узбекистан. Учебник освещает Сборник международных положений по аудиту, подтверждению достоверности информации и этики (НІААЕР), стандарты по контролю качества, по сопутствующим услугам, по обзорной проверке, глоссарий а также положения по международной аудиторской практике (IAPS). Всесторонне изучены вопросы внедрения Международных стандартов аудита в Республике Узбекистан.

Учебник также разработан в рамках практического гранта АМ-FZ-20190813110 «Создание инновационных аудиторских услуг в Узбекистане на основе международных стандартов аудита».

Рецензенты :

д.э.н., профессор Каримов А.А.
д.э.н., профессор Илхомов Ш.И.

ISBN: 978-9943-13-902-2

© Б.К. Хамдамов 2020

© «IQTISOD-MOLIYA», 2020

UDC: 330(075.8)

LBC: 65.9(0)-98ya73

**Hamdamov B.K. International Standards on Auditing.
Textbook. –T.: Tashkent Institute of Finance, 2021. 248 pages.**

The textbook “International Standards on Auditing” designed to bachelors’ and masters’ students of economy in the higher education, which sees the international standards on auditing as the subject matter of research. The textbook comparatively analyzes the external audit, revision and internal audit systems by analyzing controls systems of the Republic of Uzbekistan. While preparing the textbook Standards of Quality Controls, Standards on Auditing, Standards on Review Engagements, Standards on Assurance Engagements and Standards on Related Services, Glossary and introduction to international standards, and International auditing practice notes were widely used. Issues of implementing the International Standards on Auditing in the Republic of Uzbekistan were covered detailed.

Reviewers:

Doctor of Economics Karimov A.A.

Doctor of Economics Ilkhomov Sh.I.

ISBN: 978-9943-13-902-2

© B.K. Hamdamov 2020

© «IQTISOD-MOLIYA», 2020

Kirish

Xalqaro diferentsiyatsiyalashgan, ko‘p ukladli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratning vazifalari kengayib boradi. Bunda Davlat nazorati, ya’ni barcha xokimiyat tuzilmalarining nazorat organlari faoliyatları uyg‘unlashtirilishi kerak. Shuningdek mustaqil nazorat bo‘lgan audit tizimini ham rivojlantirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti talablaridagi soliq, byudjet, bank tizimi hamda bozorga hizmat qiluvchi infratuzilmalar faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi xorijiy mamlakatlar sarmoyalarining kirib kelishiga zamin bo‘lib, ko‘plab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va ish joylari tashkil etilishiga asos bo‘lmoqda. Shu bilan birga, o‘z kapitalini O‘zbekiston iqtisodiyotiga joylashtirmoqchi bo‘layotgan xorijiy investorlar oldida ishonchli sherik tanlash va ularning moliyaviy holatini aniq baholash kabi jihatlar muammoli bo‘lib turibdi.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki moliyaviy nazorat tizimida auditning o‘rnini, auditor va mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kengayib bormoqda. Iqtisodiyotni boshqarishdagi o‘zgarishlar auditorlardan o‘z malakalarini muntazam oshirib borishni talab qilmoqda, aks holda, auditor vazifalarini bajarishda tavakkalchilik darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, auditorlik firmalari zimmasiga noto‘g’ri ma‘lumot bergenligi sababli moddiy javobgarlikni qo‘yadi. Rivojlangan davlatlarda auditning hozirgi bosqichi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilikka asoslangan bo‘lib, iloji boricha kamchiliklarga yo‘q yomaslik va ularning oldini olishni o‘z ichiga oldi.

Yuqorida keltirilgan masalalarning yechimi avvalo xalqaro hisob va auditorlik standartlarini O‘zbekistonda qo‘llash, auditorlik mezon va standartlarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali ularni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borishdan iborat.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tuzilmalarida moliyaviy nazorat munosabatlarini rivojlantirish, auditorlik tekshirishlarini kengaytirish va ularni bozor iqtisodiyoti qoidalariga muvofiq tashkil etish iqtisodiy

islohotlarning samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) xalqaro darajada e'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqadi va amalga kiritib keladi. Bunday choralar investorlar va boshqa manfaatdor taraflar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun asos bo'ladigan ma'lumotlarning ishonchlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Shu bois, XBF standartlarni o'rnatadigan quyidagi to'rtta mustaqil kengash faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi: Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi (IAASB), Buxgalterlik ta'limning xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IAESB), Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash (IESBA) va Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IPSASB). Hisob va audit standartlarini o'rnatadigan mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarida yuqori sifatli, ochiq va samarali ishlab chiqilishini ta'minlaydigan, aniq belgilangan, tegishli jarayonga rivoja qiladilar. Bu standartlarni belgilash bo'yicha mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan keng jamoatchilik vakillari hisoblanadigan Maslahat guruhlariga egadirlar. Mazkur kengashlar quyidagi hujjatlarni chop etadilar:

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi
- Audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish bo'yicha boshqa xizmatlar va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari
- Sifat nazorati bo'yicha xalqaro standart
- Ta'limning xalqaro standartlari
- Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari

XBF tegishli ko'rsatmalarni ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bo'lgan resurslarni tarqatishga ko'maklashadi. Shuningdek u kichik va o'rta korxonalar hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP) ga, shuningdek jahon iqtisodiyotida muhim rol o'yнaydigan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lgan masalalarni yechish bilan shug'ullanadigan guruhlarni ham tashkil etgan.

Sohada ishlayotgan professional buxgalterlar Qo'mitasi (PAIB) tijorat, sanoat, moliyaviy xizmatlar, ta'lim, davlat va notijorat sektorlarida ishlaydigan butun jahon professional buxgalterlari va XBFning a'zolariga xizmat ko'rsatadi. Uning maqsadlari tashkilotlar va ularning hissadorlari uchun qiyomat yaratish, saqlash va hisobot berishda professional buxgalterlarning muhim roli to'g'risida xabardorlikni oshirish yo'li bilan sohada ishlayotgan professional buxgalterlarning qadrini ko'tarish va hissa qo'shish.

Qo'mita xalqaro standartlarni ishlab chiquvchilar ishiga kichik va o'rta biznes (KO'B) hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar(KO'BBA) ning nuqtai nazaridan bevosita hissa qo'shadi va ishlab chiqilgan standartlar bunday KO'B/KO'BBA uchun o'rinci va mutanosib bo'lishini ta'minlaydi.

Professional buxgalterlik tashkilotini rivojlantirish bo'yicha qo'mitaning e'tibori rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchli professional buxgalterlik tashkilotlarining rivojlanishida ular duch keladigan muammolarni yechishga qaratilgan. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi buxgalteriya hisobi to'g'risida xabardorlikni oshirishni ilgari suradigan, rasmiy kasb ehtiyojlariga e'tiborni qaratadigan, va rasmiy kasb olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy foydani ko'rsata oladigan shaxslarni birlashtiradi.

Transmilliy auditorlar qo'mitasi firmalar forumi (FoF)ning ijrochi organi sifatida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu forum transmilliy auditlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlari (firmalari) xalqaro tarmoqlarining uyushmasidir. Qo'mita Forum va XBF o'rtasida rasmiy aloqalarni ta'minlaydi va Forum a'zolari xalqaro audit amaliyotida yuqori sifatli standartlarga rioya etishini rag'battantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur darslikni yaratilishida auditning xalqaro standartlari, buxgalteriya va byudjet hisobini tashkil etishga oid qonun, me'yorili huquqiy hujjatlar hamda boshqa tegishli manbaalardan keng foydalanildi.

1 BOB. AUDIT XALQARO STANDARTLARINING AHAMIYATI VA VAZIFALARI.

1.1. Auditning shakillanishi va turlari

Bozor iqtisodi turli mulkchilik asosida vujudga keladi. Bunday sharoitda ish yuritish uchun sifatli, aniq va hisoblashga moyil ma'lumot o'ta muhimdir. Umuman olganda XXI asr bu ma'lumotlar asri bo'lishi muqarrar. Ya'ni bu omilga iqtisodiy barqarorlik, samaradorlik va sifatli ish yuritish ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy ma'lumotga baho berish, uni kelib chiqish manbalarini tekshirish uchun auditorlik nazoratining o'rni ajralib turadi.

Auditlik nazorati mohiyati, maqsadi va vazifalarini chuqurroq anglab yetish uchun audit taraqqiyoti tarixiga nazar tashlash zarur. Agarda auditga moliyaviy nazorat sifatida qaralsa, birinchi bo'lib auditorlik tizimini Xitoy yaratgan. Eski Xitoy yozuvlarining ma'lumot berishicha, eramizdan avvalgi 700 yilda davlat puli va mulkidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan hokimiyat amaldorlarini nazorat qilish uchun Bosh auditor lavozimi mavjud bo'lgan. Hokimiyat auditorlarining majburiyati, huquqi va shakllari suloladan-sulolaga qarab o'zgarib turgan. 1983 yil Xitoy yangi Konstitutsiyasining 91-moddasiga asosan Davlat auditorlik ma'muriyati tashkil qilindi.

O'rta asrlardan boshlab yevropada hokimiyat shartnomalarini turli javobgarlar tomonidan tasdiqlab, qayd etish odad tusiga kirdi va shu yo'sinda asta-sekin buxgalteriya hisobi va nazorat shakllana boshladi, XIV asrda ikki yoqlama yozish usuli paydo bo'ldi va mulk yo'nalishi ustidan nazorat kuchaydi.

Ko'plab mamlakatlar iqtisodida aktsionerlik jamiyatlari paydo bo'la boshladi. Albatta, bunday sharoit moliyaviy inqirozlarni ham chetlab o'tmadi va investorlar manfaatlarini himoya qila oladigan buxgalteriya-eksperimentlariga talab oshdi. Angliya parlamenti vaziantni nazorat qilish turish uchun zarur qonunlar to'plamini qabul qildi. Bularning hammasi auditorlar buxgalteriya hisobi va hisobotlarning haqqoniyligini nazorat qilishga qaratdi.

Qo'shma korxonalarining vujudga kelishi audit taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Auditor mulkdor oldida javobgar bo'lib qoldi va balans bog'liqligi qonun va qoidalarga mosligini tasdiqlab, haqqoniy baho berish kerak edi. Shu davrlarda konsolidatsiyalashgan balanslar ham vujudga keldi va ichki audit lavozimlari paydo bo'ldi. Ularning asosiy faoliyati buxgalteriya xizmatini nazorat qilish bo'lib, asosiy e'tibor pul mablag'lari qaratildi. Shu sababli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tashqi auditorlarda tanlab olib, tekshirish usullarini qo'llash rivoj topdi.

Auditning gurkirab rivojlanishi 1930 yillardagi chuqur iqtisodiy tanglikdan so'nggi davrlarga to'g'ri keladi. Masalan, AQShda 1932 yilda «Qimmatli qog'ozlar haqiqiyligi to'g'risida Dalolatnoma (AKT)» qabul qilindi. Bu aktsiya va obligatsiyalar chiqarib, turli shtatlarda faoliyat ko'rsatadigan xususiy korporatsiyalarni mustaqil auditdan o'tkazishni tartibga soluvchi birinchi federal qonun edi. 1939 yildan boshlab buxgalterlarning Amerika instituti izlanishlar byulleteni va audit muolajalariga taalluqli hisobotlarni chop eta boshladi - bu auditni standartlashtirishga tegishli birinchi rasmiy hujjat edi.

Ikkinci Jahon urushidan so'ng butun jahonda iqtisodiy faoliyatni auditsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Albatta, umumiy qabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit tamoyillari to'ldirildi. Buxgalterlarning Amerika Instituti «Umumiy qabul qilingan audit standartlari»ni tasdiqladi va Ichki taftishchilar instituti «Ichki taftishchi majburiyatlarini»ni chop etdi.

AQShda 1973 yildan boshlab moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash tashkil qilindi. Amerika diplomlangan auditorlar instituti a'zolari soni 70 ming kishidan oshdi va auditorlarning javobgarligi ham kengaydi. Standartlarga rioxan qilmagan auditorlarni diplomlangan auditorlar safidan chiqarish choralarini ko'rildi. Masalan, Amerika xolis buxgalterlar instituti auditorlik xulosalarining haqiqiyligini tekshirib, alohida a'zolarni institut tarkibidan chiqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega edi. Auditorlarning kasbiy etik me'yirlari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda AQSh da 100 mingdan ortiq diplomlangan auditorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

1960 yillardan boshlab hisob vazifalarini bajarish uchun hisoblash texnikasidan foydalanila boshlandi. 1976 yildan auditor kasbida

«Ma'lumot tizimi auditori» ixtisosligi paydo bo'ldi. Bu sohada birinchi standart 1987 yilda chop etildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng auditorlik firmalarining baynalminallashuvi boshlandi va bunga asosiy sabab AQSh sanoatining kengayishi bo'ldi. Bu jarayon davomida milliy va baynalminal korxonalar birlgilikda shartnomalar asosida ish ko'ra boshladi. Birinchi navbatda Amerika va Britaniya korxonalari birlashdi. «Katta sakkizlik» deb nomlangan bu auditorlik kompaniyalari audit xizmati bozorida asosiy o'rinni egallaydi.

Keyinchalik birlashuvlar oqibatida, ya'ni 1980 yillarning oxiri va 1990 yillarning boshlarida, «Ernest va Vinni» ning «Artur Yang va Ko» bilan, «Delayt Xasnins va Sellz» ning «Tach Ross va Ko» kompaniyalari bilan qo'shilishi «Katta oltilik»ni vujudga keltirdi. Bu integratsiyalashuv katta iqtisodiy samara keltirish bilan birga transnatsional kompaniyalarni tekshirish imkoniyatini yaratdi.

Shu sababli 1987 yil sentyabr oyida «Kopers va Laybrend» va «Prays Vaterxaus» kompaniyalari bazasida yangi auditorlik xoldingi tashkil bo'ldi. «KPMG» va «Ernst end Yang» kompaniyalari ham qo'shildi va natijada 1996 yilda ularning umumiy daromadi (15.9 mlrd. dol.) «Kopers va Laybrand» va «Prays Vaterxaus» xoldingi daromadlaridan (11.8 mlrd. dol.) oshib ketdi.

Sobiq oltilik tarkibiga kirgan firmalar ichida o'zgarishlardan «Artur Andersen» va «DTT» firmalari chetda qoldi. Shuni alohida qayd etish kerakki, auditorlik xizmatlari bilan birga maslahatlar berish bozori ham uzviy bog'liq, 90-yillarda bu sohada daromadlar 10 dan 125 mlrd. dollar o'rtaida tebrangan. Katta auditorlik firmalari yirik ishbilarmon maslahatchilar hamdir. Sof auditorlik daromadi 50-55% tashkil qildi, qolgan qismi asosan soliq va tadbirdorlik sohasidagi maslahatchilarga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda konsalting faoliyati ko'proq ma'lumot texnologiyalari va ma'lumot menejmentiga qaratilgan. Umuman turli mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham audit amaliyoti va tashkil qilinishi o'z xususiyatlariga ega. I-jadvalda turli davlatlarda auditning tashkil qilishini taqqoslashga harakat qildik.

Miqdoriy o'lchash mumkin bo'lgan ma'lumot turli shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, moliyaviy hisobot, xo'jalik mablag'lari va ularning ish jarayonidagi harakatlarni natura holda ifodalash, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt birligi, alohida shaxsnинг soliq deklaratsiyasi, kontraktlarning summalarini va hokazo. Bu ma'lumotlarni baholash mezonlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, qayta ro'yxat qilish usuli bilan moddiy boyliklarning saqlanishini aniqlash yoki g'azna hisobotlar

auditi yordamida pul mablag'laringin o'z vaqtida kirim qilinishi, samarali va maqsadga muvofiq ishlatalishini tekshirish mumkin. Foydalilaniladigan mezonlar auditning maqsadidan kelib chiqadi.

Xo'jalik tizimi - xo'jalik tizimiga ko'p hollarda yuridik shaxslar, ya'ni korporatsiya, davlat muassasasi, jamiyat-birlashma, xususiy korxonalar kiradi. Ayrim hollarda xo'jalik tizimini bo'linma, sektor, tsex va ayrim olingan shaxslar ham ifodalashi mumkin. Auditorlar javobgarligi chegaralarini belgilashda xo'jalik tizimini aniqlash bilan birga audit davrini ham aniqlab olish zarur bo'ladi. Ko'p hollarda bu davr 1 yilga teng bo'lishi yoki undan ham oshishi mumkin. Tekshirish davrini belgilashda oxirgi o'tkazilgan xolis audit xulosasi berilgan hisobot davridan tekshirilishi kerak bo'lgan hisobot davrigacha oraliq olinadi.

I-jadval

Turli mamlakatlarda auditning tashkiliy tavsiyalar

Mamlakat	Ko'rsatkich		
	Auditning asosiy maqsadi	Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar	Professional Auditor kadrlar tayyorlash tizimi
Angliya	Buxgalteriya hisobining haqqoniyligini nazorat qilish, hisobot tizimi va korxona moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirish	Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi	Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi

Fransiya	Iqtisodning nodavlat sektorida moliyaviy hisobotlar haqqoniyligining tashqi moliyaviy nazorati	1. Buxgalter- ekspeditor organi 2. Taftishchilar milliy palatasи	1. Buxgalter-ekspeditor organi 2. Taftishchilar milliy palatasи
AQSh	Xolis auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotni tekshirish va ekspert-konsulativ faoliyat	1. Auditorlar uyush-masi federatsiyasi 2. Ichki taftishchilar instituti 3. Buxgalterlar instituti	1. Diplomlangan auditorlar instituti 2. Ichki auditorlar instituti
Shvetsiya	Kompaniyalar, korxonalar, banklar, tashkilotlar moliyaviy hisobotini va xo'jalik muomalalarini buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishini tekshirish	1. Auditorlik faoliyati komissiyasi 2. Auditorlarning Shvetsiya jamiyatasi (SRS)	1. Auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya 2. Auditorlar malakasini oshirish instituti (UPEB) 3. Auditorlarning Shved jamoasi
Rossiya	Buxgalteriya hisobotlarini RF qonunchiligiga mosligini mustaqil buxgalteriya ekspertizasi orqali aniqlash	RF prezidenti huzuridagi auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya, SALA MF va RF MF, Rossiya auditorlar palatasи	SALAK MF va RF MF oquv-metodik markazi
O'zbekiston	Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga mostigini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini va u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish	1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2. Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi 3. O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasи	1. Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi 2. O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasи

Manba: Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Dalillarni yig'ish va baholash - dalillar bu son ko'rsatkichlari bilan ifodalangan ma'lumotni belgilangan mezontarga mosligini aniqlash uchun auditor foydalanadigan manbalardir. Dalillar turli shaklda bo'lishi mumkin, jumladan mijozlarning og'zaki javoblari, kontraktlar, auditorning shaxsiy kuzatishlari. Muhimi audit oldidagi maqsadga erishish

uchun dalillar sifatli va yetarli darajada to'planishi shart bo'lib, bu auditning asosiy qismlardan hisoblanadi.

Yetarli bilimga ega vakolatli shaxs - auditor belgilangan mezonlarni to'g'ri tushunishi uchun yetarli bilimga ega, dalillarning shakli va miqdorini bilish uchun vakolatli ma'sul shaxs bo'lishi kerak. Shu bilan birga auditor mustaqil bo'lmog'i darkor.

Mutloq mustaqillikka erishish qiyin, albatta, lekin unga harakat qilinadi. Hatto auditorning xizmatlari tekshirilayotgan kompaniya tomonidan to'lanayotganiga qaramay, u to'la mustaqilligini saqlab qoladi va tekshirish natijalariga ishonch hosil qilishi mumkin. Lekin auditor shu kompaniyaning boshqaruv tizimiga kirma yoki shu kompaniyaning xizmatchisi bo'lsa - bu ichki audit bo'lib, mustaqillik chegaralangan bo'ladi.

Fikrlar berish - tekshirish natijalari auditorlik xulosalarida o'z aksini topadi. Xulosalar turlicha bo'lishi mumkin, lekin doimo ular foydalanuvchiga miqdoriy ma'lumot belgilangan mezonlarga qay darajada mos kelishini yoritib berishi kerak. Xulosalar shakli jihatidan ham farq qiladi, ya'ni moliyaviy hisobot bilan bog'liq bo'lgan texnik xulosalardan tortib, ma'lum shaxslar uchun tayyorlangan oddiy og'zaki xulosalargacha. Auditorlik xulosalarini tayyorlash bu tekshirish jarayonining so'nggi bosqichidir.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar audit nima degan savolga to'la javob beradi. Buni aniqroq ochib berish uchun quyidagi 2-jadvalda umumlashtirib ko'rsatish mumkin.

Auditning asosiy tushunchalari

Tushuncha	Mohiyati
Miqdoriy baholashga moyil ma'lumot	Auditning maqsadidan kelib chiqib tekshirish uchun olinadigan ma'lumot
Xo'jalik tizimi	Audit o'tkazish chegaralari
Dalillar yig'ish va baholash	Audit o'tkazish usullarini qo'llash va yetarli isbot olish
Etarli bilinga ega, vakolatli mustaqil shaxs	Tekshirish o'tkazayotgan shaxsning bilimi va o'z kasbi ustasi ekanligi
Fikrlar berish	Olingan natijalar haqida ma'lumot berish

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Keltirilgan ta'rif auditga berilgan umumiy ta'rif bo'lib, mulkning turli ko'rinishlari mavjud sharoitda auditning turlarini aniqroq o'rganib chiqish zarurligini uqtiradi.

Auditlik nazoratining quyidagi turlari farqlanadi: operatsion audit, moslik auditi va moliyaviy hisobot auditi.

Operatsion audit - iqtisodiy samaradorlik va uning mezoni bo'lgan to'la mehnat unumdarligiga baho berish maqsadida xo'jalik tizimi bo'g'inlari faoliyatini tekshirishni o'z ichiga oladi. Audit tugatilgandan so'ng boshqaruvchiga aksariyat hollarda xo'jalik muomalalarini takomillashtirish borasida yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Boshqaruv samaradorligi xo'jalik tizimining turlicha bo'lishiga bog'liqligi sababli aniq operatsion auditni ifodalash mushkul. Masalan, biron-bir tashkilotda qimmatli qog'ozlarni sotib olgandan ko'ra ko'chmas mulk xarid qilish samaraliroqligi aniqlanib, tegishli maslahatlar berilsa, boshqa korxonada umumiy mehnat unumdarligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, ishlatalmayotgan zahiralardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

Operatsion auditda tekshirish faqatgina buxgalteriya hisobi bilan chegaralanmaydi, balki boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish, komp yuter muomalalari algoritmini takomillashtirish, marketing va umuman auditoring mutaxassisligidan kelib chiqib, turlicha sohalarni qamrab olishi mumkin.

Operatsion auditning mushkulligi shundaki, uning ma'lumotlarini ob'ektiv baholash qiyin. Masalan, moliyaviy hisobot auditida hisobotni belgilangan buxgalteriya standartlariga mos ravishda tuzilganligini aniqlab baho berishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish bir muncha yengildir. Shuning uchun operatsion audit mohiyati jihatidan ko'proq ma'muriyat uchun maslahatlar berish, ya'ni konsaltingdan iborat, desa ham bo'ladi. Oxirgi yillar ichida bu audit turi rivojlangan mamlakatlarda ko'payib bormoqda.

Moslik auditi - yuqori boshqaruvi (ma'muriyati) tomonidan belgilangan ko'rsatma va qoidalarni xo'jalik tizimida bajarilishi darajasi ustidan o'tkaziladigan nazorat moslik auditining maqsadini tashkil qiladi. Masalan, boshqaruvechilar tomonidan o'rmatilgan, bajarilishi shart bo'lgan muolajalarga buxgalteriya xodimlari tomonidan amal qilinishi, moddiy boyliklarning saqlanishining ta'minlanishi va ularning sarflanishini belgilangan chegaralardan chiqmasligiga rioya qilish darajasi yoki kreditorlar va banklar bilan tuzilgan bitimlarga korxona tomonidan amal qilinishini nazorat qilish va boshqalar.

Byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar nazorat qilinganda ham asosan moslik auditni o'tkaziladi, chunki bunday tashkilotlarda bajarilishi lozim bo'lgan qoidalarni aniq ko'rsatiladi.

Moslik auditining natijalari auditni belgilagan bo'g'ini uchungina ma'lum qilinadi, negaki bu audit natijalari hisobotdan keng foydalanuvchilarga taalluqli bo'lmaydi. Ayrim hollarda bir tashkilot o'ziga bo'y sunishi kerak bo'lgan tashkilotni nazorat qilish uchun ham moslik auditini belgilashi mumkin. Masalan, hukumat tomonidan soliq to'lovchilarning deklaratsiyasini tekshirish uchun auditorlarni jaib qilish mumkin.

Moliyaviy hisobot auditi - bu auditning asosiy turi bo'lib, moliyaviy hisobot belgilangan mezonlar asosida tayyorlanganligini aniqlaydi. Belgilangan mezonlar bu asosan umumiyligida qabul qilingan buxgalteriya shartlaridir. Moliyaviy hisobotga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va shu hisobotlarga taalluqli bo'lgan tushuntirishlar kirdi.

Moliyaviy hisobot auditı natijalaridan turli guruhlar, turli maqsadlar uchun foydalanadi. Albatta, har bir foydalanuvchi o'zi audit o'tkazgandan ko'ra iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan bitta auditor hamma uchun xulosa tayyorlab bergenligi ma'qul. Agar foydalanuvchini umumiy audit natijalari qoniqtirmasa, u qo'shimcha ma'lumotlar olishi mumkin. Masalan, korxonaga ssuda berish yoki bermaslik masalasini hal qilish uchun bankka umumiy audit natijalari yetarli bo'lsa, ikkita korxonaning qo'shilishi masalasini hal qilish uchun kengroq ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday hollarda korporatsiyalar qo'shimcha audit o'tkazish uchun shaxsiy auditorlardan foydalanishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda auditorlar asosan to'rtta guruhga ajratiladi. Masalan, Amerika qo'shma Shtatlarida bularga bosh hisob xizmati auditorlari, soliq inspektorlari, ichki xo'jalik auditorlari va xolis buxgalterlar kiradi.

Bosh hisob xizmati auditorlari - federal hukumat xizmatlari tarmog'iga kiradi va faqat kongress oldida hisobot berib, kongressning auditorlik vazifalarini bajaradi, mohiyati jihatidan to'la moslik auditı funktsiyalari asosida ish yuritadi. Bundan tashqari federal hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan turli rejalarining unumдорligi va samaradorligini baholaydi.

Soliq inspektorlari - federal soliq qonunlarining bajarilishini nazorat qilishadi. Audit qilinadigan soliq tushumlari oddiy, ya'ni jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlardan tortib, murakkab, ya'ni yuridik shaxslarning, jumladan yirik kompaniyalarining foydalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday auditorlarga soliq qonunchisigini mukammal bilish talab qilinadi.

Ichki xo'jalik auditorlari - ichki audit korxona, birlashma yoki tashkilotning boshqaruvi tizimiga kirib, menejerlar uchun nazorat funktsiyalarini bajarishda yordam beradi. Ichki xo'jalik auditorlarining malaka darajasi shu korxonaning boshqaruvi tizimi talablariga binoan belgilanib, mustaqilligi chegaralangan.

Bu toifadagi audit korxona ma'muriyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab, buxgalteriya xizmati va boshqa funktsional tizimlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. So'nggi davrlarda ichki xo'jalik auditorlari

operatsion audit bilan shug'ullanib, o'z bilimlarini komp yuterlar tizimini o'rghanish borasida oshirishmoqda.

Xolis buxgalterlar - auditorlik firmalarning asosiy vazifasi bu ochiq chop etiladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirish va to'g'riligini tasdiqlashdir. Bunday hisobotlardan yuqorida ta'kidlanganidek, har xil toifadagi guruhlar foydalanadi. Shu sababli hozirgi kunda iqtisodiyotda «Auditdan o'tgan moliyaviy hisobot» degan jumla keng ishlatalmoqda. Bu, o'z navbatida, «Xolis auditor» degan iboraning ishlatalishini taqozo etdi.

3-jadval

Auditlik nazoratining turlari va auditorlarning toifalari.

Audit	Auditor	Misol
Boshqaruv auditi	Bosh hisob xizmati auditorlari ichki xo'jalik auditorlari	Umumiy mehnat unumdonligiga tashkil qilingan hisoblash markazi faoliyatining ta'siri
Moslik auditi	Davlat byudjeti tizimi auditorlari, soliq inspektorlari, ichki xo'jalik auditorlari, mustaqil auditorlik firmalari	Kreditorlar va banklar bilan tuzilgan bitimlarga amal qilinishi
Moliyaviy audit	Mustaqil auditorlik firmalari, xolis auditorlar	Moliyaviy hisobotning yillik audi

Manba: Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Xolis buxgalterlarni tayyorlash va bu nomga sazovor bo'lish yo'llari turli mamlakatlarda turlicha, lekin har birida ham «buxgalteriya hisobi» bo'yicha maxsus diplom, buxgalteriya sohasida ma'lum ish staji va maxsus imtihonlarni topshirish talab qilinadi. Ayrim davlatlarda, masalan, xolis auditor bo'lish uchun xolis buxgalterlar qayta tayyorlanib, audit faoliyatini bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomalar beriladi.


Audit faoliyatini olib borish uchun ruxsatnomalar berish ham turlicha amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda bu faoliyat davlat tomonidan amalga oshirilsa, boshqalarida kasbiy uyushmalari ruxsatnomalar beradi. O'zbekiston

Respublikasida auditorlik faoliyatini olib borish uchun ruxsatnomalar berish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shunday qilib, auditorlar va auditlik nazorati haqidagi tushunchalarni umumlashtirib quyidagi 3-jadvalda ifodalashga harakat qilamiz. Shuni nazarda tutish kerakki, operatsion auditda mezonlarni belgilash, moliyaviy audit yoki moslik auditiga nisbatan bir muncha murakkabdir.

1.2. Auditning tashkiliy asoslari va standartlari

Audit standartlari - bu umumi materiallar bo'lib, ular auditorlarga tugallangan moliyaviy hisobotning auditini o'tkazishda ko'maklashadi. Standartlarda mustaqillik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifat belgilari, auditorlik xulosalari va tasdiqnomalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan.



I-rasm. Auditning umumiy qabul qilingan standartlari

Manba: Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

To'la boshqaruvchi materiallar qatoriga Amerika xolis buxgalterlar instituti tomonidan 1947 yilda tayyorlangan o'nta umumiy qabul qilingan standartlar kiradi (I-rasm).

Umumiy standartlar.

1. Tekshiruv maxsus texnik tayyorgarlik va auditorlik kasbiy sifatiga ega shaxs yoki shaxslar tomonidan bajarilishi kerak.
2. Topshiriq bilan bog'liq bo'lgan har qanday savolda auditor yoki auditorlar mustaqilligini saqlab qolishi kerak.
3. Tekshiruv o'tkazish va hulosa berishda kasbiy sinchkovlikni namoyon etishi zarur.

Ob'ektda ishlash standartlarilar.

1. Ish puxta rejalashtirilishi va yordamchilar mavjud bo'lsa, ular ustidan to'la nazorat o'rnatilishi kerak.
2. Tekshirish hajmini belgilashda, vaqt chegaralarini aniqlashda va audit rejasini tuzish uchun auditor ichki nazorat tizimini to'la o'rganib chiqishi zarur.

Auditdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha fikr berish uchun tekshirish, kuzatish, so'roqlar o'tkazish yo'li bilan hujjatlar to'plab, zaruriy asos yig'ish kerak.

Hulosalar standarti.

1. Hulosada moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga amal qilingan holda tuzilganligi to'g'risidagi ma'lumot bo'lishi kerak.
2. Hulosada bu printsiplardan chetga chiqish sharoitlari belgilanishi va tartibi aniqlanishi kerak.
3. Hulosada moliyaviy hisobotdagi ma'lumotni xatolardan xoli deb qarash. agar xatolar mavjud bo'lsa, ularga umumiy sharh berish kerak.

Hulosa moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikrlar majmuidan iborat bo'lishi yoki umuman fikr bildirish mumkin emasligini ma'lum qilish kerak. Agar fikr bildirish mumkin bo'limasa, uning sabablari keltirilishi shart. Hulosa auditorlik tekshiruvchi xarakterini ham ifodalab, auditorlar javobgarligi darajasi haqida ham ma'lumotlarni berishi zarur.

Etarli tayyogarlik va tajriba. Auditor oldiga qo'yilgan vazifani bajarishi uchun yetarli darajada tajribaga, buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha kvalifikatsiya darajasiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga o'z kasbi bo'yicha doimo bilim darajasini yuqori bo'lishiga intilishi zarur.

Holislik. Albatta, bozor iqtisodi sharoitida xolislik bo'lmasa, hech qanday auditning keragi bo'lmaydi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar tekshiruv har qanday ma'muriy-buyruqbozlik illatlaridan xoli bo'lgani uchungina audit xulosasiga ishonib ish ko'radilar. Kasbiy etik kodeksda ham xolislikning zarurligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Zarur kasbiy sinchkovlik. Auditor bajarayotgan ishning sifati uchun doimo javobgardir. Zarur sinchkovlik bu ish hujjatlarini to'liq ko'rikdan o'tkazish, yig'ilgan isbotlarning to'laligi va oxiriga yetkazilganligi, auditorlik hulosasining haqqoniyligidan iboratdir. Lekin auditordan mutloq to'g'ri bo'lgan yechimlarni hech kim talab qilmaydi, chunki audit tavakkalchilik asosida o'tkaziladi.

To'g'ri rejalahtirish va nazorat. O'tkazilgan auditga to'la kafolat berish uchun, u avvalambor to'g'ri rejalahtirilishi kerak. Bundan tashqari katta texnik ish hajmini yordamchilar bajarishi sababli ular ustidan yetarli darajada nazorat o'rnatilishi shart.

Ichki nazorat tizimini kerakli darajada bilish. Audit nazariyasи va amaliyotida keng qo'llaniladigan asoslardan biri - bu yetarli isbot va ma'lumotlar toplash uchun ichki nazorat tizimi ishidan keng foydalanishdir. Shu sababli ichki nazorat tizimini to'la o'rganish, uning samaradorligini aniqlash va ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirib ko'resh talab qilinadi. Ayrim hollarda ichki nazorat tizimi shu qadar haqiqatdan uzoq bo'lgan ma'lumot berishi mumkinki, bu samarali audit o'tkazishga to'siq bo'ladi.

Etarli darajada isbotlar va ma'lumotlar yig'ish. Har qanday tekshirish va uning hulosasi isbotlar va ma'lumotlarga asoslanadi. Asoslar qanchalik ko'p bo'lsa, hulosa shu darajada kafolatlanadi. Audit o'tkazish metodikasida asosan isbot va ma'lumotlar yig'ish ustida fikrlar boradi. Bir tomonidan bu ish auditorning tajribasi va bilimiga ham bog'liqdир.

Natijalarни ma'lum qilish standartlari. Auditor hulosasida tekshirilgan moliyaviy hisobot to'la umumiyl qabul qilingan buxgalteriya standartlariga mos holda tuzilganligi ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik firmalari uchun sifat nazorati firma mijozlar oldidagi o'z kasbiy majburiyatlarini to'liq bajarishi kafolatini ta'minlash usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu auditorlik firmalarining tashkiliy tizimi

va ular o'matadigan muolajalarga taalluqli. Sifat nazorati umumiy qabul qilingan audit standartlari bilan uzviy bog'liq, ammo ulardan farq qiladi. Auditorlik firmasi har bir audit o'tkazishda umumiy qabul qilingan audit standartlariga rioya qilinganligini kafolatlashi kerak. Sifat nazorati - bu auditorlik firmasi bir auditga joriy qilish kerak bo'lgan standartlar chegarasidan chiqmaslikka yordam beruvchi muolajalardir. Bundan kelib chiqib, sifat nazorati jami auditorlik firmasi uchun kiritiladi, umumiy audit standartlari esa aniq ish hajmiga qo'llash uchun mo'ljallangandir.

Sifat nazorati elementlari. Auditorlik firmalari uchun maxsus sifat nazorati muolajalari belgilanmagan. Qanday muolajalar belgilash lrimaning hajmi, ofislarining soni va amaliyot ko'rinishidan ketib chiqqan holda belgilanadi.

Xalqaro amaliyot tajribalari va Amerika Qo'shma Shtatlari xolis buxgalterlar instituti tomonidan tashkil etilgan sifat nazorati standartlari qo'mitasi ishlab chiqqan sifat nazorati elementlariga asoslangan holda namunaviy sifat nazorati standartlarini keltirish mumkin. (4-jadval)

4-jadval

Sifat nazorati standartlari

Standart 1	Asosiy talablar 2	Namunaviy muolaja 3
Mustaqillik	Auditda qatnashayotgan har bir xodim kasbiy etik kodeksida keltirilgan mustaqillik talablariga rioya qilishi kerak	Har bir auditor va auditorlik firmasiga ishga olinayotgan audit xodimi har yili «mustaqillik anketasi»ning savollariga javob berishi kerak
Xodimlarni muayyan ishga belgilash	Auditda ishtiroy etayotgan har bir xodim yetarli texnik tayyorgartlik va tajribaga ega bo'lishi kerak	Har bir xodim bosh auditor tomonidan belgilanadi va bu ish 2 oy oldin amalga oshiriladi
Maslahat berish	Bosh auditor va auditda qatnashayotgan xodimlar o'rtasida texnik muammolar vujudga kelsa, masalani malakali shaxs hal qiladi	Auditorlik firmasining direktori bilan maslahat qilish mumkin va u har bir ishni nihoyasidan oldin ko'rib chiqishi kerak
Nazorat	Birlamchi tekshirishlar davomida sifatga kafolat	Audit dasturi firma sheriklari tomonidan ko'rib chiqilishi va

	beruvchi siyosatni har bir bo'g'inda olib borish kerak	tasdiqlanishi kerak
Ishga qabul qilish	Jami yangi xodimlar o'z ishini sifatlari bajarishi uchun yuqori malakaga ega bo'lishi kerak	Har bir nomzod katta auditorlar tomonidan o'rgatilishi va kafolatlanishi kerak
Kasb mahoratini oshirish	Jami xodimlar o'z ishini kompyuterda bajarishi uchun mahoratini oshirishi kerak	Har bir mutaxassis bir yilda kamida 80 soat malakasini oshirish bo'yicha ta'limdan o'tishi zarur
Lavozim ko'tarilishi	Lavozimga tayinlash siyosati, xodim yangi vazifasini bajarish uchun yetarli mala-kaga egaligini kafolatlashi kerak	Har bir mutaxassis o'tkazilgan tekshirishlardan so'ng baholanishi zarur va bu natija tekshirish hisobotida keltirilishi kerak
Mijozni tanlash	Jami mijozlar kamida yomon ma'muriyat bilan ishslashdek ehtimol bilan baholanishi kerak	Har bir tekshirishni boshlashdan avval tekshirilayotgan ma'muriyat bo'yicha mijozni baholash blanki tuzishi kerak
Inspektsiyalash	Yuqorida keltirilgan standartlarni bajarilishini kafolatlovchi siyosat yoki muolaja bo'lishi kerak	Auditorlik firmasida sifat nazorati standartlarini bajarilayotganligini tekshiruvchi mutaxassis bo'lishi kerak va u har yili bu standartlarni o'z firmasi tomonidan bajarilishini tekshirishi zarur.

Manba: AXS asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvalda har bir element uchun qisqacha talab va sifat nazorati amali misol tariqasida keltirilgan. Shuni qayd etish kerakki, auditorlik firmalarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati standartlariga to'la amal qilinishini ta'minlash uchun ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun ikki sektsiya tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Qimmatbaho qog'ozlar va birja muomalalari bo'yicha audit sektsiyasi.

2. Kompaniyalarning auditni sektsiyasi.

Bunday sektsiyalar o'z-o'zini boshqarishda va nazorat qilishda katta rol o'ynaydi. Sektsiyalarga a'zo bo'lish uchun auditorlik firmalariga, albatta, ma'lum talablar qo'yiladi va bunday sektsiyaga a'zo auditorlik

firmalarining mavqei ham oshib boradi. Auditorlik firmalari sektsiyalar ichida bir-birini tekshirish huquqiga ega bo'ladi va faqat tekshiruvdan muvaffaqiyatlari chiqqan firma sektsiya a'zoligida qolishi mumkin.

Bunday tekshiruvlar firmaga ham auditorlarga ham foydali bo'lib, ularga bo'lgan ishonchni oshirib boradi.

Quyida sektsiyalarga a'zo bo'lish uchun zaruriy talablarni keltirilgan:

Sifat nazoratini amalga oshirish. Auditorlik firmasi keltirilgan sifat nazorati standartlarini qabul qilishi va unga amal qilishi kerak.

Sheriklarni almashtirib borish. Agarda auditorlik firmasidagi sherik tekshirishlarga besh yil uzluksiz boshchilik qilgan bo'lsa, yangi sherik belgilanishi zarur va eski sherik ikki yilgacha tekshirishlarga javobgar bo'la olmaydi.

Uzluksiz o'quv. Har bir mutaxassis uch yilda 240 soat kasbiy tayyorlarlikdan o'tishi shart.

Majburiy tekshiruv. Auditorlik va buxgalterlik ishlari boshqa teng auditorlik firmasi tomonidan tekshirib turilishi kerak.

Kelishmovchiliklarni ma'lum qilish. Auditor doimo audit qo'mitasiga yoki direktorlar kengashiga ma'muriyat bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni bildirib turishi kerak.

Yuqorida keltirilgan fikirlarni umumlashtirib quyidagicha hulosa qilish mumkin. Rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy nazorat tizimini tahlil qilish asosida O'zbekiston iqtisodining o'ziga xos rivojlanish usullarini inobatga olib, auditning mohiyati, xususiyatlari va amal qilish sohasini belgilash mumkin va bu infratuzilmaning tashkiliy asoslari natqaro standartlarga to'la mos keladi.

Mohiyati jihatdan audit mustaqil nazorat shakli ekanligini hisobga olsak, bu faoliyatning sifat nazorati masalasi vujudga keladi. Tahlil matjalari shuni ko'rsatadiki:

birinchidan, auditorlik sub'ektlari umumiyligida qabul qilingan audit standartlariga rioya qilinayotganini kafolatlashi kerak;

ikkinchidan, sifat nazorati har bir audit uchun va butun auditorlik firmasiga joriy qilinishi kerak;

uchinchidan, qanday amallarni qo'llash kerakligi firmanın hajmidan kelib chiqadi;

to'rtinchidan, auditorlik firmalari tizimida o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmi yaratilishi kerak, shu sababli firma o'z siyosati va amallarini ishlab chiqishi uchun umumiylashtirishni yaratishi zarur bo'ladi.

Audit xalqaro standartlarida sifat nazorati element uchun qisqa talablar ishlab chiqilgan va bu talablarga rivoja qilish uchun namunaviy amallar keltirilgan.

Auditorlik sub`ektlarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati standartlariga to`la amal qilinishini ta`minlash uchun ularni toifalarga ajratilgan. Keltirilgan muammolar bozor iqtisodi sharoitida mulkchilikning turli xil shakllari mavjud bo`lgan holatda nazoratni to`g`ri tashkil qilish uchun o'z yechimini topishi, keltirilgan takliflarga amal qilinishi esa bu yechimni hal qilishda muhim omil bo'ladi.

1. 3. Moliyaviy hisobot va xalqaro audit standartlarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari

Iqtisodiyot kengayib moliyaviy tizim tabora chegaralarni tan olmay borayotgan davirda xalqaro investitsiya larning mul tiplekativ ta`siri taraqiyotning asosiy kuchiga aylanmoqda. Moliya – valyuta va fond bozorlarini rivojlanishi moliyaviy hisobot halqaro standartlarini takomillashtirishni majbur etmoqda.

Audit hizmati jamiyat uchun muhim iqtisodiy dastaklardan hisoblanganligi sababli individual auditor va auditorlik firmalari uchun ma'lum bir chekllovlar mavjud. Avval bu professional buxgalterlar uchun ishlab chiqilgan talablar edi. Aktsiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining rivojlanishi buxgalter kasbiga masuliyatni oshirdi va bu talablarni qonunlashtirishni taqazo etdi.

Transmilliy kompaniyalarni ko'payishi va iqtisodiyot globallashuviga hisob tizimidan nafaqat qiyoslanuvchi ma'lumotlar, balki sifatli va turli davlatlar hisob qonunchiligiga mos keluvchi standartlarni yaratish zaruratinu vujudga keltirdi. Xalqaro amaliyotda qyllaniladigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS/IFRS) MHXS bo'yicha kengash tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu standartlarni amaliyotga keng joriy

etilishida Qimmatli qog'ozlar komisiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot (IOSCO) va bank faoliyati nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining o'rni katta.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) (Illova -2) – buxgalter kasbi vakillarining butunjahon professional tashkilotidir. 1977 yilda ta'sis etilgan bo'lib, uning bosh vazifasi quyidagilar orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qilishdir:

yuqori sifatlari xalqaro standartlarni ishlab chiqish, qabul qilish va joriy etishga o'z hissasini qo'shish va yo'riqnomalar berish;

kuchli professional buxgalterlik tashkilotlari va auditorlik tashkilotlarining rivojlanishi, hamda professional buxgalterlar tomonidan yuqori sifatlari amaliyotlar qo'llanilishiga o'z hissasini qo'shish;

butun jahonda professional buxgalterlarning mavqeいi yuksalishiga ko'maklashish;

buxgalterlik kasbi sohasida masalalar yuzaga kelganda jamiyat manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash.

XBF jahoning 127 mamlakatida 167 haqiqiy va uyushgan a'zolarga ega bo'lib, o'z saflarida davlat sektori, sanoat, savdo, davlat sektori va ta'lim muassasalarida band bo'lgan ikki yarim million nafar ommaviy amaliyotdagi buxgalterni birlashtirgan. Jahonda boshqa biron-bir buxgalterlar tashkiloti xalqaro miqyosda bunday mavqega ega emas, XBF singari xalqaro darajada keng qo'llab-quvvatlanuvchi professional tashkilotlar esa sanoqlidir.

XBF boshqaruв organlari, uning xodimlari va volontyorlari o'z faoliyatida vijdonlilik, shaffoflik, tajribalilik singari qadriyatlarga amal qiladilar. XBF Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash tomonidan *chiqarilgan Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksini* (IFAS) tarqatish yo'li bilan yuqorida zikr etilgan qadriyatlarga sodiqlikni barcha professional buxgalterlar o'rtaida kuchaytirishga intiladi.

Xalqaro standartlarni joriy etilishidan investrlar, kreditorlar qonunchilik organlari va auditorlik firmalari birdek manfaatdordir. Shu sababli MXXSga o'tish jarvyoni jaxon amaliyotida taboro oshib bormoqla. Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan (US GAAP)

hisob standartlari va MHXS konvergentsiyasi faol amalga oshirilmoqda. Xaqiqada xozirgi kuda barcha sanoati rivojlangan mamlakatlar MHXSlarni e'tirof etgan holda ulardan ixtiyoriy foydalananadi

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 2015 yil 24 apreldagi PF - 4720son "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruvi usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon bilan respublikadagi aktsiyadorlik jamiyatlar o'z moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga asoslangan holda tuzishi belgilab qo'yilgan. Xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etilishi strategik vazivalarni bajarishdagi katta qadam hisoblanadi. Korxona boshqaruvidagi aktsiyadorlarni rolini kuchaytirish boshqaruvning asosiy dastagi bo'lgan MHXS larni tan olish va uni keng joriy etishni taqozo etadi. Bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" Qonunning yangi tahriri 22-moddasida "Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari"da belgilanadi deb qayd etilishi moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini mamlakatimizda joriy etilishi yuzasidan qo'yilgan qonuniy asososning birlamchi bosqichi deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagagi "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 4611 sonli Qarori moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini moliviy hisobotdan foydalanuvchilarning strategik yo'nalishlarini, shu jumladan investorlarning ham, shuningdek xalqaro printsiplarga muvofiq moliyaviy axborotlarni solishtirilishi ta'minlanishini hisobga olgan holda keng joriy etishga yo'naltirilgan.

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu-

auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

“O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yil PQ-3946 son qaririda qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruvin sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilayotgani qayd etilgan, xususan:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud chekllovlar va tanlovlardan o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan, narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralarini cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xattiharakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti.

Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib shulardan asaosiysi 2020 yil 1yanvardan O'zbekiston Respublikasida barcha auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshirishi belgilandi. Ushbu qarordagi ko'rsatmalar xalqaro darajada differentsiyatsiyalashgan investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga kirishi uchun asosiy oimillardan biri hisoblanadi.

Katta investorlar xalqaro differentsiyatsiyalashgan investitsiyalar istiqbollarini yuqori baholashmoqda. Shu sababli moliyaviy hisobotlarni MHXS bo'yicha tuzishga intilishadi. Bu esa, hisobotga ishonchni yuqori bo'lishi, faqat mustaqil dunyoda tan olingen audit standartlari asosida o'tkazilishini majbur qiladi. Moliviy hisobotning xalqaro standatrlarining ishlab chiqilishi va dunyo amaliyotida qo'llanilishi audit xalqaro standartlarini yaratilishini taqazo etdi. Xalqaro auditorlik tashkilotlari umumiylis hisob va audit qoidalarini qo'llanilishidan birdek mansaattordirlar. MHXS va AXS ni qo'llanilishining foydali taraflari geografik differentsiyatsiyalashgan transmilliy korporatsiyalarni tekshirishda bilinadi, ya'ni turli davlatlarda joylashgan buday koipaniyalarni auditini o'tkazishda ma'lumot almashishi samarali bo'ladi.

MHXS va AXS buhgalteriya sohasining turli yo'nalishlarini qamrab olishiga qaramasdan Buxgalterlar xalqaro federatsiyasi bu xujjalarni ishlab chiqishda termenlar uyg'unligini saqlab qolgan. Bundan tashqari AXS da MHXS va unga taluqli boshqa hujjatlarga to'g'ridan to'g'ri izoxlar keltirilgan. Audit o'tkazishda MHXS moliyaviy hisobotni umumqabul qilingan xalqaro amaliyotdagi me'yorlarga mos kelishini tasdiqlovchi me'zon hisoblanadi. Bu moliyaviy hisobot elementlarini aniqlash, ularni tan olish me'zonlari va baholash usullarini belgilash, ma'lumotlarni ohib berishga ta'luqli qoidalardir. Shuningdek, MHXSda moliyaviy hisobot ma'lumotlari xaqqoniyligini belgilovchi asosiy yo'il qo'yilishi mumkin bo'lgan holatlar va sifat mezonlari keltirilgan.


1.4. Audit xalqaro standartlari to‘plami tuzilmasi va standartlar klassifikatsiyasi

Audit xalqaro standartlar to‘plami audit sohasining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi (Handbook of International Auditing, and Ethics Pronouncements). Amaldagi To‘plamda nafaqat Auditning xalqaro standartlari (International Auditing Standards, ISA ; AXS), balki sifat nazorati, moliyaviy hisobotning umumiy nazorati va auditga servis hizmatlari ko‘rsatish audit standartlari chegarasidan chiqarib alohida ko‘rsatilgan. Bunday standartlar Umumiylar nazorat vazifalari (International Standards on Review Engagements, ISRE), Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlavchi vazifalar (International Standards on Assurance Engagements, ISAE) va Auditga servis hizmatlari ko‘rsatish (International Standards on Related Services, ISRS) xalqaro standartlari guruhlariga kiradi.

Doino o‘zgarishda bo‘lувчи iqtisodiy sharoitda audit xalqaro standartlarining to‘plami ham takomillashib boradi. Masalan, raqamli iqtisodiyotni rivojlanib borishi komp yutrlar sharoitida audit o‘tkashi yo‘riqnomalarini ham o‘zgartirishni taqazo etmoqda. Bundan tashqari to‘plam tuzilmasi Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga mos kelishi uchun MHXS ga ham hisobot haqqoniylini tasdiqlovchi tamoyillar standarti kiritildi (International Framework for Assurance Engagements, ISQC) (rasm-2).

2005 yilda AXS Sifat nazorati xalqaro standartlari (International Standards on Quality Control , ISQC) bilan to‘ldirildi.

Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi tomonidan **Audit yuzasidan xalqaro talablarga** (Sifat nazorati, audit, ko‘rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari) tushunishni yengillashtirish maqsadida muqaddima chiqarilgan.



2-rasm. Audit yuzasidan xalqaro talablar tuzilmasi

Ushbu kengash butun jahonda umumqabul qilinadigan xalqaro standartlar va boshqa qoidalar to'plamini ishlab chiqish maqsadi faoliyat olib boardi. Kengashning a'zolari jamiyatning umumiyl manfaatlari yo'llida

keng va butun dunyoni qamrab olgan buxgalter kasbi doirasida harakat qiladi.

AXSni joriy etish tashabbuslari. XBF xalqaro darajada e'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqish va joriy etish jamiyat manfaatlarini himoya qilishning asosiy usulidir, degan qoidaga uzoq yillardan beri amal qilib keladi. Bunday choralar investorlar va boshqa manfaatdor taraflar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun asos bo'ladigan ma'lumotlarning ishonechhlilik darajasini oshirish imkonini beradi.

XBF standartlarni joriy etadigan quyidagi to'rtta mustaqil kengash faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan tuzilmalar va jarayonlarni ta'minlaydi: Xalqaro audit va ishonech bildirish standartlari Kengashi (IAASB), Buxgalterlik ta'limning xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IAESB), Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash (IESBA) va Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IPSASB). Ushbu standartlarni o'rnatadigan mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarida yuqori sifatli standartlarni ochiq va samarali ishlab chiqilishini ta'minlaydigan, aniq belgilangan, tegishli jarayonga rioya qiladilar. Bu standartlarni belgilash bo'yicha mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan va a'zolari keng jamoatchilik vakillari hisoblanadigan Maslahat guruhlariga egadir.

Mazkur kengashlar quyidagi hujjatlarni chop etadilar

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi
- Audit yuzasidan xalqaro talablar (ko'rib chiqish, ishonech bildirish bo'yicha boshqa vazifalar va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari)
- Sifat nazorati bo'yicha xalqaro standart
- Ta'limning xalqaro standartlari
- Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari

IAASB, IAESB, IESBA va IPSASB faoliyati Jamiyat manfaatlari nazorati Kengashi tomonidan nazorat qilinadi.

Muvofiqlik masalalari bo'yicha maslahat guruhi (CAP) XBF a'zolari XBF va Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash tomonidan chop etilgan standartlarni qanday qo'llayotganlari ustidan

kuzatishni amalga oshiradi. XBF a'zolarining majburiyatları XBF a'zolik burchlari bo'yicha bayonotlarda sanab o'tilgan.

Boshqa tashabbuslar

XBF tegishli ko'rsatmalarni ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bo'lgan resurslarni tarqatishga ko'maklashadi. Shuningdek u kichik va o'rta korxonalar hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP) ga, shuningdek jahon iqtisodiyotida muhim rol o'yinaydigan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lgan masalalarni yechish bilan shug'ullanadigan guruhlarni ham tashkil etgan.

Professional buxgalterlar Qo'mitasi

Sohada ishlayotgan professional buxgalterlar Qo'mitasi (PAIB) tijorat, sanoat, moliyaviy xizmatlar, ta'lim, davlat va notijorat sektorlarida ishlaydigan butun jahon professional buxgalterlari va XBFning a'zolariga xizmat ko'rsatadi. Uning maqsadlari tashkilotlar va ularning hissadorlari uchun qiyomat yaratish, saqlash va hisobot berishda professional buxgalterlarning muhim rosi to'g'risida habardorlikni oshirish yo'li bilan sohada ishlayotgan professional buxgalterlarning qadrini ko'tarish va hissa qo'shish; a'zo tashkilotlarga ularning a'zolari ushbu rollarni bajarishi uchun ushbu a'zolarning kompetentligini oshirishda ko'maklashishdir. Ushbu maqsadlarga axborot almashinuvini ilgari surish va yaxshi amaliyotlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish orqali erishitadi .

Kichik va o'rta biznes amaliyoti bo'yicha Qo'mita

Qo'mita xalqaro standartlarni ishlab chiquvchilar ishiga kichik va o'rta biznes (KO'B) hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar(KO'BBA) ning nuqtai nazaridan bevosita hissa qo'shadi va ishlab chiqilgan standartlar bunday KO'B/ KO'BBA uchun o'rinli va mutanosib bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek Qo'mita KO'BBAni amaliy qo'llab-quvvatlashni, shu jumladan xalqaro standartlarni amalga samarali joriy etish va amaliy menejment singari mavzular bo'yicha qo'llanmalar va onlays-resurslarni ishlab chiqish orqali ta'minlaydi. Qo'mita yangi masalalarni o'z vaqtida hal qilish, ushbu sektorning muhimligi va qadriyati to'g'risida xabardorlikni oshirish, va bu sohadagi buxgalter-amaliyotchilarning talablariga o'z vaqtida javob

berishni ta'minlash maqsadida kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar forumi kabi axborot tarqatish ishlarini har yili tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Professional buxgalterlik tashkilotini rivojlantirish bo'yicha qo'mita

Qo'mitaning e'tibori rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchli professional buxgalterlik tashkilotlarining (PAO) rivojlanishida ular duch keladigan muammolarni yechishga qaratilgan. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi buxgalteriya hisobi to'g'risida xabardorlikni oshirishni ilgari suradigan, rasmiy kasb ehtiyojlariga e'tiborni qaratadigan, va rasmiy kasb olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy foydani ko'rsata oladigan shaxslarni birlashtiradi.

Transmilliy auditorlar qo'mitasi

Qo'mita Firmalar forumi (FoF)ning ijrochi organi sifatida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu forum transmilliy auditlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlari (firmalari) xalqaro tarmoqlarining uyushmasidir. Qo'mita Forum va XBF o'rtasida rasmiy aloqalarni ta'minlaydi va Forum a'zolari xalqaro audit amaliyotida yuqori sifatli standartlarga riosa etishini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshqa resurslar

- XBF ko'p sonli hujjatlar va materiallarni chop etadi. Mavjud bo'lgan to'plamlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish bo'yicha boshqa xizmatlar hamda turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to'plami
 - Ta'limming xalqaro standartlari to'plami
 - Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi
 - Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari to'plami

Shuningdek XBF standartlarni qabul qilish va qo'llashga doir yordamchi materiallar, muhokama uchun hujjat loyihalari, maslahat hujjatlari, axborotnomalar va elektron yangiliklarni ham chop etadi. Mazkur ma'lumotlarning aksariyati bilan XBF saytida bepul tanishish mumkin. To'plamlarning bosma nusxalarini sotib olish mumkin.

Auditorlik huquqlari va tarjimalar.

XBF tomonidan nashr etilgan materiallarga avtorlik huquqi yuzasidan XBFning siyosati uning Siyosat bayonoti “Xalqaro Buxgalterlar Federatsiya tomonidan chiqarilgan nashrlarni ko‘paytirish, yoki tarjima qilish va ko‘paytirish bo‘yicha siyosat”da belgilangan.

Audit halqaro standartlarini guruhlashtirish (7 ta guruh)

- AXS 100-199 “Kirish jabhalari” - Umumiy qoidalar, auditni stadartlashtirish va AXSn ni qollash tartibini qamrab olgan.
- AXS 200-299 “Umumiy tamoyillar va majburiyatlar”- Auditorlik tekshiruvga qoyiladigan asosiy talablar keltirilgan.
- AXS 300-499 “Riskni baholash va risk yuzasidan amallar” – Auditorlik riskni baholash tartibi va ushbu hisoblangan risk yuzasidan auditor bajarishi lozim bolgan amallar keltirilgan.
- AXS 500-599 “ Auditlik dalillari”- Tekshirilayotgan korxona foliyatining barcha jabhalari boyicha auditorlik ashyoviy dalilarini yig’ish va ularni qayta ishlash tartibi keltirilgan.
- AXS 600-699 “ Uchinchi shaxs hizmatidan foydalanish” - Audit jarayonida boshqa shaxslar hizmatidan foydalaniyganda ularga qoyiladigan talablar va tekshirish natijalarini umumlashtirish qoidalari aks ettirilgan.
- AXS 700-799 “ Auditorlik hulasalari va hisobotlar taylorlash” - Tekshirish yakunlangandan song auditor amalga oshirishi lozim bolgan amallar va auditorlik hulosasini rasmiylashtirish tartibi keltirilgan.
- AXS 800-899 “ Maxsus jabhalar” - Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan talablar va ularning hisobotini rasmiylashtirish tartibi keltirilgan.

Audit xalqaro standartlarini guruhlashtirish (7ta gurux) (rasm-3)

XBF ingliz tili ona tili bo‘limgan mamlakatlardagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydigan tomonlar va ulardan foydalanuvchilar,

auditorlar, tartibga soluvchi organlar, yuristlar, ta'lim sohasi ishchilari, talabalar, va boshqa manfaatdor tomonlar standartlar bilan o'z ona tilida tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimligini tan oladi.

XBFning xalqaro standartlarini (yakuniy shaklda) tarjima qilish va ko'paytirish bo'yicha siyosati uning Siyosat bayonoti "Xalqaro Buxgalterlar Federatsiya tomonidan chiqarilgan standartlarni ko'paytirish, yoki tarjima qilish va ko'paytirish bo'yicha siyosat"da belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yil №PQ 3946 qaririda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi tarkibida to'rtta shtat birligidan iborat professional tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish bo'limi tashkil etilishi belgilangan.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining veb-saytida e'lon qilinishi qayd etilgan.

5-jadval

Audit xalqaro standartlari klassifikatsiyasi

No	SIFAT NAZORATI, AUDIT, UMUMIY NAZORAT, BOSHQA ISHONCH BILDIRISH VA KO'MAKLASHUVCHI XIZMATLARNING XALQARO STANDARTLARI TO'PLAMI
	Professional buxgalterlarning ahloq kodeksi
	Terminlar golossariysi
	Sifat nazoratining xalqaro standartlari (ISQCs)
1	Tarihiy moliyaviy ma'lumotlar auditi, umumiylar nazorati va undagi ma'lumotlarni tasdiqlash yuzasidan o'tkaziladigan boshqa vazifalar hamda ko'maklashuvchi hizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlari sifati nazorati
	Asosiy tamoyillar (FRAMEWORK)
	Ma'lumotlar xaqiqiyligini tasdiqlovchi vazifalarning asosiy xalqaro

	tamoyillari
	Tarixiy moliyaviy ma'lumotlar xaqqoniyligini tasdiqlash bo'yicha audit va umumiy nazorat (Audit and review of historical financial information)
100-999	AXS (ISAs)
100-199	Kirish jabhalari (Introductory matters)
200-299	Umumiy tamoyil va majburiyatlar (General principles and responsibilities)
200	Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi umumiy tamoyillar
210	Audit vazifalari shartlarini kelishish
220	Tarixiy moliyaviy hisobot auditini o'tkazish jarayonidagi sifat nazorati
230	Auditni hujjatlashtirish
240	Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish jarayonida aniqlangan firiqgarliklar yuzasidan auditorning majburiyatları
250	Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish jarayonida qonun va me'yoriy xujjalarni inobatga olish
260	Raxbarlik vakolatlari mavjud shaxslar bilan axborot almashish
265	Ichki nazoratdagagi kuchchiliklar yuzasidan raxbarlik vakolatlari mavjud shaxslar bilan axborot almashinuvni
300-499	Riskni baholash va risk yuzasidan amallar (Risk Assessment and Response to Assessed Risks)
300	Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish
315	Iqtisodiy sub'ekt va uning ishtiroychilari faoliyatini o'rganish asosida muhim xatoliklar riskini baholash
320	Auditda muhimlik tushinchasi
330	Baholangan risk yuzasidan audit amallari
402	Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xizmatlaridan foydalanadigan tadbirkorlik sub'ektlari auditini o'tkazish jihatlari

450	Audit o'tkazish jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishlarni baholash
500-599	Auditorlik dalillari (Audit evidence)
500	Auditorlik dalillari
501	Auditorlik dalillari – muayyan moddalarni mahsus ko'rib chiqish
505	Tashqi tasdiqnomalar
510	Dastlabki audit kelishuvlari – boshlang'ich sal do
520	Tahliliy amallar
530	Auditorlik tanlovlari va boshqa test amallari
540	Buxgalteriya hisobida qo'llanilgan baholash usullari, shu jumladan xaqqoniq qiymatni baholash usullari va berilgan izzoxlar auditi
545	Xaqqoniq qiymatni baholash auditi va uni ochib berish
550	O'zaro bog'liq taraflar
560	Keyingi hodisalar
570	Faoliyatning uzlucksizligi
580	Rahbariyat yozma bayonotlari
600-699	Boshqa shaxslar ishidan foydalanish (Using work of others)
600	Boshqa auditorlar ishlaridan foydalanish
600	Qo'shimcha jabxalar - maxsus ko'rib chiqishlar -- kompaniyalar guruhi moliyaviy hisoboti audit (molivayi hisobot qisimlari bo'yicha auditorlar hisobotidan foydalanish)
610	Ichki auditorlar ishidan foydalanish
620	Ekspert hizmatidan foydalanish
700-799	Auditorlik hulosalari va hisobotini tayyorlash (Audit conclusions and reporting)
700	Umumiyl molivayi hisobot to'liq to'plami yuzasidan mustaqil auditor hisoboti (hulosasi)
705	Mustaqil auditor hisoboti (hulosasi) dagi modifikatsiyalar.
706	Mustaqil auditor hisoboti (xulosasi) dagi tushuntirish paragraflari va

	boshqa masalalar paragraflari
710	Qiyosiy axborot – qiyosiy ko'rsatkichlar va qiyosiy moliyaviy hisobotlar
720	Auditdan o'tgan moliyaviy hisobotga ilova va qo'shimcha izzoxlar yuzasidan auditorning majburiyatları
800-899	Mahsus sohalar (Specialized areas)
800	Maxsus masalalar – maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar auditı
805	Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagı maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditı
810	Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (hulosa) taqdim etish kelishuvlari
1000-1100	Xalqaro audit amaliyoti izzoxi (International Auditing Practice – Statements)
1000	Banklararo tasdiqlash amallari
1001	Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – avtonom mikrokomp yuterlar.
1002	Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – interaktiv komp yuter tizimlari
1003	Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – ma'lumotlar bazasi tizimlari
1004	Bank nazorati organlari va tashqi auditorlar o'ttasidagi o'zaro aloqalar
1005	Kichik korxonalar auditı hususiyatlari
1006	Banklar moliyaviy hisoboti auditı
1008	Iehki nazorar tizimi va riskni baholash - komp yuterli axborot tizimlari muhiti xarakatistikasi va tizim bilan bog'liq savollar
1009	Audit usullarini qo'llashda komp yuterlardan foydalananish
1010	Moliyaviy hisobot auditida ekologik savollarni hisobga olish
1012	Ishlab chiqarish moliyaviy instrumentlari auditı
1013	Elektron tijorat – uning moliyaviy hisobot auditiga ta'siri
1014	Hisobotni MHXS mosligi to'g'risida auditor hisoboti

2000-2699	Umumiy nazorat bo'yicha vazifalarning xalqaro standartlari (ISREs)
2400	Moliyaviy hisobotni umumiy tekshirish yuzasidan vazifalar (ERFSs)
2410	Tashkilotni mustaqil auditor tomonidan oraliq moliyaviy hisobotini umumiy tekshirish
3000-3699	Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlavchi vazifalarning xalqaro standartlari (SAEs)
3000-3390	Moliyaviy hisobotni tasdiqlovchi barcha vazifalar uchun
3000	Davriy moliyaviy hismobotni auditni va umumiyl tekshirishdan farqli uni tasdiqlovchi boshqa vazifalar
3400-3699	Alohiba topshiriqlar bo'yicha standartlar
3400	Kelajak prognozini beruvchi moliyaviy axborotlar
4000-4699	Xizmat ko'rsatishning xalqaro standartlari (ISRSs)
4400	Moliyaviy axborotga nisbatan kelishilgan amallarni bajarish
4410	Moliyaviy axborot kompelyatsiyasi bo'yicha vazifalar
	Professional buxgalterlar ta'limining xalqaro standartlari (IES)
	Ta'limining xalqaro standartlari bo'yicha asosiy tamoyillar
	Xalqaro ta'lim standartlariga kirish
1	Professional buxgalterlar ta'limi dasturi bo'yicha o'qish talablari
2	Professional buxgalterlar ta'limi dasturining mazmuni
3	Professional ko'nikmalar
4	Professional qadriyatlar va etika
5	Amaliy ko'nikma va tajribaga talablar
6	Professional qobiliyat va kompetentlikni baholash
7	Professionalizmni oshirish: Professional kompetentlikni rivojlantirish va doimiy o'qish dasturi
8	Audit sohasida kompetentlik talablari

Sifat nazorati, audit (Rasm-3 da, ya`ni AXS (ISAs) qismi 7 gruxga bo`lib ko`rsatilgan), ko`rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari klassifikatsiyasi 5-jadvalda keltirilgan. Ushbu to`plam Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi tomonidan chiqarilgan. Standartlarning qo`llanish doirasi va vakolatlarini, XAIBSKning Texnik vazifalarida belgilanganidek, tushunishni yengillashtirish maqsadida foydalilanildi.

XAIBSKning e`lon qilingan standartlari va qoidalari xalqaro standartlarga muvofiq bajariladigan audit, ko`rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlari bo`yicha kelishuvlarni tartibga soladi. Ular muayyan mamlakatda ushbu mamlakatning milliy standartlariga muvofiq rioya etilishi talab etiladigan va tarixiy moliyaviy hisobotlar auditni yoki boshqa ishonch bildirish bo`yicha kelishuvlarni tartibga soladigan mahalliy qonunlar yoki me`yoriy hujjatlardan ustun kelmaydi. Mahalliy qonunlar yoki me`yoriy hujjatlar muayyan masala yuzasidan XAIBSKning standartlaridan farq qilsa yoki ularga zid kelsa mahalliy qonunlar yoki me`yoriy hujjatlarga muvofiq bajarilgan kelishuv g`ayriixtiyoriy ravishda XAIBSKning standartlariga mos bo`lmaydi. Professional buxgalter kelishuvga tegishli bo`lgan XAIBSKning barcha standartlariga to`liq rioya qilmagan bo`lsa, u XAIBSKning standartlariga muvofiqlik haqida bildirmasligi lozim.

Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi tomonidan chiqarilgan xalqaro standartlarning vakolatlari quyidagilardan iborat:

- auditning xalqaro standartlari (AXS) tarixiy moliyaviy ma`lumotlarning auditida qo`llanilishi kerak;
- ko`rib chiqish bo`yicha kelishuvlarning xalqaro standartlari (KChKXS) tarixiy moliyaviy ma`lumotlarni ko`rib chiqishga nisbatan qo`llanilishi kerak;
- ishonch bildirish bo`yicha kelishuvarning xalqaro standartlari (IBKXS) tarixiy moliyaviy ma`lumotlarning auditni yoki ko`rib chiqilishidan boshqa ishonch bildirish bo`yicha kelishuvlariiga nisbatan qo`llanilishi kerak;

- turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari (TXXS) kompilyatsiyalash bo'yicha kelishuvlarga, ma'lumotlar ustidan kelishilgan tartib-taomillarni bajarish bo'yicha kelishuvlarga va XAIBSK tomonidan belgilanganidek boshqa turdosh xizmatlari bo'yicha kelishuvlarga nisbatan qo'llanilishi kerak;

- AXS, KChKXS, IBKXS va TXXSlar birgalikda XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari deb nomlanadi;

- sifat nazoratining xalqaro standartlari (SNXS) XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari amal qilishi doirasida ko'rsatiladigan barcha xizmatlarga nisbatan qo'llanilishi kerak;

Auditning xalqaro standartlari. (Rasm-3)

AXSlar mustaqi auditor tomonidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotlarning auditni kontekstida yozilgan. Ushbu standartlar boshqa tarixiy moliyaviy ma'lumotlarning auditiga nisbatan qo'llanilganida, mavjud sharoitlardagi zaruriyatdan kelib chiqqan holda moslashtirilishi kerak. AXSlarning vakolatlari AXS 200 belgilangan.

Sifat nazoratining xalqaro standartlari.

SNXSlar XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari amal qilishi doirasida auditorlik tashkilotlari (firmalari) tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlarga nisbatan qo'llanilishi maqsadida ishlab chiqilgan. SNXSlarning vakolatlari SNXSlarga kirish qismida belgilangan.

Professional mulohaza.

Xalqaro standartlarning xususiyati professional buxgalterdan ushbu standartlarni qo'llashda professional mulohaza qilinishini talab etadi.

Xalqaro standartlarning qo'llanishi.

Muayyan xalqaro standartning qo'llanish doirasi, kuchga kirish sanasi va uni qo'llashda har qanday o'ziga xos cheklashlar standartda aniq ko'rsatiladi. Xalqaro standartda boshqacha aytib o'tilmagan bo'lsa, professional buxgalter xalqaro standartni unda ko'rsatilgan kuchga kirish sanasidan oldin qo'llashi ruxsat etiladi.

Xalqaro standartlar davlat sektoridagi kelishuvlar uchun o'rnlidir. Tegishli hollarda, davlat sektori tashkilotlariga hos qo'shimcha ko'rib chiqiladigan jihatlar quyidagilarga kiritiladi:

AXS va SNXSlar hotatida xalqaro standartning asosiy matniga;

Boshqa xalqaro standartlarning oxirida ko'rsatiladigan Davlat sektoriga tegishli jihatlar (DSJ) bo'limida.

To'la vakolatli bo'lmagan material

To'la vakolatli bo'lmagan material XAIBSK tomonidan chiqarilgan Amaliyot izohlari va xodimlar tomonidan e'lon qilingan hujjatlarni o'z ichiga oladi. To'la vakolatli bo'lmagan material XAIBSK Xalqaro standartlarining qismi deb hisoblanmaydi.

Xalqaro audit amaliyoti izohlari

Xalqaro audit amaliyoti izohlari (XAAI) auditorlarga Auditning Xalqaro Standartlarida (AXS larda) keltirilgan talablardan tashqari qo'shimcha talablarni yuklamaydi hamda ular auditga o'rinni bo'lgan barcha AXS larga rivoja etish bo'yicha auditor mas'uliyatini o'zgartirmaydi. XAAI lar auditorlarga amaliy ko'makni ta'minlaydi. Ular milliy standartlar bo'yicha mas'ul bo'lgan tomonlar tomonidan tatbiq etilishiga mo'ljallanadi, yoki tegishli milliy materialni ishlab chiqishda foydalilaniladi. Ular auditorlik tashkiloti (firma)lar trening dasturlarni va ichki yo'riqnomani ishlab chiqishda foydalanishi mumkin bo'lgan materialni ham ta'minlaydi.

Qamrab oladigan mavzu(lar) xususiyatiga bog'liq ravishda, XAAI auditorga quyidagilarda yordam berishi mumkin:

- Tadbirkorlik sub'ekti faoliyat shart-sharoitlari to'g'risida tushuncha hosil qilish, muhim buzib ko'rsatish risklarini aniqlash va baholash yuzasidan professional mulohaza chiqarish;
- Baholangan risklarga javoban qanday harakatlar qilish to'g'risida mulohaza chiqarish, shu jumladan mavjud shart-sharoitlarda tegishli bo'lishi mumkin tartib-taomillar to'g'risida mulohaza qilish; yoki
- Hisobot berish jihatlarini ko'rib chiqish, shu jumladan moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr hosil qilish va boshqaruva yuklatilgan shaxslar bilan axborot almashish.

Ushbu - Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to'plami muqaddimasi 2011 yilning 15 dekabridan e'tiboran kuchga kiritilgan (Ilova – 1).

Takrorlash uchun savollar.

1. Auditning shakillanishi tarixi nechanchi asrga taqaladi?
2. Auditning qanday turlari mavjud ?
3. Auditning tashkiliy asoslari va standartlari.
4. Moliyaviy hisobot va xalqaro audit standartlarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash muammolari qanday?
5. Audit xalqaro standartlari to'plami tuzilmasi va klassifikatsiyasi qandjay shakillangan ?
6. Iqtisodiy munosabatlar tizimida audit xalqaro standartlarining o'rni va ahamiyati.
7. Audit xalqaro standartlarini siniflashtirish va Uzbekiston Respublikasida qo'llash masalalari.
8. Moliyaviy hisobot va audit xalqaro standartlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liligi.
9. Auditning umumiy talablari va audit uchun xizmat ko'rsatish.
10. Xalqaro amaliyotda auditor etikasi. (AXS bo'yicha umumiy talablar)
11. Moliyaviy nazorat tushinchasiga izzoh bering.
12. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimi qanday shakillantirilgan ?
13. Moliyaviy nazorat iqtisodiy sub'ektlari bo'yicha qanday guruxlashtiriladi?
14. Moliyaviy nazorat tizimida auditning o'rmini ko'rsatib bering.
15. Moliyaviy ho'jalik faoliyatini taftish tushinchasini izzoxlang.
16. Audit va taftishning qanday farqlari bor?
17. Auditning asosiy tushunchalari va turlari qanday?
18. Audit sifat nazorati qanday tashkil qilinadi?
19. Audit standartlari va ularni qo'llash.
20. Auditorlar qanday toifalanadi?

Vaziyatli masalalar

Masala -1

Sifatga asoslangan ichki madaniyatni rag'batlantirishning o'ta muhimligi auditorlik tashkiloti rahbariyati uchun uning biznes strategiyasi auditorlik tashkiloti amalga oshiradigan barcha kelishuvlarda sifatga erishish o'ta muhim talablar sharti ostida bo'lishini tan olish zaruriyati hisoblanadi. Bunday ichki madaniyatni rag'batlantirish nimalarga bog'liq bo'ladi ?

Masala -2

Tanishlik xavfini bartaraf etish uchun tegishli mezonni aniqlash qanday masalalarni o'z ichiga olishi mumkin?

Masala -3

Auditorlik tashkiloti yangi yoki joriy buyurtmachilar bilan yangi kelishuvni amalga oshirishda bilimga, qobiliyatlarga va resurslarga egaligi bo'yicha mulohaza kelishuvning o'ziga xos talablarini va joriy partnerni hamda barcha tegishli darajalardagi xodimlar shaxsiy ma'lumotlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi , ular nimalardan iborat?

1-masala javobi

1. Sifatga nisbatan auditorlik tashkilotining o'ta muhim mas'uliyatini namoyish etish maqsadida, uning xodimlariga nisbatan faoliyat baho'anishi, mukofotlanishi va lavozim oshirilishini (jumladan, rag'batlantirish tizimlarini) ko'zda tutadigan siyosatlar va tartib-taomillarni belgilanishi.

2. Tijoriy haq to'lashlar amalga oshirilgan ishlarning sifatidan ustun bo'lmasisligi uchun boshqaruv javobgarliklarini yuklash va uning sifat nazorati siyosatlari va tartib-taomillarni ishlab chiqish, hujjatlashtirish va qullab-quvvatlash uchun yetarli resurslar bilan ta'minlash.

2- masala javobi

- 1.Kelishuvning xususiyati, jumladan jamiyat manfaati masalasini qamrab olish darajasi.
- 2.Kelishuvda katta xodimlarning xizmat davri.
- 3.Ehtiyyot choralar misollari katta xodimlarning rotatsiyasini yoki kelishuv sisfati nazoratini ko'rib chiqishni talab etishni qamrab oladi.

3-masala javobi.

- Auditorlik tashkiloti xodimlari tegishli sohalarda yoki ko'rildigan masalar bo'yicha bilimga ega ekanligi;
- Auditorlik tashkiloti xodimlari tegishli me'yoriy yoki hisobot talablar bo'yicha tajribaga yoki zaruriy mahoratlar va bilimni samarali o'zlashtirish qobiliyatiga ega ekanligi;
- Auditorlik tashkilotining zaruriy bilimga va qobiliyatlarga ega yetarli xodimlari mavjudligi;
- Zaruriyat bo'lganda, mutaxassislar mavjudligi;
- O'rinali bo'lganda, kelishuv sisfati nazoratini ko'rib chiqishni amalga oshirish bo'yicha mezонни va munosiblik talablarini qanoatlantiradigan shaxslar mavjudligi;
- Auditorlik tashkiloti hisobot taqdim etish muddatida kelishuvni tugallash imkoniyatiga egaligi

2 BOB. XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA AUDITNI TASHKIL QILISH.

2.1 .Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va asosiy tamoyillari.

Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va umumiy tamoyillari Xalqaro audit standartlari to‘plamining alohida hujjatlarida keltirilgan va **Hisobot haqqoniylini tasdiqlovchi tamoyillar standarti** deb ataladi (International Framework for Assurance Engagements, ISQC). Mazkur hujjatda hisob xaqqoniyligini **tasdiqlovchi vazifalarining** maqsadi va elementlari qayd etilgan. Asosiy tamoyillar audit o‘tkazishdagi me’yor va amallarni bajarilishini belgilamay umumiylilik xarakteriga ega .

Audit o‘tkazish me’yor va amallari 200 - AXS “Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi umumiy tamoyillar” nomli standart bilan boshqariladi. Ammo, shuni qayd etish kerakki audit moliyaviy hisobotni **tasdiqlovchi vazifalarining** ko‘rinishlaridan birigina bo‘lishiga qaramay uning tasdig’i salomoqlidir. Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlovchi boshqa vazifalar Moliyaviy hisobot haqqoniyligini tasdiqlavchi vazifalar (International Standards on Assurance Engagements, ISAE) va Umumiy nazorat bo‘yicha vazifalarining xalqaro standartlari (International Standards on Review Engagements,ISRE) bilan tartibga solinadi.

Professional buxgalter tomonidan bajariladigan **boshqa vazifalar**, ya’ni auditga ko‘makdashuvchi hizmatlar ko‘rsatish, soliq hisobotlarini tayyorlash, boshqaruva soliq konsaltingi va xakozolar moliyaviy hisobot yuzasidan foydalanuvchilar uchun haqoniylilik ishonchini bermasligi uchun asosiy tamoyillarda ko‘rsatib o‘tilmagan. Ushbu hizmatlara alohida (ISRS) standartlar bilan tartibga solinadi va bunday hizmatlar yuzasidan hulosalarda XAS, ISRE, ISAE standartlariga izzox berilmaydi, “ishonch” “audit” yoki “tekshirish” jumlalaridan foydalanimaydi.

Boshqa vazifalarining maqsadi qo‘yilgan vazifa yuzasidan **to‘liq hulosa berish** va riskni pasaytirishdir (Reasonable Assurance Engagements), ya’ni hulosa matinida quyidagi jumla keltiriladi - “Biz tomonimizdan o‘rganilgan ma’lumot taqdim etilgan hisobotni xaqoniyligi

ekanligi xaqida hulosa qilishimizga asos bo‘ladi”. **Boshqa vazifalarning maqsadi qo‘yilgan vazifa yuzasidan cheklangan hulosa berish** (Limited Assurance Engagements) va riskni pasaytirish bo‘lsa hulosa matinida quyidagi jumla keltiriladi - “Biz tomonimizdan o‘rganilgan ma`lumot taqdim etilgan hisobotni xaqoni emasligi xaqida hulosa qilishimizga asos bo‘lmaydi”.

Asosiy tamoyillarda belgilanishicha tekshiruvchiga taqdim etilgan ma`lumotning xaqqoniyligini tasdiqlash vazifasini bajarish yuklatilgan bo‘lsa u Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) tomonidan qabul qilingan ahloq kodeksi va Sifat nazorati xalqaro standartlari (International Standards on Quality Control , ISQC)ga riosa etishi kerak.

Professional buxgalter tomonidan malumot xaqqoniyligini tasdiqlash vazifasi olinsa u quyidagilarga ishons hosil qilishi kerak:

-axloqiy meyorlarga riosa etish mumkinligi (asosan mustaqillik va professional kompetentlik);

-vazifa barcha zarur xarakteristikalarga egaligi;

-ob’ekt vazifasini tekshirish vazifasiga uyg’unligi;

-vazifada foydalaniladigan me’zonlarning foydalanuvchilar uchun mosligi;

- professional buxgalter tomonidan dalilarni yig’ish imkoniyatlari;

- professional buxgalter tomonidan **to‘liq hulosa** yoki **cheklangan hulosa** berish yozma hisobotda aks ettirilishiga;

- mazkur vazifani qabul qilish uchun professional buxgalterda yetarli asos mavjudligi;

-mazkur standartlar asosida belgilangan qo‘shimcha talablarga amal qilinishiga.

Agar qo‘yilgan vazifa yuqriddagi talablarga javob bermasa taraflar foydalanuvchilar uchun kerakli vazifani bajarish uchun kelishib olishlari mumkin. Ma`lumotni tasdiqlash yuzasidan vazifani qabul qilishda professional buxgalter uni o‘zgartirishga yoki to‘liq hulosa o‘rniga cheklangan hulosa berishga xaqli emas.

Axborot elementlari xaqqoniyligini tasdiqlab beruvchi vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Munosabatlarning uch tomonlama xarakteri, ya`ni, professional buxgalter, javobgar shaxs va axborotdan foydalanuvchi. “Professional buxgalter” termini AXSda nazarda tutilgan “auditor” terminidan kengroq ma`noga ega, chunki professional buxgalter bir qator hususiyatli vazifalarni ham bajarish imkoniyatiga egadir. Javobgar shaxs vazifa ob`ekti to`g`risida ma`lumot uchun ma`sul bo`lib har doim ham vazifa buyurtmachisi bo`lavermaydi. Tekshirish vazifasini direktorlar kengashi boshqaruvchilar taqdim etgan ma`lumotni xaqqoniyligini aniqlash uchun buyulma bergen xollarda, javobgar shaxs va axborotdan foydalanuvchi bir tashkilot vakillari bo`lishi ham mumkin. Axborotdan foydalanuvchilar - professional buxgalter o`z hisobotini taqdim etishi kutilayotgan shaxslar, shaxslar gruxi yoki shaxslar sinfi. Ayrim xollarda birja yoki banklar maxsus talablarni qo`yishi mumkin.

- vazifa ob`ekti: foydalanuvchilar uchun zarur bo`lgan tashkilot faoliyati haqidagi ma`lumotlar. Tekshirishni o`tkazish mumkin bo`lishi uchun ma`lumot bir qator xarakteristikalariga ega bo`lishi kerak: tasdiqlangan va ma`lum mezonlar asosida taqqoslanuvchan, isbotlar olish uchun yetarli.

- vazifani amalga oshirishda foydalaniadigan me`zonlar, ya`ni, ma`lumotni taqdim etish va ochib berish yuzasidan yo`riqnomalar va etalonlar (moliyaviy hisobot uchun bu MHXS, ichki nazorat tizimi uchun bu lokal yo`riqnomalar va me`yoriy aktlari). Bundan tashqari ular tekshirish natijasiga ta`sir ko`rsatuvchi ma`lum talablarni qamrab oladi, ya`ni, to`liqlik, aniqlik, xolislik, malumotni taqdim etish va ochib berish uchun qoidalar, hulosaga ta`sir qiluvchi barcha muhim omillar yig`indisi, xisobotda aks ettirilishi va hokazo.

- taqdim etilayotgan ma`lumot yuzasidan dalilarning xaqqoniyligi, tasdiqlovchi hujjatlarning soxta emiasligiga, ma`sul shaxslarning tushintirishlarining aniqligiga to`liq ishonch hosil qilish. (Auditorlik isbotlarining aniq tafsifi 500 - AXSda keltirilgan).

- yozma hisobot – professional buxgalter fikrini bildiruvchi, foydalaniayotgan standartlarga javob beruvchi va axborot haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatdir. Yozma hisobot professional buxgalter tomonidan

imzolanganligi sababli uning nomi tekshirish ob`ekti va bajarilgan ish bilan bog`liq hisoblanadi. Ammo, professional buxgalter o`z nomini noo`rin foydalanilishiga yo`l qo`ymasligi kerak.

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan keltirilgan yuqoridagi umumiy tamoyillar **ma`lumot xaqqoniyligini tasdiqlash vazifalariga ta`luqli** bo`lib audit ushbu vazifalarning asosiysi hisoblanadi. Auditga qo`yilgan talablar 200 - AXS da keltirilgan bo`lib aksariyat umumiy **tasdiqlash vazifalarini** takrorlaydi. Shu bilan birga 200 - AXS Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi ishtirokchilari tomonidan bajarilishi shart bo`lgan qoidalarni jamlagan. Standart quyidagi paragraflarni o`z ichiga oladi:

- kirish;
- auditning maqsadi;
- auditning umumiy tamoyillari;
- auditning hajmi;
- moliyaviy hisobot yuzasidan yetarli ishonch.

200 - AXS "Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi umumiy tamoyillar" nomli standartga asosan **auditning maqsadi** – moliyaviy hisobotning barcha muxim jixatlari bo`yicha to`g`ri va tuzish tamoyillariga javob berishi yuzasidan aniq hamda holis fikir berishi uchun sharoit yaratishdir. Tekshirishning ushbu turi auditning xalqaro standartlari asosida o`tkazilishi va audit xalqaro amaliyoti talablariga javob berishi lozim. Agarda ma`lum bir davlatning qonunchiligi taqiqlamasa audit AXS va MAS (Milliy audit standartlari) uyg`unligida o`tkazilishiga ham yo`l qo`yiladi.

Auditning umumiy tamoyillariga XBF professional buxgalter axloq kodeksiga rioya qilish – holistik, mustaqillik, ob`ektivlik, to`g`rilik, professional kompetentlik, adolatlilik, sir saqlashlik va texnik standartlarga amal qilish kiradi.

Auditning hajmi – xar qanday auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotda aks etgan barcha jarayonlarni qamrab olishi shart. Ma`lumotlarni muhimligi bo`yicha tanlov auditor tomonidan amalga oshiriladi. Tekshirish jarayonida amalga oshiriladigan auditorlik amallari

AXS, qonun, me'yoriy xujjalalar va zarur xollarda kelishilgan audit o'tkazish va moliyaviy hisobotni tuzish shartlari asosida auditor tomonidan mustaqil belgilanadi.

Audit xajmi mutloq ishonch hosil qilish uchun yo'l bermaydi va bu **muqarar cheklov mavjudligini** anglatadi. Bunday cheklov larning sabablari quyidagilardan iborat:

- tanlab olish asosida tekshirish;
- tekshirish jarayonida testlardan foydalanish;
- ichki nazorat tizimi ma'lumotlaridan foydalanish;
- auditorlik dalilarining mutloq isbotdan ko'ra, ko'proq ma'lumot xarakteriga ega ekanligi;
- ayrim xollarda noananaviy muomilalarning mavjudligi.

Bundan tashqari audiorning hizmati uning fikir yuritishi mahsuli ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, audit xarakteri, muddati va xajmi auditor tomonidan xolis aniqlanadi. Auditor hulosasi, u yig'gan dalil - isbotlar asosida shakillantiriladi.

Mutloq ishonch hosil qila olmaslik xolatlardan yana biri bu bog'liq taraflar o'ttasidagi muomilalarning mavjudligidir. Bunday xolatlarni tekshirishda AXSlarda maxsus amallar ko'zda tutilgan bo'lib, ular yuzaga kelishi mumkin bo'lgan auditorlik riskini kamaytirishga qaratilgan.

Auditor javobgarligi. Moliyaviy hisobot va undagi barcha ma'lumot hamda izzohlar uchun javobgarlik tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisobotini imzolagan ma'muriy boshqaruv apparati xodimlarining zimasidadir. Auditor faqat o'z hulasasi va undagi fikri doirasidagina javobgardir. Auditor javobgarligini ikki ko'rinishda aks ettirish mumkin:

1. Qonun talablarini bajarilmasligi.
2. Audit o'tkazishda ma'suliyatsizlik bilan yondoshish va xo'jalik muomalalariga yuzaki baho berish.

Birinchi xolatda javobgarlik ko'proq Davlat oldida va ikkinchi xolatda esa ko'proq ma'lumotdan foydalanuvchilar oldida yuzaga keladi.

Ushbu Auditning Xalqaro standartida moliyaviy hisobotlar auditini AXSga muvoziq o'tkazishda mustaqil auditoring umumiy majburiyatları

ko'rib chiqiladi. Unda, shu jumladan, mustaqil auditorning umumiyligi maqsadlari, shuningdek mustaqil auditorga mazkur maqsadlarga erishish imkonini beruvchi audit hususiyati va ko'lami tavsiflanadi. Shuningdek standart AXS ko'lami, vako'latlari va tarkibiy tuzilishini tushuntiradi hamda mustaqil auditorning barcha auditlarga tatbiqan umumiyligi majburiyatlarini, shu jumladan AXSga rivoja qilish majburiyatini belgilaydigan talablarni o'z ichiga oladi.

AXS auditor tomonidan moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish nuqtai nazaridan yozilgan. Zaruratga qarab AXS boshqa tarixiy moliyaviy axborot auditiga nisbatan qo'llanganda yuzaga kelgan vaziyatga moslashtirilishi lozim. Auditorning qonun hujjatlari, me'yoriy hujjatlari yoki boshqa tartibga soluvchi qoidalarda, masalan, qimmatli qog'ozlarning ommaviy taklifi munosabati bilan nazarda tutilishi mumkin bo'lgan majburiyatlar AXSda ko'rib chiqilmaydi. Bunday majburiyatlar AXSda belgilangan majburiyatlardan farq qilishi mumkin. Binobarin, auditor bunday vaziyatlarda AXSning ba'zi bir jihatlarini foydali deb hisoblashi mumkin bo'sa-da, u barcha tegishli yuridik, tartibga soluvchi yoki professional majburiyatlarga rivoja etilishini ham ta'minlashi lozim.

2.2. Audit o'tkazish shartnomalarini tuzish.

Belgilangan vazifalarni bajarish asosiy tamoyillarda ko'zda tutilgan bo'lib aniq vazifalarning maqsadi **vazifa yuzasidan xatda** (Engagement Letter) yoki auditor va buyurtmachi o'rtaida tuziladigan kontraktda kelishib olinadi.

210 - "Audit vazifalari shartlarini kelishish" nomli standart quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

- kirish;
- audit o'tkazish yuzasidan majburiyat xati;
- takroriy auditorlik tekshiruvi;
- shartnomalarini o'zgartirish tushunchasi.

Ushbu standart auditor va buyurtmachi o'rtaida audit o'tkazish shartlari, buyurutmani o'zgartirish holatlarini kelishib olish masalalarini

tartibga soladi. Standartda auditoring audit kelishuvi shartlarini tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati va zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslar bilan kelishish paytidagi majburiyatları ko'rib chiqiladi. Bu majburiyatlar audit o'tkazishning belgilab qo'yilgan, bajarish uchun javobgarlik tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati va, zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslar bo'ynda bo'lgan dastlabki shartlari bajarilganini aniqlashni o'z ichiga oladi. AXS 220 da kelishuvni qabul qilishning auditor nazorat qilishi mumkin bo'lgan jihatlari ko'rib chiqiladi.

Auditor va buyurmachi o'rtaSIDA kelishuvlar natijasi sharnoma hisoblanadi. Kelishuv shartlari hujatlashtirish orqali chegaralanadi. Mazkur standart kelishuv shartlarining ikki hil variantini ko'zda tutadi:

- majburiyatlar yuzasidan xat;
- shakli mos keluvchi boshqa shartnoma.

Majburiyatlar yuzasidan xat buyurtmachiga auditor tomonidan tekshirish boshlanishidan oldin yuboriladi. Bunday xat moliyaviy hisobot auditida ham auditga ko'maklashuvchi xizmatlar ko'rsatishda ham tuziladi. Majburiyatlar xatining tarkibiy tuzilmasi 4- rasmda keltirilgan.

Buyurtmachiga yuboriladigan majburiyatlar yuzasidan xatda quyidagi xolatlar aks ettiriladi:

- vazifaning maqsadi (o'tkazilishi rejalashtirilgan moliyaviy hisobot auditining maqsadi);
- moliyaviy hisobotni shakillantirish yuzasidan buyuritmachining javobgarligi;
- tekshirish xajmi;
- auditini rejalashtirish yuzasidan bajariladigan amallar;
- byurtma yuzasidan tuziladigan hisobot va natijalarni bildirish;
- auditni cheklovchi holatlar – vujdga kelishi mumkin bo'lgan risk;
- auditorlik hizmatlari uchun gonorar va uni to'flash usuli;
- boshqa auditor va ekspertlar hizmatidan foydalanish;
- byuritmachining hodimlari va ichki audit hizmatidan foydalanish;
- avval o'tkazilgan audit natijalaridan foydalanish bo'yicha kontrakt;
- qo'shimcha kelishuvlar tuzish va ularni kuchga kirishi.

Audit otkazish yuzasidan majburiyat xati

Maholiyaviy hisobot auditining maqsadi

Maholiyaviy hisobot yuzasidan rahbariyatning javobgarligi

Audit hajmi (qonun yoki boshqa me'yoriy xujjalarga xavola)

Hisobot shakli (kelishuv natijalarini e'lon qilish shakli)

Buxgalteriya hisobi va ichki auditda muhimlik va xatoni aniqlanmaslik riski

Audit davomida barcha hujatlarni olishga talab

4-rasm. Majburiyatlar xatining tarkibiy tuzilmasi

Agar tekshirilishi lozim bo'lgan tashkilotning qaram korxonalari, filiallari mavjud bo'lsa **majburiyatlar yuzasidan alohida xat** tuzish ko'zda tutilishi inobatga olinadi va quyidagi xolatlar aks ettiriladi:

- bo'linmalar auditori kim tomondan belgilanishi;
- bo'linma yoki filialning qarqlik darjasи va mavqeyi;
- bo'linma yoki filial bo'yicha alohida auditorlik hisob tuzish shartlari;
- qonunchilik darjasи va shartlari;
- qaram korxonaning ulushi miqdori;
- boshqa auditorlar tomondan bajariladigan ish xajmi;
- Audit xat-kelishuvining shakli va mazmuni tadbirkorlik sub'ektiga qarab farq qilishi mumkin. Audit xat-kelishuviga kiritilgan auditoring majburiyatları to'g'risida axborot AXS 200 ga muvofiq tayyorlangan bo'lishi mumkin. Ushbu AXSnig 6(b) va 12-bandlarida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining majburiyatları tavsisi ko'rib chiqiladi. 10-bandga muvofiq ochib berish talab etiladigan masalalarga qo'shimcha ravishda audit xat-kelishuvida quyidagi masalalar ham yoritilishi mumkin:

- Audit ko'lamin belgilash, shu jumladan qo'llaniladigan qonun hujatlari, me'yoriy hujatlari, AXSga, professional tashkilotlarning auditor

o‘z faoliyatida rioya etadigan axloqiy va boshqa standartlariga havola qilish.

- Audit kelishuvi natijalarini taqdim etishning boshqa har qanday shakli.

- Audit bilan uzviy bo‘lgan cheklashlar hamda ichki nazorat tizimiga xos bo‘lgan cheklashlar tufayli ayrim muhim buzib ko‘rsatishlar hatto audit lozim tarzda rejalashtirilgan va AXSga muvofiq o‘tkazilgan holda ham aniqlanmasligi mumkinligi riski mavjudligi.

- Auditni rejalashtirish va bajarish masalalari bo‘yicha, shu jumladan audit jamoasining tarkibiga doir ahdlashuvlar.

- Tadbirkorlik sub`ekti rahbariyati yozma bayonotlar taqdim etilishini ta`minlashini kutish.

- Auditor auditni belgilangan grafikka muvofiq yakunlash imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun moliyaviy hisobotlar loyihasini va boshqa har qanday yo‘ldosh ma`lumotlarni auditorga o‘z vaqtida taqdim etishga tadbirkorlik sub`ekti rahbariyatining roziligi.

- Moliyaviy hisobotga ta`sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan va tadbirkorlik sub`ekti rahbariyati auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi va moliyaviy hisobotlarni chop etish sanasi oralig‘idagi davrda xabar topgan faktlar to‘g‘risida auditorga xabar berishga tadbirkorlik sub`ekti rahbariyatining roziligi.

- Gonorarni hisoblab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilgan baza va schyotlar taqdim etish to‘g‘risida har qanday ahdlashuvlar.

- Tadbirkorlik sub`ekti rahbariyatiga audit xat-kelishuvini olganini tasdiqlash va ushbu xatda bayon etilgan kelishuv shartlariga o‘z roziliginibildirish haqida so‘rov.

Zarur holda audit xat-kelishuvi quyidagi bandlar bilan to‘ldirilishi ham mumkin:

- Auditning ba‘zi bir jihatlari ustida ishlashda boshqa auditorlar va ekspertlarning ishtirokiga doir masalalar bo‘yicha ahdlashuv.

- Ichki auditorlar va tadbirkorlik sub`ektining boshqa xodimlari ishtirokiga doir masalalar bo‘yicha ahdlashuvlar.

- Boshlang‘ich audit bilan bog‘liq holda, oldingi auditor (agar u mavjud bo‘lsa) bilan erishilishi lozim bo‘lgan ahdlashuvlar.

- Auditorning javobgarligiga nisbatan har qanday cheklash, agar bunday imkoniyat mavjud bo'lsa.
 - Auditor va tadbirkorlik sub'ekti o'rtaida bundan keyingi har qanday kelishuvlarga ishora.
 - Boshqa tomonlarga audit bo'yicha ish hujjatlarini taqdim etish bilan bog'liq har qanday majburiyatlar.
 - Agar, auditorlik firmasi aynan bitta xo'jalik yurituvchi sub'ektning auditorlik tekshiruvini ketma ket tekshirsa (Ushbu xolat "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yil №PQ 3946 qaririda O'zbekiston Respublikasida yetti yildan ortiq bo'imasligi belgilab qo'yilgan) xar safar yangi **majburiyatlar yuzasidan xat** tuzmasligi mumkin. Lekin AXS da yangi **majburiyatlar yuzasidan xat** tuzish zarur bo'lgan omillar va xolatlar ko'rsatib o'tilgan:

audit maqsadi va xajimi yuzasidan tushinmovchiliklar yuzaga kelganda;

- qo'yilayotgan vazifa shartlari o'zgarsa;
- buyutmachi tashkilot raxbariyati tuzilmasi , mulk shakli va ulushlari o'zgarganda;
- buyutmachi tashkilot foliyati masshtabi o'zgarganda;
- qonunchilik o'zgarganda.

Agar belgilangan shartlar o'zgaradigan bo'lsa yangi shartlar yuzasidan auditor va buyutmachi kelishib olishi va ushbu kelishuvning xuquqiy jixatlarni baholab olishi zarur. Bu xolatda yangi kelishuv shartlari auditor hisobotida o'z aksini topishi kerak. Auditor yangi shatlar bilan rozi bo'limasa tekshirish o'tkazishdan bosh tortishi mumkin.

2.3 Auditni hujjatlashtirish.

Auditor buyurtmachining vazifasini bajargani va maqsadga erishganini isbotlash uchun belgilangan tartibda tuzilgan hisobotini tasdiqlovchi va AXS talablariga javob beruvchi ish hujjatlarini yig'adi. Hujjatlashtirish jarayoni AXS 230 "Auditni hujjatlashtirish" standarti bilan tartibga solinadi. Ushbu standart quyidagi bo'limlardan iborat:

- kirish;

- ish hujjatlarining mazmuni va shakli;
- ish hujjatlarini saqlash;
- ish xujjatlariga egalik huquqi.

Mazkur standart moliyaviy hisobot auditı davomida xujjatlashtirishni amalga oshirish yuzasidan umumiy talablarni belgilab beradi. Auditor tekshirish natijalari bo'yicha o'z fikrini isbotlovchi dalilarni hujjatlar asosida rasmiylashtirishi zarur.

Hujjatlar tekshirish davomida olingan ashayoviy materiallardan (ish hujjatlaridan) iborat bo'lib turli shakilda bo'lishi mumkin, masalan qog'oz (working papers), fotoplenka, elektron ma'lumot tashuvchilar va xokazo. Ish hujjatlariga misol tariqasida quyidagi larni keltirish mumkin:

- audit rejası;
- o'tkazilgan tahlillar izzohi;
- muxim isbotlar qaydnomalari;
- tasdiqlovchi yoki tushintirish xatlari;
- anketalar;
- elektron pochta orqali yozishmalar;
- spetsifik va muhim hujjatlar nushasi;
- audioyozuvlar .

Umuman olganda Xalqaro audit standartlari auditor ish hujjatlarining qatiy shakli yoki auditorlik fayllar mazmunini belgilamaydi va auditorlik firmasining ixtiyoriga qoldirilgan.

Ish hujjatlarini tuzishda auditor qator holatlarni inobatga olishi kerak, ya'ni:

- auditorlik ammallerining mazmuni;
- muhim chetlashishlar yuzasidan auditolrik risklarini;
- oligan auditorlik dalilarining muhimligi;
- hulosalar uchun asos bo'lvchi holatlarni xujjatlashtirish ;
- foydalanilgan audit usullari va instrumentlari.

Auditor ish hujjatlarida amalga oshirilgan tekshiruv amallari va ko'rib o'tilgan holatlarning asosiy tafsiflari keltiriladi. Shu bilan birga ish hujjatlarida tekshirilayotgan tashkilot raxbariyati bilan o'tkazilgan muammoli masalalar bo'yicha suxbatlar natijasi qayd etilishi kerak. Auditorlik dalilari va auditor fikri o'rtaSIDA ma'lum bir tasovutlar yuzga

kelgan holatlarda ularni sabablari hisobotda ochib berilishi kerak. Audit haqida aniq ta'surot olish uchun auditor ish hujjatlarini to'liq va imukammal tuzishi zarur, shu sababli ish hujjatlarining mazmuni va shakliga quyidagi talablar qo'yilgan:

- ma'lumotlar aniqligi hamda to'liqligi;
- sub'ektning huquqiy va tashkiliy tuzilmasi to'g'risida ma'lumot;
- muhim huquqiy hujjatlar va protokollardan ko'chirma yoki nusxa;
- sub'ekt faoliyat olib borayotgan iqtisodiy muhit va tarmoq haqida ma'lumot;
- audit dasturini tuzish va tasdiqlash jarayoni haqida axborot;
- auditni rejalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish;
- vaqtchalik chegaralarning xarakteri;
- ekspert yoki boshqa shahslar tomonidan yuborilgan ma'lumotlar nushasi;
- auditorlik amallarining hajmi;
- moliyaviy hisobot va auditorlik hulosasining nusxasi;
- auditorlik amallarining natijasi va hulosalar.

Ish hujjatlarining mazmuni va shakliga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- auditorlik vazifasining harakteri;
- auditorlik hulosasining shakli;
- biznesning mazmuni va murakkabligi;
- sub'ektning buxgalteriya hisobi tizimi va ichki nazoratining holati;
- auditor assistentlarining ish amallarini nazorati.
- auditorlik riski va ichki nazorat riskini baholash yuzasidan isbotlar.
- boshqa auditor tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobot bo'limlari;

Auditorlik ish hujjatlari auditor tomonidan mustaqil barcha tekshirish holatlарини то'лиқ акс ettirган holda tuziladi. Shu bilan birga AXS nazorat samaradorligini yuqoriligi va ish vaqtini tejash uchun standartlashgan ish hujjatlaridan foydalanishni tafsiya etadi. Bunday ish hujjatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tekshiruv ro'yxatlari;
- xatlarning namunalari;
- grafiklar;
- tahliliy jadvallar;

- schyotlar bo'yicha qoldiq qaydnomalari.

Auditorlik ish hujjatlari konfidentsial hisoblanadi. Kasbiy talablarga asosan auditor ish hujjatlarini saqlanishini belgilangan vaqt chegarasida ta'minlashi lozim. Ish hujjatlariiga taluqli mulk huquqi auditorga tegishli. Auditor ish hujjatlarini buyurtmachiga taqdim etishi mumkin, lekin ushbu ish hujjatlari sub'ektning buxgalterlik hujjatlari o'rmini bosmaydi.

Belgilangan vazifaga ta'luguqli ish hujjatlari **auditorlik fayllarida** umumlashtiriladi. Auditorlik fayllarining doimiy qismiga o'zgarish kam kuzatiladigan hujjatlar, ya'ni ustav, ta'sis shartnomasi, uzoq muddatli kredit shartnomalarini kiritish mumkin. Auditorlik fayllari auditorlik hulosasi chiqarilgandan so'ng umumlashtiriladi va ISQC 1 da belgilanishicha ushbu muddat 60 kun tavsiya etiladi.

Auditorlik fayli tuzib bo'lingach, ularni saqlash muddati davomida auditor fayillardagi yozuv va hujjatlarni o'zgartirmasligi va olib tashlamasligi kerak. ISQC 1ga asosan auditorlik firmasi o'zining arhiv siyosatini, elektron arhivini shakillantirib olish talab etadi.

Ayrim hollarda shakillanib bo'lgan auditorlik fayillariga o'zgartirish kiritish zarur bo'tadi. Ushbu xolat yuzaga kelsa AXS 230 qo'shimcha hujjatlashtirishni talab etadi va auditor fikriga ta'sir ko'rsatish oqibatlari bo'lsa alohida hujjatlashtirishni talab etadi.

Auditni hujjatlashtirish audit AXS larga muvofiq bo'lishi dalilini ta'minlaydi. Biroq, auditor uchun auditda ko'rilgan har bir masalani yoki qilingan professional mutohazani hujjatlashtirish ham zaruriyatsiz ham amaliy imkonsizdir. Shu bilan birga, auditor uchun audit faylida keltirilgan hujjatlar orqali bajarilishi aks ettirilgan talablarga rivoja etilishini alohida hujjatlashtirish (masalan, nazorat ruyxatlaridagidek) zarur emas. Masalan:

- Tegishli tartibda hujjatlashtirilgan audit rejasining mavjudligi auditor auditni rejalashtirganini aks ettiradi.

- Audit faylida imzolangan kelishuv xatinining mavjudligi auditor rahbariyat yoki, o'rinli bo'lganda, boshqaruvi yuklatilgan shaxslar bilan audit kelishuvining shartlarini kelishib olganligini aks ettiradi.

- Moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'rinli qo'shimcha izohlar bilan bildirigan fikrni qamrab olgan auditorlik hisoboti (hulosasi) auditor AXS

larda belgilangan holatlar asosida qo'shimcha izohlar bilan fikr bildirish talabiga rioya etganligini aks ettiradi.

Audit mobaynida umumiy qo'llaniladigan talablari yuzasidan, audit faylida ularga rioya etilishini aks ettirish mumkinligining bir qator yo'llari mavjud bo'lishi mumkin:

Masalan, auditor professional skeptitsizm hujjatlashtirishni yagona yo'li mavjud bo'lmasisligi mumkin. Ammo shunga qaramasdan auditni hujjatlashtirish auditor AXS larga muvofiq professional skeptitsizmini qo'llashining dalilini ta'minlashi mumkin. Bunday dalil auditor rasmiy so'roviga rahbariyat javobini tasdiqlash uchun amalga oshirilgan muayyan tartib-taomillarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shuningdek, kelishuv partnyorining AXS larga rioya etgan holda audit yo'naliishi, nazorati va amalga oshirilishi bo'yicha majburiyat olganligi auditni hujjatlashtirish tarkibida bir qator usullarda aks ettirilishi mumkin. Bu kelishuv partnyorining audit jihatlari bilan o'z vaqtida shug'ullanishini, masalan AXS 315 da talab etilgan jamoa muhokamalarida qatnashishini, hujjatlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar.

1. Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va umumiy tamoyillari.
2. Moliyaviy hisobotni tasdiqlovchi vazifalarning ko'rinishlari qanday?
3. Professional buxgalter tomonidan bajariladigan boshqa vazifalarga nimalar kiradi?
4. Auditning hajmi qanday belgilanadi?
5. Auditoring javobgarligi ko'lami qanday?
6. Audit o'tkazish shartnomalarini tuzish.
7. Vazifa yuzasidan xatda (Engagement Letter) yoki auditor va buyurtmachi o'rtaсиda tuziladigan kontrakt nima?
8. Majburiyatlar xatining tarkibi tuzilmasi nimalardan iborat?
9. Majburiyatlar yuzasidan xat tuzish zarur bo'lgan omillar va xolatlarni ko'rsatib bering.

- 10.Biznes shartlarini o'rganish.
- 11.Ish hujjatlarini tuzishda auditor qaysi holatlarni inobatga olishi kerak?
- 12.Muximlik darajasini belgilash.
- 13.Ichki nazorat tizimi va tavakkalchilikni baholash.
- 14.Auditorlik tekshiruvini xujjatlashtirish. (AXS bo'yicha 200-400 standartlar)

Vaziyatli masalalar.

Masala -1

Professional mulohaza auditni lozim tarzda o'tkazish uchun abamiyatli hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tegishli axloqiy talablar va AXSniga talqin qilish, shuningdek auditni o'tkazish jarayonida talab etiladigan xabardorlik asosida qarorlar qabul qilish faktlar va vaziyatlarga nisbatan tegishli bilimlar va tajribani qo'llashni taqozo etadi. Professional mulohaza qanday qarorlar qabul qilishda ayniqsa talab etiladi ?

Masala -2

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosi aksariyat hollarda standartlarni ishlab chiqish bo'yicha vakolatli yoki e'tirof etilgan tashkilot tomonidan belgilangan moliyaviy hisobotlar standartlarini yoki qonun hujjatlari yoki tartibga soluvchi organlarning talablarini qamrab oladi. Ayrim hollarda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosi standartlarni ishlab chiqish bo'yicha vakolatli yoki e'tirof etilgan tashkilot tomonidan belgilangan moliyaviy hisobotlar standartlari va qonun hujjatlari yoki tartibga soluvchi organlarning talablarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Boshqa manbalar moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosini qo'llash bo'yicha qo'llanma taqdim etishi mumkin. Ayrim hollarda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosi boshqa manbalarni ham qamrab olishi yoki hatto faqat shunday manbalardan iborat bo'lishi mumkin. Boshqa manbalarga nimalar misol bo'la oladi?

Masala -3

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan, umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlar auditiga nisbatan audit xat-kelishuvini taylorlang. Xat-kelishuvi bir hisobot davri moliyaviy hisobotlari auditni uchun tayyorlanishi kerak.

Masala -4

Auditni hujjatlashtirish qog'ozda yoki elektron yoki boshqa axborot vositalarida yozilishi mumkin. Auditni hujjatlashtirishga misollar keltiring.

1-masala javobi.

- Muhimlik va auditorlik riski.
- AXS talablariga rioxva etish va auditorlik dalillarini to'plash uchun qo'llaniladigan auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko'lami.
- Etarlicha tegishli auditorlik dalillari olingani yoki olinmagani va AXS maqsadlariga, binobarin, auditorning umumiyl maqsadlariga erishish uchun yana biron-bir tartib-taomilni bajarish talab etilishi yoki talab etilmasligi.
- Tadbirkorlik sub'ekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosini qo'llash paytida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining mulohazalarini baholash.
- Olingan auditorlik daliliga asoslangan xulosalarni ta'riflash, masalan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan baholashlarning haqqoniyligiga baho berish.

2-masala javobi.

- Buxgalteriya hisobi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va axloqiy muhit, shu jumladan qonun osti hujjatlari, me'yoriy hujjatlari, sud qarorlari va professional axloqiy majburiyatlar;

- Buxgalteriya hisobi masalalarining standartlarni ishlab chiqish bo'yicha tashkilotlar, professional yoki tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan e'lon etilgan, turli xil vakolatlarga ega bo'lgan talqinlari;
- Buxgalteriya hisobining yuzaga keluvchi masalalari xususida standartlarni ishlab chiqish bo'yicha tashkilotlar, professional yoki tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan, turli xil vakolatlarga ega bo'lgan fikrlar;
- Keng e'tirof etilgan va tarqalgan umumiy va sohaviy usullar; va
- Buxgalteriya hisobiga doir adabiyotlar.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosi bilan bunday asosni qo'llashga doir qo'llanmani olish mumkin bo'lgan manbalar o'rtaida yoki moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosini qamrab oluvchi manbalar o'rtaida ziddiyatlar mavjud bo'lgan holda eng yuksak vakolatlarga ega bo'lgan manba ustunlik qiladi.

3-masala javobi.

Audit xat-kelishuvi.

AVS kompaniyasi rahbariyati yoki boshqaruvin yuklatilgan shaxslarining tegishli vakiliga:

Audit maqsadi va ko'lami

Siz bizga AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrga bo'lgan buxgalteriya balansi, ko'rsatilgan sanada tugagan yil uchun soyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisoboti va pul oqimlari to'g'risidagi hisobotini, shuningdek hisob siyosati printsiplari va boshqa izohlovchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazishni so'rab murojaat etibsiz. Biz ushbu audit kelishuvini qabul qilishimiz va tushunishimizni mazkur xat orqali tasdiqlashdan mammunmiz. Bizning auditimiz moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr bildirish maqsadida o'tkaziladi.

Auditning majburiyatları

Biz auditni Auditning Xalqaro standartları (AXS)ga muvofiq o'tkazamiz. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotlar muhim buzib ko'rsatishlardan xoli ekanligiga oqilona ishonch hosil qilish imkonini beradigan tarzda rejashtirish va o'tkazish majburiyatini yuklaydi. Audit moliyaviy hisobotlardagi summalar va ochib berilgan ma'lumotlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o'z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar auditning mulohazasiga, shu jumladan moliyaviy hisobotlarda firligardlik yoki xato tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog'liq bo'ladi. Shuningdek audit qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asosliligini baholashni hamda moliyaviy hisobotlarning umumiyy taqdim etilishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Auditga xos bo'lgan cheklashlar va ichki nazorat tizimiga xos bo'lgan cheklashlar tufayli, hatto audit lozim tarzda rejashtirilgan va AXS ga muvofiq o'tkazilgan holda ham ba'zi bir muhim buzib ko'rsatishlar topilmay qolishi riski mavjud.

Bunday risklarni baholashda biz tadbirkorlik sub'ekti ichki nazorat tizimining samaradorligi darajasi to'g'risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatlarga mos keluvchi auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va haqqoniy taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan ichki nazorat tizimini o'rganamiz.

Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining majburiyatları va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosini belgilash (mazkur misol kontekstida auditor qonun hujjatlari yoki me'yoriy hujjatlarda bunday majburiyatlar tegishli sharflarda belgilanganini aniqlamagani nazarda tutiladi; shu sababli ushbu AXSnинг 6(b) bandida bayon etilgan tavsiflar qo'llaniladi).

Biz auditni o'tkazishda [tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati va, zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslar] o'zları quyidagilar uchun javob berishlarini e'tirof etishlari va tushunishlariga asoslanamiz:

Moliaviy hisobotlarni Moliaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish uchun;

Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli bo'lgan moliaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb belgilangan ichki nazorat vositalari uchun;

Auditorga quyidagilarni taqdim etish uchun:

Moliaviy hisobotlarni tayyorlash uchun ahamiyatli ekanligi (tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati)ga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni, masalan, yozuvlar, hujjatlar va boshqa axborotni;

Auditni o'tkazish maqsadlarida auditor (tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati)dan so'rab olishi mumkin bo'lgan qo'shimcha axborotni;

Auditor tadbirkorlik sub'ektining qaysi shaxslaridan auditorlik dalillarini olish zarur deb hisoblagan bo'lsa, shu shaxslar bilan muloqot qilish uchun cheklanmagan imkoniyatlarni.

Auditni o'tkazish jarayonida doirasida biz (tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati va, zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslar)dan audit munosabati bilan bizga berilgan bayonotlarning yozma tasdig'ini talab qilamiz.

Biz audit jarayonida xodimlaringiz biz bilan har tomonlama hamkorlik qilishlariga umid qilamiz.

(Boshqa tegishli ma'lumotlar)

(Boshqa ma'lumotlarni, masalan, gonorar, schyotlar taqdim etish to'g'risida ahdlashuvlarni va boshqa maxsus shartlarni kiriting.)

(Hisobot)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi)ning kutilayotgan shakli va mazmunini tegishli ravishda tavsiflang.)

Auditimiz natijalariga ko'ra hisobotimizning shakli va mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish talab etilishi mumkin.

Biz o'tkazadigan moliyaviy hisobotlar audit shartlarini, shu jumladan bizning tegishli majburiyatlarimizni Siz e'tirof etishingiz va ularga rozi ekanligingizni tasdiqlash uchun, iltimos, ushbu xatning ilova qilinayotgan nusxasiga imzo chekih, uni hizga qaytarsangiz.

XYZ & Co

**AVS kompaniyasi nomidan e'tirof etaman va tasdiqlayman
(imzo).....**

Familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi
Sana

4-masala javobi.

- Audit dasturlari.
- Tahlillar.
- Masalalar bo'yicha memorandum.
- Ahamiyatli masalalarning qisqa bayoni.
- Tasdiqnoma va taqdimot xatlari.
- Nazorat ruyxatlari.
- Ahamiyatli masalalarga tegishli yozishmalar (jumladan, elektron-manzil orqali).

Auditor tadbirkorlik sub'ekti yozuvlarining (masalan, ahamiyatli va o'ziga xos shartnomalar va kelishuvlarning) ko'chirmasi yoki nusxalarini auditni hujjatlashtirishning qismi sifatida keltirishi mumkin. Biroq, auditni hujjatlashtirish tadbirkorlik sub'ekti buxgalteriya yozuvlarining o'rnini bosmaydi.

3 BOB. AUDITNI REJALASHTIRISH.

3.1. Auditni rejorashtirishning umumiylar.

AXS 300 “Moliyaviy hisobot auditini rejorashtirish” quyidagi bo‘limlardan iborat:

- kirish;
- auditini rejorashtirish;
- auditning umumiylar;
- audit dasturi;
- auditning umumiylar va audit dasturidagi o‘zgarishlar.

Mazkur standart moliyaviy hisobot auditni rejorashtirishni tartibga soladi. Rejorashtirish audit o‘tkazish samaradorligini ta’minlash uchun zarur.

Auditni rejorashtirish umumiylar audit strategiyasini aniqlash bilan birga auditning masshtabi va muddatlarini belgilaydi. Audit o‘z vaqtida boshlanishi va samarali o‘tkazilishi kerak. Auditni rejorashtirish quyidagi larni ta’minlaydi:

- auditning eng muhiim jabxalarini belgilaydi;
- auditorlar o‘rtasida ish hajmini samarali taqsimlaydi;
- biznes haqida tushinchaga ega bo‘lish;
- moliyaviy hisobotga ta’sir o‘tkazuvchi muhim holatlarni belgilash.

Auditni rejorashtirish uchun byuritmachi haqida quyidagi ma’lumotlar olinishi kerak:

- tashkiliy huquqiy asos;
- mulk shakli;
- faoliyat tarmog’i;
- faoliyat turi;
- tashkiliy tuzilma;
- moliyalashtirilish manbalari;
- tarmoqdagi iqtisodiy holat.

Audit umumiy rejasining shakli va mazmuni iqtisodiy sub`ekt biznesining xajmi darajasi, auditorlik nazoratining murakabligi, qo'llaniladigan aniq usullar va texnologiyalar darajasida o'zgarishi mumkin. Audit samaradorligini yuqori darajada taminlash maqsadida, byurmachi tashkilot xodimlari ish grafigiga uyg'unlashish uchun audit rejası elementlari yuzasidan raxbariyat bilan kelib olinishi kerak. Binobarin audit rejası va dasturiga javobgarlik auditor zimmasida qoladi. Audit umumiy rejasining mazmuni va yo'nalishlari 6-jadvalda keltirilgan.

Audit o'tkazish jarayonida, turli kutilmagan holatlar va vaziyatlardan kelib chiqib umumiy reja va dasturga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. AXSda ushbu o'zgartirishlarning sabablari izxoxlanishi va hujjatlashtirilishi kerakligi qayd etilgan.

Auditorlik tekshiruvi mazkur auditor yoki auditorlik firmasi tomonidan tashkilotda ilk bor o'tkazilayotgan bo'lsa auditni rejalashtirishga alovida talablar belgilangan. Tekshiruvchilar rahbari auditni rejalashtirish oldidan avval o'tkazilgan audit bilan bog'liq holatlarni va auditorlik firmasini o'zgartirilishi sabablarini baholab olishi kerak (Etik kodeks IFAS talablari asosida).

Mazkur holatda odatiy rejalashtirishdan farqli quyidagi masalalar e'tiborga olinishi kerak:

- belgilangan tartibda avval o'tkazilgan audit ish hujjatlari bilan tanishish;
- tekshiriladigan korhona yoki tashkilot vakillari bilan qo'llanilgan hisob ta'moyillari va auditning muhim jihatlari bo'yicha kelishib olish;
- schetlarning boshlang'ich qoldiqlari yuzasidan audit amallarini belgilash (AXS 510 " Dastlabki audit kelishuvlari – boshlang'ich sal do" asosida).

AXS ga asosan audit umumiy rejasining mazmuni va yo‘nalishlari

Bo‘lim	Savollar tarkibi
Biznes haqida tushinchaga ega bo‘lish.	<ul style="list-style-type: none"> - Sub`ekt faoliyatiga ta’sir etuvchi tarmoqdagi iqtisodiy muhit va omillar. - Sub`ekt biznesi xarakteristikasi, moliyaviy ho‘jalik faoliyati va hisobotiga talablar, avvalgi o‘tkazilgan mustaqil audit sanasidan keyingi o‘zgarishlar. - Raxbaryatning umuimiy kompetentligi darajasi.
Buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini o‘rganish.	<ul style="list-style-type: none"> - Sub`ekt qabul qilgan hisob siyosati va undagi o‘zgarishlar. - Buxgalteriya hisobi va audit me’yorlaridagi o‘zgarishlar. - Buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini o‘rganish natijasida olingan hulosalar, nazorat testlari va audit amallari.(AXS 520-530.)
Risk va muhimlik.	<ul style="list-style-type: none"> - Mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan risk hamda ichki nazorat riskini baholash va audit yo‘nalishini belgilab olish.(AXS 330) - Audit uchun muhimlik darajasini belgilab olish (AXS 320); - Mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan xato va firiqgarlikni inobatga olish(AXS240). - Baholash bilan bog’liq murakabliklarni inobatga olish. - Informatsion texnologiyalar ta’sirini inobatga olish. - Ichki audit ta’sirini inobatga olish (AXS 610). - Auditning maxsus usullarini qo‘llash.
Boshqa yo‘nalishlar.	<ul style="list-style-type: none"> - Bo‘lim va filiallarni tekshirish uchun boshqa auditorlarni jalb etish. - Ekspertlarni jalb etish(AXS620). - Tekshiruluvchi bo‘limlar miqdori. - Xodimlarga bo‘lgan talab. - Korxonai faoliyatining uzluksizligi shubha ostida bo‘lsa(AXS 570). - Bog’liq taraflar bilan bo‘lgan muammoli holatlar (AXS 550). - Audit o‘tkazish yuzasidan kelishuv. - Sharhnomaga muvofiq auditni tugatish muddati va hisobot shakli.

3.2.Hisob va hisobotdagি firibgarliklarnи o'rganishda auditorning majburiyatлari

AXS 240 – “Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish jarayonida aniqlangan firibgarliklar yuzasidan auditorning majburiyatлari”

Xato – moliyaviy hisobotdabilimsizlik oqibatida xotoga yo'l qo'yish. Ushbu xolat buxgalteriya ma'lumotларини qayta ishlashda vujudga kelishi mumkin. Bundan tashqари baholashni notо'g'ri o'tkazish , ma'lum bir summani tushirib qoldirish yoki ma'lumotni ochib bermaslik oqibatida ham kelib chiqadi.

Firibgarlik – ma'lumotni o'z manfaatlari yo'lida ataylab buzib ko'rsatish. Buxgalteriya ma'lumotларини notо'g'ri ko'rsatish , ularни soxtalashtirish, hisobotda ho'jalik jarayonларини qalbakilashtirish orqali foydalanuvchilarni chalg'itish va hakazo

Raxbariyat tomonidan amalga oshiriladigan ko'zbo'yamachiliklar aniqlash borasida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. AXS 240da bir qator misollar keltirilgan, masalan:

- Hisob kitob schyoti bo'yicha o'zlashtirish shemalari;
- Hisobdan chiqarilgan aktivlarni hisobda aks ettirmay sotish;
- Soxta kontagentlardan foydalanish va xodimlarni ishlatish;
- Raqobatchilarga intelektual mulkni sotib yuborish va boshqalar.

Auditorning javobgarligi.

Auditning umumiy qabul qilingan standartлари talab qilishicha, audit moliyaviy hisobotdagи muhim noaniqliklarnи topishni ta'minlash darajasida o'tkazilishi kerak. So'ng, audit shunday rejalashtirilishi kerakki, u topshiriqning barcha jabhalarini qamrab olishi va ma'lum darajadagi kasbiy sinchkovlik bilan olib borilishi zarur. Shuni qayd etish kerakki, kompaniya ma'muriyati, albatta, hammani aldamoqchi degan fikr auditordan yiroq bo'lishi va shu bilan birga u bunday hol mavjud bo'lishi ehtimolini ham nazarda tutishi kerak.

Albatta, yuqoridagi fikrlаримиз ta'kidlashicha, auditor moliyaviy hisobotning mutloq to'g'riliги haqida kafil bo'la olmaydi. Agarda auditor moliyaviy hisobotning barcha bo'g'lnlari bo'yicha mutloq kafolat berishni bo'yniga olganda, zarur auditorlik isbotлари va audit narxi shu darajada yuqori bo'lar ediki, iqtisodiy jihatdan audit keraksiz bo'lib qolar edi. Shu

sababli audit jarayonida muhim noaniqlik topilmasa, auditorga u umumiy qabul qilgan auditorlik standartlari asosida ish olib borilganligini isbot qilish yetarli bo'ladi

Yuqorida qayd etilganidek, auditorlik amaliyotida ikki xil turdag'i noaniqliklar farqlanadi: xato va me'yorlardan chetlashish. Xato - bu moliyaviy hisobotning o'zi bilmagan holda buzish holati, me'yorlardan chetlashish - bu moliyaviy hisobotni ataylab buzish holatidir.

Me'yorlardan chetlashish bu, aktivlarning o'g'irlanishi, ya'ni xizmatchilarining nopligi va boyliklarni shaxsiy manfaati yo'lida sarflab yuborishi bo'lsa, moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilishi esa ma'muriyat nopligi oqibatidir.

Aktivlarning o'g'irlanishiga misol tariqasida omborlardagi kamomadlar yoki xizmatchi tomonidan sotilgan mahsulot uchun naqd pul tushumini kassaga kirish qilmasligini (yoki kassa apparati orqali o'tkazilmasligini) keltirish mumkin. Moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilishiga misol qilib esa, balans topshirish sanasiga, yaqin kunlarda foydani oshirib, e'lon qilish maqsadida realizatsiya ko'rsatkichini oshirib ko'rsatishni misol qilish mumkin.

Auditorlarga ko'pincha me'yorlardan chetlashish hollarini aniqlash xatoni aniqlashga nisbatan qiyinroqdir, chunki me'yorlardan chetlanishni bilib turib, noto'g'ri xulosa berish, yolg'on va buzib ko'rsatish bilan vujudga keladi. Me'yorlardan chetlashish holini aniqlash auditordan o'ziga xos sinchkovlikni talab qiladi.

Ma'muriyat nopligi. Mohiyati jihatidan ma'muriyat nopligli shunday holatki, uni aniqlash mushkul vazifadir, chunki bitta yoki bir necha yuqori mansabdagi rahbarlarga ichki nazorat tizimini chetlab o'tish yengildir. Ko'p hollarda me'yorlardan chetlashish hollarini hisobda niqoblab ko'rsatishga harakat qilinadi. Shu sababli ham auditorlarga xatoni aniqlab topishdan ko'ra ma'muriyat nopligini aniqlash qiyindir. Lekin auditorlar ma'muriyat nopligini aniqlashda ahamiyatli darajada javobgardirlar. So'nggi yillarda kompaniya ma'muriyatining nopligini aniqlab, uni tahlif qilishda auditorlar javobgarligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xizmatchilar nopolkligi. Shuni qayd etish kerakki, ma'muriyat nopolkligini aniqlashdagi auditor javobgarligidan ko'ra xatoni aniqlashdagi javobgarlik doimo yuqori bo'ladi. Agarda auditor jami xizmatchilar nopolkligini aniqlashi zarur bo'lganda edi, audit chegaralarini shu darajada kengaytirishga to'g'ri kelar va bunda audit tannarxi shu darajada oshib ketar ediki, nopolklikni aniqlashdan olingan naf uni aniqlash uchun ketgan xarajatlarni qoplamas edi. Chunki bir necha xizmatchilar kelishib, ularga ma'lum hujjatni qalbakilashtirsa, bunday xatoni topish oddiy audit chegaralaridan chiqib ketadi va bir qancha murakkabliklarni o'z ichiga oladi.

Auditor xizmatchilar nopolkligi mavjudligi ehtimolini xuddi ma'muriyat nopolkligi mavjudligi ehtimolini baholaganicha baholashi kerak. Ko'pincha bunday baholash audit muolajalarining asosiy bo'g'ini sifatida ishning boshlang'ich davrida amalga oshirilib, mavjud xo'jalik tizimidagi ichki nazorat tizimini o'rGANISH va shu nazorat bilan bog'liq tavakkalchilik darajasini aniqlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birga auditor, zarur nazorat tizimi mavjud emasligini yoki xizmatchilarning zarur nazorat bosqichlarini chetlab o'tish hollari mavjudligini aniqlasa, auditorlik isbotlari hajmini oshirib, bu hol muhim darajadagi me'yordan chetlashishga olib keladi, deb hisoblaydi.

Qonundan tashqari bo'lgan holatlari. Bu tushunchaga "me'yordan chetlashish" guruhiга tushadigan mavjud qonunchilikni buzish va davlat yo'riqnomalariga rioya qilmaslik holatlari kiradi. Misol tariqasida soliq qonunchiligi yoki tabiat muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlarga rioya qilmaslikni keltirish mumkin.

Audit standartlarida keltirilishicha, auditor jami qonundan tashqari bo'lgan holatlarni aniqlashni kafolatlashi mumkin emas. Mohiyati jihatidan ko'pchilik qonundan tashqari bo'lgan holatlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli auditordan jami qonundan tashqari bo'lgan holatlarni aniqlashni talab qilish noto'g'ri bo'lar edi. Auditorlarda qonunlar yuzasidan maxsus bilim yo'q, chunki u advokat emas.

Me'yordan chetlashish va xatoni aniqlash borasida amalga oshirilgan ko'pchilik auditorlik muolajalari qonundan tashqari bo'lgan

holatni ochishga yordam beradi. Quyida qonunlardan tashqari bo'lgan holat yuzasidan auditor vazifalarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Qonundan tashqari holat mavjudligi haqida sabablar yo'q bo'lganda auditorlik dalillari to'plash.

Auditor direktorlar kengashi majlisining bayonnomasi bilan tanishishi va sudlanuvchilar yuzasidan mijoz advokatlari bilan suhbatlar o'tkazishi mumkin. Ma'muriyatdan qonundan tashqari holatlarni bartaraf etish yuzasidan bajarilayotgan ishlari ko'lami bilan tanishtirishni talab qilishi mumkin bo'lib, shu muolajalardan tashqari qo'shimcha qadamlar qo'yish auditorga tavsiya etilmaydi.

Qonundan tashqari holatlar mavjudligi haqida sabablar bor paytda auditorlik dalillarini to'plash.

Auditor qonundan tashqari bo'lgan holatning mavjudligi nishonalarini bir necha xil usul bilan aniqlashi mumkin. Masalan, auditor majlis bayonnomasidan ma'lum bir davlat tashkiloti tomonidan tergov olib borilayotgani haqida yoki maslahatlar olish uchun katta miqdorda sarf xarajatlar qilinayotganligi yuzasidan ma'lumotlar olishi mumkin.

Agarda auditor qonundan tashqari holat mayjudligi haqida asos topsa, quyidagi qadamlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Birinchidan, tekshirilayotgan ma'muriyatdan yuqori bo'lgan ma'muriyat bilan maslahatlashib olishi kerak. Ikkinchidan, auditor yurist-konsul tant bilan yoki aniqlangan holatni qonundan tashqari ekanligini kasbiy asoslab beruvchi boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashib olishi kerak. Uchinchidan, qo'shimcha auditorlik dalillarini yig'ish ustida o'ylab ko'rish kerak, chunki haqiqatda qonun buzilganligini to'la isbotlash zarur bo'ladi. Shu uchta qadam auditorga qonundan chetlashish holati mavjud yoki yo'qligi haqida to'la ma'lumot beradi.

Qonundan tashqari holat mavjudligi haqida to'la ishonch hosil bo'lganda auditorning majburiyati:

Qonundan tashqari holatni aniqlagach, auditor avvalambor bu holatni moliyaviy hisobotga qay darajada ta'sir etganligini aniqlashi kerak. Bu vazifa bir qancha murakkabdir. Agarda moliyaviy hisobot shu holat tufayli kompaniya faoliyatini to'g'ri aks ettirmasa, auditor o'z xulosasini

o'zgartirishi kerak bo'ladi. Bu holatda ham, albatta, yurist-konsul tant bilan maslahatlashish maqsadga muvofiqdir.

Firibgarlikni aniqlash va oldini olish avvalam bor tekshirilayotgan tashkilot ma'muriyati va boshqaruv hodimlari zimmasidagi vazifadir. Ushbu vazifaning qay darajada bajarilishi ko'p jixatdan korxona tashkiliy tuzilmasi va hizmat vazifalarining taqsimlanishiga bog'liq. Firibgarlikni oldini olish muhim jarayon ekanligiga AXS 240 da alohida urg'u berilgan va hodimlarning ahloqiy me'yorlarga rioya qilishi asosiy omil ekanligi qayd etilgan. Shuningdek firibgarlikni oldini olishda ichki inazorat tizimining o'rni katta.

AXS 240 - "Moliyaviy hisobot auditini o'tkazish jarayonida aniqlangan firibgarliklar yuzasidan auditorning majburiyatlar" standartida belgilanishicha firibgarlikni aniqlash xatoni aniqlash riskidan yuqori bydadi, chunki firibgarlikni turli shemalar asosida har tomonidan niqoblashga harakat qilinadi. Auditor tomonidan aniqlash murakkab bo'lgan firibgarlik bu kelishuv asosida amalgalash oshirilgan nopliliklardir.

Xalqaro audit amaliyoti izzoxi (XAAI) milliy standartlarni qo'llayotgan tomonlar tarafidan tatbiq etishga mo'ljallangan moliyaviy instrumentlardan foydalanish risklariga tegishli boshqa ko'rib chiqishlarda ham quyidagilar qayd etilgan:

- Firibgarlik riski, qaysiki oshishi mumkin, agarda, masalan, moliyaviy firibgarlikni sodir etish holatida bo'lgan xodim ham moliyaviy instrumentlarni ham ularni hisobga olish tartiblarini tushunsa, ammo rahbariyat va boshqaruv yuklatilgan shaxslar kamroq darajadagi tushunchaga ega bo'lsa.

- Bosh hisob-kitob kelishuvlari tegishli tarzda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmasligi mumkin bo'lgan holatdagi risk.

- Ayrim moliyaviy instrumentlar o'zlarining muddati mobaynida aktivlarga yoki majburiyatlarga aylanish o'rtasida o'zgarishi mumkin bo'lgan va bunday o'zgarish tezda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatdagi risk.

3.3. Auditda riskni baholash va muximlik darajasi belgilash.

Hozirgi kunda auditni rivojlantirish uning iqtisodini tashkil qiluvchi omillar haqida fikr yuritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Auditlik nazorati iqtisodining asoslarini o'rganish auditning zarurligi va ayrim auditorlik muammolarni tushunishiga yordam beradi. Ayrim ish yuritish risklari moliyaviy hisobot ma'lumotlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi va shu sababli auditorlik tekshiruvi davomida alohida inobatga olinishi kerak. AXS 315 "Iqtisodiy sub'ekt va uning ishtirokchilari faoliyatini o'rganish hamda muhim xatoliklar riskini baholash" standarti bunday risklarga nisbatan auditor rejalashtiradigan audit amallarini belgilaydi.

Misol tariqasida bank tomonidan korxonaga ssuda berish masalasini hal qilish ustida to'xtalamiz. Buning uchun bank shu korxona bilan avvalgi aloqalarga e'tibor beradi va moliyaviy hisobotda aks ettirilgan korxonalarining iqtisodiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanadi. Ssuda uchun foizlarni belgilashda bank asosan quyidagi 3 ta omilga asoslanadi:

1. Risksiz foiz miqdori, ya'ni hech qanday xatarsiz kredit, foizlari bilan qaytib keladigan darajadagi miqdor. Bu miqdor uncha katta bo'lmay, sinalgan mijozlarga beriladi.

2. Iste'molchining xo'jalik riski. Turli iqtisodiy va xo'jalik sharoitlari tufayli mijozning olgan qarzini uza olmasligi riski. Bu sharoitlarga ishlab chiqarish darajasining turli sabablarga ko'ra tushib ketishi va hokazolar kiradi.

3. Ma'lumot riski. Bu risk xo'jalik riskini hisobga olishda foydalanilgan ma'lumotni aniq emasligi yoki noto'g'ri ekanligidan kelib chiqadi. Ma'lumot riskining sababi bu mijozning moliyaviy hisobotini xatodan xolis emasligidadir.

Auditlik nazorati birinchi va ikkinchi omillarga ta'sir qilmaydi, lekin ma'lumot riskiga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin. Agar bank boshqaruvchisi ma'lumot riski yo'qligiga ishonch hosil qilsa, u foiz miqdorini kamaytirishi mumkin.

Ma'lumot riskining sababları. Jamiyat tizimi va vazifalarining murakkablashib borishi qarorlar qabul qiluvchi shaxslar tomonidan ishonchsiz ma'lumotlar berishligi ehtimolini kuchaytiradi. Bu bir necha sabablar oqibatida vujudga keladi: ma'lumot manbalarining olisligi, mol yetkazib beruvchining istagini yuqoriligi, ma'lumot miqdorining ko'pligi va murakkabligi.

Ma'lumot manbalarining olisligi - iqtisodiy aloqalar murakkab tizimli bo'lgan sharoitda qarorlar qabul qiluvchi shaxs birlamchi manbalardangina yetarli ma'lumot olishi mumkin, deb o'yashi xato bo'sadi. Ma'lumot boshqa turli manbalardan ham olinishi mumkin, lekin bu ma'lumotlar ishonchli bo'lishi kerak. Albatta, bunday sharoitda ma'lumotning buzib ko'rsatilishi ehtimoli yuqori bo'sadi.

Mol yetkazib beruvchi xohish-istagining yuqorligi - Agarda ma'lumot beruvchi bilan qaror qabul qiluvchining maqsadlari mos bo'lmasa, unda ma'lumot noaniq yoki mol yetkazib beruvchining maqsadlarini ko'zlagan holda tayyorlanishi mumkin. Masalan, ssuda berish bo'yicha ijobji qaror qabul qilinishini ko'zlab, qarz oluvchining moliyaviy hisoboti o'z foydasiga moslashtirib keltirilishi natijasida bir qator xato xulosalarga olib keladi.

Ma'lumot miqdorining ko'pligi va murakkabligi - tashkilotning kengayib borishi uning aloqalarini kengaytiradi, bu o'z navbatida hisob hujjatlariga noto'g'ri ma'lumot qayd etishiga olib kelishi mumkin. Kichik miqdordagi xatoni aniqlash, albatta qiyin, lekin shuni nazarda tutish kerakki, kichik xatolar yig'ilib borgach, uning miqdori oshib boradi, ya'ni faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillar davomida tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarning murakkablashib borishi ularni to'g'ri hisobga olishni ham qiyinlashtirmoqda. Masalan, kapital diversifikatsiyasi turli tarmoqlarni o'zlashtirishga va qaram korxonalarning tashkil qilinishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda umumlashgan hisobtlarning haqqoniyligini tekshirish har bir qaram korxonada alohida audit o'tkazish zaruriyatini tug'dirib, bir qator muammolarni hal qilishni taqozo etadi. Ijara munosabatlari ham kengayib bormoqda, bu ham o'z navbatida to'g'ri va aniq hisob olib borishni murakkablashtiradiki, audit oldidagi vazifalarni yanada oshiradi.

Ma'lumot riskini pasaytirish - ma'muriyat va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar doimo ma'lumot riskini yuqori deb hisoblab, ish yuritishlari mumkin, lekin bu riskni pasaytirish borasida qilingan xarajatlar ko'proq samara berishi hozirgi kunda o'z isbotini topmoqda. Ma'lumot riskini pasaytirishning asosan uch usuli farqlanadi:

Foydalanuvchi ma'lumotni tekshiradi, ya'ni foydalanuvchi hisobotlarning haqqoniyligiga shaxsan hisob yozuvlari va birlamchi hujjatlarni tekshirish orqali ishonch hosil qiladi. Ammo bu usul katta xarajatlar talab qilganligi uchun amalda kam qo'llaniladi. Aksariyat soliq organlari tuzilgan deklaratsiyalarning haqqoniyligini tekshirish uchun bu usuldan foydalanadi.

Foydalanuvchi ma'lumot riskini ma'muriyat bilan birga taqsimlaydi, ya'ni ma'muriyat xato ma'lumot bersa, foydalanuvchi ko'rgan moliyaviy zararini qoplashi kerak bo'ladi.

Auditlik nazoratidan o'tgan moliyaviy hisobot taqdim etish - ishonchli ma'lumot olishning odatiy usuli bu - xolis audit o'tkazishdir. Albatta, foydalanuvchilar ko'pehilikni tashkil qilgan sharoitda audit o'tkazish qulay va arzon tushadi.

Qoida bo'yicha auditorlarni ma'muriyat moliyaviy hisobotlarini to'g'riligiga xulosa berib, foydalanuvchilarga kafolot berish uchun yollaydi. Agarda moliyaviy hisobot noto'g'ri tuzilgan bo'lib chiqsa, auditorlar foydalanuvchilar tomonidan ham, ma'muriyat tomonidan ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xo'jalik yuritish amaliyotida yuqorida keltirilgan uch usul ham ma'lumot riskini pasaytirish uchun qo'llaniladi. Jamiyat taraqqiyoti murakkablashib borishi ma'lumot riskini pasaytirishda auditning o'rmini oshirmoqda.

Tekshirilayotgan korhonaning **ish yuritish risklarini auditorlik riski** bilan chalkashtirib bo'lmaydi. Auditorlik riski - AXS 200 ning 23-punktida da "moliyaviy hisobotda muhim xato mavjudligini o'tkazib yuborish oqibatida auditor tomonidan noto'g'ri fikr bayon etish riski" sifatida keltirilgan. Shuningdek "etarli ishonch" kontseptsiyasi auditorlik riski mavjud bo'lishini tan oladi.

Matematik terminalogiyani qo'llansa auditorlik riski xato mayjud bo'lishi va uni aniqlanmay qolishi risklarining hosilasidir. AXS 315 va AXS 330 talablariga binoan auditor tekshirishni rejalashtirish va audit amallarini qo'llashda baholangan aniqlanmaslik riskini minimal darajaga tushirishga xarakat qilishi kerak.

Auditorlik riskini uch qismga bo'lish mumkin, ya'ni **muhim xatolar mavjudligi riski, ichki nazorat riski va xatoni aniqlanmaslik riski**. Birinchi va ikkinchi qism ikki tarkibiy bo'limdan iborat: hisobotdagi risk va nazorat vositalari riski.

Hisobotdagi risk – bu hisobot va ayrim tasdiqlovchi ilovalar elemetlaridagi ma'lumotlarning buzib yoki soxtalashtirib ko'rsatilishi bilan bog'liq aniqlanmaslik riskidir. Bunday risklar tashqi omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Nazorat vositalari riski – mayjud xato, buzib ko'rsatishlar va sohta ma'lumotlarni o'z vaqtida ichki nazorat tizimi bilan aniqlanmay qolishi riski. Ushbu risk boshqaruvtuzilmasi va ichki nazorat tiziminining samaradorligiga bog'liq.

Hisobotdagi risk va nazorat vositalari risklari tekshirilayotgan korxona faoliyatiga bog'liq bo'lib auditor ularni yetarli baholashi va rejalashtirishi kerak. AXS yuqorida risklarni umumlashgan holda muhim xatolar mavjud bo'lishi darajasida baholaydi. Auditorga ushbu risklarni alohida yoki umumiylash erkinligi berilgan.

Auditorlik riskining uchinchi qismi bu xatoni aniqlanmaslik riski – tekshirish davri, audit o'tkazish vaqt, audit amallari va ularni rejalashtirish bilan bog'liqdir. AXS da Auditor riskni pasaytirish uchun tekshirishni to'g'ri va sifatli rejalashtirishi hamda yetarli va to'liq auditorlik dalillarini to'plashi kerakligi qayd etilgan.

Auditor tekshirish davomida ma'lumotning muhimligi va uni auditorlik riski bilan bog'liqligini inobatga olishi talab etiladi. "Muhimlik" tushinchasi AXS 320 "Auditda muhimlik tushinchasi" nomli standartda batafsil yoritilgan. Ushbu standart quyidagi bo'limlardan iborat:

- kirish;

- muhimlik;
- muhimlik va auditorlik riskining bog'liqligi;
- buzib ko'rsatishlarning oqibati.

Auditorlik hisobotlarida o'tkazilgan audit chegaralari yoritilib, unda hisobot muhim xatodan xoli bo'lishiga yetarli darajada ishonch hosil qilish auditning maqsadi ekanligi ko'rsatiladi. Hisobot «Muhim» degan so'zning ko'rsatilishi auditor faqat muhim, ahamiyatli xatolarni ko'rsatishga javobgarligini anglatadi. «Etarli darajada ishonch» degan so'zlar auditorni mutlaq xatolarni aniqlab topadi, degan ma'noni anglash xato ekanligini ko'rsatib, ahamiyatli xatolar, me'yordan chetlash ehtimoli bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. AXS da belgilanishicha audit yuqori darajada ishonchni ta'minlaydi, lekin mutlaq kafolat bermaydi.

Auditni rejalashtirish davrida muhimlik darajasi aniqlab olinadi. Muhimlik darajasini belgilashda asosan statistik usullardan keng foydalilaniladi. Aksariyat hollarda ma'lumotlar ko'rsatkichlari oraliq tanlab olish intervallari aniqlab olinadi. Interval oralig'i qancha kichik bo'lsa auditorlik riski shuncha past bo'lishi mumkin va aksincha. Lekin kichik intervallarni belgilash ish hajmini oshiradi va audit o'tkazish davrini uzaytirib yuborishi mumkin.

Auditda muhimlikning ikki qirrasi mavjud, ya'ni sifat va miqdor. Auditni rejalashtirishda muhimlikni miqdor jihatdan aniqlab olish zarurdir. Muhim xatoliklarni miqdor jihatdan baholash bilan birga auditor ularni sifatini ham mohiyati jihatdan ham tahlil qilib olishi kerak bo'ladi. Masalan, hisob siyosatini yetarli keltirilmaganligi va asoslanmaganligi. Shu bilan birga, miqdori uncha katta bo'lмаган summalarini doimiy buzib ko'rsatish to'planib borib moliyaviy hisobotga muhim tasir ko'rsatishini ham inobatga olinish kerak.

Auditor muhimlikni umumiy moliyaviy hisobotga nisbatan ko'rib chiqish bilan birga har bir schyot sal dosi va muomilalar turiga nisbatan ham hisobga olishi mumkin.

Auditorlik riski va muhimlik ko'rsatkichi rejalashtirilgandan farqli audit yakunida o'zgarishi ham nazarda tutilgan va ehtimoldan holi emas.

AXS da auditorlik riski va muhimlik o'rtasida teskarı aloqa mavjudligi qayd etilgan. Muhimlik darajasi qancha yuqori bo'lsa auditorlik riski shuncha past bo'ladi. Agar auditor xato yoki ma'lumotni buzib ko'rsatilishini muhim deb hisoblasa auditorlik riskini pasaytirishi mumkin. Buning uchun u quyidagi choralarни ko'rishi mumkin:

- xato yoki ma'lumotni buzib ko'rsatilishi miqdorini aniqlashtirish uchun auditorlik amallari ko'lamin kengaytirishi;
- rahbariyatga moliyaviy hisobotga o'zgartirishlar kiritishi yuzasidan taklif berish.

Tekshirilayotgan korxona rahbariyati moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini o'zgartirish taklifini rad etsa, auditor AXS 701 "Mustaqil auditor hisoboti (hulosasi) dagi modifikatsiyalar" standartiga asosan modifikatsiyalashgan auditorlik hulosasi taqdim etish masalasini ko'rib chiqishi mumkin.

AXS da qayd etilishicha Davlat sektoridagi auditorlik nazoratini o'tkazish jarayonida muhimlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun qonunchilik jabhalarini inobatga olib kerak.

Takrorlash uchun savollar.

1. Auditni rejalashtirishning umumiyl talablari.
2. Auditorlik tekshiruvining strategiyasi qanday shaklda tuziladi va uning maqsadi nimalardan iborat?
3. Auditorlik tekshiruvida rejalashtirishdan oldin qanday bosqichlar amalga oshiriladi?
4. Sub'ekt torisida asosiy ma'lumot manbasi bo'lib nimalar hisoblanadi?
5. Jiddiylik (moddiylik) ni baholashda qanday asosiy yondashuvlar mavjud?
6. Auditorlik tavakkalchiligini baholashda qanday usullardan foydalaniлади?

7. Sub`ektda ichki nazorat tizimini baholash nima maqsadlarda o'tkaziladi?

8. Ekspert – bu qanday mutaxassis? Auditda ekspertning tutgan o'rni.

9. Hisobotdag'i xato va firibgarliklarni o'rganishda auditorning majburiyatları nimalardan iborat?

10.Qanday holatlarda auditor ichki audit natijalaridan foydalanishi mumkin hamda qanday holatlarda auditor ekspert xizmatlaridan foydalanishi mumkin?

11. Ekspert xulosalariga asoslanib berilgan auditorlik xulosasi uchun kim javobgar hisoblanadi?

Vaziyatli masalalar.

Masala -1

Rejalashtirishni muhim buzib ko'rsatishlar risklari auditor tomonidan aniqlangunga yoki baholangunga qadar amalga oshirishda qanday masalalarни ko'rib chiqish zaruratinı o'z ichiga oladi?

Masala -2

Aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishga tegishli firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishning baholangan riskiga nisbatan audit munosabati muayyan schyot qoldiqlariga va operatsiyalar tasnifiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Aktivlarni noqonuniy o'zlashtirish oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishlar riskini auditor baholashiiga nisbatan amallarga misollar keltiring.

Masala -3

Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik sub'ekt va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholashda auditor ko'rib chiqishi mumkin bo'lgan masalalarga misollar keltiring.

Masala -4

Moliyaviy hisobotlar darajasida baholangan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga nisbatan umumiy yondashuv o'z ichiga nimalarni oladi?

1-masala javobi

- Risklarni baholash doirasida bajarilishi lozim bo'lgan tahliliy tartib-taomillar.
- Tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan qo'llaniladigan me'yoriy-huquqiy baza haqida va mazkur baza talablariga tadbirkorlik sub'ektining muvofiqligi haqida umumiy bilim olish.
- Muhimlik darajasini aniqlash.
- Ekspertlar ishtiroki.
- Risklarni baholash bo'yicha boshqa tartib-taomillarni bajarish.

2-masala javobi

- Yil oxirida yoki oxiriga yaqin naqd pullarni yoki qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish.
- Audit qilinayotgan davr uchun schyot bo'yicha operatsiyalarni (jumladan, kredit avizosi va tovarlarni qaytarish holati hamda to'lovlar amalga oshirilgan sanalar) bevosita mijozlar tasdiqlashi.
- Hisobdan chiqarilgan schyotlarning tiklanishini tahlil qilish.
- Joy yoki mahsulot turi bo'yicha tovar-moddiy zahiralar kamomadlarini tahlil qilish.
- Asosiy tovar-moddiy zahiralar koeffitsientlarini soha me'yori bilan taqqoslash.
- Uzluksiz tovar-moddiy zahiralar yozuvidagi kamayishlarni tasdiqlovchi hujjalashtirishni ko'rib chiqish.

- Manzillar yoki telefon raqamlari o‘xshashliklarini aniqlash uchun yetkazib beruvchilar ro‘yxatini xodimlar ro‘yxati bilan komp yuterlashgan qiyoslashni amalga oshirish
 - Takroriy manzillar, xodimlar shaxsini aniqlaydigan hujjat raqamlari yoki soliq organlari raqamlari yoki bank schyotlarini aniqlash uchun ish haqi to‘lovi qaydnomasi bo‘yicha komp yuterlashgan izlashni amalga oshirish.
 - Faoliyat dalilini kam qamrab olishi yoki umuman qamrab olmasligini, masalan faoliyatni baholashning mavjud emasligini, aniqlash jihatidan xodimlar shaxsiy hujjatlarini ko‘rib chiqish.
 - G‘ayrioddiy holatlar yoki yo‘nalishlarni aniqlash uchun sotuvtar chegirmalarini va qaytarishlarini tahlil qilish.
 - Uchinchilik tomonlardan muayyan shartnomalar shartlarini tasdiqlab olish.
 - Shartnomalar ular shartlariga muvofiq amalga oshirilayotganligi daliliga ega bo‘lish.
 - Yirik va g‘ayrioddiy xarajatlarning asosliligini ko‘rib chiqish.
 - Yuqori rahbariyat va o‘zaro aloqador tomon kreditlariga ruxsat berilishini va ushbu kreditlarning balans qiymatini ko‘rib chiqish.
 - Yuqori rahbariyat tomonidan taqdim etilgan xarajat hisobotlarining dajarasini va asosliligini ko‘rib chiqish.
 - 3-masala javobi
 - Buxgalteriya hisobi printsiplari va muayyan sohaga xos bo‘lgan amaliyotlar.
 - Tartibga solinayotgan soha me’yoriy bazasi.
 - Tadbirkorlik sub’ektining operatsiyalariga sezilarli darajada taalluqli bo‘lgan qonunchilik va me’yoriy baza, shu jumladan to‘g’ridan-to‘g’ri nazorat harakatlari.
 - Soliq solish (korporativ va boshqa soliqlar).
 - Hozirgi vaqtida tadbirkorlik sub’ekti biznesni yuritishiga ta’sir ko‘rsatayotgan hukumat siyosati, xususan pul-kredit siyosati, shu

jumladan valyuta nazorati tizimi, soliq imtiyozlari, moliyaviy imtiyozlar (masalan, hukumat yordami dasturlari), shuningdek tarif siyosati yoki savdoga oid cheklashtar siyosati.

- Tadbirkorlik sub`ektining sohasi va biznesiga taalluqli bo`lgan atrof muhitni muhofaza qilishga doir talablar.

4-masala javobi

- Professional skeptitsizm printsipiga rioya etish zarurligini audit kelishuvি jamoasi a`zolariga eslatish.
- Tajribaliroq xodimlardan yoki maxsus ko`nikmalarga ega bo`lgan shaxslardan iborat shtatni tayinlash yoki ekspertlarni jalb qilish.
- Nazoratni yanada sinchkovlik bilan amalga oshirish.
- Bundan buyon bajariladigan auditorlik tartib-taomillarini tanlashda kutilmaganlik qo`srimcha elemetlarini kiritish.
- Auditorlik tartib-taomillari xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko`lamiga umumiy o`zgartirishlar kiritish, masalan: mohiyati bo`yicha tekshirish tartib-taomillarini oraliq sanada emas, balki davr oxirida bajarish; yoki kengroq qamrovli auditorlik dalillarini olish maqsadida auditorlik tartib-taomillarining xususiyatini modifikatsiyalash.

4 BOB. AUDITORLIK DALILLARINI YIG'ISH.

4.1.Auditorlik dalillarining ko'rinishlari va manbalari.

Auditorlik dalillarini yig'ish jarayoni bozor iqtisodi talablaridan kelib chiqqan holda quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy hisobot haqqoniyligini baholash, ya'ni asosiy maqsad shu bahoni berish uchun yetarli dafil yig'ish.

- moliyaviy hisobotni qismlari bo'yicha baholash, ya'ni audit balansning har bir bo'g'ini bo'yicha o'tkaziladi va ma'lumotlar umumlashtiriladi.

- ma'muriyatning hisobot qismlari bo'yicha tasdiqlari va tushuntirishlarini tekshirish.

- qismlar bo'yicha auditning asosiy maqsadini belgilash.

Birma-bir bu bosqichlardan o'tar ekan, auditor o'z izlanishlarini chuqurlashtiradi va audit oldiga qo'yilgan maqsadga erishadi.

Moliyaviy hisobotni mustaqil auditor tomonidan tekshirishdan asosiy maqsad shu hisobotni kompaniya faoliyatini qay darajada haqqoniy aks ettirganini aniqlab, fikr berishdan iborat. Bundan tashqari mablag'larning harakati umumiyl qabil qilingan buxgalteriya printsiplariga mosligini ham tekshirish kerak. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasi audit andozasida keltirilgan bo'lib, unda moliyaviy hisobot tuzishda bajaritishi kerak bo'lgan talablar ham qayd etilgan, ya'ni moliyaviy hisobot:

a) foydalanuvchilarning, asosan, aktsiya egalarining ma'lumotga bo'lgan va moliyaviy talablarni qondirishi kerak;

b) tekshirilgan va haqqoniy ma'lumotlar asosida tayyorlanishi kerak;

v) asosiy foydalanuvchilar manfaatiga ziyon yetkazish mumkin bo'lgan xatolardan xoli bo'lishi kerak;

g) qonun talablariga javob berishi kerak;

d) O'zbekiston Respublikasida qabil qilingan buxgalteriya printsiplari asosida tayyorlanishi kerak.

Yuqoridagilarni tasdiqlash maqsadida auditor dalillar yig'ishi va xulosa tayyorlashi zarur. Agarda yetarli darajada dalillar yig'ilib, ular moliyaviy hisobot foydalanuvchisini chalg'itmasligiga ishonch hosil qilinsa, auditor shu moliyaviy hisobot bilan o'z nomini bog'lashi va shu

hisobotning haqqoniyligi to‘g’risida xulosa berishi mumkin, va aksincha, agarda moliyaviy hisobotgacha va u tuzilgandan so‘ng aniqlangan kamchiliklar hisobotdagi ma’lumotlarni buzib ko‘rsatsa, auditor foydalanuvchilarni o‘z hisoboti orqali ogohlantirishi zarur.

Kompaniya ma’muriyatining javobgarligi.

Yuqorida qayd etilganidek, hisob siyosatining to‘g’riliqi, xo‘jalik tizimida ichki nazoratni tashkil qilib ishlatish va moliyaviy hisobot tuzishning to‘g’riliqi uchun auditor emas, balki mijoz kompaniyaning ma’muriyatini javobgardi.

Auditda auditor oldida turgan maqsadga erishishi uchun zarur ma’lumotlarni to‘plashga ko‘maklashuvchi ko‘plab usullar mavjud. Auditor tekshirishga qanday yondoshishni ikki muhim tasavvurga asoslanib aniqlashi zarur:

1) auditor o‘ziga mutaxassislik javobgarligini olishi uchun ishga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni yetarli miqdorda to‘plashi zarur;

2) va bundan tashqari, to‘plangan ma’lumotlar qiymati minimal darajada bo‘lishi lozim. Birinchi shart ko‘proq muhim, lekin auditorlik firmasi raqobatga layoqatli va daromad keltirishni istasa, ikkinchi shart ham zarurdir. Agar muhim zarurat mavjud bo‘lmasa, auditorlik ma’lumotlarining qiymatini tekshirish qiyin bo‘lmaydi. Bu holatda auditorlar muhim noaniqliklar yo‘qligiga ishonch hosil qilgunlariga qadar (samaradorlik haqida qayg’urmasdan), bir ma’lumotga ikkinchisini qo‘shib borishadi.

Auditorlik ma’lumotlarining mavjudligi va minimal qiymati to‘g’risida o‘ylash ishni rejalashtirish zarurligini shart qilib qo‘yadi. Audit rejasini ishlab chiqish va rejalashtirish bir nechta bosqichlarga bo‘linishi mumkin. Ulardan ikkitasini biz hozir ko‘rib chiqamiz.

1. Mijoz faoliyatiga doir ma’lumotlarni to‘plash. Audit natijasida olingan ma’lumotlarning ahamiyatini to‘g’ri sharhlash uchun mijoz faoliyati va uning tarmoqlari xususiyatini tushunish zarur. Moliyaviy hisobot u yoki bu faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Masalan, sug’urta faoliyati auditini, bu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘la tushunmay turib, aniq bajarib bo‘lmaydi. Qurilish bilan shug’ullanuvchisi

mijoz auditini, qurilish xususiyatlarini bilmay turib, tasavvur qilib bo'lmaydi.

2. Ichki xo'jalik nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat tavakkalchiligin baholash. Yuqorida aytib o'tilganidek, mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi aktivlar va hisob yozuvlarining saqlanishini ta'minlab, ishonchli moliyaviy ma'lumot berishi mumkin. Bu esa audit naziariysi va amaliyotida birlgilikda qo'llaniladigan asosiy kontseptsiyalardan biri hisoblanadi. Agar mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi yuqori darajada bo'lsa, u holda nazorat tavakkalchiligi oz bo'ladi, auditorlik ma'lumotlar miqdori esa ichki xo'jalik nazorati zaifdagiga nisbatan kam bo'lishi mumkin.

Auditning umumiyligini qabul qilingan andozalari auditoring rejalashtirish va auditorlik ma'lumotlarni to'plashi uchun ichki xo'jalik nazorati tizimini tushunishi lozimligini talab qiladi. Bu talabga esa tashkiliy tuzilmani o'rganish, mijozning instruktiv-metodik qo'llanmalarini o'rganish, mijoz kompaniya xodimlari bilan suhbatlar o'tkazib, anketalar va hujjatlar aylanmasining blok-sxemasini tuzish hamda mijoz faoliyatini kuzatib javob berish mumkin.

Ichki xo'jalik nazorat tizimini tamoman tushungach, auditor xatolarning oldini olishi, topishi va normadan og'ishini baholaydi. Bunday baholash nazoratning aniq vaqtlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu vaqtlar esa xatolar va normadan og'ishlar vujudga kelishi ehtimolini pasaytiradi, lekin xatolar topilmaydi va o'z vaqtida to'g'rilanmaydi. Bu muolaja nazorat tavakkalchiligin baholash deyiladi.

Nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish va xo'jalik muomalalarini tekshirish. Auditor fikriga ko'ra, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz bo'lsa, u holda nazorat vaqtlariga bevosita taalluqli bo'lgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqligiga ishonchsizligi kamayishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, uni auditorlik ma'lumotlarni yig'ish yo'li bilan tekshirish kerak bo'ladi. Lekin, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz ekanligi haqidagi fikrini asoslab berish uchun, auditor nazorat vaqtlarining samaradorlik darajasini tekshirishi lozim. Bunday tekshirishda qo'llaniladigan muolajalarni - nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish deyiladi.

Asosan nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish, xo'jalik muolajalarini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni tekshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, auditorlar tomonidan to'planadigan ma'lumotlarning asosiy qismi xo'jalik muomalalariga taalluqli bo'lgan hujjatlardir. Odadta, har safar xo'jalik muomalalari bo'yicha hujjatlarni maqsadlarning biri yoki ikkala maqsad nuqtai nazaridan o'rganilganda, xo'jalik muomalalarini tekshirish haqida gap boradi.

Balans moddalarini tekshirish.

Balans hamda foyda va zarar to'g'risidagi hisobotning yakuniy jamlanmalari bilan bog'liq aniq maqsadlarga turli xil auditorlik ma'lumotlar to'plash jarayonida erishiladi. Misol tariqasida, debitorlik qarzlar haqida bevosita xodimlarning yozma so'rovnomasini, tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiya qilish materiallarini o'rganishni ko'rsatish mumkin. Yakuniy balanslarni bunday tekshirish auditda zarurdir, chunki ma'lumotlarning ko'p qismi mijozga bog'liq bo'lmagan manbalardan kelib tushib, o'z navbatida, bu manbalarni ishonchli, deb hisoblash mumkin.

Mijozning ichki nazorat tizimini tushunish va mijozning faoliyat darajasini umumiylash bilan nazorat tavakkalchiligini baholash hamda moliyaviy hisobotni tashkil qiluvchi balansning alohida moddalarini tekshirish o'rtasida uzziy bog'liqlik mavjud. Agar auditor, moliyaviy hisobotning yetarli darajada ob'ektivliliga shubhasi bo'limasa va uning ishonchi ichki xo'jalik nazorat tizimini tushunishiga, nazorat tavakkalchiligini baholashga, nazorat vaqtlarini testdan o'tkazishga asoslangan bo'lsa, u holda balansning alohida moddalarini tekshirishni qisqartirishi mumkin. Biroq, moliyaviy hisobotning (balansning belgilangan moddalarini) ba'zi tekshirislarni barcha hollarda o'tkazish lozim.

4.2.Auditda dalillarini yig'ish usullari.

Auditor tomonidan qo'yilgan maqsadlar ma'muriyatning qismlar bo'yicha tasdiqlashlarini olishi bilan aniq shakllanadi va ular bir-biri bilan bog'liqidir, negaki auditorning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotga

taalluqli bo'lgan ma'muriyat tasdiqlashlarining qay darajada haqiqatga yaqin ekanligini aniqlashdir.

Audit maqsadining mazmuni auditorga ob'ektida ish olib borish standartlarida ko'zda tutilgan dolzarb tasdiqlash va guvohliklarni to'plash bo'lib, aniq sharoitda haqiqiy ma'lumotlar zaruriyat miqdorini belgilaydi. Turli tekshirishlarda maqsad bir xil bo'lgani bilan haqiqiy ma'lumotlar miqdori sharoitlardan kelib chiqib turlicha bo'ladi.

Balansning har bir moddasi uchun auditning bosh va aniq maqsadlarini ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu yerda tahlil qilinayotgan auditning bosh maqsadi har bir balans schyotiga taalluqli, lekin ular umumiylar tarzda izohlangan. Har bir balans schyoti bo'yicha auditning aniq maqsadlarini ajratish mumkin, lekin ular har bir aniq vazifa uchun moslashtiriladi.

Auditning maqsadi quyidagicha izohlanadi:

1. Xoslik - Auditning bosh maqsadlari ishi kategoriyaga ajraladi: umumiylar xoslik darajasi va boshqalar. Umumiylar xoslik darajasini aniqlashdan maqsad shuki, bu auditorga unga ma'lum bo'lgan xo'jalik faoliyatiga taalluqli schyotlar qay darajada shu faoliyatga mosligini aniqlashda yordam beradi. Agar auditor ma'lumot va balans xos emas deb hisoblasa, shu holda u auditning bir necha bosh maqsadi yoki bittasiga e'tiborni qaratishi lozim bo'ladi.

Umumiylar xoslik darajasini tekshirish, schyotlar bo'yicha qoldiqlar muhim xatoga moyilligi to'g'risida auditorda tasavvur uyg'otishda yordam beradi. Shu kabi tekshirishlar auditning boshqa maqsadlarga erishish ehtimoli yuqoriligini aniqlashga ko'maklashib, faoliyatni rejalashtirish, aniq faktlar to'plashga yo'naltirilgan.

2. Kiritilgan summalar haqiqiyligi - auditor moliyaviy hisobotda qayd etilgan summalar haqiqatda ham kiritilishi kerakligini aniqlaydi. Bu holda haqiqatda amalga oshirilmagan muomalani hisob registri va bosh kitobda aks ettirilishi xato hisoblanadi. Auditning bu maqsadiga erishish ma'muriyat tasdiqlarini tekshirish orqali amalga oshadi.

3. Tugallanish - hamma summalar kiritilgan. Bu maqsadda yuqoridagisining aksi, ya'ni moliyaviy hisobotga kiritilishi kerak bo'lgan summalar haqiqatda shu hisobotda aks ettirilganligi aniqlanadi. Auditor

ikki maqsadni ko'zlaydi va erishishga harakat qiladi, demak u haqiqatda bo'lmaning muomalaning aks ettirilishi yoki haqiqatda bo'lgan muomalaning niqoblanishi holatlarini topish kerak.

4. Mulk huquqi - kiritilgan summalar bo'yicha tekshirish - Balans aktivining katta qismi nafaqat mavjud bo'lishi, balki kimlarga dir tegishli bo'lishi kerak. Xuddi shu kabi majburiyatlar ham kimlarga dir tegishli bo'lishi zarur. Shu maqsadda auditor huquq va majburiyatlar to'g'risidagi ma'muriyat tasdiqlarini tekshiradi.

5. Baholash - kiritilgan summalar to'g'ri baholangan - Umumiy balansning alohida jamlamalarini arifmetik tekshirishdan o'tkazish zarur. Ma'muriyat tasdiqlashlarini baholashdan farqli bunday baholash audit maqsadi uchun kamroq umumiylashgan.

6. Korrespondentsiyalar va summalarining schyotlarda aks ettirilishining to'g'rili - auditor summalarining schyotlar bo'yicha to'g'ri aks ettirilganligini va ularni moliyaviy hisobotda to'g'ri keltirilganligini tekshiradi. Schyotlar korrespondentsiyasi va ularni o'z vaqtida aks ettirilishini tekshirish bu asosiy maqsadga erishishdagি muhim bosqichdir.

7. Xo'jalik muomalalarini kiritish - xo'jalik muomalalarini vujudga kelish davrlari bo'yicha aks ettirilishi tekshiriladi. Ko'p hollarda hisobot davrining oxiriga yaqin amalga oshgan muomalalarini aks ettirishda chalkashliklar vujudga keladi. Bunday holatlar balans schyotlarini tekshirish jarayonida aniqlanadi.

8. Arifmetik aniqliklar - albatta, balans mijoz tomonidan tayyorlangan va tekshirilgan registrlar bosh kitob asosida tuziladi. Arifmetik tekshirish jarayonida balansning har bir moddasi bosh kitob jamlamalariga to'g'ri kelishi aniqlanadi. Ya'ni:

REGISTR = BOSH KITOB = BALANS

kabi tenglik doimo amal qilishi shart. Boshqacha qilib aystsak, sintetik hisobning analitik hisobga mosligi tekshiriladi.

Ochib berish - schyotlar va moliyaviy hisobot ma'lumotlarini ochib berish. Auditor balansning hamma moddalari va ular bilan bog'liq bo'lgan axborotlar moliyaviy hisobotda aniq ko'rsatilgan hamda to'g'ri ochib berilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Asosiy maqsad aniqlangach, har bir moliyaviy hisobot va har bir schyot bo'yicha aniq maqsadlarni aniqlab olish mumkin. Agar auditor berilgan sharoitda ushbu maqsad muhim, degan xulosaga kelmasa, u holda har bir asosiy maqsad ichida oxirgi chora sifatida aniq maqsad bo'lishi kerak. Bitta asosiy maqsadga bir nechta aniq maqsadlar kirishi mumkin. Shunday qilib tovar-moddiy qimmatliklarini baholashda mulkchilik huquqi asosiy maqsadiga quyidagi aniq maqsadlar kiradi: Barcha ko'rsatilgan tovar-moddiy qimmatliklar bo'yicha mulkchilik huquqiga kompaniya yoki korxonaning ega ekanligini tekshirish. Tovar-moddiy qimmatliklarning garovda emastigini, agar bu narsa aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, tekshirish.

7-jadval

Tovar-moddiy qimmatliklar bo'yicha tasdiqlar va maqsadlar

Ma'muriyat tasdiqlari	Auditning asosiy maqsadlari	Tovar-moddiy qimmatliklari bo'yicha auditning aniq maqsadlari
	Maqsadning umumiyligi mazmuni	Umuman tovar-moddiy qimmatliklarni baholash mumkin hisoblanadi

Barcha boshqa maqsadlar


Mavjudlik va paydo bo'lish	To'g'riligini tekshirish	Barcha tovar-moddiy qimmatliklar balans muddatiga mavjud
Tugallanish	Tugallanish	Barcha mavjud tovar-moddiy qimmatliklar yakunga kiritilgan va hisobga olingan
Huquq va majburiyatlar	Mulkchilikni tekshirish	Tekshirilayotgan korxonaning barcha ko'rsatilgan tovar-moddiy qimmatliklar bo'yicha egalik huquqi bor. Tovar-moddiy qimmatliklar garovga qo'yilmagan.
Baholash yoki joylashtirish	Baholash	Yakunga kiritilgan tovar-moddiy qiymatliklar haqiqatda mavjud. Tovar-moddiy qimmatliklarni baholash uchun foydalangan baholar barcha muomala-larda to'g'ri. Vaqt o'tishi bilan narxning o'sishi to'g'ri, barcha

		yakunlar to'g'ri
	Tasniflash	Tovar-moddiy qimmatliklarni xom-ashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotga taqsimlanishi to'g'ri
	Ajratish	Yil oxirida kirimlar hisobini tekshirish. Yil oxirida realizatsiya hajmini tekshirish.
	Arifmetik aniqlik	Tovar-moddiy qimmatliklarning jamlan-masi bosh kitob ma'lumotlariga mos.
Ochib berish va aks ettirish	Ochib berish	Tovar-moddiy qimmatliklarning asosiy guruhlari va ularning manbai to'g'ri ochib berilgan. Barcha tovar-moddiy qimmatliklarning garovga qo'yilgani ham ochib berilgan.

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Rezyume: Auditning asosiy maqsadlari miqdori ma'muriyat tasdiqlari sonidan ko'p. Bu esa, auditor tomonidan guvohnomalar yig'ilishi kerakligi bilan tushuntiriladi qanday guvohnomalarni yig'ish kerakligini auditorning o'zi hal qiladi.

Yuqoridagi 7-jadvalda tovar-moddiy qimmatliklarni baholash misolida ma'muriyat tasdiqlari bilan auditning asosiy va aniq maqsadlari o'rtaqidagi bog'liqlikni ko'rish mumkin. Auditning maqsadlariga qanday erishiladi?



5-rasm. Auditning to'rt bosqichi.

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Moliyaviy hisobotning har bir elementi uchun auditning aniq maqsadlarni belgilab, haqqoniy ma'lumotlarni yig'ishni auditorning o'zi aniqlaydi. Audit uni tashkil qilishning ma'lum turdag'i usullariga tayanib, auditorga yetarli darajadagi ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi. Audit qilish jarayoni to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagi 5-rasmida ko'rsatilgan.

Auditorlik yondoshishni ishlab chiqish va rejalashtirish. Auditda auditor oldida turgan maqsadga erishishi uchun zarur ma'lumotlarni to'plashga ko'maklashuvchi ko'plab usullar mavjud. Auditor tekshirishga qanday yondoshishni ikki muhim tasavvurga asoslanib aniqlashi zarur:

1) auditor o'ziga mutaxassislik javobgarligini olishi uchun ishga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni yetarli miqdorda to'plashi zarur;

2) va bundan tashqari, to'plangan ma'lumotlar qiymati minimal darajada bo'lishi lozim. Birinchi shart ko'proq muhim, lekin auditorlik firmasi raqobatga layoqatli va daromad keltirishni istasa, ikkinchi shart ham zarurdir. Agar muhim zarurat mavjud bo'lmasa, auditorlik ma'lumotlarining qiymatini tekshirish qiyin bo'lmaydi. Bu holatda auditorlar muhim noaniqliklar yo'qligiga ishonch hosil qilgunlariga qadar (samaradorlik haqida qayg'urmasdan), bir ma'lumotga ikkinchisini qo'shib borishadi.

Auditorlik ma'lumotlarining mavjudligi va minimal qiymati to'g'risida o'ylash ishni rejalashtirish zarurligini shart qilib qo'yadi. Audit rejasini ishlab chiqish va rejalashtirish bir nechta bosqichlarga bo'linishi mumkin. Ulardan ikkitasini biz hozir ko'rib chiqamiz.

1. Mijoz faoliyatiga doir ma'lumotlarni to'plash. Audit natijasida olingan ma'lumotlarning ahamiyatini to'g'ri sharhlash uchun mijoz faoliyati va uning tarmoqlari xususiyatini tushunish zarur. Moliyaviy hisobot u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Masałan, sug'urta faoliyati auditini, bu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini to'la tushunmay turib, aniq bajarib bo'lmaydi. Qurilish bilan shug'ullanuvchi

mijoz auditini, qurilish xususiyatlarini bilmay turib, tasavvur qilib bo'lmaydi.

2. Ichki xo'jalik nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat tavakkalchiligidni baholash. Yuqorida aytib o'tilganidek, mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi aktivlar va hisob yozuvlarining saqlanishini ta'minlab, ishonchli moliyaviy ma'lumot berishi mumkin. Bu esa audit nazariyasи va amaliyatida birgalikda qo'llaniladigan asosiy kontseptsiyalardan biri hisoblanadi. Agar mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi yuqori darajada bo'lsa, u holda nazorat tavakkalchiligi oz bo'ladi, auditorlik ma'lumotlar miqdori esa ichki xo'jalik nazorati zaifdagiga nisbatan kam bo'lishi mumkin.

Auditning umumiy qabul qilingan andozalari auditorning rejalashtirish va auditorlik ma'lumotlarni to'plashi uchun ichki xo'jalik nazorati tizimini tushunishi lozimligini talab qiladi. Bu talabga esa tashkiliy tuzilmani o'rganish, mijozning instruktiv-metodik qo'llanmalarini o'rganish, mijoz kompaniya xodimlari bilan suhbatlar o'tkazib, anketalar va hujjatlar aylanmasining blok-sxemasini tuzish hamda mijoz faoliyatini kuzatib javob berish mumkin.

Ichki xo'jalik nazorat tizimini tamoman tushungach, auditor xatolarning oldini olishi, topishi va normadan og'ishini baholaydi. Bunday baholash nazoratning aniq vaqtlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu vaqtlar esa xatolar va normadan og'ishlar vujudga kelishi ehtirolini pasaytiradi, lekin xatolar topilmaydi va o'z vaqtida to'g'rilanmaydi. Bu muolaja nazorat tavakkalchiligidni baholash deyiladi.

Nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish va xo'jalik muomalalarini tekshirish. Auditor fikriga ko'ra, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz bo'lsa, u holda nazorat vaqtlariga bevosita taalluqli bo'lgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqligiga ishonchsizligi kamayishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, uni auditorlik ma'lumotlarni yig'ish yo'li bilan tekshirish kerak bo'ladi. Lekin, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz ekanligi haqidagi fikrini asoslab berish uchun, auditor nazorat vaqtlarining

samaradorlik darajasini tekshirishi lozim. Bunday tekshirishda qo'llaniladigan muolajalarni - nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish deyiladi.

Asosan nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish, xo'jalik muolajalarini tasdiqlovechi birlamchi hujjatlarni tekshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, auditorlar tomonidan to'planadigan ma'lumotlarning asosiy qismi xo'jalik muomalalariga taalluqli bo'lgan hujjatlardir. Odatda, har safar xo'jalik muomalalari bo'yicha hujjatlarni maqsadlarning biri yoki ikkala maqsad nuqtai nazaridan o'rganilganda, xo'jalik muomalalarini tekshirish haqida gap boradi.

Balans moddalarini tekshirish.

Balans hamda foyda va zarar to'g'risidagi hisobotning yakuniy jamlanmalari bilan bog'liq aniq maqsadlarga turli xil auditorlik ma'lumotlar to'plash jarayonida erishiladi. Misol tariqasida, debitorlik qarzlari haqida bevosita xodimlarning yozma so'rovnomasini, tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiya qilish materiallarini o'rganishni ko'rsatish mumkin. Yakuniy balanslarni bunday tekshirish auditda zarurdir, chunki ma'lumotlarning ko'p qismi mijozga bog'liq bo'lmasan manbalardan kelib tushib, o'z navbatida, bu manbalarni ishonchli, deb hisoblash mumkin.

Mijozning ichki nazorat tizimini tushunish va mijozning faoliyat darajasini umumiylash bilan nazorat tavakkalchiligidini baholash hamda moliyaviy hisobotni tashkil qiluvechi balansning alohida moddalarini tekshirish o'rtaida uzviy bog'liqlik mavjud. Agar auditor, moliyaviy hisobotning yetarli darajada ob'ektiviliga shubhasi bo'lmasa va uning ishonchi ichki xo'jalik nazorat tizimini tushunishiga, nazorat tavakkalchiligidini baholashga, nazorat vaqtlarini testdan o'tkazishga asoslangan bo'lsa, u holda balansning alohida moddalarini tekshirishni qisqartirishi mumkin. Biroq, moliyaviy hisobotning (balansning belgilangan moddalarini) ba'zi tekshirishlarni barcha hollarda o'tkazish lozim.

Tanlashni belgilash usullari (530 AXS). Auditorlik dalilarini yig'ishda tanlash usullarining ahamiyati katta.Tanlashni belgilashning

ko‘p sonli usullari mavjud. Tanlashni belgilashning asosiy usullari quyida bayon etilgan:

Tasodifiy tanlash (tasodifiy sonlar generatorlari, masalan, tasodifiy sonlar jadvallari yordamida qo‘llaniladigan tanlash).

Tizimli tanlash, bunda jamlanmadagi tanlash elementlari soni tanlash hajmiga bo‘linadi va natijada tanlash oralig‘i, masalan, 50 belgilanadi, boshlang‘ich nuqta belgilanganidan so‘ng tanlashning dastlabki 50 elementlari doirasida har 50-chi element tanlab olinadi. Garchi boshlang‘ich nuqta erkin belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, komp yuterlashtirilgan tasodifiy sonlar generatori yoki tasodifiy sonlar jadvallaridan foydalanilganda tanlash yanada tasodifiy xususiyatga ega bo‘ladi. Tizimli tanlashdan foydalanilganda auditor jamlanmadagi tanlash elementlari tanlash oralig‘i jamlanmadaning muayyan tuzilmasi bilan mos keladigan tarzda tuzilmaganligini belgilashi lozim.

Pul birliklarini tanlash – bu qiymat bo‘yicha tortilgan tanlash shakli bo‘lib, bunda tanlash hajmi, tanlashni belgilash va baholash natijalari xulosada pul summalarida isodalanadi.

Tizimsiz tanlash – bunda auditor biron-bir tizimlashgan usulga amal qilmasdan tanlashni shakkantiradi. Tizimlashgan usul qo‘llanilmasligiga qaramay, auditor bila turib noxolislikka yoki oldindan belgilanganlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak (masalan, aniqlash qiyin bo‘lgan elementlarni chetlab o‘tmasligi yoki har doim sahifadagi birinchi yoki oxirgi o‘tkazmalarni tanlash yoki chetlab o‘tishga yo‘l qo‘ymasligi kerak) va shu tariqa jamlanmaning barcha moddalarini tanlash imkoniyatini ta‘minlashi lozim. Statistik tanlashdan foydalanilgan holda tizimsiz tanlashni qo‘llash yaramaydi.

Blok bilan tanlash jamlanmaning turdosh elementlari blokini (bloklarini) tanlashni nazarda tutadi. Blok bilan tanlash odatda auditorlik tanlashda qo‘llanilishi mumkin emas, chunki aksariyat jamlannalar shunday tuzilganki, oldinma-ketin joylashgan moddalar taxminan bir-biriga o‘xshash ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi, ayni vaqtda, mazkur ko‘rsatkichlar jamlanma boshqa moddalarining ko‘rsatkichlaridan farq

qilishi mumkin. Garchi muayyan vaziyatda elementlar blokini tekshirish bo'yicha auditorlik tartib-taomili maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bu usul, agar auditor tanlash asosida butun jamlanma xususida asosli xulosalar chiqarishni mo'ljallayotgan bo'lsa, tanlashni shakllantirishning tegishli usuli hisoblanadi.

4.3. Auditorlik dalillarini yig'ishda ichki nazorat tizimini baholash yo'llari

Barcha korxonalar uchun sifatlari va doimiy nazorat zarur. Nazoratning yo'lga qo'yilgan tizimi ish faoliyati davomida yuzaga keladigan xatolarga to'sqintik qilishi va shundan kelib chiqib noto'g'ri, foydasiz yechimlarni qabul qilish va zararlar kelib chiqishining oldini olishi mumkin.

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, ichki nazorat tizimi qachonki korxonada ichki nazorat ichki audit xizmati tomonidan amalga oshirilsagina, yaxshi va aksincha taftish komissiyasiga yuklatilganda yomon ishlaydi. Boshqa mutaxassislar esa - ichki audit - bu ichki nazorat tizimining bir bo'g'ini, deb hisoblaydilar.

Ichki nazorat - doimiy, kundalik faoliyat bo'lib, o'z navbatida, buxgalteriya hisobini to'g'ri olib borish, korxona resurslaridan boshqarma rejalariga mos ravishda foydalananish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, yaxshi tashkil qilingan ichki nazorat tizimini quyidagilar ta'riflab berishi mumkin:

- ma'lumotlar toplash tizimi mavjud xatolarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi;
- javobgarlikning amaldagi tizimi korxona xodimlariga har qanday shartnomani boshidan oxirigacha yakka o'zi, ya'ni o'zboshimchalik bilan amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi;
- har qanday muomalalarni kelishtirish tizimi mavjud;
- qimmatliklar va asosiy vositalarni ro'yxatdan o'tkazish doimo olib borildi;
- buxgalteriya hisoboti va rejadon og'ishlar tahlil qilinadi.

Ichki nazorat tuzilishi turlicha bo'lib, u korxonaning faoliyati ko'lamidan, EHM bilan ta'minlanganlik darajasidan, rahbariyatning

shaxsiy nazoratni amalga oshirish imkoniyatidan hamda ko'plab boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Ichki nazorat tizimini baholashda auditor ikkita asosiy omildan kelib chiqadi:

1. Ichki nazorat maqsadidan, ya'ni buxgalteriya hisobotining haqqoniy va ob'ektivligini ta'mintashdan;

2. Auditorlik xulosalarining tahlili qismida ichki nazorat holati ekspertizasining natijalarini ko'rsatish zarurligidan.

Korxona ichki nazorat tizimini baholashdan asosiy maqsad - auditorlik dasturida o'z ko'rinishini topadigan auditni rejalashtirish hamda auditorlik muolajalarining turini, o'tkazish vaqtini va ko'lamini aniqlash uchun asos yaratishdir.

Auditorlik dasturi qilinishi lozim bo'lgan ishlarning aniq tasavvuriga ega bo'ladi. Auditorlik dasturi - moliyaviy hisobotda mavjud ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlashga qaratilgan muolajalar majmuuni o'zida aks ettiradi. Har bir muolaja uchun uning turi, o'tkazish vaqt va ko'lami aniqlangan bo'lib, ular moliyaviy hisobotning bir yoki bir necha ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Auditorlik muolajalarining yettiha asosiy turi mavjud: qayta baholash, kuzatish, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, skannerlash va tahliliy muolajalar. Muolajalarni o'tkazish vaqt turlicha bo'lishi mumkin: balans tuzilguncha yoki balans tuzilgan sanadan so'ng. Muolajalar ko'lami esa bu muolajalarni amalga oshirish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Ichki nazorat tizimini baholashdan yana bir maqsad shuki, tizimni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyanomalar ishlab chiqishdir. Ichki nazorat tuzilmasi uchta tashkiliy muhitga bo'lingan:

- nazorat muhiti - korxonada nazorat uchun qulay sharoit yaratadigan o'zaro munosabatlarni aniqlovchi tavsiyanomalar yig'indisi;

- korxona hisob tizimi - xo'jalik muolajalariga muvofiq yozuvlarga taalluqli muolajalar va siyosat;

- nazorat muolajalari - korxona xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus tekshirishlar.

Bu uchta bo'g'in o'zaro bog'liqlikda ma'lumotlar bo'yicha xatolarning oldini olib, ularni aniqlash va buzib ko'rsatilganini to'g'rilashni ta'minlaydi. Nazorat muhitini, o'z navbatida, quyidagi bo'g' inlarga ajratish mumkin: boshqarish uslubi va siyosati; korxonaning tashkiliy tuzilmasi; auditorlik qo'mitasining faoliyati; boshqarish funktsiyalari va javobgarlikni taqsimlash uslubi; ichki auditning uslubi; xodimlar bo'yicha siyosat va amaliyot; tashqi ta'sirlar, masalan bank yoki soliq idorasini tomonidan tekshirishlar.

Korxonalar ichki nazorat tizimining asosiy xususiyati nazorat funktsiyalarini amalga oshiruvchi xodimlarning yuqori malakaliligi bilan belgilanadi. Korxonaning xodimlari bo'yicha muammosi ichki nazorat tizimida ham o'z aksini topadi. Masalan, agar hisobotchilar tez-tez almashtirib turilsa, hisob funktsiyasi va o'z navbatida, uning nazorati bu sohada yetarli tajriba va bilimga ega bo'limgan xodimlar tomonidan amalga oshirilib, shu bilan birga ko'plab xatolarga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Yangi tayinlangan boshliq va mansabdar shaxslar ko'pincha korxonaning buxgalteriya hisobi tizimi bilan yetarli darajada tanish bo'limganlari sababli, texnik va boshqa xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Ba'zan buxgalteriya xodimlari yuqori boshqaruv zvenosi tomonidan belgilangan hisobotning qo'pol xatoli muolajalariga amal qilishni istamaganliklari tufayli ishdan bo'shashga majbur bo'ladilar. Shu sababli biz, buxgalteriya xodimlarining tez-tez almashib turishini xatarli omil, deb hisoblaymiz.

Ichki nazorat tizimining samarali bo'lishi uchun funktional javobgarlik yoki majburiyatlarning to'g'ri taqsimlanishi juda muhimdir. Bu nazorat muolajalarining samaraliligi uchun zarur shart hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik muomalalarini sanktsiyalash. Bu majburiyatni xo'jalik muomalalarining yozuvini yuritish huquqiga ega bo'lgan xodimlarga bajaradilar;

- xo'jalik muomalalarini qayd etish, ko'plab korxonalarda muomalalar hisobi va qayd etilishi (hisobot yuritish) asosan komp yuter tizimida bajariladi;

- xo'jalik muomalalarini yuritishda aktivlar saqlanishini ta'minlash. Bu yerda korxonaga qarashli aktivlar ustidan nazorat tushuniladi;

- mavjud aktivlar summasini schyotlardagi yozuvlar bilan davriy solishtirish. Bunda doimiy inventarizatsiya va agar farq aniqlanadigan bo'lsa, chora ko'rish nazarda tutiladi.

Majburiyatlar zidligi - bu ularning shunday kombinatsiyasiki, bunda xatoga yo'l qo'ygan yoki axborotni buzib ko'rsatgan xodim, o'z faoliyatida bu haqiqatni berkitishi mumkin. Majburiyatlar shunday taqsimlanishi kerakki, xodimlardan hech biri ikki yoki undan ortiq yuqorida ko'rsatilgan to'rt vazifalarni bajarmasliklari kerak.

Bu vazifalardan birinchi va to'rtinchisi - boshqaruvchilik hisoblansa, ikkinchisi - hisobchilik, uchinchisi esa saqlash funktsiyasi hisoblanadi. Bu funktsiyalarning turli bo'lim va xodimlar o'tasida taqsimlanishi ikkita ustunlikka egadir:

1) xarajatlarni muvofiqlashtirish, ya'ni aynan bir xo'jalik muomalasini turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish hisobiga bexosdan qilingan xatolarni topish va tuzatish;

2) ma'lumotni ataylab buzib ko'rsatish qiyin, chunki bu o'z navbatida, ikki yoki ko'proq xodimning til biriktirishini talab qiladi.

Buxgalteriya hisobi tizimida xo'jalik muomalalari to'g'risidagi ma'lumotlar qayta ishlaniib, ular bosh kitob va jurnallarda qayd qilingach, moliyaviy hisobot tuziladi. Bu yerda 100% aniqlik bo'lmasa ham, shunga qaramay hisob siyosati va muolajalari nazorat tizimining muhim elementlarini tashkil qiladilar. Masalan, schyot-faktura faqatgina mahsulot ortib berilgandan so'ng yoziladi - bu esa nazorat muolajasining bir qismi ham hisoblanadi.

Nazorat muolajalari - bu buxgalteriya hisobi tizimida ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, xatolarni topish, tuzatish va ularning oldini olishga qaratilgan muolajalardir. Masalan, yuqorida ko'rsatilgan muomalaning nazorat muolajasi quyidagicha bo'ladi: «har kunning oxirida nazoratchi har bir hisobga nakladnoy nusxasi borligiga ishonch hosil qilishi uchun barcha schyot-fakturalarni birma-bir ko'rib chiqadi».

Nazorat nuqtai nazaridan, hisob tizimi uchun minimal talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi: schyotlar rejasi hamda xo'jalik

muomalalarining tasnifiga taalluqli bo'lgan ba'zi yozma aniqliklar va qo'llanmalar. Bunday materiallar komp yuter tizimida, dasturlarda, turli qo'llanmalarda, hisob ma'lumotlarini qayta ishlovchi blok-sxemalarda va boshqa hujjatlarda bo'lishi mumkin. Korxonaning ichki auditorlari va axborotni qayta ishlash tizimi uchun javobgar xodim bu hujjatlarni tez-tez ko'rib chiqib, baholaydilar. Tashqi auditor esa bu vazifani qaytadan bajarish o'miga, bu faoliyat natijalarini o'r ganib chiqishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha qo'llanmada hisobning maqsadlari, siyosati qayd etilgan va hisob muolajalari aks etgan bo'lishi kerak. Menejerlar nazoratning o'ziga xos yo'nalishlarini belgilab, unga mos muolajalarning o'tkazilishini ta'minlashlari zarur. Nazorat yo'nalishlari qismlarga bo'lingan va o'ziga xos bo'lishi mumkin. Buni biz quyidagi 8-jadvalda ko'rib chiqamiz.

8-jadval

Nazoratning yo'nalishlari

№	Nazorat yo'nalishlari 1	Umumiy		Aniq misol 4
		2	3	
1.	Haqiqiylik	Qayd etilgan muomalalar haqiqiy va berilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan		Kayd etilgan oldi-sotdi, mijoz buyurtmasi, ortilganlik hujjati va schyot-faktura bilan tasdiqlangan
2.	To'liqlik	Barcha amalga muomalalar hech biri qoldirilmasdan qayd etilgan	haqiqatda oshirilgan	Barcha yuklash hujjatlari nomerlanib, hisob-fakturalarga ilova qilingan
3.	Ruxsat olganlik	Barcha muomalalar korxona siyosatiga mos ravishda yechim topgan	korxona siyosatiga mos ravishda yechim	1000\$ dan yuqori summadagi kreditga amalga oshirilgan savdo oldindan kredit bo'yicha menedjer ruxsatiga ega
4.	Aniqlik	Barcha kerakli hisoblab chiqilgan	summalar darajada	Schyot-fakturalarda miqdorlar to'g'ri aks ettirilgan, arifmetik xatolar yo'q

5.	Tasniflash	Muomalalar schyotlarda borilgan	mos olib	Filiallar tomonidan amalga oshirilgan savdolar korxona-ning ichki muomalalaridek tasniflangan
6.	Hisob yuritish	Muomalalar hisobini yuritish tugallangan		Barcha kreditga amalga oshirilgan savdolar mos buyurtmachilar hisobiga olib borilgan
7.	Davriylash- tirish	Muomalalar mos davrarda aks ettirilgan		Joriy davr savdolari joriy davrda aks etgan, keyingi davr savdolari esa keyingi davrda aks ettirilgan

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Shunday qilib, barcha xo'jalik muomalalari yetta asosiy yo'nalish bo'yicha nazorat qilinishi lozim. Haqiqiylik - bu yerda nazorat muolajalarini muomalalar haqiqatdan ham qayd etilganligini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu muolaja hujjatlar bilan tasdiqlanmagan oldi-sotdi muomalasi qayd etilishining oldini olishni nazarda tutadi.

To'liqlik. Nazorat muolajasi vositasida haqiqatda amalga oshirilgan xo'jalik muomalalari qayd qilinmay qoldirib ketilganligi tekshiriladi. Agar mahsulot yuklangan bo'lsa, u holda yuklanganlik haqidagi barcha hujjat schyot-faktura bilan solishtiriladi. Muomalani tasdiqlovchi hujjatlar ko'pincha nomerlangan bo'ladi. Nomerlar ketma-ketligining hisobi esa - nazoratning yana bir mos muolajasidir.

Ruxsat olinganlik - nazorat muolajalari yordamida xo'jalik muomalalarining hisobga olinishidan oldin ruxsatga ega ekanligi tekshiriladi. Menejerlar muomalalarning boshqarma tomonidan ruxsat etilganligi va hisob tizimida muomalalar qayd etilishining aniq mezonlarini belgilashlari zarur. Nazorat tizimi hisob tizimida ruxsatsiz muomalalarning qayd etilishining oldini olishga qaratilgan.

Aniqlik - yozilgan summalarining to'g'ri hisoblanib chiqilganligini tekshirishga qaratilgan nazorat muolajalari qo'llaniladi. Yuk xatida aks ettirilgan ortilgan mahsulot miqdori, donasining bahosi va jami summaning to'g'rilingini tekshirish - bunday nazorat muolajasiga misol bo'la oladi.

Tasniflash - muomalalarning mos schyotlarda olib borilganligini tekshirishga qaratilgan muolajalar qo'llaniladi. Tasniflashni ba'zida aniqlik bilan chalkashtirishadi, biroq ularning farqi shundaki, aniqlik faqatgina yozilgan summalar to'g'rilingiga taalluqlidir.

Hisob yuritish - bu yo'nalish berilgan muomalaning hisobga olish jarayoni to'liq tugallanganligi va u umumqabul qilingan buxgalteriya andozalariga mosligini tekshirishga qaratilgan nazorat muolajalaridan tashkil topadi.

Davriylashtirish - bu yo'nalish muomalalarning amalga oshirilgan davrida hisobga olinib, qayd etilganligini tekshirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga keldik: Nazorat amalga oshirilayotgan sharoit boshqaruvning mos tizimi mayjudligini o'z ichiga oladi. Bu tizim yuqori malakali xodimlar bilan, tashkilot faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ta'minlangan bo'lsa va xodimlar o'rtasida majburiyat hamda javobgarliklarning taqsimlanishini, nazorat talablarining buzilishiga qarshi tura olishni nazarda tutsgina, samarali hisoblanilishi mumkin. Quyidagi funktsiyalarni taqsimlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: korxona va tashkilot aktivlaridan bevosita foydalanish; aktivlar bilan amalga oshiriladigan muomalalar uchun ruxsat berish; xo'jalik muomalalarini amalga oshirish; xo'jalik muomalalarini yuritish.

Buxgalteriya hisobi tizimi o'z ichiga korxona xo'jalik muomalalarini toplash, tahlil qilish va hujjatlashtirishni olganligi sababli, bizning fikrimizcha quyidagi talablarga javob bersa, samarali bo'ladi: hisob yuritishda muomalalar ular amalga oshirilgan davrni to'g'ri aks ettirsa; hisob yuritishda muomalalar aniq summalarda qayd etilsa; hisob siyosatiga mos ravishda muomalalar buxgalteriya hisobining schyotlarida to'g'ri aks ettirilsa; hisob va hisobot uchun ahamiyatli bo'lgan barcha muomalalar qayd etilsa; mansabdor va javobgar shaxslar tomonidan o'ylab qilingan suiiste molchiliklarning imkonи cheklangan bo'lsa.

Nazoratning tadbirlar tizimi: xo'jalik muomalalarini korxonaning ma'muriyatini tomonidan qo'llab-quvvatlanganidan so'ngina amalga oshirish; barcha muomalalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri va aniq summalarda tegishli bank hisob schyotlarida, kerakli yaqt davrida, hisob siyosatiga mos holdagi qayd etish; ma'muriyat ruxsatsiz korxona aktivlaridan foydalanishning cheklanganligi; buxgalteriya hisobida qayd etilgan aktivlarning haqiqatda mavjudlari bilan mos kelishiga qaratilgan muolajalarni nazarda tutadi.

Ichki nazoratni baholash

Savollar	Javoblar	H	Ilo va
	Yo'q	a	
Nazorat muhitni			
1. Kredit bo'limi marketing bo'limiga bog'liqmi?			
2. Quyida ko'rsatilgan savdo turlarining nazorati uchun bir xil muolaja qo'llaniladimi: xodimlarga sotish; kreditga sotish; mol-mulkni sotish; naqd pulga sotish?			
3. Xodimlarga moliyaviy siyosat va ichki nazorat muolajalarini o'z vaqtida yetkazish yo'lga qo'yilganmi?			
4. Korxona rahbariyati tomonidan ichki nazorat tizimini tekshirish amalga oshiriladi?			
Hisob va hisobot			
1. Jurnallardagi jami summalar bosh kitobga kiritilgunga qadar tekshiriladimi?			
2. Xodimlarning kasalligi yoki ta'tidaligi sababli yo'qligida majburiyatlar taqsimlanishiga amal qilinadimi?			
3. Hisobot topshiriq grafigiga amal qilinadimi?			
4. Hisob siyosatiga oid buyruq mavjudmi?			
Haqiqiylik			
1. Hisob-faktura blankasiga kirish chegaralanganmi?			
2. Nakladnoylar yoki boshqa yuklab borilganlik to'g'risidagi hujjatlar nomerlab olib boriladimi?			
Muomalaarni qayd etishning to'liqligi			
1. Schyot-faktura blankasi nomerlanadimi?			
2. Yo'qolgan nakladnoylarni topish maqsadida hujjatlar nomerining ketma-ketligi tekshiriladimi?			

Qayd etishning to'g'riliği

- | | | | |
|--|--|--|--|
| 1. Yuklangan miqdor schyot-fakturada aks ettirilgan miqdor bilan taqqoslanadimi? | | | |
| 2. Statistik tahlil yoki mahsulot assortimenti bo'yicha tahlil yo'li bilan ma'lum davrdagi savdolar haqidagi ma'lumotlar tekshiriladimi? | | | |
| 3. Debitorlik qarzlardan qat'iy nazar davrdagi savdolar to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita bosh kitobga kiritiladimi? | | | |

Muomalalarni tasniflash

- | | | | |
|--|--|--|--|
| 1. Savdolar tasnifi haqidagi nizom buxgalteriya yo'riqnomalarida mavjudmi? | | | |
|--|--|--|--|

Davriyafashhtirish

- | | | | |
|---|--|--|--|
| 1. Schyot-fakturalar ortilgan sana bilan qayd etilishi lozimligi haqidagi nizom buxgalteriya yo'riqnomalarida mavjudmi? | | | |
| 2. Quyidagi mezonlar xodimlarning malaka darajasini aks ettirishi mumkinmi: kamdan-kam ichki xatolar, rahbariyat aralashuvini talab qiluvchi xatolar miqdorining kamligi, avvalgi yillarda o'tkazilgan tekshirishlarda kiritilgan auditorlik tuzatishlarining past foizi. | | | |

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Bunday muolajalar: buxgalteriya yozuvlarining to'g'riliğini arifmetik tekshirish; hisob-kitoblarni solishtirish; hujjatlar aylanishining amalga oshirilishi to'g'riliğini va rahbar xodimlarda ruxsat beruvchi yozuvlarining mavjudligini tekshirish; doimiy ravishda reja asosida yoki bexosdan kassa pul mablag'lari, qat'iy hisobda turuvchi blanklar, qimmatli qog'ozlar va tovar-moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlar va haqiqatdagagi mavjudligi bilan mosligini tekshirish; nazorat maqsadi uchun iqtisodiy sub'ektdan tashqari joylashgan manbalarning ma'lumotlaridan foydalanish; xo'jalik ko'rsatkichlarini rejadagi va haqiqatdagisi bilan solishtirish, agar muhim farq bo'lsa, uning sababini

aniqlash mumkin. Ichki nazoratni baholash uchun 9-jadvalda taklif etilgan savolnomadan foydalanish tavsiya etiladi.

Agar auditor ichki nazoratning barcha muolajalari amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilsa ham, u ichki nazorat qay maqsadda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha maqsadga erishildi deb, hech qaysi bir tizim haqida tasdiqlay olmaydi. Chunki buning bir qancha sabablar bor:

- nazoratni ta'minlash uchun qilingan xarajatlarning undan olinadigan iqtisodiy samaradan yuqoriligining maqsadga muvosifligi; xodimlarning qo'llanmalarini tushunmasliklari; korxona xodimlarining o'zaro til biriktirishi; rahbariyatning o'z mansaati yo'lida amalidan foydalanishi va shu kabilar.

Shunday qilib, ichki nazorat tizimini baholash muolajalarini amalga oshirgandan so'nggina auditor uning ishonchliligi xususida qaror qabul qiladi va mos auditorlik muolajalarini rejalashtirish imkoniga ega bo'ladi.

4.4.Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish.

AXS da auditor audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanishi mumkinligi keltirib o'tilgan, ya'ni:

- boshqa auditorlar;
- tashkilotninrg ichki auditorlari;
- ekspertlar.

600 AXS guruh auditlariga, xususan komponent auditorlarini o'z ichiga oladigan guruh auditlariga nisbatan qo'llaniladigan maxsus ko'rib chiqishlarni qamrab oladi.

Auditor holatlarda zarur bo'lganda moslashtirilgan mazkur AXS ni ushbu auditor guruh moliyaviy hisobotlari bo'limagan moliyaviy hisobotlarning auditida boshqa auditorlarni jalb etgan paytda foydali deb hisoblashi mumkin. Masalan, auditor uzoq masofadagi tovar-moddiy zaxiralar hisobini kuzatish yoki moddiy aktivlarni tekshirish uchun boshqa auditorni jalb etishi mumkin.

Komponent auditori komponentning moliyaviy hisobotlari bo'yicha auditorlik fikrini ifodalash uchun qonun hujjati, me'yoriy hujjat yoki

boshqa sabab tufayli talab etilishi mumkin. Guruh auditı bo'yicha kelishuv jamoasi guruh auditı bo'yicha auditorlik dalilini ta'minlashda komponentning moliyaviy hisobotlari bo'yicha auditorlik fikri asoslangan auditorlik dalilidan foydalanishi mumkin, ammo shunga qaramasdan mazkur AXS ning talablari qo'llaniladi.

AXS 220 ga muvofiq, guruh auditı bo'yicha kelishuv partnyoridan guruh auditı bo'yicha kelishuvni amalga oshirayotgan shaxslar, jumladan komponent auditorlari birgalikda o'rinni vakolatga va qobiliyatga ega bo'lishining ta'minlanishi talab etiladi. Guruh auditı bo'yicha kelishuv partnyori guruh auditı bo'yicha kelishuvning yo'nalishi, nazorati va amalga oshirilishi uchun ham javobgar hisoblanadi.

Guruh auditı bo'yicha kelishuv partnyori guruh auditı bo'yicha kelishuv jamoasi yoki komponent auditori komponentning moliyaviy ma'lumotlari bo'yicha ishlarni amalga oshirishiga qaramasdan AXS 220 ning talablarini qo'llaydi. Mazkur AXS guruh auditı bo'yicha kelishuv partnyoriga komponent auditorlari komponentlarning moliyaviy ma'lumotlari bo'yicha ishlarni amalga oshiradigan paytda AXS ning talablarini qanoatlantrishga ko'mak beradi.

Auditorlik riski moliyaviy hisobotlarning muhim buzib ko'rsatish riski bilan auditor bunday buzib ko'rsatishlarni aniqlamasligining riskining funktsiyasi hisoblanadi. Guruh auditida, bu komponent auditori guruh moliyaviy hisobotlarining muhim buzib ko'rsatishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan komponentning moliyaviy ma'lumotlaridagi buzib ko'rsatishni aniqlamasligi mumkinligining riskini hamda guruh auditı bo'yicha kelishuv jamoasi ushbu buzib ko'rsatishni aniqlamasligi mumkinligining riskini o'z ichiga oladi. Mazkur AXS guruh auditı bo'yicha kelishuv jamoasi riskni baholash tartib-taomillaridagi o'z ishtirokining handa komponentlarning moliyaviy ma'lumotlari bo'yicha komponent auditorlari tomonidan amalga oshiriladigan qo'shimcha audit tartib-taomillarining xususiyatini, muddatini va ko'lamini aniqlashda ko'rib chiqadigan masalalarни tushuntiradi. Ushbu ishtirok etishning maqsadi guruh moliyaviy hisobotlari bo'yicha auditorlik fikri asoslanadigan yetarli va o'rinni auditorlik daliliga ega bo'lish hisoblanadi.

XAS 600 "Boshqa auditorlar ishidan foydalanish. Qo'shimcha jabhalar kompaniyalar guruhi moliyaviy hisoboti audit (moliyaviy hisobot qisimlari bo'yicha auditorlar hisobotidan foydalanish)" standarti kompaniya ikki auditor bilan hamkorlik qilgan holatlarda qo'llaniladi. Bunda asosiy auditor tomonidan umumiyligi yoki konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tekshirilsa boshqa auditor alohida segmentlarning (geografik tsegment, ho'jalik segmenti, filial, qaram korxona va xokazo) moliyaviy hisobotini tekshiradi.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida yirik transmilliy korporatsiyalarni auditdan o'tkazishda geografik muhitni inobatga olib bir necha auditorlar faoliyat olib borishi mumkin. Bunda bosh auditor kompaniyalar guruhi moliyaviy hisobotlaridagi muhimlikni alohida baholashi va inobatga olishi kerak bo'ladi. AXS 600 da belgilanishicha ayrim hollarda segmentlardagi muhimlik darajasini yuqoriligidagi inobatga olib, kim bosh auditor bo'lishi aniqlanadi.

Asosiy auditor, boshqa auditor tomonidan amalga oshiriladigan hizmatlar u tomonidan qo'yilgan vazifaga mosligini aniqlovchi isbotlarni olishi kerak., ya'ni :

- boshqa auditorning tekshiriladigan segmentga nisbatan holisligi va mustaqiligining yozma tasdiqi.
- asosiy va boshqa auditor munosabatlarning hujjatlashtirilishi.
- boshqa auditor tomonidan buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditga ta'luqli qonun hamda standartlarga amal qilishi haqida yozma tilxat.

Boshqa auditor ish natijalari auditorlik fayllarida hujjatlashtirilishi kerak, ya'ni:

- boshqa auditor tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobot bo'limi va komponentlari;
- ushbu komponentlarning umumiyligi moliyaviy hisobot uchun muhimligi;
- auditda ishtrok etgan yordamchi auditorlarning nomlari;
- boshqa auditorlar ish sifatini nazorat qilish amallari;
- ayrim hollarda bosh auditor tomonidan qarshi tekshirish o'tkazish.

Bosh auditor har doim boshqa auditorlar bilan kelishgan holda qo'yilgan umumiy vazifa doirasida o'zi o'tkazishni rejalashtirgan audit amallariga o'zgartirishi mumkin. Boshqa auditor tomonidan modifikatsiyalashgan auditorlik hulosasi berish qarori qabul qilinsa bosh auditor o'zining hulosasiga ham kerakli o'zgartirishlar kiritishi zarur.

Bosh auditor moliyaviy hisobotning ayrim komponentlari yuzasidan faqat boshqa auditorning tekshiruvi asosida hulosa beradigan bo'lsa XAS 600 da bu holatni yetarli asoslash va moliyaviy hisobotning qancha qismi boshqa auditor tomonidan tekshirilganligini aniq ko'rsatishi talab etiladi.

Bosh auditor tarafidan, boshqa auditor tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalarini yetarli emas deb hisoblansa va ushbu tekshirish bo'yicha qo'shimcha auditorlik amallarini o'tkazishni imkoniyati cheklangan bo'lsa bosh auditor qo'shimcha izzox berilgan auditorlik hulosasini berishi kerak. Ayrim hollarda audit ko'lamini cheklanganligi sababli umuman hulosa berishdan bosh tortishi ham mumkin.

"Ichki audit faoliyatini o'rganish" 610 AXS da qayd etilishicha tashqi auditor ichki audit tizimi va ushbu tizimning o'tkazilishi rejalashtirilgan tashqi auditga ta'sirini o'rganib chiqishi kerak.

Ichki auditga quyidagicha tarif berish mumkin, ya'ni "Tashkilotda yuqori darajadagi qo'shilgan qiymat olish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida tashkil etiladigan ma'lumot haqqoniyligini tasdiqlovchi hamda kerakli maslahatlar beruvchi mustaqil va ob'ektiv faoliyat turidir". Ichki audit tashkilotga tizimli ravishda boshqarish, samaradorlikni oshirish, risklarni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha yordam beradi.

AXS 610 "Ichki audit faoliyatini o'rganish" deb atalib unda korxona iqtisodiy samaradorligini baholashdagi ichki auditning vazifalari keltirilgan. Auditorlik dalilarini yig'ishda ichki nazorat tizimini baholash yo'llari 4.3 paragrafda batafsil yoritildi.

Ichki auditning maqsad va vazifalari kompaniyaning kattaligi, tuzilmasining murakkabligi va rahbariyatni ma'lumotga bo'lgan extiyojlariga qarb o'zgarib turadi. Aksariyat hollarda ichki audit tuzilmasi quyidagi funktsiyalarini bajaradi:

- ichki nazorat tizimining monitoringi. Ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish korxona rahbariyatining vazifasi hisoblanadi, lekin bu tizimni doimo tekshirib turish kerak. Shu sababli ichki audit bo'limi korxona nazorat tizimi samaradorligini baholab, takomillashtirish bo'yicha takliflar berib boradi;

- moliyaviy va boshqaruva ma'lumotlarini tahlili, ho'jalik muomilalari, schetlar sal dosi va o'tkazilgan tekshirish amallarini doimiy kuzatuv va tekshirib turish;

- alohida muomilalar samaradorligini aniqlash va nomoliyaviy tekshiruvlar;

- qonunchilik, ichki yo'riqnomasi va me'yorlarga rioxha etish.

Ichki audit vazifalari korxona rahbariyati tomonidan belgilanganligi sababli tashqi audit vazifalaridan farq qiladi. Ammo tashqi audit ichki auditning ish natijalaridan keng soydalanadi. Shu bilan birga AXS 610 "Ichki audit faoliyatini o'rghanish" standartida qayd etilishicha ichki auditning mustaqilligi tashqi audit mustaqilligi darajasidan ancha past bo'ladi. Bu holat, tashqi auditor tomonidan ichki audit natijalariga tayanishda faqat o'zining professional mahorati doirasida ish ko'rishi kerakligini anglatadi. Quyidagi keltirilgan me'zonlar ichki audit tizimini baholash uchun asos bo'lishi mumkin:

- tashkiliy maqom - ichki auditning mustaqilligi ko'lami, ichki audit natijalari va takliflarini rahbariyat tomonidan inobatga olinishi;

- texnik kompetentlik - ichki auditorlar bilim va ko'nikmasi darajasi;

- ichki audit qamrovi - ichki audit amallarining mohiyati va hajmi;

- ichki auditni rejalashtirilishi va hujjatlajtirilishi - ichki audit o'tkazish yo'riqnomalari, ish hujjatlari shakillari va dasturlaning mavjudligi.

Tashqi auditor tomonidan tekshirish rejasini ishlab chiqish jarayonida ichki auditning ish rejasini inobatga olishi maqsadga muvofiqdir.

AXS 620 "Ekspert hizmatidan soydalanish" nomli standart, auditor ish jarayonida ixtisoslik bilimlarini talab etilishi mumkinligini inobatga oladi. Ushbu standartida auditorning buxgalteriya hisobi yoki auditdan

boshqa muayyan sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lgan jismoniy shaxs yoki tashkilot ishidan yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olishda auditorga ko'maklashish uchun foydalanishga doir vazifalari ko'rib chiqiladi. Masalan, audit jarayonida injenerlar, texniklar, yuristlar, tarjimonlar va hatoki vrach yoki provizorlar hizmati talab etilishi mumkin. Eksperlar hizmatlariga quyidagi hollarda zaruriyat tug'ilishi mumkin:

- alohida aktivlarni baholash uchun (er, ko'chmas mulk, qimmatbaho toshlar, san'at asarlari);
- aktivlarning jismoniy holati va miqdorini aniqlash maqsadida (sochilib yotgan qum, tsement va boshqa qurilish materiallari);
- mahsus usullar yordamida aniqlangan ko'rsatkichlarni tekshirish (aktuar baholash, biznesni baholash);
- tugallanmagan ishlab chiqarish va qurilishni baholash usun;
- yuridik hujjatlар va shartnomalarni baholash uchun.

AXS 620 standartida ekspertlarni jalb etishning to'rt varianti qayd etilgan:

- mijoz-tashkilot bilan pudrat shartnomasi tuzish;
- auditorlik firmasi bilan pudrat shartnomasi tuzish;
- mijoz-tashkilot bilan mehnat shartnomasi tuzish;
- auditorlik firmasi bilan mehnat shartnomasi tuzish;

Ekspertlarni jalb etishda, eksperning malka hujjatlari, litsenziyasi, professional birlashmalardagi a'zoligi, avval o'tkazgan ekspertizalari natijalari yuzasidan tavsiyaviy xatlar tekshirib olinadi. Ekspertning ob'ektivligi aniqlanadi, ya'ni tekshirilayotgan korxona rahbariyati bilan qarindosh-urug'chiligi, tekshirilayotgan tashkilotning aktsiyalarining mavjudligi va hokazo.

Ekspertning ish hajmi tuziladigan shartnomada aniq ko'rsatilishi tadab etiladi. Shuningdek, ekspert tomonidan qo'llaniladigan maqsad, usullar, xujjtlar bilan tanishish mumkinligi va sir tutish holatlari alohida kelishib olinadi.

Ekspertiza natijadari hulosha berish uchun yetarli emas deb topilsa auditor modifikatsiyalashgan auditorlik hulasasini berish masalasini ko'rib

chiqishi mumkin. Bunda ekspertiza natijalariga xavola etiladi. Agar ekspert ekspertiza natijalariga havola berilishiga qarshi bo'lsa auditor hyurist bilan maslaxatlashishi kerak.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish zaruratini aniqlash.

Agar yetarlicha tegishli auditorlik daflillarini olish uchun buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa biron-bir sohada kasbiy bilimlar va tajriba talab etilayotgan bo'lsa, auditor auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish zaruratini aniqlashi lozim.

Auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko'lami.

620 AXSning talablariga muvofiq bajariladigan auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko'lami vaziyatga bog'liq bo'ladi. Mazkur tartib-taomillar xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko'lamini belgilashda auditor ayrim, shu jumladan quyidagi masalalarni ko'rib chiqishi lozim:

Mazkur ekspertning ishi taalluqli bo'lgan masalaning xususiyati;

Mazkur ekspertning ishi taalluqli bo'lgan masalada muhim buzib ko'rsatishlar risklari;

Audit nuqtai nazaridan mazkur ekspert ishining ahamiyati;

Mazkur ekspert ilgari bajargan ish haqida auditorning bilimi va tajribasi; va

Auditorlik tashkilotida qabul qilingan sifat nazorati siyosati va tartib-taomillari ekspertning ishiga tafbiq etiladimi.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning kompetentligi, qobiliyatları va ob'ektivligi.

Auditor auditor tomonidan jalb qilingan ekspert auditorning maqsadlari uchun zarur bo'lgan kompetentlik, qobiliyatlar va xolislikka ega yoki ega emasligini baholashi lozim. Auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert bilan bog'liq holda, xolislikni baholash mazkur ekspertning ob'ektivligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan manfaatlar va munosabatlar mavjudligi xususida rasmiy so'rov yuborishni o'z ichiga olishi mumkin.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning kasbiy bilimlari va tajribasi sohasi haqida tasavvur hosil qilish.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning kasbiy bilimlari va tajribasi sohasi haqida auditor uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadigan yetarlicha tasavvur hosil qilishi lozim :

Mazkur ekspert tomonidan audit maqsadlarida bajariladigan ishning xususiyati, ko'lami va maqsadlarini belgilash; va

Mazkur ishning auditor maqsadlariga muvofiqligini baholash.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert bilan masalalarni kelishish.

Auditor jalb qilingan ekspert bilan quyidagi masalalarni, zarur holda – yozma shaklda kelishishi lozim:

Mazkur ekspert ishining xususiyati, ko'lami va maqsadlarini;

Auditor va mazkur ekspertning tegishli vazifalari va majburiyatlarini;

Auditor va mazkur ekspert o'rtaida axborot almashish xususiyati, muddatlarini va ko'laminini, shu jumladan mazkur ekspert taqdim etishi lozim bo'lgan har qanday hisobot shaklini kelishishni; va

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ma'lumotlarni sir saqlash to'g'risidagi talablarga rioya etishi zarurligini.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining muvofiqligini baholash.

Auditor jalb qilingan ekspert ishining auditor maqsadlariga muvofiqligini, shu jumladan quyidagilarni baholashi lozim:

Mazkur ekspert ishi natijalari yoki xulosalarining o'rnliligi va asosliligin hamda ularning boshqa auditorlik dalillari bilan muvofiqligini;

Agar mazkur ekspertning ishi ahamiyatli taxminlar va usullardan foydalanishni nazarda tutsa, bunday taxminlar va usullarning ushbu vaziyatda o'rnliligi va asosliligin;

Agar mazkur ekspertning ishi shu ekspertning ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlardan foydalanishni nazarda tutsa, ushbu boshlang'ich ma'lumotlarning o'rnliligi, to'liqligi va aniqligini.

Agar auditor jalb qilingan ekspertning ishi auditorning maqsadlariga mos kelmaydi, deb hisoblasa, u:

Mazkur ekspert bajarishi lozim bo'lgan bo'lg'usi ish xususiyati va ko'lamenti shu ekspert bilan kelishishi; yoki

Vaziyatga mos keladigan qo'shimcha auditorlik tartib-taomillarini bajarishi lozim.

Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspertga havola etish.

Ayrim hollarda qonun yoki me'yoriy hujjat, masalan, davlat sektorida shaffoflikni ta'minlash maqsadida auditor tomonidan jalb qilingan ekspertga havola etishni talab qilishi mumkin.

Ayrim hollarda modifikatsiyalangan fikr bildirilgan auditorlik hisobotida modifikatsiyaning tabiatini tushuntirib berish uchun auditor tomonidan jalb qilingan ekspertga havola etish o'rinli bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda auditor tegishli havola etishni amalga oshirishdan oldin auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ruxsatini olishi talab etilishi mumkin.

Auditor modifikatsiyalangan fikr ifodalangan auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishiga havola etishi mumkin emas, qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlar shuni talab qilgan hollar bundan mustasno. Agar bunday havola etish qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan bo'lsa, auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da havola auditorning auditorlik fikrini bildirish uchun mas'uliyatini kamaytirmasligini ko'rsatib o'tishi lozim.

Agar auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning ishiga havola etishni bunday havola auditorlik fikri modifikatsiyasini tushunish uchun o'rinli bo'lgani bois amalga oshirayotgan bo'lsa, auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da bunday havola auditorning mazkur fikrini bildirish uchun mas'uliyatini kamaytirmasligini ko'rsatib o'tishi lozim.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining muvofiqligini baholash.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning kompetentligi, qobiliyatları va ob'ektivligini auditor tomonidan baholash, jalb qilingan ekspertning bilimlari sohasi bilan auditorning tanishligi va jalb qilingan ekspert tomonidan bajarilayotgan ishning xususiyati mazkur ekspert

ishining auditor maqsadlariga muvosifligini baholash bo'yicha auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko'lamiga ta'sir ko'rsatadi.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining natijalari va u chiqargan xulosalar.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining auditor maqsadlariga muvosifligini baholash bo'yicha maxsus tartib-taomillar, masalan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertga rasmiy so'rovlar yuborish.
- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning ish hujjatlari va hisobotlarini ko'rib chiqish.
- Tasdiqlovchi tartib-taomillar, xususan:
 - Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning ishini kuzatish;
 - E'lon qilingan ma'lumotlarni, masalan, obro'si, hurmatga loyiq manbalardan olingan statistik hisobotlarni o'rganish;
 - Uchinchi shaxslar tomonidan berilgan tegishli savollarni tasdiqlash;
 - Mufassal tahliliy tartib-taomillarni bajarish; va
 - Hisob-kitoblarni takroran o'tkazish.
- Masalalarni tegishli kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lgan boshqa ekspert bilan muhokama qilish, masalan, agar auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining natijalari yoki u chiqargan xulosalar boshqa auditorlik dalillari bilan mos kelmasa.
- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning hisobotini tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati bilan muhokama qilish.

Takrorlash uchun savollar

1. Auditorlik dalillarining ko'rinishlari va yig'ish usullari.
2. Auditda tahliliy usullarni qo'llash yo'llari.
3. Auditda tanlash va tanlov o'tkazish usullari.
4. Mantiqiy tanlov.
5. Nazorat yo'nalishlari qanday qismrlarga bo'lingan?
6. Auditda dalillarini yig'ish usullari qanday?

7. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish.
8. Auditorlik dalillarini yig'ishda ichki nazorat tizimini baholash yo'llarini ko'rsating?
9. Ekspert hizmatidan foydalanish nechanchi AXS bilan tartibga solinadi?
10. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspertga havola etish tartibi qanday?
11. Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert bilan qanday masalalar kelishiлади?
12. Ichki audit faoliyatini o'rganish nechanchi AXS bilan tartibga solinadi?
13. Tekshiriluvchi shaxsnинг raxbariyatining bildirishnomasi va arizalari qaysi holatlarda olinadi? (AXS bo'yicha 500 standart).
14. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishini baholash yo'llarini ko'rsating?
15. Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish zarurati qanday aniqlanadi?

Vaziyatli masalalar.

Masala -1

Auditoring yetarli va tegishli auditorlik dalili hisoblanishi haqidagi mulohazasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

Masala -2

Auditorlik dalili sifatida foydalaniladigan ma'lumotning va shu tufayli auditorlik dalilining o'zining ishonchliligiga uning manbasи va jihatи hamda u olingan holatlар, jumladan o'rinci bo'lganda uning tayyorlanishi va saqlanishi ustidan nazoratlar ta'sir etadi. Shu tufayli, turli xildagi auditorlik dalilining ishonchliligi bo'yicha umumlashtirishlar muhim istisnolarga shartli bo'ladi. Hattoki auditorlik dalili sifatida foydalaniladigan ma'lumot tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan tashqi

manbalardan olingan paytda ham, uning ishonchliliga ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, mustaqil tashqi manbadan olingan ma'lumot ishonchli bo'lmasisligi mumkin, agarda manba ma'lum bo'lmasa, yoki rahbariyat tomonidan jalb etilgan ekspert xolislikka ega bo'lmasisligi mumkin. Ushbu istisnolar mavjud bo'lishi mumkinligini e'tirof etgan holda, auditorlik dalilining ishonchliligi bo'yicha foydali bo'lishi mumkin jixatlarni keltiring.

Masala -3

Rahbariyat tomonidan jalb etilgan ekspertning vakolati, qobiliyatları va xolisligiga tegishli ma'lumotlar bir qator manbalardan olinishi mumkin, ularni keltiring.

1-masala javobi

- Taqdimnomada potentsial buzib ko'rsatishning ahamiyatliligi va uning ta'siri alohida yoki boshqa potentsial buzib ko'rsatishlar bilan jamuljam holda, moliyaviy hisobot uchun muhim bo'lishi ehtimoli.
- Risklarga nisbatan tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati javob harakatlari va nazorat vositalarining samaradorligi.
- Oldingi auditorlik tekshirishlari jarayonida har qanday potentsial buzib ko'rsatishlar borasida olingan tajriba.
- Bajarilgan auditorlik tartib-taomillarining natijalari, shu jumladan bunday auditorlik tartib-taomillarini bajarish jarayonida muayyan sifibgarlik hollari yoki xatolar aniqlangani yoki aniqlanmagani.
- Mavjud ma'lumotlarning manbalari va ishonchlilik darajasi.
- Auditorlik dalillarining keng qamrovligi.
- Tadbirkorlik sub'ekti va uning muhitini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektining ichki nazorat tizimini bilish.

2-masala javobi

- Auditorlik dalilining ishonchliligi oshadi, qachonki u tadbirkorlik sub'ekti tashqarisidagi mustaqil manbalardan olinsa.
- Ichki hosil qilingan auditorlik dalilining ishonchliligi oshadi, qachonki tadbirkorlik sub'ekti tomonidan belgilangan tegishli nazoratlar

vositalari, jumladan uning tayyorlanishi va saqlanishi ustidan nazoratlari samarali bo'lsa.

- Bevosita auditor tomonidan olingen auditorlik dalili (masalan, nazorat qo'llanilishining kuzatilishi) bilvosita yoki anglash orqali olingen auditorlik daliliga (masalan, nazorat qo'llanilishi to'g'risidagi so'rov) nisbatan ishonchliroqdir.

- Hujjat shaklidagi, hoh qog'oz, elektron yoki boshqa vosita shaklidagi auditorlik dalili og'zaki olingen dalildan ishonchliroq hisoblanadi (masalan, majlisning o'z davridagi yozma qaydi muhokama qilinadigan masalalarning keyingi og'zaki ifodalanishiga nisbatan ishonchliroq bo'ladi).

- Asl hujjatlar orqali ta'minlangan auditorlik dalili, auditorlik dalilining ishonchligi ularning tayyorlanishi va saqlanishi ustidan nazoratlariga bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni nuxsalar yoki faksimillar yoki tasvirlashtirilgan, raqamlashtirilgan yoki boshqa hollarda elektron shaklga o'tkazilgan hujjatlar orqali ta'minlangan auditorlik daliliga nisbatan ishonchliroq bo'ladi.

3-masala javobi

- Ushbu ekspertning oldingi ishi bilan bog'liq shaxsiy tajriba.
- Ushbu ekspert bilan muhokamalar.
- Ushbu ekspertning ishidan xabardor bo'lgan shaxslar bilan muhokamalar.
- Ushbu ekspertning malakalari, professional tashkilotning yoki soha assotsiatsiyasining a'zoligi, amaliyot uchun litsenziyasi yoki tashqi e'tirofning boshqa shakllari to'g'risidagi ma'lumot.
- Ushbu ekspert tomonidan yozilgan chop etilgan ilmiy maqolalar yoki kitoblar.
- Auditorga rahbariyat tomonidan jalb etilgan ekspertning tayyorlagan ma'lumotlariga nisbatan yetarlicha tegishli auditorlik daliliga ega bo'lishda ko'mak beradigan auditorning eksperti, agarda mavjud bo'lsa.

5 BOB. AUDITLIK HULOSA VA TAKLIFLARINING XALQARO STANDARTLARI.

5.1. Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosalari.

Auditorlik hulosasi tekshirilgan moliyaviy hisobot yuzasidan auditor fikrini bayon etuvchi yozma shakildagi hujjat hisoblanadi. Auditorlik hulosasini tuzish AXS 700 "Umumiy moliyaviy hisobot to'liq to'plami yuzasidan mustaqil auditor hisoboti (hulosasi)" va AXS 705 "Mustaqil auditor hisoboti (hulosasi) dagi modifikatsiyalar" nomli standartlar bilan tartibga solinadi. AXS 700 auditorlik nazoratining qo'shimcha sharh berilmaydigan shartsiz xulosalari berilganda qo'llaniladi.

Auditorlik nazoratining qo'shimcha sharh berilmaydigan shartsiz hulosalari. Auditorlik nazoratining xulosasini tayyorlash va taqdim etish audit jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi, chunki aynan xulosada auditor bajargan ishlarini va qanday natija olganligini bayon qiladi. Shuning uchun foydalanuvchi nuqtai nazaridan auditorlik xulosasi audit faoliyatining mahsuli, deb qaratadi.

Audit standartlarida ko'rsatilishicha, har safar moliyaviy hisobot bilan bog'liq ishlarni amalga oshirganda auditorlik firmasi tomonidan xulosa berilishi kerak. Agarda firma o'z mijozlariga moliyaviy hisobotni tayyorlashda ko'maklashsa va audit o'tkazmasa, unda hisobot tayyorlanganligi haqida xulosalar yoki umumiy kuzatish olib borilganligi haqida ma'lumotnomalar berishi mumkin (AXS 800).

Auditorlik hulosasi tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar umumiy standartlarda keltirilgan. Asosan bu oxirgi astandartlarga taalluqli. Umuman auditorlik xulosalari shakli jihatdan bir xil bo'lishi kerak. Bu auditorlik xulosasidan foydalanuvchilar uchun zarur, negaki auditorlar o'z hulosalarini asar sifatida keltirganlarida, uni tushunish birmuncha murakkab bo'lar edi. Shu sababli kasbiy auditorlik standartlarida moliyaviy hisobotni kuzatib boruvchi auditorlik hulosalarining turlari keltirilgan. Auditorlik hulosasi audit jarayonining oxirgi bosqichiga to'g'ri keladi. Ma'lumki, rejali iqtisodiyot davrida nazorat-taftish

boshqarmalarining ish sifati mezoni bo'lib, taftishlar davomida aniqlangan kamomadlarni aybdorlar tomonidan to'lanish darajasi hisoblangan. Bu ko'rsatkich bevosita taftishning ob'ektivligi, taftish apparatining maqsadga intilishi va printsipliligiga bog'liq bo'lgan.

Ammo shuni qayd etish kerakki, umumiy talqin bo'yicha iqtisodiy samara bu ijtimoiy xarajatlar va olinadigan naf o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Ko'rinish turibdiki, boshqaruvdek ko'p qirrali faoliyatda auditning iqtisodiy samarasini aniqlashga umumiy tushunchalarda baho berish mushkul, chunki har doim ham audit natijalari miqdoriy baholashga moyil emas. Albatta, profilaktika, noqonuniy ishlar, sirigarliklarni har doim ham o'lchab bo'lmaydi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, audit umumiy qabul qilingan buxgalteriya qoidalariga asosan o'tkaziladi. Bu esa ob'ektiv xulosa berish uchun keng qamrovli mezon hisoblanadi. Auditning maqsadi ham taqdim etilgan moliyaviy hisobotni qay darajada buxgalteriya qoidalaridan chetlanish mezonini aniqlashga qaratilgan. Auditorlik hulosasida ham, albatta, bu mezon qay darajada ekanligi keltiriladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraganda, 90% auditorlik natijalari qo'shimcha tushuntirishsiz shartsiz auditorlik xulosalari bilan rasmiylashtiriladi. Shu sababli bu xulosalar ustida batafsil to'xtalamiz.

AXS 700 da belgilanishicha quyidagi shartlar bajarilgandagina bunday standart xulosalar berilishi mumkin:

1. Jami hisobot shakkiali belgilangan tartibda tuzilgan va moliyaviy hisobotga kiritilgan bo'lsa;
2. Audit jarayonida umumiy qabul qilingan andozalarga barcha jabhalarda rioya qilingan bo'lsa;
3. yetarli darajada isbot va dalillar to'plangan hamda auditor o'z vazifasini to'liq bajarganligi haqida ishonch hosil qilsa;
4. Moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya asoslariga amal qilgan holda taqdim etilgan bo'lsa;

5. Aloxida yoritib ko'rsatish yoki sharh berish kerak bo'lgan holatlar aniqlanmagan bo'lsa;

6. Moliyaviy hisobotga yetarli darajada tushuntirishlar va ilovalar qilingan bo'lsa.

Standart auditorlik xulosasini 6-rasmda keltirishga harakat qilindi. Standart auditorlik xulosalari turli auditorlar tomonidan turli shaklda yozilishi mumkin, lekin uning mazmuni doimo bir xil bo'ladи.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, hozirgi kunda bu auditorlik firmalari tomonidan tayyorlanayotgan xulosalar yuqorida aylib o'tilgan xalqaro standartlar darajasidan ancha yiroq. Chunki hali ham tekshirishlar natijasi bo'yicha dalolatnoma (AKT) tayyorlash tushunchasini auditorlik xulosasi bilan chalkashtirish hollari mavjud yoki albatta dalolatnoma tuzmay turib, xulosa berish mumkin emas, degan fikrlar ham yo'q emas. Ammo dalolatnoma bu «mutloq nazorat matni» bo'lib, uning natijaari bo'yicha jinoiy ish ham ochish mumkin.

Tekshirish dalolatnomasi bu ikki yoqlama hujjat hisoblanadi, ya'ni ham tekshiruvchilar, ham tekshiriluvchilar tomonidan imzolanadi. Rus tilida «AKT» so'zi faoliyat tugallanganlik ma'nosini anglatadi yoki boshqacha qilib aytganda yozma aktida har bir harf ma'lum bir ma'noni beradi: akttagi: a - absolyut, k - kontrol , t - tekst ma'nosini anglatadi. O'zbek tiliga tarjima qilinsa, akt - bu «mutloq nazorat matni» deganidir va hozirgi kunda «akt» so'zi O'zbekistonda dalolatnoma tariqasida tarjima qilinib, ishlatilmoqda. Yu.A.Danilevskiyning fikricha, «Auditorlik tekshirish natijasi auditorlik dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilishi va o'z ichiga moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha umumi yaho, hisob va hisobotning yuritilishini baholash, tahliliy ishlarning holati va hisobni yurituvchi kadrlar tavsifini olishi kerak.Bundan tashqari kamchiliklar qayd etilishi va auditor ular bo'yicha o'z fikrini, bartaraf etish usullarini ko'rsatishi zarur.

1 – Auditorlik kompaniyasining nomi va manzili

2 – Hisobotning nomlanishi

3 – Hisobotni oluvchilar

4 - Kirish – 1 xat boshidan 2- xat boshigacha bolgan matn- “Haqiqiy tasdiq”

5 - Chegara – 2 xat boshidan 3- xat boshigacha bolgan matn- “Haqiqiy tasdiq”

6 - Fikr – 3 xat boshidan 4- xat boshigacha bolgan matn- “Xulosa”

7 – Auditorlik kompaniyasining nomi va xolis auditorlar imzosi

8 – Auditorlik xulosasi imzolangan sana

9 – Ob'ektda audit tugatilgan sana

6-rasm. Qo'shimcha izohsiz standart auditorlik xulosasining sxematik ko'rinishi.

Auditorlik dalolatnomasi korxona rahbari, bosh buxgalteri va auditor tomonidan imzolanadi. Agar qayd etilgan kamchiliklar buxgalteriya hisobotiga muhim tarzda ta'sir etmasa, auditor auditorlik xulosasini tuzishga kirishishi mumkin. Aks holda auditor hisobning to'g'riligini tasdiqlash va hisobotga baho berishdan bosh tortishi kerak. Faqat kamchiliklar bartaraf etilgach tekshiruvchi ishini davom ettirib, xulosa beradi»¹.

¹ /Ланцевский Ю.А. Аудит: организация и методика проведения// Москва: «Бухгалтерский учет»-1992.- 79 с.

1	Huquqiy auditorlik firmasi «Huquqiy madad» Xolis buxgalterlar Ofis: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Chimkent trakti: tel.: 71.260-39-06, 71. 260-30-18
2	Mustaqil auditor xulosasi
3	«XXX» AJ aktsionerlari uchun
4	Biz «XXX» AJi 202X va 202Y yillar uchun taqdim etgan «Buxgalteriya balansi»; «Moliyaviy natijalar to‘g’risida»gi hisobot; «Pul oqimlari to‘g’risida»gi hisobot va «Xususiy kapital to‘g’risida»gi hisobotlarining auditini o’tkazdik. Moliyaviy hisobot uchun javobgarlik fond ma’muriyatni zimmasidadir. Biz o’tkazgan auditimizga asoslanib, moliyaviy hisobot bo‘yicha bergan fikrimiz uchun javobgarmiz.
5	Audit umumiy qabul qilingan andozalar asosida o’tkazildi. Bu andozalar bizda moliyaviy hisobot muhim noaniqliklardan xoli ekanligiga yetarli ishonch hosil qilish uchun auditni aniq rejalashtirish va o’tkazishni talab qiladi. Audit tanlab olish usuli bilan o’tkazilgan holda moliyaviy hisobotdagি summalarни tasdiqladi. Shu bilan birga audit qo‘llanilgan buxgalteriya uslublarini, ma’muriyat dasturlarini baholadi. O’tkazilgan audit fikr berishimiz uchun to‘liq asos bo‘la oladi, deb hisoblaymiz
6	Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlari bo‘yicha AJ moliyaviy holatini 31 dekabr 202X va 202V yillari uchun to‘g’ri aks ettirgan. Kompaniya faoliyati va pul mablag’larining harakati ham umumiy qabul qilingan buxgalteriya uslublari asosida yoritilgan.
7	Huquqiy auditorlik firmasi “Huquqiy madad”. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlangan buxgalteri Musaxoniy Alisher

8	Audit 18 fevral 202X yilda tugatildi.
9	20 fevral 202X yil.

7-rasm. Qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi.

Manba: AXS asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ammo bu fikrlar jahon audit amaliyotida bajarilayotgan audit ishlari va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibiga bir muncha zid keladi. Yuqorida aytigandek, umumiy audit natijalarini ma'lum qilish auditning umumiy qabul qilingan andozalarida o'z aksini topgan. Albatta, bu xulosalar shartli auditorlik xulosalari bo'lishi mumkin. Bunday xulosalar to'g'risida keyingi paragrafda batafsil to'xtalamiz.

Aytib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda 6- rasmdan foydalanib, qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasini keltiramiz (7-rasm). Hisobotning mazmunidan qat'iy nazar 9 ta bo'g'in o'zgarishsiz qoladi. Ular quyidagilardir:

1. Auditorlik kompaniyasining nomi va manzili.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi auditorlik firmasi Adliya Vazirligidan ro'yxatga olinishi uchun qat'iy ofisi joylashgan manzil va ofisda ish sharoitlari mavjudligi haqida ma'lumotnoma berishi kerak. Bu yuridik manzil kerakli hujjatlarda aks ettiriladi va doimo auditorlik firmasini qidirib topish mumkin.

2. Hisobotning nomlanishi. Audit andozalari qo'ygan talabga ko'ra auditorlik xulosasi, albatta, nomlanishi va nomlanishda «mustaqil» yoki «xolis» degan so'z bo'lishi shart. Masalan: «Mustaqil auditorlar xulosasi» yoki «xolis buxgalter fikri». Bu talab foydalanuvchilarga audit hamma jabxalari bo'yicha ob'ektiv o'tkazilganligini ko'rsatib turadi.

3. Hisobotni oluvchilar. Hisobotni oluvchi kompaniya, uning aktsionerlari yoki direktorlar kengashi bo'lishi mumkin. Umuman olganda hisobotni oluvchilar aktsionerlar bo'lmog'i lozim, chunki audit kompaniyaga ham, uning direktorlar kengashiga ham tobe emas.

4. Kirish: 1-xat boshidan 2-xat boshigacha bo'lgan tekst. Bu qismda uchta funktsiya bajariladi: *Birinchidan*, auditorlik firmasi tomonidan audit o'tkazganligi qayd etiladi. Negaki bajarilgan ish bu umumi kuzatish yoki tasdiqlash xizmatlari emasligini ko'rsatish kerak. *Ikkinchidan*, bu yerda auditdan o'tkazilgan hisobotlar sanab o'tilgan va bu hisobotlarni qaysi sanaga tuzilganligi keltirilgan. *Uchinchidan*, bu yerda moliyaviy hisobot uchun javobgarlik ma'muriyat zimmasida ekanligi, auditorlar esa faqat hisobot yuzasidagi fikrlari uchun javobgarligi keltirilgan. Bu jumtlarini yozishdan maqsad, zarur buxgalteriya asoslarini tanlashda va bu asoslar bo'yicha qarorlar qabul qilingda kompaniya ma'muriyatining javobgar ekanligini ko'rsatishdir. Bundan tashqari, bu jumla kompaniya ma'muriyati va auditorlar o'rtaсидаги vazifalarni aniqlashtirib beradi.

5. Chegara. 2-xat boshidan 3-xat boshigacha bo'lgan tekst. Bu yerda audit davomida auditorning bajargan ishlari keltirilgan. Avvalambor, bu tekstda auditor umumi qabul qilingan andozalarga asoslanib, ish ko'rilganligi qayd etilgan. So'ng auditning asosiy jihatlari ko'rsatilgan.

Bu abzatsda o'tkazilgan audit chegaralari yoritilib, unda hisobot muhim xatodan xoli bo'l shiga yetarli darajada ishonch hosil qilish auditning maqsadi ekanligi ko'rsatilgan. «Muhim» degan so'zning ko'rsatilishi auditor faqat muhim, ahamiyatli xatolarni ko'rsatishga javobgarligini anglatadi. «Etarli darajada ishonch» degan so'zlar auditorni mutlaq xatolarni aniqlab topadi, degan ma'noni anglash xato ekanligini ko'rsatib, ahamiyatli xatolar, me'yordan chetlash ehtimoli bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytilsa, audit yuqori darajada ishonchni ta'minlaydi, lekin mutlaq kafolat bermaydi.

Abzatsning qolgan qismida yig'ilgan auditorlik dalillari haqida fikr boradi. Auditor yig'gan ma'lumotlar fikr berish uchun yetarli ekanligini va dalillarni yig'ish tanlab olish yo'li bilan o'tkazilganligini qayd etadi. Agar kirish qismida auditor moliyaviy hisobotni tayyorlash va mazmuni uchun ma'muriyat javob berishini tasdiqlagan bo'lsa, bu abzatsda u qo'llanilgan buxgalteriya asoslari va taqdim qilish tartibining baholanganligini bildiradi. Yuqoridagilar asosida audit davomida fikr berish uchun yetarli muolajalar qilinganligidan dalolat berish ta'kidlanadi.

6. Fikr - 3-xat boshidan 4-xat boshigacha bo'lgan tekst. Qo'shimcha tushuntirish berilmagan shartsiz xulosaning so'nggi qismida auditorning xulosasi keltiriladi. Bu qism shunchalik muhimki, ko'pincha auditorlik xulosasi «auditor fikri» deb yuritiladi. Umuman «bizning fikrimizcha» degan so'zlar mutlaq ishonch hosil qilish mumkinligini rad etadi, ya'ni xulosalar mutaxassisning fikrashi mahsuli ekanlagidan dalolat beradi. Bundan tashqari auditdan o'tgan hisobotda doimo ma'lumot tavakkalchiligi mavjud ekanligini qayd etish kerak.

Fikrni ma'lum qilish abzatsi birinchi va to'rtinchi umumiyl qabul qilingan audit andozalari bilan bevosita bog'liq. Auditorning oldiga qo'yilayotgan talab shundan iboratki, u moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikr berishi va tekshirilayotgan kompaniya umumiyl qabul qilingan buxgalteriya asoslariga riox qilishini aniqlashi kerak.

Auditorlik xulosasining ziddiyatli tomonlaridan biri - bu «to'g'ri aks ettirgan» degan so'zlardir. Agar kompaniya umumiyl qabul qilingan buxgalteriya uslublariga to'la riox qilgan bo'lsa, uning moliyaviy hisoboti har doim ham to'g'ri, haqqoniy bo'ladimi? yoki bu so'zlar ko'proq va chuqurroq ma'noni anglatadimi? Shuni qayd etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda audit natijalari bo'yicha sudsizliganda sudlar ko'pincha auditorlarni umumiyl qabul qilingan buxgalteriya uslublaridan chuqurroq tekshirish olib borishadi, degan xulosaga keladi. Ko'pchilik auditorlar esa moliyaviy hisobot umumiyl qabul qilingan buxgalteriya uslublariga mos bo'lsa, u korxona ish faoliyatini to'g'ri aks ettiradi, deb hisoblashadi. Ma'lumotda xato yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun, bizning fikrimizcha, chuqurroq xo'jalik muomalalarini tekshirish, uning mazmuniga e'tibor berish kerak, deb hisoblaymiz.

7. Auditorlik kompaniyasining nomi va xolis auditorlar imzosi. Bu yerda auditorlik firmasining nomini keltirish muhimdir, chunki audit uchun kasbiy va yuridik javobgarlik auditorlik firmasi zimmasidadir.

8. Audit xulosasi imzolangan sana va

9. Ob'ektda audit tugatilgan sana ko'p hollarda ma'lum bir kun bo'ladi. Bu sananing muhimligi shundaki, shu kungacha auditor javobgar bo'ladi. Masalan, balans 31 dekabr 2018 bilan tugatilgan bo'lsa va auditorlik xulosasi 20 fevral 2019 bilan imzolangan bo'lsa, auditor 20

fevral 2019ga qadar tekshirish o'tkazishga harakat qilinganligini anglatadi.

Shunday qilib, audit natijasi bo'yicha beriladigan xulosaning qismalarini bo'g'lnlarga ajratib, tahlil qilishni va qisqa shaklda katta mazmun berishni audit natijalari bo'yicha to'la hisobotni oshkor etib bo'lmasligi, ya'ni audit ma'lumotlarining konfidentsialligi taqozo etadi.

5.2.Modifikatsiyalashgan auditorlik hulosalari.

Auditorlik nazoratining qo'shimcha sharh berilmaydigan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o'zgartiriladigan (modifikatsiyalashgan) hulosasi. (AXS 705 "Mustaqil auditor hisoboti (hulosasi) dagi modifikatsiyalar").

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining auditi bu juda murakkab jarayon bo'lib, unda har doim ham ijobiy natijalarga erishilavermaydi. Chunki kishilik jamiyati mavjud ekan, unda ko'zbo'yamachiliklar, aldashlar, ma'lumotni buzib ko'rsatish natijasida foydalanuvchilarda noto'g'ri xulosa keltirib chiqarish hollari, bulardan tashqari yanglishish, ma'lum me'yirlarni bilmaslik oqibatida noto'g'ri yechimlar qabul qilish mavjud bo'ladi. Shu sababli audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarni xulosada qisqa, aniq va maxfiy tomonlarini oshkor qilmay keltirish zarur bo'ladi. Bu zaruriyat o'z aksini audit standartlarida ham topgan.

"Mustaqil auditor hisoboti (hulosasi) dagi modifikatsiyalar" AXS 705 da qayd etilishicha qo'shimcha sharh berilmagan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o'zgargan auditorlik xulosalari auditor qo'shimcha ma'lumot berish zarur, deb topganda yoki buni qonun talab qilganda tayyorlanadi.

Agar auditor talab darajasidagi natijaga kelmasa yoki moliyaviy hisobot kompaniya ish faoliyatini to'g'ri aks ettirmagan deb hisoblasa, unda tushuntirish qismi keltirilgan xulosa beradi.

Tushuntirish abzatsi kiritish yoki hisobotning shaklini o'zgartirishga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib o'tishga harakat qilamiz:

1. Muhim noaniqliklar mavjud bo'lsa.
2. Hisobni yuritishda mantiq bo'lmasa va tartib buzilgan bo'lsa.

3. Umumiy buxgalteriya uslublariga rioya qilinmagan bo'lsa.
4. Alohida o'ziga xos holatlar mavjud bo'lsa.
5. Auditorlik xulosasi boshqa auditorlarga taalluqli bo'lsa.

Bu holatlarning mohiyatini to'laroq ochib, ularni o'rganib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Muhim noaniqliklar mavjud bo'lsa, moliyaviy hisobot tayyorlash paytida kompaniya ma'muriyati ma'lum miqdordagi proqnoz baholashlarini amalga oshiradi. Shu jumladan ayrim aktivlar bo'yicha amortizatsiya muddatlarini belgilash, debitorlik qarzlarini uzish muddatlarini aniqlash, tovar-moddiy boyliklarning likvidligi kabilar va boshqalar. Ko'pincha bu savollarga mos javob topish oson.

Ammo ayrim hollarda auditor shunday holat bilan to'qnashishi mumkinki, hisobot tuzish paytida u yoki bu savol bo'yicha ob'ektiv proqnoz qilish mushkul bo'ladi. Bunday holat «noaniqliklar holati» deb ataladi. Misol tariqasida kelgusi davr xarajatlarini hisobdan chiqarish mumkinligi imkoniyati, sud qaroriga ko'ra olish yoki to'lash mumkin bo'lgan summalar mavjudligi, debitorlik qarzini qoplash imkoniyati mavjudligi va zaruriy moliyalashtirishga yo'l hamda uning mavjudligini keltirish mumkin. Ayrim hollarda korxonaning kelgusida faoliyat yurgizishi mumkinligi haqida guman tug'ilishi mumkin. Bu holatni quyidagi omillar vujudga keltiradi:

1. Xo'jalikda doimo takrorlanib turuvchi ahamiyatli zararlar mavjud bo'lsa yoki doimiy aylanma mablag'larining taqchiligi kuzatilsa;
2. Kompaniya o'z qarzlarini belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa;
3. Yirik mijozlardan mahrum bo'lganda, kutilmagan favqulodda holatlar vujudga kelganda yoki xodimlar bilan munosabatlarda muammolar yuzaga kelganda;
4. Sudlashuvlar, yuridik muammolar va boshqa firmanın kelajakda ish yuritishiga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa;
5. Davlat siyosati yoki qonunchiligi o'zgarib qolsa va hokazo.

Agar yuqoridagi holatlar mavjud bo'lsa, auditor kompaniya yaqin kelajakda faoliyat qilishi mumkinligini aniqlashi kerak. «Yaqin kelajak» deganda ko'p rivojlangan mamlakatlarda audit qilingan moliyaviy hisobot

sanasidan keyingi bir yil tushuniladi. Agar auditor kompaniyaning yaqin kelajakda faoliyat ko'rsatishiga gumon qilsa, unda «Muhim noaniqlik holati» qayd etiladi. «Muhim noaniqlik holati» aniqlansa, auditor avvalambor uni moliyaviy hisobotda va shu jumladan ilovalarda aks ettirilganligini yoki yo'qligini aniqlashi kerak. Masalan, mijozga qarshi sudlashuv olib borilayotgan bo'lsa va bu summa sug'urta yo'li bilan qaytarib olinishi mumkin bo'lgan summadan katta bo'lsa, bu holat, albatta, ilovalarda aks ettirilishi kerak.

Agarda holat ilovalarda yetarli darajada aks ettirilgan bo'lsa, ham auditor o'z xulosasida qo'shimcha «noaniqlik holati» mavjudligi haqida abzats kiritishi kerak. Buning uchun quyidagi holatlar bajarilishi kerak.

1. «Noaniqlik holati» bo'lsa:

- A. Noaniqlik ehtimoldan xoli emas va ahamiyatlisi;
- B. Noaniqlik juda ham ehtimolli va;
 - a) Noaniqlik ehtimoli kichik emas, balki katta yoki
 - b) noaniqliknинг ahamiyatliligi katta.

1
2
3
4

7- rasm kabi

7

Moliyaviy hisobotga qilingan 19-ilovada korasatilishicha, kompaniya sud oldida javobgar ekan, ya'ni unga avtorlik huquqlarini buzganlikda aylb qoyilgan. Da'yogarlar zararni qoplashni va mualliflik tolovlarini undirish ustida sud ishi ochishgan. Kompaniya ham, oz navbatida, qarshi ishi qozg'agan. Hozirgi paytda birlamchi sud tergovi amalga oshirilmoqda. Ayni davrda bu sudlashuvdan qanday natija chiqishi nomalum. Taqdirm etilgan moliyaviy hisobotda, sud qarori boyicha tolur zarur bolsa, zaxiralar kozda tutilmagan.

8
9

7- rasm kabi

Manba: AXS asosida muallif tomonidan tuzilgan

8-rasm. Noaniqlik holati mavjud paytdagi tushuntirish abzatsi.

2. «Muhim noaniqlik holati» bo'lsa. Kompaniya o'z faoliyatini yaqin kelajakda davom ettirishi to'g'risida katta gumon bo'lsa.

Shakli o'zgargan tushuntirish qismi mavjud auditorlik (modifikatsiyalashgan) hulosasida ham izohsiz standart auditorlik hulosasi kabi 1 dan 6 qismga qadar (7-rasm) shakl bir xil bo'ladi. Tushuntirish abzatsi 6-«fikr» qismdan so'ng qo'shiladi. Masalan, (8-rasm).

1
2
3
4

7- rasm kabi

7

Moliyaviy hisobot "XXX" Ajni oz faoliyatini davom ettirishi muqarrar ekanligi asoslangan holda tayyorlangan. Ammo moliyaviy hisobotga qilngan 8-ilovada kompaniya barqaror zararlar korganligi va bosh mablag'lar taqchilligi mayjudligini korsatgan Bu narsa kompaniyaning kelajakda faoliyat korsatishini gumon ostigi qoyadi. Kompaniya ma'muriyatining rejalar ham 8- ilovada keltirilgan. Moliyaviy hisobot bu hofatdan chiqish variantlarini tartibga solish yollarini ozida aks ettirmagan.

8
9

7- rasm kabi

9-rasm. Kompaniya o'z faoliyatini davom ettirishi haqida muhim noaniqlik mavjud sharoitidagi tushuntirish abzatsi.

Manba: AXS asosida tuzilgan

Qo'shimcha abzats kiritishdan maqsad foydalanuvchilarni noaniqlikdan ogoh qilishdir. Bu ish noaniqlik moliyaviy hisobotda bevosita aks ettirilgan bo'lishidan yoki moliyaviy hisobotni chuqur tahlil qilish yo'li bilan topitishi mumkinligidan qat'iy nazar bajarilishi lozim (9-rasm).

Hisobotni yuritishda mantiq bo'lmasa va tartib buzilgan bo'lsa. Auditor buxgalteriya uslublarini qo'llashda qo'yilgan xatolar, ya'ni tartib,

ketma-ketlik mavjudligini ham aniqlashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, oldingi hisobot davridagi qo'shashlar hozirgi hisobot davridagiga mos kelish-kelmasligidir.

Umumiy qabul qilingan buxgalteriya andozalariga asosan, buxgalteriya uslublari iloji boricha yaxshiroqlari tomon o'zgartirilishi mumkin va bu o'zgartirishning sabablari batafsil tushuntirilishi kerak. Agarda bunday o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, auditor o'z xulosasini o'zgartirishi kerak. «Fikr» abzatsidan so'ng tushuntirish abzatsi qo'shiladi va bu o'zgartirish qaysi ilovada aks ettirilganligi ko'rsatiladi. Bu abzats auditoring amalga oshirilgan o'zgarishga roziliginini ko'rsatadi. Agarda auditor bu o'zgarishlarni o'rinsiz deb topsa, unda umumiy buxgalteriya printsiplari buzilgan deb qaraladi va auditorlik xulosasida qo'shimcha sharh beriladi (10-rasm). Bu haqda keyingi paragraflarda to'xtalamiz.

1	7- rasm kabi
2	
3	
4	
7	Moliyaviy hisobotga qilingan 7-ilovada korsatilishicha, kompaniya 2005 yilda ozining amortizatsiya hisoblash usullarini ozgartirgan
8	7- rasm kabi

10-rasm. Hisob printsiplari o'zgargandagi tushuntirish abzatsi.

Manba: AXS asosida tuzilgan

Tartib va taqqoslash. Auditor doimo hisobdagagi tartiblilikka ta'sir etuvchi o'zgarishlarni, taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlardan ajrata bilishi kerak (10- jadval).

Tushuntirish abzatsi talab qiladigan tartib va taqqoslashlarga ta'sir qiluvchi holatlar

Buxgalteriya printsiplarining tartibliliga ta'sir etuvchi o'zgarishlar	Abzats shart yoki shart emas	Taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlar	Abzats shart yoki shart emas
1	2	3	4
1. Buxgalteriya printsiplarini qo'llashdagi o'zgarishga tovar moddiy boyliklarini baholashda FIFO metodidan AVEKO metodiga o'tish	shart	1. Baholash siyosatining o'zgartirilishi - aktivlar amortizatsiyasi davrining qisqartirilishi	shart emas
2. Korxonaning o'zidagi o'zgarish - yana bir korxonaning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga qo'shilishi	shart	2. Xatolarni tuzatish - Buxgalteriya printsiplarini qo'llashga taalluqli bo'limgan xatolar, masalan, o'tgan yillardagi arifmetik xatolar	muhim xato bo'lmasa shart emas
3. Ayrim xatolarni, ya'ni buxgalteriya printsiplarini qo'llashdagi xatolarni umumiy qabul qilinmagan buxgalteriya printsiplaridan umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga o'tish orqali tuzatish, shu jumladan natijaviy xatoni tuzatish	muhim xato bo'lmasa shart	3. Moliyaviy ma'lumotni shakli va taqdim etish tartibi o'zgartirilgan bo'lsa	shart emas
		4. Muhim xo'jalik muomalalari bilan bog'liq o'zgarishlar - qaram korxonani sotish yoki tadqiqot ishlarinining yangi turlari	Agar mijoz tushuntirish berma-sa shart

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Agar taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlar o'z muhimligi bo'yicha qo'shimcha abzats talab qilmasa, unda zarur tushuntirishlar moliyaviy hisobot ilovalarida aks ettirilishi kerak. Lekin mijoz ilovalarda

tushuntirish berishni xohlamasa, unda auditorlik xulosasiga qo'shimcha abzats kiritish zarur bo'ladi.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, buxgalteriya printsiplarida tashkilot tarkibiga korxonani birlashtirganda nazorat va hisob usuliga o'zgarish kirishi mumkinligi qayd etilmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday o'zgarishlar 50 foizdan oshiq aktsiyaga egalik qilinganda amalga oshadi. Ya'ni buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan nazorat to'la amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, nazorat paketi aktsiyalariga egalik qilinganda korxonalar o'rtaida bosh korxona va qaram korxona munosabatlari vujudga keladi.

Bunday holatlarda har bir kompaniya yuridik shaxs maqominini saqlab qoladi va har biri alohida moliyaviy hisobot tayyorlaydi, lekin ular bir xo'jalik ob'ekti sisatida qaraladi. Shu sababli ular konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tayyorlashlari ham kerak.

Shunday qilib, aktsionerlik kapitaliga uzoq muddatli investitsiyalar qilinganda, auditor e'tibor qaratishi kerak bo'lgan holat - bu necha foiz aktsiya egasi bo'linganligidir va qay holatda buxgalteriya printsiplarining tartibliligiga ta'sir etuvchi o'zgarishlar vujudga kelishidadir.

Bizning fikrimizcha, bu foizlarni quyidagi jadvalda bo'lib chiqilishi va egalik qilish darajasiga qarab hisob usullarining belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Jadvalni ishlab chiqishda xalqaro tajribalar nazarda tutilgan (11-jadval).

Auditoring umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlatish holatini tasdiqlash. Kasbiy etik kodeksda ko'rsatilishicha, ayrim nostandart hollarda umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlash hollarida qo'shimcha tushuntirish abzatsi yoki salbiy xulosa talab qilinmaydi

Aktsionerlik kapitaliga qo'shilgan hissaga qarab nazorat darajasi

Egalik darajasi va nazorat	Aktsiyalar miqdori, %	Hisob usuli
Ta'sir qilmaydigan va nazorat olib borilmay digan holat	20 dan kam	Sotib olish bozor qiymati bo'yicha tartibga solinadi; investitsiyalar avval boshlang'ich qiymatida hisoblanib, so'ng bozor qiymati bo'yicha tartibga solinadi
Ta'sir o'tkazadigan, lekin nazorat olib borilmaydigan holat	20 va 50 oraliq'ida	Hisob metodi shaxsiy kapital hisobi kabi; investitsiyalar avval boshlang'ich qiymatida hisobga olinadi, so'ng investorning foydadagi ulushi qo'shiladi (zarar bo'lsa ayirib tashilanadi) va dividendlar ayirib tashilanadi
Nazorat olib boriladigan investitsiyalar	50 dan oshiq	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Ammo tushuntirish abzatsi kiritilmaganligini auditor asoslab berish kerak va u qo'shimcha abzatsda umumiyligini qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashilmasa, salbiy natijaga olib kelishini keltirib berishi shart, deb hisoblaymiz.


Alovida o'ziga xos holatlarning mayjudligi. Ayrim hollarda auditor moliyaviy hisobot bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu konkret holatlarni tushuntirishsiz xulosa bermog'i shart bo'lmaganligidan qat'iy nazar ajratib ko'rsatishi kerak. Bunday tushuntiruvchi ma'lumot alovida abzatsda keltirilishi zarur. Misol tariqasida quyidagi larni keltirish mumkin:

- nostandard xo'jalik muomalalari;
- balans tuzilgandan so'ng bo'ladigan muhim voqealar;
- moliyaviy hisobotlarni yillar bo'yicha taqqoslashga ta'sir qiluvchi hisobdagisi o'zgarishlar.

Auditorlik xulosasi boshqa auditorlarga ta'lugli bo'lsa. AXS 600 "Boshqa auditorlar ishlaridan foydalanish. Qo'shimcha jabxalar –

Maxsus ko'rib chiqishlar - kompaniyalar guruhi moliyaviy hisoboti auditni (moliyaviy hisobot qisimlari bo'yicha auditorlar hisobotidan foydalanish)". Ayrim hollarda tekshirilayotgan kompaniya keng tizimli bo'lib, bir necha filial yoki bo'g'irlari mavjud bo'ladi. Bunday hollarda auditning bir qismi boshqa auditorlik firmalarining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Bunda audit natijalari qanday rasmiylashtirilishi kerak? Bunday holatning bir necha ko'rinishi ustida to'xtalamiz:

1. Auditorlik xulosasida ko'rsatma keltirilmaydigan holat. Bunda yordamchi auditorning ish ko'lami bosh auditorning kuzatuvchi ostida bo'lsa yoki yordamchi auditor tomonidan hisobotning muhim jabhalari tekshirilmagan bo'lsa. Ammo boshqa auditor doimo o'z xulosasi va bajargan ishi uchun javobgar bo'ladi.



11-rasm. Standart hamkorlikdagi auditorlik xulosasi.

Manba: AXS asosida tuzilgan

2. Auditorlik xulosasida ko'rsatma berilishi. Bunday xulosalar hamkorlikdagi xulosalar deyiladi va boshqa auditor tomonidan bajarilgan ishni ko'rib chiqish samarasiz yoki u tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobotning qismlari muhim bo'lsa tuziladi. Hamkorlikda tayyorlanadigan xulosani keltirishga harakat qilamiz (11-rasm).

Bunday hisobotlarda aksariyat boshqa auditorlar tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobot mutlaq kattalik sifatida keltiriladi.

12-jadval

Bosh auditor boshqa auditorlar xizmatidan foydalanganda tayyorlanadigan auditorlik xulosalarining turi

Bosh auditorning javobgarlik darajasi	Auditorlik xulosasining turi
Bosh auditor boshqa auditoring ishi uchun javobgarlikni o'z bo'yngi olsa	Qo'shimcha sharh berilmagan shartsiz auditorlik xulosasi
Bosh auditor javobgarlikni boshqa auditorlar bilan teng bo'lsa	Shakli o'zgartirilgan qo'shimcha sharh berilmagan hamkorlikdagi auditorlik xulosasi
Bosh auditor boshqa auditoring ishi uchun hech qanday javobgarlik olmasa yoki boshqa auditor o'z xulosasida muhim qo'shimcha sharh bergen bo'lsa	Qo'shimcha sharh berilgan shartli auditorlik xulosasi yoki fikr berishdan bosh tortish

Manba: AXS asosida tuzilgan

Qo'shimcha sharh berilgan xulosa taqdim etish. Bosh auditor o'z fikrini qo'shimcha sharh bilan taqdim etishga qaror qilishi mumkin. Bunday fikr berish yoki umuman fikr berishdan bosh tortish muhimlik darajasiga bog'liq bo'lib, bosh auditorni boshqa auditor bajargan ishi qoniqtirmasa va u o'ziga javobgarlikni olishni xohlama, amalga oshiriladi. Agarda boshqa auditor o'z fikrini qo'shimcha sharh bilan taqdim etsa, bosh auditor ham qo'shimcha sharh berish yoki bermaslikni hal qilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlar umumlashtirilgan holda 12-jadvalda keltirib o'tilgan.

5.3.Salbiy auditorlik hulosalari.

Auditorlik nazoratining qo'shimcha sharh berilmaydigan xulosalarini taqdim etishdan chetlashish shartlari va muhimlik darajasini belgilash masalalri. AXS 320 "Auditda muhimlik tushinchasi"

Audit natijalari bo'yicha har doim ham oldingi boblarda qayd etilgani kabi ijobjiy hulosalar bo'lavermaydi. Qanday hollarda standart auditorlik xulosalari berishdan chetlashish hollari bo'ladi? Bu savolga javob berish uchun quyidagi sharoitlarni ko'rib chiqamiz:

1. Moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashgan holda tuzilgan. Masalan, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni baholash noto'g'ri amalga oshirilgan bo'lsa.
2. Auditor mustaqil shaxs bo'lmasa. Mustaqillik shartlari «kasbiy etik kodeksda» belgilangan.
3. Auditorlik nazoratining ko'lami chegaralab qo'yilgan bo'lsa.

Audit ko'laming chegaralanib qolishi auditor moliyaviy hisobotni umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mosligini tasdiqlash uchun yetarli dalillar to'play olmagan bo'lsa, ro'y beradi. Bunday holat ikkita sabab oqibatida vujudga keladi: chegaralash mijoz tomonidan bo'lishi yoki ma'lum holatlar oqibatida mijozga ham auditorga ham bog'liq bo'lmasligi mumkin. Mijoz tomonidan chegaralanishga misol tariqasida ma'muriyatning muhim debitorlik qarzları bo'yicha auditorga ma'lumotning haqqoniyligini tasdiqlash borasida tekshirish olib borish uchun imkoniyat bermasligini yoki tovar-moddiy boyliklar qoldig'ining haqqoniyligini aniqlash uchun inventarizatsiya o'tkazishga ruxsat bermasligini kehtirish mumkin. Hozirgi kunda bunday holatlar O'zbekiston iqtisodidagi auditor va mijozlar oldida juda ko'p uchramoqda hamda ochiqdan-ochiq shartnomalar tuzishda chegara belgilab olinmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday holat audit umumiy printsiplariga zid bo'lib, sislati tekshirish olib borishga to'sqinlik qiladi.

Bunday holatlardan birontasi uchrasa ham qo'shimcha sharh berilmagan xulosa taqdim etishdan chetlashiladi. Bu sharoitda quyidagi

tipdag'i xulosalar tayyorlanadi: *salbiy xulosa; fikr berishdan bosh tortish* va *shurhlangan xulosa*. Bundan tashqari ayrim hollarda auditdan o'tkazilmagan moliyaviy hisobot to'g'risidagi xulosa ham berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bunday xulosalar auditorlik xulosasi hisoblanmaydi. Faoliyatning ayrim jabhalarini tekshirish, ichki xo'jalik tizimining tahlili kabi ishlar amalga oshirilganda maxsus turdag'i auditorlik xulosalari tayyorlanadi. Bunday xulosalar haqida keyingi qismlarida batasifilroq to'xtalamiz.

Salbiy xulosalar. Auditor moliyaviy hisobot shu qadar buzib ko'satilganki, u foydalanuvchini faqat chalg'itadi va kompaniya moliyaviy faoliyatini umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga asoslangan holda to'g'ri aks ettirmagan, deb hisoblasa tuziladi. Salbiy xulosa auditor zarur tekshirish muolajalari o'tkazib, moliyaviy hisobot talabga javob bermasligiga to'la ishonch hosil qilgandan so'ng beriladi. Bunday holat amaliyotda kam uchraydi va salbiy xulosalar ham kam yoziladi.

Fikr berishdan bosh tortish. Auditor moliyaviy hisobot faoliyatni aniq aks ettrishga ishonch hosil qilmasa, fikr berishdan bosh tortishi mumkin. Bunday hot audit ko'lami chegaralab qo'yilgan bo'lsa yoki auditor va mijoz bir-biridan ma'lum jabhalarda bog'liq bo'lib qolsa, vujudga keladi. Kasbiy etik Kodeksda aks etgan bunday holat auditorga fikr berishga qarshilik qiladi. Salbiy xulosadan farqli fikr berishdan bosh tortish auditorda ma'lumot taqchilligi sababli vujudga keladi.

Sharhlangan auditorlik xulosalari. Bunday xulosalar audit ko'lami chegaralangan bo'lsa yoki umumiyl qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashish hollari mavjud bo'lsa tayyorlanadi. Sharhlangan xulosa auditor moliyaviy hisobot faoliyatni umuman to'g'ri aks ettirgan, deb hisoblasagina taqdim etiladi. Fikr berishdan bosh tortish yoki salbiy auditorlik xulosalari auditor ko'rileyotgan holatlarni yuqori darajada muhim, deb hisoblagan taqdirdagina taqdim etiladi.

Sharhlangan auditorlik xulosalarida sharh audit chegarasi yoki auditor fikriga taalluqli bo'g'lnlarda keltirilishi mumkin. Ya'ni auditor zarur, audit standartlarida talab qilingan darajagacha yetarli ma'lumot to'play olmagan bo'lsa, bunday xulosa beradi (12-rasm). Shuning uchun sharhlangan auditorlik xulosalari mijoz tomonidan audit ko'lami

chegegaralab qo'yilgan yoki auditni to'laqonli o'tkazishga to'siq bo'luvchi omillar vujudga kelganda ishlatalidi. Sharh auditor fikriga taalluqli bo'lsa, moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mos emasligidan dalolat beradi.

Auditor sharhlangan xulosa beradigan bo'lsa, u har doim fikr berish abzatsida «hisobga olmaganda» degan iborani qo'llashi kerak. Bundan auditorni umuman moliyaviy hisobot ma'lumotlari qoniqtiradi, lekin ayrim jabhalarni hisobga olmagan holda, degan fikr chiqadi. Sharhlanmagan xulosalarda «hisobga olmaganda» degan iborani ishlatalish mumkin emas. Sharhlangan xulosa berishga olib keladigan sharoitlarni 13-jadvalda keltiramiz.

1	7- rasm kabi
2	
3	Keyingi abzatsda keltirilganlarni hisobga olmaganda, biz "XXX" AJi 2018 va 2019 yillar uchun taqdim etgan buxgalteriya balansi...(qolgan qismi 7 rasm kabi).
4 -	Biz fond tomonidan 2.750 ming som miqdoridagi summani boshqa viloyatdagi filialiga investitsiya qilganligini tasdiqlovchi va shu filialning 1.640 ming som miqdoridagi foydasidan fond ulushini tasdiqlovchi auditdan oigan hisobotni olishga musharraf bolmadik. Biz boshqa turli audit usullari yordamida bu investitsiya va foydadagi ulush miqdori haqida qoniqtiruvchi xulosaga keldimiz.
5 -	Boshqa viloyatdagi filialga qilingan investitsiyalar va shu filial foydasidagi ulush miqdoriga taaluqli haqiqiy ma'lumotlarni tekshirish bilan bog'liq auditni murakkablashtiruvchi usullar boyicha kiritilishi mumkin bolgan ozgarishlarni chetda qoldirgan holda. Sifrimizcha, yuqorida qayd etilgan moliyaviy hisobot... (qolgan qismi 8- rasm kabi).
7	
8	7- rasm kabi
9	

12-rasm. Audit chegara qo'llashi va fikr berish bo'g'inlariga taalluqli sharhlangan auditorlik xulosasi.

Manba: AXS asosida tuzilgan

Sharhlangan auditorlik xulosalari berishni taqozo etadigan sharoitlar

Sharoit	Sharh mazmuni
1. Audit ko'lami mijoz tomonidan yoki sharoit tufayli chegaralangan bo'lsa	Xulosaning chegara ko'lami va fikr berish bo'g'inlarida «hisobga olmaganda» jumlasi ishlataladi
2. Hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mos bo'lmasa	Xulosaning faqat fikr berish bo'g'inida «hisobga olmaganda» jumlasi ishlataladi

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida XAS talabini inobatga olgan holda tuzilgan

Shunday qilib, xulosa uchta abzatsdan iborat bo'lsa, audit davomida muhim kamchilik aniqlanmaganidan dalolat beradi.

Xulosada uchta abzatsdan ko'proq abzats mavjud bo'lsa, sharh berilganligidan va tushuntirish amalga oshirilishi kerakligidan dalolat beradi. Sharhlangan xulosaga misol keltiramiz.

Shuni qayd etish kerakki, faqat fikr berishdan bosh tortib, xulosa berilganda ham qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi kabi uchta abzats mavjud bo'ladi. Ya'ni 4-5-6 (13-rasm).

Ayrim hollarda auditor fikr berishdan bosh tortishi mumkin, ya'ni audit chegara ko'lami yetarli darajada keng bo'lmasa. Bunda auditor fikr berish uchun yetarli muolajalar amalga oshirish imkonи bo'lmasa yoki boshqa har xil ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud bo'lsagina, hisobot yuzasidan fikr berishdan bosh tortadi.

Shakli o'zgargan xulosalar berish uchun auditorga yuqorida keltirib o'tilgan shart-sharoitlarning birontasi mavjud bo'lib qolgan taqdirda kirishiladi. Yana shuni qayd etib o'tish kerakki, agar auditor o'z mustaqilligini «Kasbiy etik Kodeks» talablari darajasida ta'minlay olmasa, fikr berishdan bosh tortishi kerak, hatto u yetarli audit muolajalarini o'tkazgan bo'lsa ham.

Bu auditor xulosasi faqat bitta abzatsdan iborat bo‘ladigan yagona holatdir.

Auditorning xulosasiga har qanday qo‘srimcha mulohaza kiritish taqiqlanadi. Masalan, fikr berishdan bosh tortish keltirilgan xulosada «ammo moliyaviy hisobotning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilishimiz uchun to‘siq bo‘luvchi holatlarni kuzatmadik» degan jumlanı qo‘sishi noo‘rin va audit andozalariga ziddir. Bunday mulohazalar moliyaviy hisobot va audit natijasiga tayanib ish ko‘rvuchi mijozlarni chalg’itadi va auditorning javobgarlik darajasini belgilashni murakkablashtiradi.

- | | |
|------------------------------|---|
| 1 | 7- rasm kabi |
| 2 | |
| 3 | |
| 4 - | Biz “XXX” Alj 2018 va 2019 yillar uchun taqdim etgan... (12 rasmning kirish abzatsi kabi)... hisobotlarning auditini otkazishga shartnomaga tuzdik. Moliyaviy hisobot uchun javobgarlik... (12 rasmning kirish abzatsi kabi). |
| 5 - | |
| 12- rasmning 2-abzatsi kabi. | |
| 6 - | Boshqa viloyatdagagi filialga qilingan investitsiyalar summasi va shu filial foydasidagi ulush miqdori haqida auditdan otgan moliyaviy hisobotini olaolmaganligimiz va boshqa audit usullarini qollash orqali yetarli ma'lumot toplay olmaganligimiz sababli, audit chegara kolami ushbu moliyaviy hisobot boyicha fikr berishimiz uchun toliq deb hisobtay olmaymiz. Shu sababli fikr berishdan bosh tortamiz. |
| 7 | |
| 8 | |
| 9 | |
| 7- rasm kabi | |

13-rasm. Audit chegara ko‘lami yetarli bo‘lmagan sharoitda fikr berishdan bosh tortish.

Manba: AXS asosida tuzilgan

Auditorlik xulosalari turini belgilashda «muhimlik» asosiy omillardan hisoblanadi. Masalan, moliyaviy hisobotga nisbatan aniqlangan kamchilik muhim bo‘lmasa va kelajakda hech qanday ta’sir ko‘rsatmasa, qo‘sishimcha izohsiz auditorlik xulosasi tayyorlanadi. Masalan, kantselyariya mollarini hisobdan chiqarishda ayrim oluvchilarning imzosi bo‘lmasa yoki umuman tarqatish ro‘yxati qilinmagan bo‘lsa. Og‘zaki so‘rovlar korxona ma‘muriy boshqarishida kantselyariya mollariga taqchillik bo‘lganligini tasdiqlamasa va hokazo.

Agar noaniqlik summasi juda muhim va umumiyligi moliyaviy hisobotga jiddiy ta’sir qilsa, salbiy xulosa yoki umuman xulosa berishdan bosh tortish mumkin. Ayrim hollarda noaniqlikning muhimlik darajasi uncha katta bo‘lmasa, sharhlangan xulosa keltirish ham mumkin.

Auditorlik xulosasining turini belgilash uchun muhimlik darajasi shartlarini keltirishga harakat qilamiz.

1. Summa muhim emas. Agar moliyaviy hisobotda 13-jadvalda keltirilgan sharoitlardan biri mavjud bo‘lsa, bu kamchiliklar qaror qabul qiluvchi yechimiga ta’sir qilmaydi va summa muhim hisoblanmaydi. Masalan, kompaniya ma‘muriyati kelgusi yil xarajatini joriy yilda hisobdan chiqardi va umumiyligi qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga rioya qilmadi. Agar bu summa uncha katta bo‘lmasa, unda bu noaniqlik muhim hisoblanmaydi va sharhsiz standart auditorlik xulosasi beriladi.

2. Summa muhim, ammo umumiyligi moliyaviy hisobot natijalarini buzib ko‘rsatmaydi. Muhimlikning ikkinchi darajasi bu moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar yechimiga ta’sir qiladi, lekin moliyaviy hisobot umuman korxona faoliyatini to‘g’ri aks ettiradi va shuning uchun u zarurdir. Masalan, tovar-moddiy boyliklar hisobida mavjud muhim noaniqlik haqidagi ma‘lumot foydalanuvchilar yechimiga ta’sir qilishi va kredit berish masalasi salbiy hal bo‘lishi mumkin, lekin bunday kamchilik pul mablag‘lari hisobi, debitorlik qarzları hisobi va boshqa moliyaviy hisobot bo‘g‘inlari muhim jabhalarida noto‘g’ri degani emas.

Muhimlik darajasi yuzasidan yechim qabul qilish va sharhsiz auditorlik xulosalalari berishdan chetlashish hollari mavjud sharoitda auditor aniqlangan kamchilikni moliyaviy hisobotga qay daraja ta'sir qilishini aniqlashi kerak. Masalan, auditor u yoki bu turdag'i auditorlik xulosasini tanlashi uchun, hisobda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi yetarli to'g'ri ko'rsatilganligi haqida aniq bir fikrga erisha olmagan bo'lsa va bu kamchilik boshqa schetlarga, hisobot qoldiqlariga ta'sir qilsa, auditor bu kamchilikni umumiyligi aktivlar summasiga qay darajada ta'sir o'tkazganligini aniqlashi kerak. Bundan tashqari bu kamchilikning tannarxga va soliq to'lovlariga, yalpi va sof soydaga o'tkazgan ta'sirini ham aniqlash zarur.

Agar auditor kamchilik muhim, lekin u umumiyligi moliyaviy hisobotga hal qiluvchi darajada katta ta'sir qilmasligini aniqlasa, u holda sharhlangan auditorlik xulosasini taqdim etadi.

3. Summa juda muhim va shu qadar ko'p takrorlanadiki, moliyaviy hisobot umuman to'g'riliqi haqida shubha ostiga olinadi. Moliyaviy hisobotga tayanib ish ko'ruvchi-foydaluvchilar noto'g'ri xulosa qabul qilishlari va xato yechimga kelishlari mumkin bo'lsa, shu moliyaviy hisobotda juda muhim bo'lgan kamehilik bor, deb qaraladi. Agar yuqorida keltirilgan misolga qaysak va tovar-moddiy boyliklari hisobidagi kamchilik katta summani tashkil qildi deb qaralsa, auditor o'z xulosasida moliyaviy hisobot kompaniya faoliyatini to'g'ri aks ettirmaganligini ko'rsatib, salbiy fikr berishi yoki umuman fikr berishdan bosh tortishi mumkin.

Juda muhim kamchilik mavjud bo'lsa, bunday holat qay darajada moliyaviy hisobot moddalariga ta'sir qilganligi aniqlanishi kerak. Bu ish «kamchilikning tarqoqligi» tushunchasini beradi. Agar kamchilik tarqoq bo'lsa, auditorlar, albatta, salbiy xulosa berishi kerak va biron-bir sharhlangan xulosa bu yerda o'rinsiz, deb hisoblaymiz. Muhimlik darajasi va auditorlik xulosasi turi o'rtasidagi bog'liqlikni 14-jadvalda keltiramiz.

Umuman muhimlik chegarasini to‘g’ri aniqlash keyinchalik qaysi turdagi xulosa berish bilan bog’liq. Amaliyotda har qanday vaziyatda ham muhimlik darajasi haqida qaror qabul qilish birmuncha murakkab.

14-jadval

Muhimlik darajasi va auditorlik xulosasi turi orasidagi bog’liqlik

Muhimlik darajasi	Foydalanuvchi yechimiga ko‘rsatadigan ta’sir	Auditorlik xulosasi turi
Muhim emas	Noaniqlik foydalanuvchi qabul qiladigan qaror va yechimga ta’sir o’tkazishi gumon	Sharhsiz xulosa
Muhim	Agar ma’lumot aniq spetsifik yechim qabul qilish uchun taalluqli bo‘lsa va undagi kamchilik muhim bo‘lsa, lekin umumiyl moliyaviy hisobot ob’ektiv deb qaralsa	Sharhlangan xulosa
Juda muhim	Hisobotdan foydalanuvchi yechimining ko‘p qismiga yoki umuman foydalanuvchi qarorlariga ta’sir o’tkazadigan kamchilik	Fikr berishdan bosh tortish yoki salbiy auditorlik xulosasi

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan

Auditor o‘z ishini shunday rejalashtirishi kerakki, ish oxirida u yo‘l qo‘yilgan xato muhimlik chegarasidan o‘tib ketmaganligiga to‘la ishonch hosil qilsin. Bu chegara har bir tekshirilayotgan korxona uchun alohida va auditorning malakasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (15-jadval)

Albatta, bir korxona uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkich boshqa korxona uchun muhim bo‘lmasi mumkin, chunki ularning hajmi, faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni muhimlik chegarasi korxona hajmidan, foya ko‘rsatkichlaridan, joriy aktivlar hajmidan joriy majburiyatlardan, kapital hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu ko‘rsatkichga batafsilroq keyingi boblarda qaytamiz.

Muhimlik darajasini inobatga olib va sharhlanmagan auditorlik xulosalaridan chetlashga sabab bo'luvchi sharoitlar uchun auditorlik xulosasining turi.

Chetlashishga sabab bo'luvchi sharoitlar	Muhimlik darajasi			
	Muhim emas	Muhim, ammo umumiy moliyaviy hisobotni buzmaydi	Juda muhim va umumiy moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatdi	
I	2	3	4	
Audit ko'lami tomonidan yoki sharoitlar chegaralangan				
Boshqa auditorlar natijasidan foydalanish	ish	Sharhlanmagan xulosa	Sharhlangan xulosa	Fikr berishdan voz kechish
Buxgalteriya hisobiga taalluqli				
Moliyaviy hisobot umumiyl qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashsa	Sharhlanmagan xulosa	Sharh fikrga taalluqli bo'ladi (hisobga olmaganda)	Salbiy xulosa	
Hisob printsiplari tartib bilan qo'llanilmasa	Sharhlanmagan xulosa	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	
O'zgacha sharoitlar	Qo'llanil-maydi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	
Noaniqlik moliyaviy hisobotga taalluqli	Sharhlanmagan xulosa	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	
Noaniqlik auditorga bog'liq, ya'ni u mustaqil emas	Muhimlik darajasidan qat'iy nazar salbiy xulosa			

Manba: Е.А.Аренс., Дж.К.Лоббек. «Аудит». - Москва: «Финансы и статистика», 1995. – с. 68.

AXS 800 “Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari (hulosalari)” nomli standartga binoan auditorlik hulosalari taylorlash ko‘zda tutilgan auditorlik vazifalariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan farqli milliy standartlar asosida taylorlangan moliyaviy hisobot audit;
- moliyaviy hisobotning ma`lum bir qismi (alohida shakl, sal do elementi) yuzasidan o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvi;
- sharnoma vazifalarini tekshirish ;
- umumlashgan moliyaviy hisobot audit (masalan, bir necha yil kesimida).

Kuzatuv, kelishilgan ammalarni o‘tkazish va kompilyatsiya AXS 800 standartida keltirilmagan va boshqa standartlar bilan tartibga solinadi.

Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan auditni tashkil qilish va o‘tkazish umumiyligi auditdan katta farq qilmaydi. Ushbu tekshirish turida ham auditor isbotlar yig’adi va o‘z fikrini bildiradi. Bunday tekshirishlarning farqi moliyaviy hisobot qismlari va undan foydalanuvchilar kesimida aks etadi.

Mahsus auditorlik topshiriqlari bo‘yicha audit o‘tkazish hujjatlarida belgilangan vazifa yuzasidan barcha hususiyatli jihatlar o‘z aksini topishi kerak, ya’ni vaqt chegaralari, vazifa xarakteri va xajmi, shuningdek vazifa bo‘yicha auditor hisobotining mazmuni va shakli, hisobotdan foydalanuvchilar tarkibi va boshqalar.

Mahsus auditorlik topshiriqlari bo‘yicha auditorlik hisobotining tarkibi auditorlik hulosasi bilan aynan o‘xhash bo‘lib quyidagilardan tarkib topadi:

- mahsus auditorlik topshirig‘ining xarakterini ifodalovchi nomi;
- auditorning mustaqilligi;
- hisobotdan foydalanuvchi;
- auditdan o‘tgan moliyaviy hisobot ma`lumoti xarakterini ifodalovchi kirish abzatsi;
- rahbariyat va auditor javobgarligi;
- auditor tomonidan o‘tkazilgan amallar izzohi;
- auditdan o‘tgan moliyaviy hisobot ma`lumoti yuzasidan auditorning fikri;

- hisobot sanasi;
- auditor manzili;
- auditor imzosi va boshqa rekvizitlar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan farqli milliy standartlar asosida taylorlangan moliyaviy hisobot auditni. AXS 800 mahsus auditorlik topshiriqlari sifatida MHXS dan farqli umumiy qabul qilingan hisob yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobot auditini ham nazarda tutadi. Umumiy tan olingan hisob standartlari bu hisob yuritishning ayrim jabhalari yuzasidan qabul qilingan tamoyillarini aks ettiradi. Misol tariqasida, soliq hisobotini tayyorlash uchun Davlat tomonidan qabul qilingan qoyidalar yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya talablarini keltirish mumkin.

Moliyaviy hisobotning ma'lum bir qismi (alohida shakl, sal do elementi) yuzasidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi. Mahsus auditorlik topshiriqlari sifatida moliyaviy hisobotning ayrim qismiga ta'lulqi auditni ham keltirish mumkin (alohida shakl, ilova, sintetik va analetik schetlar sal dosi, xodimlar bilan hisob kitoblar va xokazo). Moliyaviy hisobot elementlari o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli auditor alohida vazifaning ushbu bog'liqlikdagi holatini va ish hajmini to'g'ri baholab olishi kerak.

Moliyaviy hisobotning aloxida elementini tekshirishda muhimlik darajasini to'g'ri baholash kerak, chunki bu karsatkich umumiy auditorlik hulosasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sharnoma vazifalarini tekshirish. Mijoz tashkilot tuzilgan shartnomalar yuzasidan tekshirish o'tkazib berishni buyurtma berishi mumkin (sharnoma ekspertizasi). Bunday holatlarda bir qator kelishuvlar imzolab olinishi kerak. Auditor faqat buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga bog'liq bo'lgan o'z vakolati doirasidagi vazifalarni bajarishi mumkin, aks holda qo'shimcha ekspert jalb qilinishi masalasi o'rganiladi.

Umumlashgan moliyaviy hisobot auditni (masalan, bir necha yil kesimida). Ushbu mahsus auditorlik topshirig'i moliyaviy hisobotning umumiy jihatlarigina qiziqtirgan, ayrim foydalanuvchilar guruxi uchun bajariladi. Bunday hisobotlarning ko'p ma'lumotlari umumiy bo'lganligi sababli auditdan o'tkazish ham bir muncha murakkabdir. Shu sababli AXS

800 umumiyligi moliyaviy hisobot yuzasidan fikir bildirishni taqiqlaydi. Agar, auditor ushbu hisobotning dastlabki bosqichlarini ham o'zi auditdan o'tkazgan bo'sagina fikir bildirishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. O'tkazilgan audit natijalari qanday umumlashtiriladi?
2. Auditorlik hisoboti nima va u qanday tuziladi?
3. Auditorlik xulosasi nima va u nima asosida tuziladi?
4. Auditorlik xulosasi necha xildan iborat?
5. Auditorlik hisoboti va xulosasi to'g'risida tushuncha AXS ning qaysi standartida berilgan?
6. Qanday holatlarda salbiy auditorlik xulosasi beriladi?
7. Qanday holatlarda ijobiy auditorlik xulosasi beriladi?
8. Auditorlik hisoboti va xulosasi to'g'risida tushuncha O'zbekiston Respublikasi «Auditorlar faoliyati to'g'risida» gi qonunning qaysi moddalarida berilagan?
9. Qanday auditorlik hisoboti va xulosasi qasddan soxta tuzilgan hisobot va xulosa deyiladi?
10. Auditorlik xulosasi kimlarga taqdim etiladi?
11. Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik hulosalari nima?
12. Modifikatsiyalashgan auditorlik hulosalari qanday tuziladi?
13. Salbiy auditorlik hulosa qaysi holatlarda tuziladi?

Vaziyatli masalalar.

Masala -1

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

- Moliyaviy hisobotlar to'liq to'plami auditi.
- Moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan umumiyligi foydalanish uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan.

- Audit kelishuvi shartlarida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsifi AXS 210 ga muvofiq aks ettirilgan.
 - Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishga qo'shimcha ravishda auditorga mahalliy qonunchilikda nazarda tutilgan hisobotlar (xulosalar)ni taqdim etish bo'yicha boshqa vazifalar ham yuklangan

Masala -2

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

- Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan umumiyl foydalanish uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlar auditi.
- Audit kelishuvi shartlarida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsifi AXS 210 ga muvofiq aks ettirilgan.
- Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishga qo'shimcha ravishda auditorga mahalliy qonunchilikda nazarda tutilgan hisobotlar (xulosalar)ni taqdim etish bo'yicha boshqa vazifalar ham yuklangan.

Masala -3

Auditor moliyaviy hisobotlarning ko'p sonli elementlari xususida yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega emasligi tufayli fikr bildirishdan bosh tortish ifodalangan auditorlik hisobotini tuzish (xulosasi).

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

-Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlar to'liq to'plamining auditi.

-Audit kelishuvi shartlarida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsifi AXS 210 ga muvofiq aks ettirilgan.

-Auditor moliyaviy hisobotlarning ko'p sonli elementlari xususida yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'Imagan. Aniqroq aytganda, auditor tadbirkorlik sub'ektining tovar-moddiy

zaxiralari va debitorlik qarzları xususida yetarlıcha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'lmagan. yetarlıcha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyati yo'qligi ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sir moliyaviy hisobotlar uchun ham muhim, ham keng qamrovli hisoblanadi.

1-masala javobi.

MUSTAQIL AUDITOR HISOBOTI (XULOSASI)

Tegishli adresat

Moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosa)

Biz AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foyda va zararlar to'g'risida hisobotdan, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risida hisobotdan, pul oqimlari to'g'risida hisobotdan, shuningdek hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovechi ma'lumotlardan iborat bo'lgan ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazdik.

Kompaniya rahbariyatining moliyaviy hisobotlar uchun javobgarligi

Kompaniya rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek Kompaniya rahbariyati firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'ladı.

Auditning javobgarligi

Bizning javobgarligimiz mazkur moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'zimiz o'tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biz auditni Auditning Xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazdik. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch bildirishni ta'minlaydigan tarzda rejalashtirish va o'tkazish majburiyatini yuklaydi.

Audit moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan summalar va ochib beriladigan ma'lumotlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o'z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar

auditorning mulohazasiga, shu jumladan firibgarlik yoki xato tufayli moliyaviy hisobotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog'liqdir. Bunday risklarni baholashda, kompaniya ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor tadbirkorlik sub'ekti o'z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog'liq bo'lgan ichki nazorat tizimini ko'rib chiqadi. Audit o'tkazish qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asosiliginini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotlarning umumiyligi ifodalanishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'zimiz olgan auditorlik dalillari o'z auditorlik fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun yetarlicha tegishli dalillardir deb hisoblaymiz.

Fikr

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotlar AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrga bo'lgan moliyaviy holatini, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida uning moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini barcha muhim jihatlarda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq haqqoniy taqdim etadi (yoki *to'g'ri va haqqoniy tasavvur beradi*)..

Qonunchilik va tartibga soluvchi organlarning boshqa talablari bo'yicha hisobot (xulosa).

2-masala javobi.

MUSTAQIL AUDITOR HISOBOTI (XULOSASI)

Tegishli adresat

Moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosa)

Biz AVS kompaniyasi va uning shu'ba tadbirkorlik sub'ektlarining 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foyda va zararlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotdan, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risida hisobotdan, pul

oqimlari to‘g’risida hisobotdan, shuningdek hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma`lumotlardan iborat bo‘lgan ilova qilinayotgan jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlari auditini o’tkazdik.

Kompaniya rahbariyatining jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlar uchun javobgarligi.

Kompaniya rahbariyati mazkur jamlagan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek kompaniya rahbariyati firibgartlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko’rsatishlardan xoli jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta’minlash uchun javobgar bo‘ladi.

Auditorning javobgarligi.

Bizning javobgarligimiz mazkur jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlar bo‘yicha o‘zimiz o’tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biz auditni Auditning Xalqaro standartlariga muvofiq o’tkazdik. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko’rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch bildirishni ta’minlaydigan tarzda rejalashtirish va o’tkazish majburiyatini yuklaydi.

Audit jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan summalar va ochib beriladigan ma`lumotlar bo‘yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar auditorning mulohazasiga, shu jumladan firibgartlik yoki xato tufayli jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muhim buzib ko’rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog’liqdir. Bunday risklarni baholashda, kompaniya ichki nazorat tizimining samaradorligi to‘g’risida fikr bildirish maqsadidaemas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor kompaniya o‘z jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog’liq bo‘lgan ichki nazorat tizimini ko’rib chiqadi.

Audit o'tkazish qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asosliligini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotlarning umumiy ifodalishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'zimiz olgan auditorlik dalillari o'z auditorlik fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun yetarlicha tegishli daflillardir deb hisoblaymiz.

Fikr.

Bizning fikrimizcha, jamlangan (konsolidatsiyalangan) moliyaviy hisobotlar AVS kompaniyasi va uning shu'ba tadbirkorlik sub'ektlarining 20X1 yil 31 dekabrga bo'lgan moliyaviy holatini, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida ularning moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini barcha muhim jihatlarda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq haqqoniy taqdim etadi (yoki *to'g'ri va haqqoniy tasavvur beradi*).

Qonunchilik va tartibga soluvchi organlarning boshqa talablari bo'yicha hisobot (xulosa)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi) mazkur qismining shakli va mazmuni auditorning hisobotlar (xulosalar) taqdim etish bo'yicha boshqa vazifalari xususiyatiga qarab o'zgaradi.)

(Auditorning imzosi)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi)

(Auditorning manzili)

3-masala javobi

MUSTAQIL AUDITOR HISOBOTI (XULOSASI)

Tegishli adresat

Moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosa)

Biz AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foyda va zararlar to'g'risida hisobotdan, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risida hisobotdan, pul oqimlari to'g'risida hisobotdan, shuningdek hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va

boshqa izohlovchi ma'lumotlardan iborat bo'lgan ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish uchun jalb qilindik.

Kompaniya rahbariyatining moliyaviy hisobotlar uchun javobgarligi

Kompaniya rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek Kompaniya rahbariyati siribgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

Auditning javobgarligi

Bizning javobgarligimiz mazkur moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'zimiz Auditning Xalqaro Standartlariga muvofiq o'tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biroq, fikr bildirishdan bosh tortish uchun asos ifodalangan paragrafda tavsiflangan jihat tufayli, biz auditorlik fikrini ifodalash uchun asosni ta'minlashga qodir bo'lgan yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'lganimiz yo'q.

Fikr bildirishdan bosh tortish uchun asos

Biz Kompaniya auditorlari etib 20X1 yil 31 dekabrdan keyin tayinlandik va, binobarin, yil boshida va yil oxirida mavjud tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya qilish jarayonini kuzatganimiz yo'q. Biz 20X0 yil va 20X1 yil 31 dekabrga qadar bo'lgan holatga ko'ra mavjud bo'lgan, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida tegishli ravishda xxx va xxx miqdorida ko'rsatilgan tovar-moddiy zaxiralarning summalarini xususida yetarli tegishli auditorlik dalillarini muqobil tartib-taomillar yordamida olishga muvaffaq bo'lganimiz yo'q. Bundan tashqari, 20X1 yil sentyabrda debitorlik qarzlarini ro'yxatga olish yangi komp yuterlashtirilgan tizimining joriy etilishi debitorlik qarzlarini hisobini yuritishda ko'p sonli xatolarga yo'l qo'yilishiga olib kelgan. Bizning auditorlik hisobotimiz (xulosamiz) chiqarilgan sanada tadbirdorlik sub'ekti rahbariyati tizim kamchiliklarini hali-hanuz bartaraf etayotgan va xatolarni tuzatayotgan edi. Biz 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotiga kiritilgan, umumiy summasi xxx miqdorida bo'lgan debitorlik qarzlarini muqobil tartib-taomillar yordamida tasdiqlash yoki tekshirishga muvaffaq bo'la olmadik. Ko'rsatib o'tilgan jihatlarga ko'ra biz debitorlik

qarzlarining ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilmagan zaxiralariga, shuningdek foyda va zararlar to'g'risida hisobot, xususiy kapitaldag'i o'zgarishlar to'g'risida hisobot va pul oqimlari to'g'risida hisobotni tashkil etuvchi elementlarga biron-bir tuzatishlar kiritish zarur bo'lgani yoki bo'lmaganini aniqlay olmadik.

Fikr bildirishdan bosh tortish

Fikr bildirishdan bosh tortish uchun asos ifodalananayotgan paragrafda tavsiflangan jihatlar ahamiyatga molik bo'lgani bois, biz auditorlik fikrini ifodalash uchun asosni ta'minlashga qodir bo'lgan yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'lganimiz yo'q. Binobarin, biz moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr bildirmaymiz.

Qonunchilik va tartibga soluvchi organlarning boshqa talablari bo'yicha hisobot (xulosa)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi) mazkur qismining shakli va mazmuni auditoring hisobotlar (xulosalar) taqdim etish bo'yicha boshqa vazifalari xususiyatiga qarab o'zgaradi.)

(Auditoring imzosi)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi)

(Auditoring manzili)

6 BOB. AUDITNING BOSHQA MAHSUS SOHALARI

6.1. Maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar audit.

AXS 800 “Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari (hulosalari)” nomli standartga binoan auditorlik hulosalari taylorlash ko‘zda tutilgan auditorlik vazifalariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan farqli milliy standartlar asosida taylorangan moliyaviy hisobot audit;
- moliyaviy hisobotning ma’lum bir qismi (alohida shakl, sal do elementi) yuzasidan o’tkazilgan auditorlik tekshiruvi;
- sharnoma vazifalarini tekshirish ;
- umumlashgan moliyaviy hisobot audit (masalan, bir necha yil kesimida).

Kuzatuv, kelishilgan ammalarni o’tkazish va kompilyatsiya AXS 800 standartida keltirilmagan va boshqa standartlar bilan tartibga solinadi.

Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan auditni tashkil qilish va o’tkazish umumiyy auditdan katta farq qilmaydi. Ushbu tekshirish turida ham auditor isbotlar yig’adi va o’z fikrini bildiradi. Bunday tekshirishlarning farqi moliyaviy hisobot qismlari va undan foydalanuvchilar kesimida aks etadi.

Mahsus auditorlik topshiriqlari bo‘yicha audit o’tkazish hujjatlarida belgilangan vazifa yuzasidan barcha hususiyatli jihatlar o’z aksini topishi kerak, ya’ni vaqt chegaralari, vazifa xarakteri va xajmi, shuningdek vazifa bo‘yicha auditor hisobotining mazmuni va shakli, hisobotdan foydalanuvchilar tarkibi va boshqalar.

Mahsus auditorlik topshiriqlari bo‘yicha auditorlik hisobotining tarkibi auditorlik hulosasi bilan aynan o’xhash bo‘lib quyidagilardan tarkib topadi:

- mahsus auditorlik topshirig’ining xarakterini ifodalovchi nomi;
- auditorning mustaqilligi;
- hisobotdan foydalanuvchi;
- auditdan o’tgan moliyaviy hisobot ma’lumoti xarakterini ifodalovchi kirish abzatsi;

- rahbariyat va auditor javobgarligi;
- auditor tomonidan o'tkazilgan amallar izzohi;
- auditdan o'tgan moliyaviy hisobot ma'lumoti yuzasidan auditoring fikri;
- hisobot sanasi;
- auditor manzili;
- auditor imzosi va boshqa rekvizitlar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan farqli milliy standartlar asosida taylorlangan moliyaviy hisobot auditni. AXS 800 mahsus auditorlik topshiriqlari sifatida MHXS dan farqli umumiyligini qabul qilingan hisob yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobot auditini ham nazarda tutadi. Umumiy tan olingen hisob standartlari bu hisob yuritishning ayrim jabhalari yuzasidan qabul qilingan tamoyillarini aks ettiradi. Misol tariqasida, soliq hisobotini tayyorlash uchun Davlat tomonidan qabul qilingan qoyidalar yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya talablarini keltirish mumkin.

Moliyaviy hisobotning ma'lum bir qismi (alohida shakl, sal do elementi) yuzasidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi. Mahsus auditorlik topshiriqlari sifatida moliyaviy hisobotning ayrim qismiga ta'luqli auditni ham keltirish mumkin (alohida shakl, ilova, sintetik va analetik schetlar sal dosi, xodimlar bilan hisob kitoblar va xokazo). Moliyaviy hisobot elementlari o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli auditor alohida vazisaning ushbu bog'liqlikdagi holatini va ish hajmini to'g'ri baholab olishi kerak.

Moliyaviy hisobotning aloxida elementini tekshirishda muhimlik darajasini to'g'ri baholash kerak, chunki bu karsatkich umumiyligida auditorlik hulosasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sharnoma vazifalarini tekshirish. Mijoz tashkilot tuzilgan shartnomalar yuzasidan tekshirish o'tkazib berishni buyurtma berishi mumkin (sharnoma ekspertizasi). Bunday holatlarda bir qator kelishuvlar imzolab olinishi kerak. Auditor faqat buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga bog'liq bo'lgan o'z vakolati doirasidagi vazifalarni bajarishi mumkin, aks holda qo'shimcha ekspert jalg qilinishi masalasi o'rGANILADI.

Umumlashgan moliyaviy hisobot auditini (masalan, bir necha yil kesimida). Ushbu mahsus auditorlik topshirig'i moliyaviy hisobotning umumiyligi jihatlarigina qiziqtirgan, ayrim foydalanuvchilar guruxi uchun bajariladi. Bunday hisobotlarning ko'p ma'lumotlari umumiyligi bo'lganligi sababli auditdan o'tkazish ham bir munkha murakkabdir. Shu sababli AXS 800 umumiyligi moliyaviy hisobot yuzasidan fkir bildirishni taqiqlaydi. Agar, auditor ushbu hisobotning dastlabki bosqichlarini ham o'zi auditdan o'tkazgan bo'sagina fkir bildirishi mumkin.

6.2. Ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagisi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditini.

Moliyaviy hisobotdagisi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar yuzasidan audit o'tkazish AXS 200 "Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi umumiyligi tamoyillar" asosida o'tkaziladi, ya'ni 100 dan 700 gacha bo'lgan Xalqaro Audit Standartlari moliyaviy hisobotlar auditiga nisbatan qo'llaniladi va ular boshqa tarixiy moliyaviy ma'lumotlarga nisbatan qo'llanilganda vaziyatga qarab moslashtirilishi lozim. Ushbu moslashish AXS 805 "Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagisi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditini" standarti bilan taribga solinadi. Maxsus muomilalarga misol tariqasida quyidagilarni kiritish mumkin:

- Debitorlik qarzlari, shubhali debitorlik qarzlari bo'yicha rezerv, tovar-moddiy zaxiralar, xususiy pension to'lovlarini tizimiga hisoblangan badallar bo'yicha majburiyat, identifikatsiya qilingan nomoddiy aktivlarning aks ettirilgan qiymati yoki sug'urta portfelidagi "ko'rilgan, biroq hisobotda aks ettirilmagan" da'volar bo'yicha majburiyatlar, shu jumladan ilova qilinadigan izohlar.

- Tashqi tomonlar boshqarayotgan aktivlar ro'yxati va xususiy pensiya to'lovlarini tizimi daromadi, shu jumladan ilova qilinadigan izohlar.

- Sof moddiy aktivlar ro'yxati, shu jumladan ilova qilinadigan izohlar.

- Ijaraga olingan mulk bo'yicha to'lovlar ro'yxati, shu jumladan sharhlovchi izohlar.

- Foydani taqsimlashda ishtiroy etish yoki xodimlarning daromadlari tavsifi, shu jumladan sharhlovchi izohlar.

805 AXS guruh auditni bo'yicha kelishuv jamoasining talabiga binoan guruh moliyaviy hisobotlari auditni maqsadida guruh komponenti moliyaviy axboroti bo'yicha bajarilgan ish natijasida chop etiladigan auditor hisoboti (xulosasi)ga nisbatan qo'llanilmaydi (AXS 600¹ ga qarang). Ushbu AXS talablari boshqa AXS talablariga nisbatan ustunlikka ega bo'lmaydi; shuningdek u kelishuv bilan bog'liq vaziyatlarda o'rinni bo'lishi mumkin bo'lgan barcha maxsus masalalarni ko'rib chiqishni ham nazarda tutmaydi.

Auditning Xalqaro Standartlarini ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagি maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditiga nisbatan qo'llashda auditorning maqsadlari quyidagi hollarda dolzarb ahamiyat kasb etadigan maxsus masalalarni tegishli ravishda hisobga olishdan iboratdir:

- kelishuvni qabul qilishda;
- mazkur kelishuvni rejalashtirish va bajarishda; va

-ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagи maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar bo'yicha auditor fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) taqdim etishda.

Moliyaviy hisobotdagи maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar yuzasidan audit o'tkazish uchun kelishuvni qabul qilishda ko'rib chiqiladigan masalalar quyidagilardan iborat:

1. 805 AXSni qo'llash. AXS 200 ga muvofiq auditor audit uchun o'rinni bo'lgan barcha AXS talablarini bajarishi lozim. Ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagи maxsus element auditni o'tkazilgan holda bu talab auditor tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami auditini ham o'tkazishi yoki o'tkazmasligidan qat'i nazar qo'llaniladi. Agar auditor tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami auditini o'tkazish uchun ham jalb etilmagan bo'lsa, u ayrim moliyaviy hisobot yoki mazkur moliyaviy hisobotdagи maxsus element auditini AXSga muvofiq amalga oshirish mumkinligi yoki mumkin emasligini aniqlashi lozim.

AXS 600 "Maxsus masalalar guruh moliyaviy hisobotlarining auditlari (jumladan komponent auditorlari ishlari)".

2. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosining maqbulligi.

AXS 210 auditor moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosining maqbulligini aniqlashini talab qiladi. Ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element auditni o'tkazilgan holda bu talab moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosining qo'llanishi nazarda tutilayotgan foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot yoki elementda ochib berilgan ma'lumotlarni tushunish imkonini beradigan tegishli ochib berishlarni, shuningdek muhim operatsiyalar va hodisalarning moliyaviy hisobot yoki elementda ochib berilgan ma'lumotlarga ta'sirini ta'minlaydigan taqdim etishga olib kelishi yoki olib kelmasligini aniqlashni o'z ichiga olishi lozim.

3.Fikr bildirish shakli AXS 210 audit kelishuvining kelishilgan shartlari auditor tomonidan chop etildigan har qanday hisobotlar (xulosalar) kutilayotgan shaklining tavsifini o'z ichiga olishini talab qiladi. Ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element auditni o'tkazilgan holda auditor fikr bildirishning kutilayotgan shakli mazkur vaziyatda tegishliligi yoki tegishli emasligini aniqlashi lozim.

Ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element auditini rejalashtirish va o'tkazishda auditor audit uchun o'rinli bo'lgan barcha AXS 805ni kelishuv shartlariga qarab moslashtirishi lozim.

Tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha va ayrim moliyaviy hisobot yoki mazkur moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha auditorlik hisobotini berish tartibi quyidagilardan iborat:

- agar auditor tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha kelishuv bilan birga ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuviga kirishayotgan bo'lsa, u har bir kelishuv uchun alohida fikr bildirishi lozim;

- audit qilingan ayrim moliyaviy hisobot yoki audit qilingan moliyaviy hisobotdagi maxsus element tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining audit qilingan to'liq to'plami bilan birga chop etilishi mumkin. Agar auditor ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus elementni taqdim etish uni moliyaviy hisobotlarning

to'liq to'plamidan lozim darajada ajratish imkonini bermaydi, degan xulosaga kelgan bo'lsa, u tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatidan vaziyatni to'g'rilashni so'rashi lozim. Shuningdek auditor ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha fikrni moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami bo'yicha fikrdan ajratishi lozim. Auditor, u ajratish lozim darajada amalga oshirilganiga ishonch hosil qilmaguncha, ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha fikrni o'z ichiga olgan auditorlik hisoboti (xulosasi)ni chop etmasligi kerak;

- agar tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)da fikr modifikatsiya qilingan yoki mazkur hisobot (xulosa) tushuntirish paragrafi yoki boshqa masala paragrafini o'z ichiga olgan bo'lsa, auditor ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki mazkur moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha fikrga bu qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlashi lozim. Agar u buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, auditor ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki moliyaviy hisobotdagi maxsus element bo'yicha fikrni modifikatsiya qilishi yoki auditorlik hisoboti (xulosasi)ga tegishli ravishda tushuntirish paragrafi yoki boshqa masala paragrafini kiritishi lozim;

- agar auditor tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha salbiy fikr bildirish yoki fikr bildirishdan bosh tortish zarur, degan xulosaga kelgan bo'lsa, AXS 705 auditorga ayni shu auditorlik hisoboti (xulosasi)ga mazkur moliyaviy hisobotlarning bir qismi hisoblanadigan ayrim moliyaviy hisobot bo'yicha yoki mazkur moliyaviy hisobotlarning bir qismi hisoblanadigan maxsus element bo'yicha modifikatsiyalanmagan fikrni kiritishni ruxsat etmaydi. Buning sababi shundaki, bunday modifikatsiyalanmagan fikr tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha salbiy fikr bildirish yoki fikr bildirishdan bosh tortishga zid bo'ladi;

- agar auditor tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarining to'liq to'plami bo'yicha salbiy fikr bildirish yoki fikr bildirishdan bosh tortish zarur, degan xulosaga kelgan bo'lsa, biroq, shunga qaramay, u mazkur moliyaviy hisobotlarga kiritilgan maxsus elementning alohida auditni nuqtai nazaridan ushbu element bo'yicha modifikatsiyalanmagan fikr

bildirishni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, auditor uni faqat quyidagi hollarda bildiradi:

-qonunchilik yoki me`yoriy hujjatlarda bu auditorga taqiqlanmagan bo`lsa;

-mazkur fikr salbiy fikr yoki fikr bildirishdan bosh tortish ifodalangan auditorlik hisoboti (xulosasi) bilan birga chop etilmaydigan auditorlik hisoboti (xulosasi)da bildirilgan bo`lsa; va

-maxsus element tadbirkorlik sub`ekti moliyaviy hisobotlari to`liq to`plamining aksariyat qismini tashkil etmasa.

- agar auditor moliyaviy hisobotlarning to`liq to`plami bo`yicha salbiy fikr bildirgan yoki fikr bildirishdan bosh tortgan bo`lsa, auditor moliyaviy hisobotlar to`liq to`plamidagi ayrim moliyaviy hisobot bo`yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirmasligi kerak. Bu talab hatto ayrim moliyaviy hisobotlar bo`yicha hisobot (xulosa) salbiy fikr yoki fikr bildirishdan bosh tortish ifodalangan auditorlik hisoboti (xulosasi) bilan birga chop etilmagan holda ham bajariladi. Buning sababi shundaki, ayrim moliyaviy hisobot mazkur moliyaviy hisobotlarning aksariyat qismini tashkil etadigan moliyaviy hisobot sifatida baholanadi.

Auditorlik fikrini hosil qilish va hisobot (xulosa) taqdim etish yuzasidan masalalar 4 bobda ko`rib o`tildi. Auditor hisobot tuzishda ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotdagи maxsus element bilan bog`liq holda, moliyaviy hisobot yoki element, shu jumladan ilova qilinayotgan izohlar (moliyaviy hisobotlar taqdim etish uchun qo`llaniladigan asosning talablariga ko`ra) nazarda tutilayotgan foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot yoki elementda ochib beriladigan ma`lumotlarni, shuningdek moliyaviy hisobot yoki elementda ochib beriladigan ma`lumotlarga muhim operatsiyalar va hodisalar ko`satadigan ta`sirni tushunish imkonini beradigan ochib beriladigan adekvat ma`lumotlarni ta`minlashi muhimdir.

6.3. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo`yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari

Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar – Moliyaviy hisobotlardan olingan, ammo moliyaviy hisobotlarga qaraganda kamroq tafsilotlarga ega

bo'lgan tarixiy moliyaviy ma'lumotlar. Xalqaro amaliyotda tadbirkorlik sub'ekti iqtisodiy resurslarining yoki majburiyatlarining ma'lum paytdagi holati yoki ma'lum davr mobaynidagi o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan strukturasiga mos ravishda qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda ham taqdim qilinishi mumkin.

Auditdan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar tarkibidan chiqarilgan qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish bo'yicha kelishuvga nisbatan javobgarlik 810 "Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari" nomli standarda ko'rib chiqilgan.

Ushbu turdag'i hisobotlarni tekshirishdan auditorning maqsadlari quyidagilardan ibora :

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvini qabul qilish o'rnliligi yoki o'rnlili emasligini aniqlash; va

- agar u qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish uchun yollangan bo'lsa:

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikrn'i olingen dalillar bo'yicha chiqarilgan xulosalarni baholash asosida hosil qilish; va

- mazkur fikrn'i uni bildirish uchun asosni ham tavsiflovchi yozma hisobot (xulosa) yordamida aniq ifodalash.

AXS 810 da belgilangan kelishuvni qabul qilish shartlari:

Auditor ushu AXSga muvofiq qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvini faqat u, AXSga muvofiq, qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun asos bo'lgan moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazgan bo'lsagina qabul qilishi lozim.

Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvini qabul qilishdan oldin auditor quyidagilar harakatni bajarishi lozim, ya'ni :

Qo'llanilgan mezonlar maqbulligi yoki maqbul emasligini aniqlash;

Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyaidan u o'z javobgarligini e'tirof etishi va tushunishining tasdig'ini olish:

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni qo'llanilgan mezonlarga muvofiq tayyorlash uchun;

- audit qilingan moliyaviy hisobotlarni nazarda tutilayotgan foydalanuvchilarga o'rinsiz moneliklarsiz taqdim etish uchun (yoki, agar qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlar qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarning nazarda tutilayotgan foydalanuvchilariga audit qilingan moliyaviy hisobotlarni majburiy tartibda taqdim etishni talab qilmasa va qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun mezonlarni belgilagan bo'lsa, qonunchilik yoki me'yoriy hujjatlarning mazkur talablarini qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda tavsiflash uchun); va

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa)ni qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni o'z ichiga olgan va auditor ular bo'yicha hisobot (xulosa) tayyorlagani ko'rsatilgan har qanday hujjatga kiritish uchun.

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha taqdim etiladigan fikrni bildirish shaklini tadbirdorlik sub'ekti rahbariyati bilan kelishish.

Agar auditor qo'llanilgan mezonlar maqbul emas degan xulosaga kelgan yoki u tadbirdorlik sub'ekti rahbariyatidan kerakli tasdiqni olmagan bo'lsa, qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvini qabul qilmasligi kerak.

Auditor qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr bildirish uchun asosni olish maqsadida quyidagi tartib-taomillarni bajarishi lozim:

1. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar o'zining qisqartirilgan xususiyatini tegishli ravishda ochib berishi va audit qilingan moliyaviy hisobotlarni aniqlash imkonini berishini baholash;

2. Agar qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar audit qilingan moliyaviy hisobotlar bilan birga taqdim etilmagan bo'lsa, u mazkur hisobotlarda quyidagilar qay darajada aniq tafsiflanganiga baho beradi:

-audit qilingan moliyaviy hisobotlar kimdan yoki qaerdan olingan; yoki

-qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarning nazarda tutilayotgan foydalanuvchilariga audit qilingan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish shart emasligi nazarda tutilgan va qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni

tayyorlash uchun mezonlar belgilangan qonunchilik yoki me`yoriy hujjatlar;

-qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda qo`llanilgan mezonlar adekvat ochib berilganini baholash;

-qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar audit qilingan moliyaviy hisobotlardagi tegishli ma`lumotlar bilan mos kelishini yoki uni mazkur ma`lumotlar asosida qayta hisoblab chiqish mumkinligi yoki mumkin emasligini aniqlash moliyaviy hisobotlardagi tegishli ma`lumotlar bilan solishtirish;

-qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar qo`llanilgan mezonlarga muvofiq tayyorlanganini tekshirish;

-qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarning maqsadini hisobga olgan holda, qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda zaruriy ma`lumotlar ifodalanganini va u mazkur vaziyatda chalg`itmaydigan tegishli darajada shakllantirilganini tekshirish;

Fikr bildirish shakli .

Agar auditor qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo`yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirish zarur degan xulosaga kelgan bo`lsa va qonunchilik yoki me`yoriy hujjatlarda boshqacha talablar belgilangan bo`lmasa, auditor fikri (xulosasi) quyidagi iboralardan birini o`z ichiga olishi lozim:

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarda audit qilingan moliyaviy hisobotlar bilan [qo`llanilgan mezonlar]ga muvofiq mos keladi; yoki

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar [qo`llanilgan mezonlar]ga muvofiq audit qilingan moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi qisqartmasi hisoblanadi.

Agar qonunchilik yoki me`yoriy hujjatlarda qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo`yicha fikrni ta`riflash nazarda tutilgan bo`lsa va yuqorida tavsiflangan ta`riflardan farq qilsa, auditor:

- nazarda tutilgan fikrni bildirish uchun umumiy tavsiflangan tartib-taomillarni va auditor uchun zarur bo`lgan bundan keyingi tartib-taomillarni qo`llashi; va

- qisqartirilgan moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditor fikrini noto'g'ri tushunishi mumkinligi yoki mumkin emasligini baholashi va agar mumkin bo'lsa, qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)da qo'shimcha tushuntirish ehtimol tutilgan noto'g'ri tushunishni yumshatishi mumkinligi yoki mumkin emasligini baholashi lozim bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Auditning boshqa mahsus sohalariga qaysi sohalar kiradi?
2. Mahsus auditorlik topshiriqlari yuzasidan auditorlik hisobotlari (hulosalari) nechanchi AXS bilan tartibga solinadi?
3. Maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar auditni nima?
4. Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagagi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditni nechanchi standart bilan taribga solinadi?
5. Ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagagi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditni qanday o'tkaziladi?
6. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari nechanchi AXS bilan tartibga solinadi?
7. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish qanday kelishiladi?
8. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar qanday ajratiladi?
9. AXS 810 da belgilangan kelishuvni qabul qilish shartlari qanday?
10. Auditor qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr bildirish shakillari qanday?

Vaziyatlari masalalar.

Masala -1.

Shartnomada nazarda tutilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish qoidalari (mazkur misol maqsadlarida – muvofiqlik asosi)ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi).

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

- Moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan shartnomada nazarda tutilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish qoidalari (ya'ni muvofiqlik asosi)ga muvofiq mazkur shartnoma qoidalarini bajarish maqsadida tayyorlangan. Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosini tanlashga haqli emas.
- Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asos – muvofiqlik asosidir.
- Audit kelishivi shartlarida tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsifi AXS 210 ga muvofiq aks ettirilgan.

Auditorlik hisoboti (xulosasi)ni tarqatish va undan foydalanish cheklangan.

Masala -2.

Maxsus maqsadli asosga (mazkur misol maqsadlarida – haqqoniy taqdim etish asosiga) muvofiq tayyorlangan ayrim moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi).

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

- Pul mablag'lari tushumlari va ularning sarflanishi to'g'risida hisobot (ya'ni ayrim moliyaviy hisobot) audit.
- Moliyaviy hisobot pul oqimlari to'g'risida ma'lumotlar berish to'g'risidagi kreditorning so'roviga javoban pul mablag'lari tushumlari va ularning sarflanishini hisobga olish usuliga muvofiq tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan tayyorlangan.

- Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asos – bu maxsus foydalanuvchilarning moliyaviy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljalangan haqqoniy taqdim etish asosi.

- Auditor “barcha muhim jihatlarda haqqoniy taqdim etadi” iborasining qo'llanishi auditor fikrini bildirish uchun tegishli bo'lishini aniqlagan.

Auditorlik hisoboti (xulosasi)ni tarqatish yoki undan foydalanish cheklanmagan.

Masala -3.

Belgilangan mezonlarga muvosiq taylorlangan qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi). Audit qilingan moliyaviy hisobotlar bo'yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirilgan. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)ga uni shakllantirish uchun asos bo'lgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi)dan keyingi sana qo'yiladi.

Quyidagi vaziyatlarni inobatga olib auditorlik hulosasini tuzing:

- Audit qilingan moliyaviy hisobot bo'yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirilgan.
- Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun belgilangan mezonlar mavjud.

I-masala javobi.

MUSTAQIL AUDITOR HISOBOTI (XULOSASI).

Tegishli adresat

Biz AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan buxgalteriya balansidan, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foya va zararlar to'g'risida hisobotdan, xususiy kapitaldag'i o'zgarishlar to'g'risida hisobotdan, pul oqimlari to'g'risida hisobotdan, shuningdek hisob siyosati ahamiyatli qoidalalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlardan iborat bo'lgan ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlari auditini o'tkazdik. Moliyaviy hisobotlar AVS kompaniyasi rahbariyati tomonidan 20X1 yil 1 yanvarda AVS kompaniyasi va DEF

kompaniyasi o'rtaida tuzilgan kontrakt ("kontrakt") Z bo'limining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash to'g'risidagi qoidalari asosida tayyorlangan.

Kompaniya rahbariyatining moliyaviy hisobotlar uchun javobgarligi.

Kompaniya rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotlarni kontrakt Z bo'limining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash to'g'risidagi qoidalariga muvofiq tayyorlash, shuningdek Kompaniya rahbariyati firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

Auditning javobgarligi.

Bizning javobgarligimiz mazkur moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'zimiz o'tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biz auditni Auditning Xalqaro Standartlariga muvofiq o'tkazdik. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch bildirishni ta'minlaydigan tarzda rejalashtirish va o'tkazish majburiyatini yukladi.

Audit moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan summalar va ochib beriladigan ma'lumotlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o'z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar auditorning mulohazasiga, shu jumladan firibgarlik yoki xato tufayli moliyaviy hisobotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog'liqdir. Bunday risklarni baholashda, tadbirkorlik sub'ekti ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor tadbirkorlik sub'ekti o'z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog'liq bo'lgan ichki nazorat tizimini ko'rib chiqadi. Audit o'tkazish qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asosliligini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotlarning umumiyligi ifodalanishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'zimiz olgan auditorlik dalillari o'z auditorlik fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun yetarlicha tegishli dalillardir deb hisoblaymiz.

Fikr.

Bizning fikrimizcha, AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun moliyaviy hisobotlari barcha muhim jihatlarda kontrakt Z bo'limining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash to'g'risidagi qoidalariiga muvofiq tayyorlangan.

Hisob yuritish asosi hamda tarqatish va foydalanishga nisbatan cheklashlar

Biz modifikatsiyalangan fikr (xulosa)ni bildirmasdan, Sizning e'tiboringizni hisob yuritish asosini tavsiflovchi moliyaviy hisobotlarga X izohga qaratamiz. Moliyaviy hisobotlar yuqorida zikr etilgan shartnomada nazarda tutilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash to'g'risidagi qoidalarni AVS kompaniyasi tomonidan bajarish doirasida tayyorlangan. Natijada moliyaviy hisobotlar boshqa maqsadlar uchun mos kelmasligi mumkin. Bizning hisobotimiz (xulosamiz) faqat AVS kompaniyasi va DEF kompaniyasi uchun mo'ljallangan va AVS kompaniyasi yoki DEF kompaniyasidan boshqa tomonlarga taqdim etilishi yoki boshqa tomonlar ulardan foydalanishi mumkin emas.

[Auditorning imzosi]

[Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi]

[Auditorning manzili]

2-masala javobi

MUSTAQIL AUDITOR HISOBOTI (XULOSASI)

Tegishli adresat

Biz AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun tuzilgan, ilova qilinayotgan pul mablag'lari tushumlari va ularning sarflanishi to'g'risida hisoboti, shuningdek hisob siyosati ahamiyatlari qoidalaringning qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlar (birgalikda "molivaviy hisobot" deb nomlanadi) auditini o'tkazdik. Moliyaviy hisobot Kompaniya rahbariyati tomonidan X izohda

tavsiflangan pul mablag'ları tushumları va ularning sarflanishini hisobga olish usuliga muvofiq tayyorlangan.

Kompaniya rahbariyatining moliyaviy hisobot uchun javobgarligi

Kompaniya rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotni X izoha tavsiflangan pul mablag'ları tushumları va ularning sarflanishini hisobga olish usuliga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish (bu pul mablag'ları tushumları va ularning sarflanishini hisobga olish usuli mazkur vaziyatda moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun qo'llaniladigan asos hisoblanishini aniqlashni o'z ichiga oladi), shuningdek Kompaniya rahbariyati firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

Auditning javobgarligi

Bizning javobgarligimiz mazkur moliyaviy hisobot bo'yicha o'zimiz o'tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biz auditni Auditning Xalqaro Standartlariga muvofiq o'tkazdik. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch bildirishni ta'minlaydigan tarzda rejalashtirish va o'tkazish majburiyatini yuklaydi.

Audit moliyaviy hisobotda aks ettirilgan summałar va ochib beriladigan ma'lumotlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o'z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar auditoring mulohazasiga, shu jumladan firibgarlik yoki xato tufayli moliyaviy hisobotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog'liqdir. Bunday risklarni baholashda, tadbirkorlik sub'ekti ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor tadbirkorlik sub'ekti o'z moliyaviy hisobotini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog'liq bo'lgan ichki nazorat tizimini ko'rib chiqadi. Audit o'tkazish qo'llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarlarning asosligini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotning umumiyligi taqdim etilishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'zimiz olgan auditorlik dalillari o'z auditorlik fikrimiz (xulosamiz)ni bildirishda asos sifatida tayanish uchun yetarlicha tegishli dalillardir deb hisoblaymiz.

Fikr

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobot AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun tuzilgan pul mablag'lari tushumlari va ularning sarflanishini barcha muhim jihatlarda X izohda tavsiflangan pul mablag'lari tushumlari va ularning sarflanishini hisobga olish usuliga muvofiq haqqoniy taqdim etadi.

Hisobga olish usuli

Biz modifikatsiya qilingan fikrni bildirmasdan, Sizning e'tiboringizni hisobga olish usulini tavsiflovchi moliyaviy hisobotga X izohga qaratamiz. Moliyaviy hisobot XYZ kreditorga ma'lumotlar berish maqsadida tayyorlangan. Binobarin, hisobot boshqa maqsadga mos kelishi mumkin emas.

[Auditorning imzosi]

[Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi]

[Auditorning manzili]

3-masala javobi.

MUSTAQIL AUDITORNING QISQARTIRILGAN MOLIYAVIY HISOBOTLAR BO'YICHA AUDITORLIK HISOBOTI (XULOSASI)

Tegishli adresat

AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan qisqartirilgan buxgalteriya balansi, ko'rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foyda va zararlar to'g'risida qisqartirilgan hisobot, xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risida qisqartirilgan hisobot va pul oqimlari to'g'risida qisqartirilgan hisobotdan, shuningdek ilova qilingan izohlardan iborat bo'lgan ilova qilinayotgan qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun audit qilingan moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan. Biz 20X2 yil 15 fevraldagi o'z hisobotimiz (xulosamiz)da mazkur moliyaviy hisobotlar bo'yicha modifikatsiyalanmagan auditorlik fikrini bildirdik. Mazkur moliyaviy hisobotlar va qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bizning ushbu moliyaviy

hisobotlar bo'yicha auditorlik hisobotimiz (xulosamiz) sanasidan keyin sodir bo'lgan hodisalar ta'sirini aks ettirmaydi.

Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarda [AVS kompaniyasining audit qilingan moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda qo'llanilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosi tavsiflanadi] talab etadigan ochib beriladigan ma'lumotlarning barchasi aks ettirilmagana. Binobarin, qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar AVS kompaniyasining audit qilingan moliyaviy hisobotlari o'rnini bosmaydi.

Kompaniya rahbariyatining qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar uchun javobgarligi

Kompaniya rahbariyati audit qilingan moliyaviy hisobotlar qisqartmasini [belgilangan mezonlar tavsiflanadi]ga muvofiq tayyorlash uchun javobgardir.

Auditorning javobgarligi

Bizning javobgarligimiz qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'zimiz Auditning xalqaro standarti (AXS) 810 "Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari"ga muvofiq o'tkazgan audit tartib-taomillari asosida fikr bildirishdan iborat.

Fikr

Bizning fikrimizcha, AVS kompaniyasining 20X1 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun audit qilingan moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar, barcha muhim jihatlarda, [belgilangan mezonlar tavsiflanadi]ga muvofiq mazkur moliyaviy hisobotlar bilan mos keladi (yoki ularning haqqoniy qisqartmasi hisoblanadi).

(Auditorning imzosi)

(Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi)

(Auditorning manzili)

7 BOB. XALQARO AUDIT AMALIYOTI YUZASIDAN YO'RIQNOMA.

7.1. Xalqaro audit amaliyoti izzoxi

Xalqaro audit amaliyoti izzoxi (XAAI) milliy standartlarni qo'llayotgan tomonlar tarafidan tatbiq etishga mo'ljallanadi. Shuningdek tegishli milliy materialni ishlab chiqishda foydalaniadi. Ular auditorlik tashkiloti (firma)lar trening dasturlarni va ichki yo'rqnomanini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin bo'lgan materialni ham ta'minlaydi. XAAI lar auditorlarga Auditning Xalqaro Standartlarida (AXS larda) keltirilgan talablardan tashqari qo'shimcha talablarni yuklamaydi hamda ular auditga o'rinni bo'lgan barcha AXS larga rioya etish bo'yicha auditor mas'uliyatini o'zgartirmaydi. XAAI lar auditorlarga amaliy ko'makni ta'minlaydi.

XAAI 1000 auditorlarga moliyaviy instrumentlarni baholash va ular bilan bog'liq boshqa jihatlarni ko'rib chiqishda muhim amaliy ko'mak ta'minlaydi. U to'la quyidagilarni ta'minlaydi:

1. Auditorlarga moliyaviy instrumentlarni tushunishda yordam berish maqsadida boshlang'ich ma'lumotlarni va o'quv materiallarini.

2. Audit o'tkazishda ko'rib chiqiladigan tegishli jihatlarni, ayniqsa moliyaviy instrumentlarni baholash bilan bog'liq jihatlarni.

Garchi XAAI 1000 asosan moliyaviy instrumentlar bilan kamroq to'qnashadigan auditorlarning ehtiyojlariiga qaratilgan bo'lsada, u barcha kattalikdag'i tadbirkorlik sub'ektlarining auditida o'rinnidi, chunki barcha tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy instrumentlardan foydalanganda muhim buzib ko'rsatish risklariga duchor bo'lishi mumkin. XAAI 1000 hozirgi paytda amaldadir.

Xalqaro audit amaliyoti izzoxi (XAAI) kirish va ikki bo'limdan iborat:

1-bo'lim – Moliyaviy instrumentlar to'g'risida qisqacha ma'lumot

2-bo'lim – Moliyaviy instrumentlarga tegishli auditorlik
ko'rib chiqishlar.

XAAI quyidagi sohalarda audit o'tkazish masalalarini tartibga soladi:

- Banklararo tasdiqlash amallari.

- Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – avtonom mikrokomp yuterlar.
- Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – interaktiv komp yuter tizimlari.
- Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – ma'lumotlar bazasi tizimlari.
- Bank nazorati organlari va tashqi auditorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar.
 - Kichik korxonalar auditii hususiyatlari.
 - Banklar moliyaviy hisoboti auditii.
 - Ichki nazorar tizimi va riskni baholash - komp yuterli axborot tizimlari muhiti xarakatiristikasi va tizim bilan bog'liq savollar.
 - Audit usullarini qo'llashda komp yuterlardan foydalanish.
 - Moliyaviy hisobot auditida ekologik savollarni hisobga olish.
 - Ishlab chiqarish moliyaviy instrumentlari auditii.
 - Elektron tijorat – uning moliyaviy hisobot auditiga ta'siri.
 - Hisobotni MHXS mosligi to'g'risida auditor hisoboti.

Mazkur Xalqaro audit amaliyoti izohi (XAAI) ushbu barcha holatlar uchun o'rinci bo'ldidi:

1. AXS 540 hisoblab chiqilgan baholarni, jumladan haqqoniy qiymatda baholangan moliyaviy instrumentlarga tegishli hisoblab chiqilgan baholarni, auditdan o'tkazishga tegishli auditorning mas'uliyatlarini qamrab oladi;
2. AXS 315va AXS 330 muhim buzib ko'rsatish risklarini aniqlash va baholashni hamda ushbu risklarga javob harakatlarini qamrab oladi; va
3. AXS 500 auditorlik dalilini nima tashkil etishini tushuntiradi va auditor fikri uchun asos bo'ladigan oqilonqa xulosalarni hosil qilish imkoniga ega bo'lish maqsadida yetarlicha tegishli auditorlik daliliga ega bo'lish uchun auditorlik tartib-taomillarini belgilash va bajarish bo'yicha auditorning mas'uliyatini qamrab oladi.

7.2. Moliyaviy instrumentlarni auditdan o'tkazishda maxsus jihatlar

Moliyaviy instrumentlar barcha miqyosdagि moliyaviy va nomoliyaviy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan turli maqsadlar uchun foydalaniishi mumkin. Ayrim tadbirkorlik sub'ektlari yirik mulklarga va operatsiya hajmlariga ega bo'lsa, boshqa tadbirkorlik sub'ektlari juda kam moliyaviy instrument operatsiyalarida ishtirok etishi mumkin. Ayrim tadbirkorlik sub'ektlari riskni zimmaga olish va undan naf olish maqsadida moliyaviy instrumentlarda o'z pozitsiyalarini egallashi mumkin bo'lsa, boshqa tadbirkorlik sub'ektlari duchorliklarni xejlash yoki boshqarish orqali muayyan risklarni kamaytirish maqsadida moliyaviy instrumentlardan foydalaniishi mumkin. Xalqaro audit amaliyoti izohi (XAAI) ushbu barcha holatlar uchun o'rinli bo'ladi.

Barcha tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy instrumentlardan foydalanganda muhim buzib ko'rsatish risklariga duchor bo'lishi mumkinligi tufayli, mazkur XAAI barcha katta-kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun o'rinli bo'ladi.

Mazkur XAAI dagi baholash bo'yicha yo'riqnomalar haqqoniy qiymatda baholangan yoki ochib berilgan moliyaviy instrumentlar uchun ko'proq o'rinli bo'lishining ehtimoli mavjud bo'lsa, baholashdan tashqari boshqa sohalar bo'yicha yo'riqnomalar yoki haqqoniy qiymatda yoki amortizatsiyalangan moliyaviy instrumentlarga nisbatan teng tarzda qo'llaniladi. Quyidagi instrumentlar xalqaro audit amaliyoti izohi tomonidan qamrab olinmaydi:

- Pul mablag'i, oddiy kreditlar, savdo bo'yicha debitorlik qarzlari va savdo bo'yicha kreditorlik qarzlari kabi eng oddiy moliyaviy instrumentlar;

- Listing qilinmagan ulushli instrumentlardagi investitsiyalar; yoki
- Sug'urta shartnomalari.

Shuningdek, mazkur XAAI xej hisobi, boshlanishdagi foya yoki zarar (ko'p hollarda «1-kun» foya yoki zarari deb yuritiladi), o'zaro hisob-kitob qilish, risk o'tkazmalari yoki qadrsizlanish, jumladan kredit zarari bo'yicha rezervlar, kabi moliyaviy instrumentlarga nisbatan o'rinli

bo‘igan muayyan buxgalteriya hisobi masalalarini ham qamrab olmaydi. Ushbu masalalar tadbirkorlik sub‘ektining moliyaviy instrumentlarni hisobga olishiga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lsada, muayyan buxgalteriya hisobi talablarini qanday inobatga olishga nisbatan auditorlik ko‘rib chiqishning muhokamasi mazkur XAAI ning qo‘llash doirasidan tashqaridadir.

AXS larga muvofiq audit shunday taxmin asosida amalga oshiriladiki, bunda rahbariyat va o‘rinli bo‘lganda, boshqaruв yuklatilgan shaxslar ma‘lum javobgarliklarni o‘z zimmasiga olgan bo‘ladi. Bunday javobgarliklar haqqoniy qiymatni hisoblashlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Mazkur XAAI rahbariyat yoki boshqaruв yuklatilgan shaxslarga javobgarliklarni yuklamaydi hamda ularning javobgarliklarini boshqaradigan qonunlar va me‘yoriy hujjatlardan ustun kelmaydi.

XAAI umumiy maqsadli haqqoniy taqdim qilish bo‘yicha moliyaviy hisobotni taqdim etish asoslariдagi holatdan kelib chiqib yozilgan, ammo u, holatda o‘rinli bo‘lishiga qarab, maxsus maqsadli moliyaviy hisobot asoslari kabi boshqa moliyaviy hisobot asoslarda ham foydali bo‘lishi mumkin.

Mazkur XAAI baholash taqdimnomalari, taqdim etish va ochib berishga asosiy e‘tibor qaratadi, ammo u to‘liqlik, aniqlik, mavjudlik, huquqlar va majburiyatlarini ham, kamroq tafsilot bilan, qamrab oladi.

Moliyaviy instrumentlar baholashning noaniqligiga ta’sirchan bo‘ladi, qaysiki AXS 540 da «hisoblab chiqilgan bahosining ta’sirchanligi va uning hisoblanishidagi aniqlikning bevosita yetishmasligiga nisbatan tegishli ochib berishlar» sifatida ta’riflanadi. Baholashning noaniqligiga, boshqa omillar qatorida, moliyaviy instrumentlarning murakkabligi ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy instrumentlarning hisoblanishini tasdiqlash uchun mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarning xususiyati va ishonchliligi keng tarzda turli xil bo‘lib, u ularning hisoblanishi bilan bog‘liq baholashning noaniqligiga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur XAAI haqqoniy qiymatni hisoblashlar bilan bog‘liq baholashning noaniqligiga murojaat etish uchun «hisoblash noaniqligi» atamasidan foydalananadi.

Moliyaviy instrumentlarning turli ta’riflari moliyaviy hisobotni taqdim etish asoslari orasida mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan,

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) moliyaviy instrumentni shunday shartnomma sifatida ta'riflaydiki, bunda u bir tadbirkorlik sub`ektining moliyaviy aktivini va boshqa tadbirkorlik sub`ektining moliyaviy majburiyatini yoki ulushli instrumentini yuzaga keltiradi. Moliyaviy instrumentlar pul mablag'i, boshqa tadbirkorlik sub`ektining aktsiyasi, pul mablag'ini olish yoki yetkazib berish yoki moliyaviy aktivlarni yoki majburiyatlarni ayriboshlash bo'yicha shartnomaviy huquq yoki majburiyat, tadbirkorlik sub`ektining o'z ulushli instrumentlarida hisob-kitob qilinadigan muayyan shartnomalar, nomoliyaviy moddalar bo'yicha muayyan shartnomalar yoki sug'urta shartnomasining ta'risini qanoatlantirmagan holda sug'urtalovchilar tomonidan chiqarilgan muayyan shartnomalar bo'lishi mumkin. Ushbu ta'rif oddiy kreditlardan va depozitlardan murakkab derivativlar, tuzilmaviy mahsulotlar va ayrim tovar shartnomalarigacha bo'lgan moliyaviy instrumentlarning keng ko'lamini qamrab oladi.

Moliyaviy instrumentlar murakkabligi jihatidan farqlanadi, bunda moliyaviy instrumentning murakkabligi quyidagilar kabi turli manbalardan kelib chiqishi mumkin:

- alohida pul oqimlarining juda yirik hajmi, qachonki bir xillikning mayjud bo'lmasligi har birining yoki guruhlashgan pul oqimlarining yirik miqdorining tahlilini, masalan, kredit riskini baholashni, talab etsa (masalan, kafolatlangan qarz majburiyatları (KQM'lari));
- pul oqimlarini aniqlash uchun murakkab formulalar;
- kelgusi pul oqimlarining noaniqligi yoki o'zgaruvchanligi, masalan kredit riski, option shartnomalari yoki uzoqroq shartnomaviy muddatlarga ega moliyaviy instrumentlardan yuzaga keladigan noaniqlik yoki o'zgaruvchanlik.

Bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga nisbatan pul oqimlarining o'zgaruvchanligi qanchalik yuqoriqoq bo'lsa, moliyaviy instrumentning haqqoniyligi qiyomatini hisoblash shunchalik murakkabroq yoki noaniqroq bo'lish ehtimoli mayjud. Shu bilan birga, ba'zida baholash, odatda, nisbatan oson bo'lgan moliyaviy instrumentlar muayyan holatlar tufayli baholash uchun murakkab bo'lib qolishi mumkin, misol tariqasida, bozori sust bo'lib qolgan instrumentlar yoki uzoqroq shartnomaviy muddatlarga

ega instrumentlarni keltirish mumkin. Derivativlar va tuzilmaviy mahsulotlar murakkabroq bo'lib qoladi, qachonki ular alohida moliyaviy instrumentlarning birikmasidan iborat bo'lsa. Shu bilan birga, muayyan moliyaviy hisobotni taqdim etish asoslari yoki muayyan bozor sharoitlari ostida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish murakkab bo'lishi mumkin.

Murakkablikning boshqa manbasi egalik qilinadigan yoki savdo qilinadigan moliyaviy instrumentlarning hajmi hisoblanadi. «Oddiy» foiz stavkasi svopi murakkab bo'lmasligi mumkin bo'lsada, ularning yirik miqdoriga egalik qilayotgan tadbirkorlik sub'ekti ushbu instrumentlarni aniqlash, baholash va ular bo'yicha bitim tuzishda takomillashtirilgan informatsion tizimdan foydalanishi mumkin.

Moliyaviy instrumentlardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- Xejlash maqsadlari (ya'ni, tadbirkorlik sub'ekti duchor bo'lgan joriy risk turini o'zgartirish). Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - forward xaridi yoki kelgusi valyuta kursini qat'iy belgilash uchun valyuta sotuvi;
 - svoplardan foydalanish orqali kelgusi foiz stavkalarini o'zgarmas stavkalarga yoki suzuvchi stavkalarga aylantirish; va
 - tadbirkorlik sub'ektini muayyan narx tebranishiga qarshi himoya bilan ta'minlash bo'yicha option shartnomalarining xaridi, jumladan singdirilgan derivativlarni qamrab olishi mumkin bo'lgan shartnomalar;
- Savdo maqsadlari (masalan, tadbirkorlik sub'ektiga qisqa muddatli bozor tebranishlaridan naf olish uchun risk pozitsiyasini egallashga imkon berish); va
- Investitsiya maqsadlari (masalan, tadbirkorlik sub'ektiga uzoq muddatli investitsion daromadlardan naf olishga imkon berish).

Moliyaviy instrumentlardan foydalanish muayyan biznes risklariga, masalan, valyuta kurslaridagi, foiz stavkalaridagi va tovar narxlaridagi o'zgarishlarga yoki ushbu risklarning birikmasiga, duchorliklarni kamaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, ayrim moliyaviy instrumentlarning o'ziga xos murakkabliklari yuqori riska olib kelishi ham mumkin.

Biznes risk va muhim buzib ko'rsatish riski oshadi, qachonki rahbariyat va boshqaruv yuklatilgan shaxslar:

- Moliyaviy instrumentlardan foydalanish risklarini to'liq tarzda tushunmasa va ushbu risklarni boshqarishda yetarli ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lmasa;
- Qo'llaniladigan moliyaviy hisobotni taqdim etish asosiga muvofiq ularni o'rinci tarzda baholash uchun professional malakalilikka ega bo'lmasa;
- Moliyaviy instrument faoliyatları ustidan joriy etilgan yetarli nazoratlarga ega bo'lmasa; yoki
- Risklarni noo'rin tarzda xejlasa yoki chayqovchilikni amalga oshirsa.

Rahbariyatning moliyaviy instrumentga xos risklarni to'liq tarzda tushunmasligi ushbu risklarni o'rinci tarzda boshqarish bo'yicha rahbariyatning layoqatiga nisbatan bevosita ta'sirga ega bo'lishi mumkin va pirovardida tadbirdorlik sub'ektining bardoshligiga xavf solishi mumkin.

Moliyaviy instrumentlarga nisbatan mumkin bo'lган risklarning asosiy turlari quyida keltirilgan. Ushbu ro'yxat bat afsil bo'lishni anglatmaydi va turli atamalar ushbu risklarni ifodalashda yoki alohida risklarning tarkibiy qismlarini tasniflashda foydalaniishi mumkin.

Kredit (yoki kontragent) riski - bu moliyaviy instrumentning bir tomoni majburiyatni bajarmasligi orqali boshqa tomon uchun moliyaviy zararga sabab bo'ladigan risk hisoblanadi va u ko'p hollarda defolt bilan bog'liqidir. Kredit riski hisob-kitob riskini o'z ichiga olib, bunda hisob-kitob riski bitimning bir tomoni mijozdan yoki kontragentdan olinadigan tovonsiz hisob-kitob qilinadigan riskdir.

Bozor riski - bu shunday riskki, bunda moliyaviy instrumentning haqqoniy qiymati yoki kelgusi pul oqimlari bozor narxlaridagi o'zgarishlar tufayli tebranadi. Bozor riskiga misollar valyuta riski, foiz stavkasi riski, tovar va aktsiya narxi riskini o'z ichiga oladi.

Likvidlitlik riski - moliyaviy instrumentga nisbatan talab mavjud bo'imasligi tufayli uni o'rinci narxda va muntazam ravishda sotib olish yoki sotish layoqatiga ega bo'imaslik riskini o'z ichiga oladi.

Operatsion risk - moliyaviy instrumentlar uchun talab etilgan muayyan tartib-taomillarga tegishli bo'ladi. Moliyaviy instrumentning murakkabligi oshishi bilan, operatsion risk oshishi mumkin va operatsion riskning sust boshqarilishi riskning boshqa turlarini oshirishi mumkin. Operatsion risk quyidagi larni o'z ichiga oladi:

-tasdiqlash va solishtirish nazoratlari yetarli bo'lмаган holatdagi risk, qaysiki moliyaviy instrumentlarning to'liqsiz yoki aniqsiz yozuviga olib keladi;

-bitimlarning noo'rin hujjatlashtirilishi va ushu bitimlarni yetarsiz monitoringi mavjud bo'lган holatdagi risklar;

-bitimlar noto'g'ri tarzda yozilgan, qayta ishlangan yoki risk noto'g'ri tarzda boshqarilgan va shu tufayli umumiyligining iqtisodiyotini aks ettirmaydigan holatdagi risk;

-etarli ko'rib chiqishsiz, haddan tashqari ishonch baholash usullarining aniqligiga nisbatan xodim tomonidan bildirilishi va shu tufayli bitimlar noto'g'ri tarzda baholangan yoki ularning riski noto'g'ri tarzda baholangan holatdagi risk;

-moliyaviy instrumentlardan foydalanish tadbirkorlik sub'ektiining risk boshqaruvi siyosatlarida yoki tartib-taomillarida yetarlicha inobatga olinmagan holatdagi risk;

-etersiz yoki amalga oshirilmagan ichki tartiblar va tizimlardan, yoki tashqi hodisalardan, yuzaga keladigan zarar riski, jumladan ham ichki ham tashqi manbalar bo'yicha firibgarlik riski;

-moliyaviy instrumentlarni baholashda foydalilanigan baholash usullarini noo'rin yoki nomuntazam ravishda saqlash mavjud bo'lган holatdagi risk; va

operatsion riskning tarkibiy qismi hisoblanadigan yuridik risk, qaysiki yuridik yoki me'yoriy hatti-harakatdan yuzaga keladigan zararlarga tegishli bo'lib, bunda yakuniyligining foydalanuvchi yoki kontragent tomonidan ushu hatti-harakat shartnomasi yoki tegishli o'zaro hisob-kitob qilish kelishuvlarining shartlariga asosan faoliyatni bekor qiladi yoki boshqa hollarda to'sqinlik qiladi. Masalan, yuridik risk shartnomasi bo'yicha yetarsiz yoki noto'g'ri hujjatlashtirishdan, bankrotlikda o'zaro hisob-kitob qilishni talab etish layoqatsizligidan, soliq qonunlaridagi salbiy

o'zgarishlardan yoki tadbirkorlik sub'ektlari uchun moliyaviy instrumentlarning muayyan turlariga investitsiya qilishni taqiqlaydigan me'yoriy hujjatlardan yuzaga kelishi mumkin.

7.3. Komp yuterli malumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish hususiyatlari.

Bugungi kunga kelib auditorlik standartlari bo'yicha xalqaro qo'mita tomonidan xalqaro audit standartlari to'plami ishlab chiqilgan (Handbook of International Auditing, and Ethics Pronouncements). Ushbu to'plam tarkibiga kiruvchi Xalqaro audit amaliyoti izzoxi (XAAI)ning komp yuterli malumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish hususiyatlariga bag'ishlangan standartlarini ikki gurhga bo'lish mumkin:

1-gurh sub'ektning komp yuterli ma'lumotlar tizimi hususiyatlariga tegishli, ya'ni 1001-Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – avtonom mikrokomp yuterlar. 1002- Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – interaktiv komp yuter tizimlari. 1003- Komp yuterli axborot tizimlari muhiti – ma'lumotlar bazasi tizimlari. 1008- Ichki nazorar tizimi va riskni baholash - komp yuterli axborot tizimlari muhiti xarakatistikasi va tizim bilan bog'liq savollar.

2-gurh audit usullarini qo'llashda komp yuterlardan foydalanishga tegishli. 1009- Audit usullarini qo'llashda komp yuterlardan foydalanish.

Hozirgi kunda ko'pchilik iqtisodiy sub'ektlar buxgalteriya va TMB hisobini yuritishda turli xildagi komp yuter tizimini qo'llashmoqda. Buxgalteriya hisobida komp yuterlarning qo'llanilishi, o'z navbatida: hisob-kitoblarning vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi; operativ boshqaruv ma'lumotlarini olishni tezlashtiradi; moliyaviy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tashqi mustaqil va ichki audit ma'lumotlarini komp yuterni qo'llash orqali tahlil qilganda o'zining maqsadi va vazifalarini o'zgartirishsiz saqlaydi. Oddiy hamda komp yuterlashtirilgan buxgalteriyani tekshirish metodikasi o'rtasidagi farqni aniqlash, korxonalardagi komp yuter tizimidagi hisobini audit qilish metodi va aniq usulini topish, rejalashtirish metodikasini ishlab chiqish zarur.

AXSda komp yuter tizimini audit qilish metodikasi, uning komp yuter tizimi ishlarning samaradorligini baholash uchun qo'llanilishi, ichki nazoratni takomillashtirish uchun aniq ko'rsatmalar berilgan. Keltirilgan takliflar davlat va nodavlat korxonalardagi komp yuterlashtirilgan hisobni audit qilishni rejalashtirishda ham qo'llash mumkin.

Asosan yirik korxonalarda majburiy auditorlik tekshirishi o'tkaziladi. Ish yuritishning hozirgi sharoitida buxgalteriya hisobining komp yuter tizimini qo'llamay olib borishning iloji yo'q. Turli firma va xo'jalik sub'ektlarida hisob yuritish tizimida avtomatlashtirishni qo'llash o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, komp yuterni oddiy kal kulyator sifatida qo'llashdan, to hisobni butunlay avtomatlashtirish uchun yuqori darajadagi komp yuter tizimini yaratishgacha. Bugungi kunga kelib bir-biridan farq qiluvchi juda ko'plab buxgalteriya dasturlari paketlari mavjud.

Komp yuterlar qo'llanilgan buxgalteriya hisobi «qo'lda» yuritilgan buxgalteriya hisobidan farq qilgani kabi, komp yuter tizimi muhitidagi audit ham «qog'ozli» buxgalteriyadan farq qiladi.

Korxonalarda hisobning komp yuter tizimi mavjudligi audit qilish usuliga o'z ta'sirini o'tkazadi. Auditorlik standartlarining 500 «Auditorlik isbotlari»ga ko'ra, auditorlar tekshirish o'tkazish jarayonida oddiy buxgalteriya hisobi yuritishda bo'lgani kabi komp yuterli buxgalteriya hisobi yuritishda ham bir xil bo'lgan quyidagi amallarini qo'llashlari lozim:

- mijozning turli aktivlarini inventarizatsiya qilishda ishtiroy etish yoki kuzatish;
- uchinchli tomondan mijoz hisob raqamlaridagi qoldiqlarining, hisobotning ma'lum bir bo'limlari buyicha haqqoniyligini va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni yozma ravishda olish;
- mijozning uchinchli shaxslardan olgan hujjatlarini tekshirish.

Tekshirish o'tkazish uslubida asosiy farqlar quyidagi amallarda kuzatiladi:

- korxona rahbari va ishchilarni og'zaki so'rovdan o'tkazish. So'rov natijalariga tayanib, auditorlik tekshirishi rejalashtiriladi.

- mijozning arifmetik hisoblarini tekshirish.
- ba`zi-bir xo`jalik va buxgalterlik operatsiyalarining bajarilishini kuzatish.

Komp yuter tizimi auditning asosiy maqsadi - bu komp yuter tizimini buxgalteriya hisobining bir bo`g`ini sifatida qarab, shu asosida ma`lumotlar yig`ish va ularga ob`ektiv baho berishdir. Hozirgi zamон auditorlariga asosan komp yuterlashtirilgan buxgalteriya hisobi bilan ish yuritishga to`g`ri keladi. Ma`lumotlarni tahlil qilishning xarajat talab qilishi, komp yuter xizmatlari ko`rsatish markazlarining rivojlanishi, va nihoyat, qimmat bo`lmagan mikrokomp yuterlarning paydo bo`lishi, hatto kichik ish yurituvchilar tomonidan ham ma`lumotlarni olib keladi.

Komp yuter tizimining keng tarqalishi auditda «Komp yuter muhitida audit» hamda «Komp yuterli audit» degan sohalarning paydo bo`lishiga olib keldi. Bu mavzu audit sohasida AQShda taniqli bo`lgan, Texas shtatidagi Ostin universiteti professori Dj.Robertsonning «Audit» nomli monografiyasida birmuncha to`laroq yoritilgan.

Dj.Robertsonning tasdiqlashicha, komp yuter tizimi auditning 3 ta aspektiga o`z ta`sirini ko`rsatadi: Rejallashtirish; ichki nazorat tizimini o`rganish; nazorat tizimi, xo`jalik operatsiyalarining bo`laklari, hisob schetlaridagi qoldiqlar to`g`risidagi haqqoniy ma`lumotlarni yig`ish.

Mana shu tartibda biz auditorlik tekshirish o`tkazishning xususiyatlarini ko`rib chiqamiz. Uslubiyotni ishlab chiqish jarayonida biz quyidagi savollarni aniqlab olishimiz zarur:

- buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilmagan tizimida yuritish orqali;
- komp yuterlashtirilgan muhitda audit tekshirish o`tkazishni rejallashtirishda hisobga olinadigan qo`shimcha omillarning mavjudligi;
- nazoratning umumiy va ustama uslublari o`rtasidagi farq;
- nazoratning nosamaradorligini baholash fazasida ma`lumotlarni elektron tahlil qilishning ta`siri;
- funktional majburiyatlarni taqsimlash, dasturli faylar va ma`lumotli fayllarga kirishni nazorat qilish, apparat mablag`larini nazorat qilish tizimlarni tushuntirish va aynan o`xshatish.
- nazoratning ustama uslublarining ro`yxati va ularning izohlanishi.

- minikomp yuterlarga asoslangan tizimlar nazoratining o'ziga xosligini muhokama qilish.

Komp yuter tizimi muhitida auditorlik tekshirish o'tkazishning asosiy maqsadi - shu muhitda tayyorlangan ma'lumot tavakkalchiligidni eng kam darajaga yaqinlashtirishdan iborat.

Komp yuter tizimi muhitida auditorlik tekshirishi o'tkazishning quyidagi uslubiyoti eng samarali hisoblanadi:

1. Auditorlik tekshirishini rejalashtirish. Maqsad - ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilishning moliyaviy hisobot auditga ta'sirini baholash; avtomatlashtirish darajasini baholash; avtomatik operatsiyalar darajasini baholash; ma'lumotlarni komp yuterlarda tahlil qilishning tashkil qilinganligini baholash; ma'lumotlarning hammabopligini baholash; auditning avtomatlashgan uslublarini qo'llash imkoniyatini baholash; maxsus tayyorgarlik zarurligini baholash.

2. Komp yuter tizimini o'rganish. Maqsad - audit tekshirishning umumiyligi va ustama muolajalaridan foydalanish zarurligini aniqlash uchun ichki nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligidni baholashdan iborat. Audit tekshirishi muolajalarining mazmunini va chuqurligini rejalashtirishga asos sifatida ichki nazorat bo'g'inlaridan foydalanish imkoniyatlarini topish uchun nazorat muhiti, buxgalteriya hisobi tizimi va nazorat muolajalari to'g'risidagi zarus ma'lumotlarni yig'ishdan iborat.

Nazorat muhiti - majburiyat va vakolatlarni topshirish tizimi; tizimni nazorat qilish uchun ma'muriyat tomonidan qo'llaniladigan uslublar; buxgalteriya hisobi tizimini o'rganish; nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligidni baholash.

3. Oddiy komp yuterlashgan tizimda nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligidni baholash. Maqsad - komp yuter tizimi muhiti haqida aniq ma'lumotlarni yig'ish. Ma'lumotlar umumiyligi tahlil qilinadigan oddiy tizimlarda komp yuterli nazorat muolajalarini testdan o'tkazish. Nazorat muolajalarini testdan o'tkazish uchun qo'llaniladigan komp yuter texnikalariga umumiyligi yondoshishda foydalaniladigan usublar, ya'ni: nazorat ma'lumotlarning uslubi; parallel modellashtirish uslubi; aniq ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan nazorat uslubi; operatsiyalarni

belgilash; auditorlik fayllari; darhol tayyor bo‘ladigan fotosurat; tizim ish yuritishining doimiy nazorati; kengaytirilgan yozuvlar.

Yuqorida keltirilgan uslubiyotni qo‘llashda komp yuter tiziminинг mohiyatini to‘g’ri tushunish va uni tashkil etuvchi barcha bo‘g’inlarni ko‘rib chiqish zarur. Shuni nazarda tutish kerakki buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilmagan tarzda yuritishda xo‘jalik operatsiyalarni kuzatish yengil kechadi va bu, o‘z navbatida, ma’lumotlarni qog’ozda ifodalaydigan hujjatlar bilan olib borilishini talab qiladi. Bu hujjatlarga - ko‘rsatmalar, to‘lov qog’ozlari, hisob schetlari va hisob registrlari kiradi. Ayni shunday hujjatlar komp yuter tizimida ham bor, lekin ko‘p hollarda ular faqat elektron shaklda mayjud bo‘ladi.

Komp yuter tizimi o‘z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

Apparat vositalari: komp yuterni tashkil qiluvechi vositalar va dasturli vositalar: a) Tizimli dasturlar - bu operatsion tizim, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi. b) Ustama dasturlar - o‘ziga xos vazifalarni hisobga olgan holda mustaqil ravishda ishlab chiqilgan yoki sotib olingan avtomatik dasturlar.

Komp yuter dasturlarini qo‘llashda ma’muriyatning asosiy majburiyatlaridan biri - ichki nazoratning ish bilan ta‘minlangan tizimini yaratishdir. Bu tizimga komp yuter tiziminining nazorat muolajalari va nazorat siyosati kabi bo‘g’inlari kiradi. Auditorning majburiyatiga komp yuter muhitida nazoratning nosamaradorligi tavakkalchiligini baholash kiradi. Ma’muriyat esa, o‘z navbatida, quyidagilarni ta‘minlashi lozim:

- komp yuter tizimida ma’lumotlarning to‘laligi va o‘z vaqtida yangilab turilishini;

- ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida bajarilgan operatsiyalarning nazorat yozuvlarini saqlaydigan tizimlaridan foydalanishni;

- auditorlarning tizimiga kirishini va ularga tizim ishi uchun javobgar bo‘lgan mutaxassislardan yordam sifatida berishi.

Ma’lumotlarni komp yuterlarda qayta ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak. Bu xususiyatlar quyidagicha gruxlashtiriladi:

Nazorat yozuvlari. Ba'zi komp yuter tizimlarida operatsiyalarning bajarilganligi haqida muhim nazorat yozuvlari ma'lum bir vaqtgacha saqlanadi yoki bu yozuvlar faqat mashina o'qiydigan shaklda bo'ladi.

Bajariladigan operatsiyalarning bir xildaligi. Ma'lumotlarni komp yuterda qayta ishlash jarayon buxgalteriya hisobi yuritishda o'xshash operatsiyalarni bajarish uchun bir xilda bo'lgan komandalarni ishlatalishni ko'zda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlash paytida ro'y berib turadigan xatolarning umuman qaytarilmasligini ta'minlaydi. Dasturiy xatolar esa bir xil sharoitda o'xshash operatsiyalarning barchasini noto'g'ri qayta ishlanishiga olib keladi.

Ma'muriyat tomonidan nazoratni kuchaytirish imkoniyatlari. Komp yuter tizimida ko'plab tahliliy dasturlarning borligi ma'muriyatga korxona yoki firmaning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Auditorlik tekshirishni amalgaga oshirishda auditorlik xulosasini berish uchun tizimning kuchli va zaif tomonlarni ko'rsatib, to'la ma'lumot olishga imkon beradigan aniq uslubiyotga amal qilish zarur. Bunda katta kompaniyalar buxgalteriyasiniing markazlashtirilish darajasini inobatga olish kerak.

Markazlashtirish darajasining yuqoriligi muhim ma'lumotlar bo'yicha bajariladigan barcha muomalalar ustidan amalgaga oshiriladigan nazorat bilan xarakterlanadi. Nazoratning holati, apparat va dasturli vositalar firmanın barcha bo'g'lnari uchun bir turda bo'lishi mumkin. Aksincha, ma'lumotlarni markazlashgan tarzda qayta ishlanishi hududiy jihatdan yiroq bo'lgan bo'limlarni boshqarish va nazoratni mustaqil ravishda amalgaga oshirishlariga imkon beradi. Bu sharoitda apparat va dasturiy vositalar turli xilda bo'lishi mumkin va nazorat paytida kerakli ma'lumotlarni olish uchun ko'p miqdordagi komp yuterlarni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarni komp yuterda qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarining miqdorini va ularning komp yuter texnologiyasidan xabardorlik darajasini ham baholash zarur.

Avtomatlashtirilgan audit uslublarining qo'llanilishi soha mutaxassislarining bo'lishini talab qiladi. Tekshirish jarayonida ma'lumotlarni komp yuterlarda qayta ishlashning auditga ta'sirini baholash uchun, buxgalteriya hisobi opreratsiyalarining bajarilish yo'llini

aniqlash hamda auditorlik muolajalarni ishlab chiqish va bajarish uchun mutaxassislarini jalg qilish mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha, dastur tillari bo'yicha, paketi bo'yicha ham mutaxassislar ta'lab qilinishi mumkin. Tizimlar bo'yicha mutaxassislar, dasturchilar va operatorlar o'rjasida majburiyatlarning taqsimlanishini o'rganib chiqilishi zarur.

Auditor ichki nazorat uslublarini o'rganishda quyidagi masalalar yuzasidan tasavvurga ega bo'lish kerak:

- tizimlar va hujjatlarni ishlab chiqish andozalari, ulardan foydalanish darajasi;
- nazorat usullarining mavjudligi, sifati, dasturlari va tizimning har xil ko'rinishlari;
- moliyaviy va boshqa hisobotlarga kirishning qulayligi, masalan, ma'muriyatga taqdim etiladigan ma'lumotlar.

Buxgalteriya hisobi tizimini o'rganishda auditor tizimda amalga oshiriladigan muomalalarning ketma-ketligini o'rganishi zarur. Muomalalar ketma-ketligi zanjirini aniqlash firma tomonidan taqdim qilingan yozma izohini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning komp yuter tizimidan foydalanilganda yozma izoh o'z ichiga foydalanuvechilar uchun qo'llanma va ko'rsatmalarni, fayllar tuzilmasini, sxemalar blokini va sharhlarni olishi kerak. Ichki audit uchun javobgar shaxslardan buxgalteriya hisobi tizimini tushunish uchun foydali bo'lgan, muomalalar bajarilishining ketma-ketligiga taalluqli bo'lgan tayyor hujjatlarga ega bo'lish mumkin. Shu sababli, tekshirishni rejalahtirishning avvalida shunday hujjatlar mavjudligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tavakkalchilikni baholash bilan bog'liq.

Komp yuter tizimida tavakkalchilikni baholash quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- amaldagi buxgalteriya ma'lumotlarida uchraydigan turli xildagi xatolar va ularni guruxlashtirish;
- muomalalar ketma-ketligi zanjirida ma'lum bir turdag'i xatolarning paydo bo'lish ehtimoli bor joylarni aniqlash;
- nazoratning aniq maqsadini amalga oshirilishini ta'minlaydigan, maxsus muolajalarni belgilash;

- nazorat asosiy muolajalarining bajarilish samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yordamchi muolajalarni belgilash;

-nazorat muolajalari ta'minlaydigan nosamaradorlik tavakkalchiligi darajasini aniqlash maqsadida nazorat muolajalari tuzilmasini baholash.

Komp yuterlar qo'llanganda quyidagi holatlarda xatolar paydo bo'lishi mumkin:

- tizimni ishga tushirishga ruxsat olish bo'yicha vazifalar zanjiri bilan bog'liq boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlashda;

- ma'lumotlar mashinasiz qayta ishlanganda, masalan buxgalteriya ma'lumotlari qo'lda hisoblab chiqilganda;

- boshlang'ich ma'lumotlarni mashina o'qiydigan shaklga keltirganda;

-qayta ishlashda foydalanish uchun kirish fayllari moslashtirilganda;

- ma'lumotlarni bir dasturdan ikkinchi dasturga o'tkazishda;

- chiqish fayllarini yaratish yoki asosiy fayllarga tuzatish kiritish;

- komp yuter tomonidan muomalalar qayd etilishida;

- chiqish fayllari va hisobotlarning yuzaga kelishida;

Bunday ko'rinishdag'i xatolar, komp yuter tizimida, auditor tomonidan faoliyat rejalashtirilishiha inobatga olinishi shart. Oddiy komp yuter tizimlarida ma'lumotlar to'kaligicha markaziy komp yuterda qayta ishlanishini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Ma'lumotlarni qayta ishslash, ularni guruhashni ko'zda tutadi. Operator komp yutering kutubxonasidan kerakli bo'lgan dasturlar va asosiy fayllarni chaqiradi. Tizimni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmadagi ko'rsatmalarga binoan bir turdag'i muomalalar, ayni bir xil dasturlar va asosiy fayllarni qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Komp yuter tizimidagi nazorat muolajalarini ikki - umumiyl va ustama bosqichlarga bo'lish mumkin. Nazoratning umumiyl muolajalari komp yuter tizimining barcha yoki ko'pchilik funktsiyalari uchun qo'l keladi. Bularga, dasturlar va ma'lumotlar bazasi fayllariga kirishni nazorat qilish kiradi. Nazoratning ustama muolajalari komp yuter hisobining aniq funktsiyalari bilan bog'liq bo'lib, auditorlik tekshirishining boshlang'ich bosqichida ko'rindi.

Moddiy boyliklarning saqlanishi, yozuvlarning yuritilishi, davriy solishtirish kabi funksional majburiyatlarning taqsimlanishi komp yuter tizimi uchun, avtomatlashmagan tizimdagi singari, ahamiyatga ega. Shu bilan birga faqat komp yuter tizimigagina xos bo'lgan bir qator muomalalarning, xususan, tizimda tahlil, dasturlashtirish, mashinaviy muomalalarning mavjudligi ularning keyingi taqsimoti maqsadga muvofiqligini shart qilib qo'yadi.

Hujjatlashtirishni tahlil qilish auditorlarga tizim mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lish va hujjatlashtirishning mosligini baholash imkonini beradi

Komp yuter tizimining eng kuchsiz joyi bu ma'lumotlarni kiritish jarayoni bo'lib, bunda xo'jalik muomalalari to'g'risidagi ma'lumotlar boshlang'ich hujjatlardan dasturiy muhitga o'tkaziladi. Agar ma'lumot noto'g'ri kiritilgan bo'lsa, ular qayta ishlash paytida ko'rinnmasligi mumkin, shuning uchun keyin topilgan xatoni tuzatish oson kechmaydi. Xatolarni aniqlash uchun nazoratning quyidagi maxsus muolajalarini qo'llash mumkin:

- yozuvlar miqdori xo'jalik muomalalari bo'yicha qayta ishlangan hujjatlar miqdori bilan solishtiriladi. Yozuvlar miqdorining qayta ishlangan hujjatlar miqdori bilan farqi ayni bir hujjatning ikki marta qayta kiritilganligini bildiradi.

- nazorat summalari schyotlar guruhi bilan bog'liq. Schyotlar guruhi analetik hisob ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

- operatorga ma'lumotlarini tayyorlash uchun berilgan schyotlar nomerining yig'indisi.

Ma'lumotlarni tayyorlashda qilingan xatolarni topish uchun nazoratning turli dasturiy vositalardan foydalanish mumkin. Dasturli vositalar operatorlar tomonidan kiritiladigan komandalarni, ustama dasturlardan foydalanish vaqtini va statistikasi «hisob jurnali»ni tashkil qilishi lozim. Bu jurnalda ma'lumotlarni nazoratchilar tahlil qilishlari shart.

Komp yuterda qayta ishlash natijalari to'g'riliqini tekshirishning so'nggi, yakunlovchi bosqichi chiqish ma'lumotlarining nazoratidir. Bu bosqichda fayllarga faqat vakolatli shaxslarning kirishini ta'minlash zarur.

Chiqish ma'lumotlarning nazorat yig'indisi ishlash jarayonining barcha natijalari bilan taqoslanadi. Nazorat guruhining majburiyatiga nazorat summalarini va chiqish ma'lumotlarining tahlili, hamda ularni farq qilish holatlarini auditdan o'tkazish kiradi.

Tizimda yuzaga keladigan chiqish ma'lumotlari ham faqat vakolatli shaxslargagina taalluqli bo'lishi lozim. Hisobotlar nusxasini oluvchi abonentlar ro'yxatini tuzish kerak va ichki hisobotlar tirajini qat'iyan cheklash zarur.

Ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash, chiqarish sohalaridan birining zaif tomonlari auditor tomonidan alohida e'tiborga olinishi kerak. Ya'ni, ma'lumotlarni kiritish bosqichida nazorat yo'qligi keyingi bosqichlardagi nazorat muolajalari bilan to'ldirilishi mumkin.

Auditorlarning dasturlashtirish sohasida chuqur bilimga egaligi yoki xolis dasturchilarni ishga taklif qilishi audit shartnomasini tuzishda aks etishi zarur shart hisoblanadi. Umumiylashtirish dasturiy vositalardan foydalangan holda nazorat o'tkazish audit sifatini oshirish imkonini beradi. Turli dasturlardan foydalanish parallel modellashtirish yordamida amalga oshiriladi. Parallel modellashtirishning komp yuter dasturlari - bu buxgalteriya hisobini yuritish va audit o'tkazish dasturlarining uyg'unlikdag'i modelidir.

Parallel modellashtirish usulini qo'llash avvaliga yetarli darajada katta xarajatlarni talab qilishi mumkin, lekin bu usulning samaradorligi komp yuter texnikasi qo'llanilmay o'tkazilgan auditorlik tekshirishi samaradorligidan ma'lum darajada yuqoridir.

Ko'pgina ishlab chiqilgan buxgalterlik dasturlari o'z ichida nazorat vositalariga ega. Shu sababli, auditorlik dasturlaridan foydalanganda parallel modellashtirish usuli qo'l keladi.

Parallel modellashtirishda auditor tomonidan ajratib olingan fayllar kiritish paytida maxsus indikatorlar yordamida belgilanadi. Bu ma'lumotlarni nazorat yozuvlarini baholash uchun bosib chiqarish yoki fayllar ko'rinishida saqlash mumkin.

Belgilangan ma'lumotlar keyingi nazorat uchun maxsus fayllarga guruhlashadi. Auditorlik fayllarini tashkil qilishda ikki usul qo'llanilib, ularidan biri «doimiy nazorat auditorlik fayli» (DNAF) sifatida belgilanishi

maqsadga muvofiq. Belgilangan mezonlar bo'yicha ajratib olingan ma'lumotlarni testdan o'tkazish asosida yig'ma hisobotlar tahlil uchun bevosita auditorga kelib tushadi. Ichki audit nuqtai nazaridan DNAF usuli alohida e'tiborga ega.

Ikkinci usul - «tanlab olish nazorati auditorlik fayli» (TONAF) avvalgi usul bilan o'xshash bo'lib, ularning farqi shundaki, ma'lumotlarni belgilash uchun dasturga doimiy tanlab olish mezoni emas, balki tasodifly ajratib olish moduli kiritiladi. Ma'lumotlarning qayta ishlanganligi to'g'risidagi hisobotlar auditorlik tahlil uchun dasturning har bir ish yuritganidan so'ng olinishi mumkin.

Tizim ish yuritishining doimiy nazoratini tashkil qilish zarur. Buning uchun dasturiy vositalarning ish faoliyatining tahlil qilish maqsadida, odatda, komp yuterga maxsus elementlar quriladi, ularning vazifasi - komp yuter ishining samaradorligini aniqlashdir. Bu elementlar tizim modulini kim va qanday muomalalar uchun ishlatganligini aniqlash imkonini bergani tufayli auditor uchun ham qulaydir.

Takrorlash uchun savollar.

1. Xalqaro audit amaliyoti izzoxi nima?
2. Xalqaro audit amaliyoti izzoxi necha bo'limdan iborat?
3. Moliyaviy instrumentlar to'g'risida qisqacha ma'lumot XAAIning nechanchi bo'limda keltirilgan?
4. Moliyaviy instrumentlarga tegishli auditorlik ko'rib chiqishlar XAAIning nechanchi bo'limda keltirilgan?
5. XAAI qaysi sohalarda audit o'tkazish masalalarini tartibga soladi?
6. Auditorlarga moliyaviy instrumentlarni baholash nima uchun zarur?
7. Moliyaviy instrumentlarni auditdan o'tkazishda maxsus jihatlar qanday?
8. Komp yuterli malumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish hususiyatlari qanday?
9. Komp yuter tizimidagi nazorat muolajalari qanday guruhsanadi?
10. Komp yuter tizimi o'z ichiga qaysi elementlarni oladi?

Vaziyatli masalalar.

Masala -1

Ko‘p hollarda, moliyaviy instrumentlarga tegishli munosabat darajasini belgilash, va ulardan foydalanish darajasini tasdiqlash va nazorat qilish, boshqaruv yuklatilgan shaxslar vazifasi hisoblansa, tadbirkorlik sub`ektining ushbu risklarga duchorliklarini boshqarish va monitoring qilish rahbariyat vazifasi hisoblanadi. Rahbariyat va boshqaruv yuklatilgan shaxslar moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asosiga muvofiq moliyaviy hisobotlarning tayyorlanishiga imkon yaratishda ichki nazorat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgardir. Ushbu tizimni yaratishda nimalar e`tiborga olinishi kerak?

Masala -2

Moliyaviy instrumentlarning ayrim tarkibiy qismlari, masalan obligatsiyalar va aktsiyalar, alohida depozitariylarda saqlanishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘pgina moliyaviy instrumentlar ma’lum bir davrda puł mablag’ining to‘lovlarini yuzaga keltiradi va ko‘p hollarda ushbu puł oqimlari shartnoma muddatining boshida boshlanadi. Ushbu puł mablag’i to‘lovları va tushumlari tadbirkorlik sub`ektining bank scheti orqali o’tadi. Tadbirkorlik sub`ektiga bitimlar tegishli tartibda qayd qilinganligini qanday aniqlanadi?

Masala -3

Moliyaviy instrumentlar shunday bog’langan riskka ega bo‘lishi mumkinki, bunda zarar balansda tan olingen moliyaviy instrument qiymatining summasidan, agarda mayjud bo‘lsa, oshishi mumkin. Ushbu vaziyatga misol keltiring.

1-masala javobi

O‘rinli nazorat muhitini, moliyaviy instrumentlardan foydalanishni nazorat qilishda boshqaruv yuklatilgan shaxslarning faol ishtiropini, vakolat va javobgarlikning aniq vazifasiga ega bo‘lgan mantiqiy tashkiliy

tuzilmani va o'rinali inson resursi siyosatlari va tartib-taomillarini tashkil etish. Xususan, aniq qoidalar moliyaviy instrument faoliyatları uchun javobgar shaxslar faoliyat yuritishga ruxsat etiladigan darajasida zarur bo'ladi. Bunday qoidalar moliyaviy instrumentlardan foydalanish bo'yicha har qanday yuridik yoki me'yoriy cheklov larga aloqador bo'ladi. Masalan, muayyan davlat sektoridagi tadbirkorlik sub'ektlari derivativlardan foydalangan holda biznesni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lmasligi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektining hajmiga va uning moliyaviy instrumentlarining murakkabligiga nisbatan risk boshqaruvi jarayonini tashkil etganda (masalan, ayrim tadbirkorlik sub'ektlarida rasmiy risk boshqaruvi vazifasi mavjud bo'lishi mumkin).

Boshqaruv yuklatilgan shaxslarni moliyaviy instrument faoliyatları va ular bilan bog'liq risklarning xususiyati bo'yicha tushuntirishni ta'minlaydigan informatsion tizimlarni, jumladan bitimlarning yetarli hujjatlashtirilishini, tashkil etganda.

Quyidagi maqsadlarda ichki nazorat tizimini ishlab chiqqanda, amalga oshirganda va hujjatlashtirganda:

- Tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy instrumentlardan foydalanishi uning risk boshqaruvi siyosatlari doirasida bo'lishi yuzasidan oqilona ishonch bildirishni ta'minlash;
- Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy instrumentlarni tegishli tarzda aks ettirish;
- Tadbirkorlik sub'ekti tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlarga roya etishini ta'minlash; va
- Riskni monitoring qilish.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq o'rinali hisob siyosatlarini, jumladan baholash siyosatlarini, tashkil etganda.

2-masala javobi

Tadbirkorlik sub'ektining yozuvlarini tashqi banklar va depozitariylarning yozuv larga nisbatan muntazam solishtirish tadbirkorlik

sub`ektiga bitimlar tegishli tartibda qayd qilinganligini ta`minlashga imkon beradi.

3-masala javobi

Masalan, tovarning bozor narxidagi to`satdan pasayish tadbirkorlik sub`ektini garov yoki marja talablari tufayli ushbu tovardagi forward pozitsiyasini yopishda zararlarni tan olishga majbur etishi mumkin. Ayrim holatlarda, potentsial zararlar faoliyatning uklusizligi sifatida tadbirkorlik sub`ektining davom etish qobiliyatiga jiddiy shubha solish uchun yetarli bo`lishi mumkin. Tadbirkorlik sub`ekti bozor risklarini inobatga olgan holda moliyaviy instrumentlarga kelgusi gepotetik ta`sirlarga baho berish uchun ta`sirchanlik tahlilarini yoki riskdagi-qiymat tahlillarini amalga oshirishi mumkin.

Auditning Xalqaro Standartlari (AXS) va sifat nazorati standartlarida ta`riflab berilgan atamalar

Kirishning (yoki foydalanishning) nazoratlari — On-layn terminal qurilmalari, dasturlar va ma`lumotlar bazasiga kirish (yoki foydalanish)ni chegaralashga karatilgan tartib-taomillar. Kirish (yoki foydalanish) nazorati “foydalanuvchi identifikatsiyasi” va “foydalanuvchi avtorizatsiyasi”dan tashkil topadi. “Foydalanuvchi identifikatsiyasi” odatda foydalanuvchining yagona identifikatsiyasi logini, parollar, kirish (foydalanish) kartalari yoki biometrik ma`lumotlar orqali aniqlashga qaratiladi. “Foydalanuvchi avtorizatsiyasi” esa har bir foydalanuvchi kirishi mumkin bo`lgan komp yuter resurslaridan foydalanish qoidalarini belgilashdan tashkil topadi. Xususan, bunday tartib-taomillar quyidagi oldini olish va aniqlashga qaratilgan:

On-layn terminal qurilmalar, dastur va ma`lumotlar bazalariga beruxsat kirish;

Ruxsat etilmagan operatsiyalarni kiritish;

Ma`lumotlar bazasiga beruxsat o`zgarishlar kiritish;

Komp yuter dasturlaridan bunday vakolatga ega bo`lmagan hodimlar foydalanishi; va

Ishlatilishi ruxsat etilmagan komp yuter dasturlaridan foydalanish.

Hisoblab chiqilgan baho — Aniq hisoblash imkoniyati bo‘limgan holda pul ifodasidagi miqdorning taxminiy qiymatini aniqlash tushuniladi. Ushbu atama baholashda noaniqlik bo‘lgan holda haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanadigan summaga nisbatan hamda baholashni talab qiladigan boshqa summalarga nisbatan qo‘llaniladi. AXS 540² faqat haqqoniy qiymat bo‘yicha baholashni nazarda tutadigan hisoblab chiqilgan baholar to‘g’risida so‘z yuritilganida, “haqqoniy qiymat bo‘yicha hisoblab chiqilgan baholar” atamasi qo‘llaniladi.

Buxgalteriya yozuvlari—Boshlang’ich buxgalteriya o’tkazmalari (provodkalari) va tasdiqlovchi hujjatlar, masalan to‘lov topshiriqnomalari, elektron tarzdagi pul o’tkazmalari bo‘yicha ko‘chirmalar; schyotfaktular; shartnomalar; bosh va analistik xisobini yuritish kitoblari, jurnallarda qayd etilgan provodkalar va moliyaviy hisobotga boshqa, jurnallarda rasmiy qayd etilgan provodkalardan tashqari, tuzatish kiritilishi; xarajatlar taqsimlanishi bo‘yicha hisob-kitoblar va yig’majadvallari, qaydnomalar, ma’lumotlarning solishtirmalari va oolib beriladigan ma’lumotlar.

Kelishilgan tarbib-taomillarini bajarish bo‘yicha kelishuv — Auditor, tadbirkorlik sub’ekti va tegishli uchinchi tomonlar o‘rtasida kelishilgan auditorlik tartib-taomillari bajarilishi va haqiqiy natijalari bo‘yicha hisobot berilishi uchun auditorni jalb qilish bo‘yicha kelishuv. Hisobotni oluvchilar auditoring hisoboti asosida o‘zlarining tegishli hulosalarini chiqaradilar. Bajarilishi talab etilgan auditorlik tartib-taomillari qaysi tomonlar o‘rtasida kelishilgan bo‘lsa, faqat shu tomonlarga hisobot beriladi, chunki boshqa tomonlar kelishilgan tartib-taomillar bajarilishi sabablarini bilmasdan turib natijalarni noto‘g’ri talqin qilishlari mumkin.

Tahliliy tartib-taomillar — Moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarning o‘rtasidagi ob’ektiv bog’liqlikni tahlil qilish orqali moliyaviy axborotning baholanishi. Tahliliy tartib-taomillar, shuningdek, zarurat to‘g’ilganida, boshqa o‘rinli ma’lumotga zid keladigan va kutilgan

² AXS 540 “Hisoblab chiqilgan baholar shu jumladan haqqoniy qiymat bo‘yicha hisoblab chiqilgan baholar va ular bilan bog‘liq oolib beriladigan ma’lumotlar audit”

natijalardan katta farq qiladigan aniqlangan chetga chiqishlar va o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganishni qamrab oladilar.

Yillik hisobot—Tadbirkorlik sub`ekti tomonidan odatda har yili e`lon qilinadigan va moliyaviy hisobot bilan unga tegishli auditorlik hisoboti (xulosasi)ni o‘z ichiga olgan hujjatdir.

Anomaliya—Jamlanmadagi buzib ko`rsatishlar yoki chetga chiqishlarga nisbatan noreprezentativ aniq bo`lgan buzib ko`rsatishlar va chetga chiqishlar .

Moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asos — Tadbirkorlik sub`ekti faoliyati mohiyati va moliyaviy hisobotlarning maqsadi nuqtai nazaridan maqbul bo`lgan yoki qonunchilik va me`yoriy hujjatlarda talab qilinadigan, tadbirkorlik sub`ekti rahbariyati yoki tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan moliyaviy hisobotni taqdim etish asosidir.

“Haqqoniq taqdim etish asosi” atamasi moliyaviy hisobotni taqdim etish asosining talablariga rivoja qilishni talab etadigan asosga nisbatan qo‘llaniladi va:

(a) Moliyaviy hisobotni haqqoniq taqdim etishga erishish uchun tadbirkorlik sub`ekti rahbariyati tegishli asosda maxsus talab qilinadigan ma`lumotga qo‘srimcha ma`lumotlarni ochib berish zaruriyati to‘g‘ilishi mumkinligini yaqqol ravishda tan oladi yoki nazarda tutadi ; yoki

(b) Moliyaviy hisobotni haqqoniq taqdim etishga erishish uchun tadbirkorlik sub`ekti rahbariyati tegishli asos talablaridan chetga chiqishi zaruriyati to‘g‘ilishi mumkinligini yaqqol ravishda tan oladi. Bunday chetga chiqishlar faqat kamdan-kam hollarda talab etilishi mumkin deb qaraladi.

“Muvofiqlik asosi” atamasi tegishli asos talablariga muvofiqlikni talab etadigan, ammo yuqorida (a) yoki (b) bandlaridagi talablarni kamrab olmaydigan moliyaviy hisobotni taqdim etish asosidir.

Axborot texnologiyalarida amaliy nazorat vositalari — Odatda biznes jarayonlari darajasida qo‘llaniladigan qo‘lda bajariladigan yoki avtomatlashtirilgan tartib-taomillari. Amaliy nazorat vositalari mohiyatiga ko‘ra oldini olishga yoki aniqlashga qaratilgan bo‘lishi

mumkin va buxgalteriya yozuvlari butligini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi. Shuningdek, amaliy nazorat vositalari operatsiyalar va boshqa moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, yozish, qayta ishlash va hisobotda taqdim etish uchun qo'llaniladigan tartib-taomillar qatoriga kiradi.

1. *Qo'llanilgan mezonlar* (*AXS 810³ nuqtai nazaridan*)—Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda rahbariyat tomonidan qo'llanilgan mezonlar.

2. *Auditorlik dalillarining mosligi*—Auditorlik dalillarining sifat o'lchami, ya'ni auditorning fikri uchun asos bo'ladigan xulosalar tasdig'ini ta'minlashda dalillarning o'rinnligi va ishonchliligi.

Mustaqil tomonlar o'rtasidagi bitim—Bir-biriga bog'liq bo'lmagan, mustaqil ravishda ish olib boradigan, o'z manfaatlarini ko'zlaydigan va bitim tuzishni xohlaydigan tomonlar - sotuvchi va haridor - orasidagi shartlarda amalga oshiriladigan operatsiya.

Taqdimnomalar —Moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topgan va rahbariyat tomonidan aniq yoki boshqa yo'sinda taqdim qilingan bildirigilar, ular sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli potentsial buzib ko'rsatishlarni ko'rib chiqishda auditor tomonidan foydalaniлади.

Baholash (baho berish) — Aniqlangan muhim buzib ko'rsatish risklarini ushbu risklarning ahamiyatliligi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tahlil qilish. “Baholash (baho berish)” atamasi faqat riskga nisbatan ishlatalidi deb hisoblanadi. (shuningdek “*Baho berishga*” ga qarang)

Daxldorlik — (*Auditorning moliyaviy axborotga daxldorligiga qarang*)

Ishonch bildirish—(*Oqilona darajada ishonch bildirishga qarang*)

Ishonch bildirish bo'yicha kelishuv—Mas'ul shaxsdan tashqari ko'zlangan foydalanuvchilarning ma'lum mezonlarga nisbatan o'rganilayotgan masalani baholash yoki o'lchash natijasiga ishonchini oshirish maqsadida buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan xulosa berilishiga qaratilgan kelishuv. O'rganilayotgan masalani baholash yoki o'lchash natijasi – bu ma'lum mezonlarni qo'llash natijasida olinadigan

³ AXS 810 “Qisqartirilgan moliyaviy hisobdar bo'yicha hisobha foydalanish uchun etish kelishuvlari”

ma'lumotdir (shuningdek *O'rganilayotgan masala bo'yicha ma'lumotga qarang*).

Ishonch bildirish kelishuvlari bo'yicha xalqaro asosga muvofiq buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan ikkita turdag'i ishonch bildirish bo'yicha kelishuvlarning bajarilishi ruhsat etilgan: oqilona ishonch bildirish bo'yicha kelishuv va chegaralangan ishonch bildirish bo'yicha kelishuv.

Oqilona ishonch bildirish bo'yicha kelishuv— Oqilona ishonch bildirish bo'yicha kelishuvning maqsadi - ishonch bildirish bo'yicha kelishuv riskini kelishuv shart-sharoitlari⁴ doirasida maqbul bo'ladigan past darajagacha kamaytirishdir, bu esa buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan ijobjiy xulosa berilishi uchun asos bo'ladи.

Chegaralangan ishonch bildirish bo'yicha kelishuv—Chegaralangan ishonch bildirish bo'yicha kelishuvning maqsadi - ishonch bildirish bo'yicha kelishuv riskini kelishuv shart-sharoitlari doirasida maqbul darajagacha kamaytirishdir, lekin bu xolatda ushbu risk oqilona ishonch bildirish bo'yicha kelishuv riskidan yuqoriroq bo'ladи, bu esa buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan salbiy xulosa berilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishonch bildirish bo'yicha kelishuv riski—O'rganilayotgan masala bo'yicha ma'lumotda muhim buzib ko'rsatish mavjud bo'lganida buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan noto'g'ri xulosa berilishi riski.

Audit hujjatlari—Bajarilgan auditorlik tartib-taomillari, olingan tegishli auditorlik dalillari, va auditor erishgan hulosalarining yozma shaklda qayd qilinishi (ayrim hollarda "ish hujjatlari" yoki "ish qog'ozlari" kabi atamalar ham ishlatalishi mumkin).

Auditorlik dalil—Auditorning fikri uchun asos bo'lgan hulosalarga erishishda auditor tomonidan foydalanilgan ma'lumot. Auditorlik dalili moliyaviy hisobotlar uchun asos bo'lgan buxgalteriya yozuvlari va

⁴ Kelishuv shart-sharoitlari kelishuvning shartlarini qamrab oladi, shu jumladan oqilona ishonch bildirish bo'yicha kehshuv yoki chegaralangan ishonch bildirish bo'yicha kehshuv bo'lishidan qat'iy nazar organilayotgan masala sususiyatlari, qollaniladigan mezonlar, ko'zlangan foydalanchilarning talabları, mas'ul shaxs va uning faoliyatini mifutuning tegishli sususiyatlari va bosliga masalalar, masalan kelishuvga ahamiyati ta'sir korsatishi munkin bolgan yodisalar, operativalar, sharoitlar va amaliyotlar

boshqa ma'lumotlardan tashkil topadi. (*Auditorlik dalilining mosligi* va *Auditorlik dalilining yetarligiga qarang.*)

Audit fayli— Muayyan kelishuvga tegishli audit hujjatlarini o'z ichiga oladigan yozma ma'lumotlardan tashkil topgan, bir yoki bir nechta papkalar elektron yoki boshqa shakldagi ma'lumot saqlash vositasi.

Auditorlik firmasi (*auditorlik tashkiloti*)— (*Firmani qarang*)

Auditorlik fikri — (*Modifikatsiyalangan fikr* va *Modifikatsiyalanmagan fikrga qarang*)

Auditorlik riski — Moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lganida auditor tomonidan noto'g'ri auditorlik fikri berilishi riski. Auditorlik riski muhim buzib ko'rsatishlar riskiga va topmaslik riskiga bog'liq bo'ladi.

Auditorlik tanlash (*tanlash*)— tekshirilayotgan jamlanmaning 100 foizdan kam bo'lgan ob'ektlariga nisbatan auditorlik tartib-taomillari qo'llash maqsadida amalga oshiriladi. Bunda auditor butun jamlanma to'g'risida xulosalar chiqarishi uchun yetarlicha asosga ega bo'lishi maqsadida jamlanmaning har bir elementi tanlab olinishi mumkin bo'lishi kerak.

Audit qilingan moliyaviy hisobotlar (*AXS 810 nuqtai nazaridan*)— Auditor tomonidan AXSlarga muvofiq audit qilingan moliyaviy hisobotlar, ular asosida qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar shakkantiriladi⁵.

Auditor—“Auditor” atamasi audit o'tkazuvchi shaxs yoki shaxslarga, odatda kelishuv partnyori yoki kelishuv jamoasining boshqa a'zolari, yoki tegishli hollarda firmaga (auditorlik tashkilotiga) nisbatan qo'llaniladi. Agar qandaydir AXSda kelishuv partnyori tomonidan talablar yoki majburiyatlar bajarilishi aniq belgilangan bo'lsa, “auditor” atamasi o'rniiga “kelishuv partneri” atamasi ishlataladi. “Kelishuv partneri” va “firma (auditorlik tashkilot)” atamalari tegishli hollarda davlat sektorida qo'llaniladigan ekvivalent atamalari ma'nosida ishlatalishi kerak.

Auditning moliyaviy axborotga daxldorligi — Auditor moliyaviy axborotga daxldor deb auditor ushbu axborotga hisobot (xulosa) ilova

⁵ AXS 200 “Mustaqil auditning umumiy maqsadlari va auditni Auditning Halqaro Standartlarga muvofiq etказish”. 13(c) bandida “moliyaviy hisobotlar” atamasiga tushuncha berilgan.

qilganida yoki uning nomi professional faoliyat bilan bog'liq ravishda ishlatalishiga ruxsat bergenida hisoblanadi.

Auditor tomonidan jalg qilingan ekspert— Buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lgan, ishidan auditor yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olishning yordamchi vositasi sifatida foydalanadigan jismoniy shaxs. Auditor tomonidan jalg qilingan ekspert auditor tomonidan jalg qilingan (auditorlik tashkilotining yoki tarmoq firmasining partnyori⁶ yoki xodimi, shuningdek vaqtinchalik yollangan xodimi bo'lgan) ichki ekspert yoki auditor tomonidan jalg qilingan tashqi ekspert bo'lishi mumkin.

Auditor tomonidan qat'iy baholash yoki auditorning diapazoni— Rahbariyat tomonidan qat'iy baholashga baho berishda foydalanish maqsadida auditorlik dalillari asosida aniqlanadigan summa yoki tegishlicha summalar oralig'i.

Auditor diapazoni—(Auditor tomonidan qat'iy baholashga qarang)

Tadbirkorlik riski – Tadbirkorlik sub'ektining maqsadlariga erishishi va o'z strategiyalarini amalga oshirish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lum sharoitlar, voqealar, vaziyatlar, xarakatlar yoki xarakatsizlik natijasida yuzaga keladigan yoki noto'g'ri maqsadni tanlash va noto'g'ri strategiyalarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan riskdir.

Qiyosiy moliyaviy hisobotlar — O'tgan davr uchun summalar va boshqa ochib beriladigan ma'lumotlar joriy davr moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish maqsadida keltiriladigan, audit tekshiruvidan o'tkazilgan bo'lsa, auditorlik fikrida aytib o'tiladigan qiyosiy axborot. Mazkur qiyosiy moliyaviy hisobotlarga kiritilgan ma'lumotlar hajmi joriy davr moliyaviy hisobotlaridagi ma'lumotlar hajmi bilan taqqoslana oladi.

Qiyosiy axborot — Moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq bir yoki undan ortiq o'tgan davrlar uchun moliyaviy hisobotlarga kiritilgan summalar va ochib beriladigan ma'lumotlar.

a) *Kompilyatsiyalash bo'yicha kelishuv* — Moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash va umumlashtirishda audit sohasidagi bilimlardan farqli

⁶ Tegishli hollarda «Partner» va «firma» atamalari davlat sektoridagi ekvivalentlari tariqasida tushnallishi lozim.

o'laroq buxgalteriya hisobi sohasidagi kasbiy bilimlar va tajribadan foydalaniladigan kelishuv.

b) *Foydalanuvchi-sub'ekti nazoratining ko'shimcha vositalari* – Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan xizmatlar ishlab chiqilganida foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ekti tomonidan qo'llaniladigan nazorat vositalari hamda nazorat maqsadlariga erishish uchun kerak hollarda uning tizimi tafsifida ko'rsatiladigan nazorat vositalari.

Muvofiqlik asosi – (Moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asos va Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan asos ga qarang)

v) *Komponent* – Guruh yoki komponentning rahbariyati tomonidan guruh moliyaviy hisobotlari tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar tayyorlanadigan tadbirkorlik sub'ekti yoki biznes faoliyati.

1. *Komponent auditori* – Auditni o'tkazilayotgan guruhnинг komponentiga taaluqli bo'lgan moliyaviy ma'lumot ustidan guruh kelishuvni jamoasini talabi bo'yicha ish olib boradigan auditor.

2. *Komponent rahbariyati* – komponentning moliyaviy ma'lumotlarini tayyorlash mas'uliyatiga ega boshqaruv.

Komponentning muhimliliği – Guruh auditni bo'yicha kelishuv jamoasi tomonidan komponent bo'yicha belgilanadigan muhimlik darajasi.

Auditning komp yuterlashgan usullari – Auditorlik tartib-taomillarining komp yuter texnikasidan audit vositasi sifatida foydalanish orqali bajarilishi.

Nazorat tadbirlari – Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining nazorat tadbirlari bajarilayotganligini ta'minlash imkoniyatini beradigan siyosatlar va tartib-taomillari. Ichki nazorat tizimi nazorat tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Nazorat muhiti – rahbarlik va boshqaruv vazifalarini, shuningdek tadbirkorlik sub'ektining ichki nazorat tizimi va uning tadbirkorlik sub'ekti uchun muhimligiga nisbatan rahbarlik va boshqaruv yuklatilgan shaxslarning munosabati, habardorligi va hatti-xarakatini qamrab oladi. Nazorat muhiti ichki nazorat tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nazorat riski – (Auditorlik riskiga qarang)

Korporativ boshqaruv – (Boshqaruvga qarang)

Qiyosiy ko'rsatkichlar – Oldingi davr summalarini va boshqa olib beriladigan ma'lumotlari joriy davr moliyaviy hisobotining ajralmas qismi sisatida kiritilgan hamda (“joriy davr ko'rsatkichlari” deb nomlanuvchi) joriy davr summalarini va boshqa olib beriladigan ma'lumotlari bilan birgalikda ko'rib chiqish maqsadida keltirilgan qiyosiy ma'lumotlar. Qiyosiy summalar va olib ko'rsatiladigan ma'lumotlardagi tafsilotlar darajasi asosan joriy davr ko'rsatkichlari bilan bog'liq ravishda aniqlanadi.

Mezonlar – O'rganilayotgan masalani baholash yoki o'lehash maqsadida, ba'zi hollarda ma'lumotni taqdim qilish va olib berish maqsadida foydalaniladigan aniq ko'rsatkichlar. Mezonlar rasman belgilangan yoki belgilanmagan bo'lishi mumkin. O'rganilayotgan bitta masala uchun xar hil mezonlar belgilanishi mumkin. O'rganilayotgan masalani professional mulohaza doirasida yetarli darajada izchil baholash va o'lehash maqsadida maxsus mezonlar qo'llanilishi lozim.

Muvofiq mezonlar – quyidagi xususiyatlarga ega:

(a) O'rinnilik: o'rinnli mezonlar xulosa qilishga yordamlashadi, bu esa o'z navbatida mo'ljallangan foydalanuvchilarga qaror qabul qilishda yordam beradi.

(b) To'liqlik: aniq kelishuv shart-sharoitida xulosalar chiqarishga ta'sir ko'rsata oluvchi o'rinnli omillar e'tibordan chetda qolmaganida mezonlar yetarli darajada to'liq deb hisoblanadi.

(v) Ishonchlilik: ishonchli mezonlar ular o'xshash sharoitlarida bir xir malakaga ega bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar (auditorlar) tomonidan qo'llanilganda, o'rganilayotgan masalani yetarli darajada izchil baholash va o'lehash, shuningdek kerakli hollarda taqdim qilish va olib berish imkoniyatini beradi.

(g) Betaraflilik: xolis mezonlar xolisona xulosalarga kelishga yordam beradi.

(d) Tushunarllilik: tushunarli mezonlar ma'lumot talqin qilinganida ahamiyatli farqlarga yo'l qo'ymasdan aniq va sodda xulosalar qilishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash sanasi – Moliyaviy hisobotni tashkil qiluvchi barcha hisobotlar belgilangan izohlar bilan birligalikda tayyorlanganligini hamda tegishli vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar ushbu moliyaviy hisobotlar uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlarini tasdiqlaganligini bildiruvchi sana.

Hisobot sanasi (sifat nazorati bo‘yicha) – Buxgalter-amaliyotchi (auditor) tomonidan hisobot taqdim qilish sanasi.

Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi – moliyaviy hisobot yuzasidan AXS 700 ga asosan hisobot (xulosa) berish sanasi.⁷

Moliyaviy hisobot sanasi – moliyaviy hisobot o‘z ichiga olgan oxirgi davrning yakuniy sanasi.

Moliyaviy hisobotlarni e’lon qilish sanasi – Audit tekshiruvidan o’tkazilgan moliyaviy hisobotlar va auditorlik hisoboti (xulosasi) bilan barcha foydanaluvchilar tanishishi uchun imkoniyat yuzaga kelgan sana.

Ichki nazorat kamchiliklari – quyidagi hollarda yuzaga keladi:

(a) Nazoratni shunday tashkil qilinishi, amalga oshirilishi yoki boshqarilishi, u moliyaviy hisobotlardagi buzib ko‘rsatishlarni o‘z vaqtida oldini olish yoki aniqlash va bartaraf etish imkoniyatini bermaydigan hollarda; yoki

(b) Moliyaviy hisobotlardagi buzib ko‘rsatishlarni o‘z vaqtida oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish uchun lozim bo‘lgan nazoratning yo‘kligi natijasida.

Topilmaslik riski - Auditor tomonidan auditorlik riskini maqbul past darajagacha kamaytirish maqsadida bajariladigan tartib-taomillari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda haqiqatda mavjud bo‘lgan hamda alohida yoki boshqa buzib ko‘rsatishlar bilan birligalikda qaralganida muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolar va buzib ko‘rsatishlarni topish imkonini bermasligi ehtimolidir

Element – (Moliyaviy hisobot elementi ga qarang)

Moliyaviy hisobot elementi (AXS 805⁸ nuqtai nazaridan) — Moliyaviy hisobotdagji element, schyot yoki modda.

⁷ AXS 700 “Moliyaviy hisobotlar boyicha fikr bosh qilish va hisobot (xulosa) benshi”

⁸ AXS 805 “Massus masalalar. Aynim moliyaviy hisobotning hamda moliyaviy hisobotlardagi ayrim elementlar, sebyotlar va modalitatem audit”

Tushuntirish paragradi – Auditorlik hisobotining (xulosasining) moliyaviy hisobotda tegishli taqdim etilgan yoki ochib berilgan va auditor mulohazasi bo'yicha foydalanuvchilar moliyaviy hisobotlarni tushunishi uchun fundamental muhimlikka ega bo'lgan jihatga e'tiborni qaratadigan izoh paragradi.

Kelishuv hujjatlari – Buxgalter-amaliyotchi (Auditor) tomonidan bajarilgan ish, olingan natija va chiqarilgan xulosalarning yozma ifodasi (ba'zan "ish hujjatlari" yoki "ish qog'ozlari" atamalari qo'llaniladi).

Kelishuv xati – Kelishuvning xat shaklida rasmiylashtirilgan yozma shartlari.

*Kelishuv partnyori*⁹ – Kelishuv bajarilishi hamda auditorlik tashkiloti (firma) nomidan chiqariladigan hisobot (xulosa) uchun mas'ul bo'lgan va zarur hollarda professional, qonunchilik yoki tartibga solish organ tomonidan berilgan tegishli vakolatlarga ega bo'lgan partnyor yoki auditorlik tashkilotidagi boshqa biron-bir shaxs.

Kelishuvning bajarilishi sifatini nazorat tartibida ko'rib chiqish – Hisobot (xulosa) chiqarilishiga qadar yoki hisobot (xulosa) chiqarilgan sanada kelishuv jamoasi tomonidan hisobotni (xulosani) tayyorlashda chiqarilgan katta ahamiyatga ega bo'lgan mulohazalarni va erishilgan xulosalarni ob'ektiv baholash uchun mo'ljallangan jarayon. Kelishuvning bajarilishi sifatini nazorat tartibida ko'rib chiqish jarayoni muomaladagi (listingdagi) tadbirdorlik sub'ektlarining moliyaviy hisobotlarini audit tekshiruvlari va auditorlik tashkiloti (firma) tomonidan kelishuvning bajarilishi sifatini nazorat tartibida ko'rib chiqish o'tkazish talab etiladigan boshqa kelishuvlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Kelishuv bajarilishi sifatini nazorat tartibida ko'rib chiqishni o'tkazadigan shaxs – hisobotni (xulosani) tayyorlashda kelishuv jamoasi tomonidan chiqarilgan muhim mulohazalar va erishilgan xulosalarni ob'ektiv baholash uchun yetarli va tegishli tajribaga va vakolatlarga ega partnyor, auditorlik tashkilotidagi boshqa shaxs, tegishli malakaga ega bo'lgan tashqi mutaxasislar; yoki kelishuv jamoasining a'zosi bo'lmagan shaxslardan tashkil topgan guruh.

⁹ "Kelishuv partner," "partner," va "auditorlik tashkiloti" atamalari tegishli holatlarda davlat sektorida qo'llaniladigan ekvivalent atamalar ma'nosida qatalishi kerak.

Kelishuv jamoasi – Kelishuvni bajaradigan barcha partnyorlar va xodimlar, shuningdek auditorlik tashkiloti (firma) yoki tarmoq auditorlik tashkiloti tomonidan jalb qilingan va kelishuv tartib-taomillarini bajaradigan har qanday shaxs. Ushbu jamoa tarkibiga auditorlik tashkiloti (firma) tomonidan jalb etilgan tashqi mutaxassislar kirmaydi.¹⁰

Tadbirkorlik sub'ektida o'rnatilgan risklarni baholash jarayoni – ichki nazorat tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, moliyaviy hisobot maqsadlari bilan bog'liq faoliyat yuritish risklarini aniqlashga yo'naltirilgan, shuningdek tadbirkorlik sub'ekti tomonidan ushbu risklar va ularning yuzaga keladigan oqibatlariga nisbatan choralar qabul qilish jarayonidir.

Ekologik masalalar

(a) atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni oldini olish, kamaytirish yoki to'g'rilashga, yohud qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan xarakatlar (bunday xarakatlar bajarilishi qonunchilik, nazorat, shartnomalari talablariga muvofiq yoki o'z hoxishiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin);

(b) atrof muhitni saqlash to'g'risidagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablarini buzish oqibatlari;

(v) atrof muhitga yetkazilgan zarar oqibatlarining insonlarga yoki tabiiy resurslariga ta'siri; va

(g) qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tomonlar uchun yuklatilgan mas'uliyat oqibatlari (masalan, oldingi mulkdorlar tomonidan yetkazilgan zararlar uchun javobgarlik). *Atrof-muhitni saqlash to'g'risidagi hisobot* – Moliyaviy hisobotdan tashqari uchinchi tomonlarga tadbirkorlik sub'ektining atrof-muhitni saqlash sohasidagi majburiyatlar, ushbu yo'nalish bo'yicha siyosatlari va maqsadlari, ekologik riskni va biznes jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni boshqarishda erishilgan yutuklari to'g'risidagi sifat ma'lumotlari va atrof-muhitni saqlash borasidagi faoliyat natijalari haqidagi miqdoriy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobot.

¹⁰ AXS 620 "Auditor tomonidan jalb qilingan eksperti ishidan foydalanish". (a) bandida "auditor tomonidan jalb qilingan ekspert" atamasi ta'ntlangan.

Ekologik risk – ma'lum bir holatlarda audit o'tkazishning umumiyligini tuzish jarayonida ajratib bo'lmaydigan riskni baholash bilan bog'liq omillar ekologik masalalar tufayli moliyaviy hisobotdag'i muhim buzib ko'rsatishlar riskini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Xato – Moliyaviy hisobotdag'i ataylab qilinmagan buzib ko'rsatish, jumladan moliyaviy hisobot tuzishda ochib berilishi talab etiladigan ma'lumotlarni yoki qandaydir summalarни qoldirib ketish.

Baholashning noaniqligi – Hisoblab chiqilgan bahoni va u bilan bog'liq bo'lgan ochib ko'rsatiladigan ma'lumotni baholashda yetarli darajada aniqlik bo'lmasligi.

Baho berish - Tegishli masalalarni aniqlash va tahlil qilish, jumladan masala yuzadidan aniq xulosani shakllantirish maqsadida kerakli tartib-taomillarni bajarish. "Baho berish" atamasi odatda faqatgina ma'lum bir masalalarga, dalillar, rusum-qoidalarini bajarish natijalari, aniqlangan risklarga nisbatan rahbariyat choralarini samaradorligi kabi masalalarga nisbatan qo'llaniladi.

Tafovutlar - tasdiqlanishi lozim bo'lgan yoki tadbirkorlik sub'ekting buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlari bilan tasdiqlovchi tomon taqdim etgan ma'lumotlari o'ttasida farq mavjudligini ifodalovchi javob.

Tajribali auditor - Auditorlik tashkiloti (firma)da faoliyat ko'rsatadigan yoki chetdan jalb qilingan audit o'tkazish tajribasiga ega va

- (a) audit jarayonlari;
- (b) AXS va tegishli huquqiy-me'yoriy talablar;
- (v) tadbirkorlik sub'ekti faoliyat yuritadigan biznes muhiti; va
- (g) tadbirkorlik sub'ekti faoliyat yurgizayotgan iqtisodiyot tarmog'iga tegishli audit o'tkazish va moliyaviy hisobotlar tuzish masalalari to'g'risida yetarli bilimlarga ega bo'lgan shaxs.

Ekspert – (Auditor tomonidan jalb etilgan ekspert va Rahbariyat tomonidan jalb etilgan ekspert ga karang).

Kashbiy bilimlar va tajriba – Ma'lum bir sohada bilim, ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lish

Tashqi tasdiqnomasi – Auditor tomonidan uchinchi shaxslardan (tasdiqlovchi tomonidan) bevosita yozma javob ko'rinishida qog'oz yoki

elektron shaklida yohud boshqa vositalar yordamida olingan auditorlik dalili.

Haqqoniy taqdim qilish asosi – (Moliyaviy hisobotni taqdim qilish uchun qo'llaniladigan asos yoki Umumiy maqsadli kontseptual asos ga qarang)

Moliyaviy hisobotlar – tadbirkorlik sub'ekti iqtisodiy resurslari yoki majburiyatlarining ma'lum bir sanaga bo'lgan holati yoki ma'lum bir davr mobaynidagi o'zgarishlari to'g'risida moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosiga muvofiq axborot berishga qaratilgan tarixiy moliyaviy ma'lumotlar va ular bilan bog'liq izohlarning strukturalashgan ifodasidir. Izohlar odatda ahamiyatli hisob siyosatining qiska mazmuni va boshqa tushuntirish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. "Moliyaviy hisobot" atamasi moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosi talablari bilan belgilangan moliyaviy hisobtlarning to'liq to'plamini nazarda tutadi, ammo alohida olingan moliyaviy hisobotni ham ifodalashi mumkin.

Auditorlik tashkiloti (firma) – Professional buxgalter-amaliyotchilardan (*auditorlardan*) tashkil topgan yakka tartibdagi tadbirkor, shirkat yoki aktsionerlik jamiyat yoki boshqa tashkiliy shakldagi tadbirkorlik sub'ekti.

Prognoz – Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan kutilayotgan kelgusidagi voqealarga, shuningdek ma'lumotni tayyorlash sanasiga qilinishi mo'ljallanayotgan xarakatlarga taaluqli taxminlar asosida tayyorlangan perspektiv moliyaviy ma'lumotdir (eng aniq baxolashlarga asoslangan taxminlar).

Firibgarlik – Rahbariyat, boshqaruvi yuklatilgan shaxslar, xodimlar yoki uchinchi shaxslar orasidan bitta yoki bir nechta shaxslar tomonidan aldash yo'li bilan noxaqqoni yoki noqonuniy manfaat ko'rish maqsadida ataylab qilinadigan xarakat.

Firibgarlik riski omillari – Firibgarlikni rag'batlantiruvchi yoqi sodir etishga majburlovchi yohud firibgarlik qilish imkoniyatini yuzaga keltiruvchi voqealar va sharoitlar.

Firibgarlik bilan tuzilgan moliyaviy hisobot – Moliyaviy hisobotdan foydanuvchilarni chalg'itish maqsadida moliyaviy hisobotdagi faktlarni

ataylab buzib ko'rsatish, shu jumladan moliyaviy hisobot tuzishda olib ko'rsatilishi talab etiladigan ma'lumotlarni yoki summalarini kiritmaslik.

Axborot texnologiyalari (AT) umumiylar nazoratlari —Axborot tizimlarining davomiy ravishda to'g'ri faoliyat yuritishini ta'minlashda yordam ko'rsatuvchi ko'plab dasturiy ilovalarga tegishli bo'lgan va dasturiy ilova nazoratlarining samarali ishlashini ta'minlovchi siyosatlar va jarayonlar. Umumiylar AT nazoratlari odatda: ma'lumotlar markazi va komp yuter tarmog'i operatsiyalari; operatsion tizim uchun dasturiy ta'minotni sotib olish, o'zgartirish va ta'mirlash; kompyuterlardan beruxsat foydalanishdan himoyalash; va dasturiy ilovani sotib olish, ishlab chiqish va ta'mirlash masalalari ustidan nazoratlarni o'z ichiga oladi.

Umumiylar foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlar—Umumiylar maqsadli asosga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar.

Umumiylar maqsadli asos — Keng miqyosdagi foydalanuvchilarning moliyaviy ma'lumotlarga bo'lgan umumiylar talablarini qondirish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotni taqdim etish asosi. Moliyaviy hisobotni taqdim etish asosi haqqoniy taqdim etish asosi yoki muvofiqlik asosi bo'lishi mumkin. "Haqqoniy taqdim etish asosi" iborasi shunday moliyaviy hisobotni taqdim etish asosiga nisbatan qo'llaniladi-ki, u mazkur asos qoidalariga muvosiflikni talab etadi va:

(a) Moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim etish maqsadiga erishish uchun mazkur asosda maxsus nazarda tutilganlardan tashqari ma'lumotlar rahbariyat tomonidan olib ko'rsatilishini talab etilishi mumkinligini bevosita tan oladi yoki nazarda tutadi; yoki

(b) Moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim etish maqsadiga erishish uchun rahbariyat mazkur asos talablaridan chetga chiqishi talab etilishi mumkinligini bevosita tan oladi. Bunday chetga chiqishlar faqatgina zarur vaziyatlardagina talab etilishi mumkin.

"Muvofiqlik asosi" iborasi shunday moliyaviy hisobotni taqdim etish asosiga nisbatan qo'llaniladi-ki, u mazkur asos qoidalariga muvosiflikni talab etadi, biroq yuqorida (a) yoki (b)da keltirilgan e'tiroflarni o'z ichiga olmaydi¹¹.

¹¹ AXS 200. (3ta band)

Boshqaruv— tadbirkorlik sub'ekti tomonidan hisobot berilishi bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar hamda uning faoliyati strategik yo'nalishini nazorat qilish javobgarligi yuklatilgan shaxs (-lar) yoki tashkilot (-lar) axamiyatini ta'riflaydi.

Guruh—Moliyaviy ma'lumotlari guruh moliyaviy hisobotlariga kiritilgan barcha bo'linmalar. Guruh har doim bittadan ortiq komponentga ega.

Guruh auditi—Guruh moliyaviy hisobotlarining audit.

Guruh auditi bo'yicha fikr— Guruh moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorlik fikri.

Guruh auditi bo'yicha kelishuv partnyori— Auditorlik tashkilotidagi (firmadagi) guruh auditi bo'yicha kelishuv va uning bajarilishi, hamda guruhning moliyaviy hisobotlari bo'yicha auditorlik tashkiloti (firma) nomidan chop etiladigan auditorlik hisobotiga (xulosasiga) mas'ul bo'lgan partnyor yoki boshqa shaxs. Guruh auditi birgalikdagi auditorlar tomonidan o'tkazilganda, qo'shma kelishuv bo'yicha partnyorlar va ularning jamoalari birgalikda guruh kelishuvi partnyori va guruh kelishuvi jamoasini tashkil qiladi.

Guruh auditi bo'yicha kelishuv jamoasi— Guruh auditi bo'yicha umumiyligi strategiyani belgilaydigan, guruhga kiradigan komponentlarning auditorlari bilan muloqot qiladigan, jamlash jarayoni bo'yicha ish yuritadigan, va guruh moliyaviy hisobotlari bo'yicha fikr hosil qilish uchun asos bo'lgan auditorlik dalillaridan kelib chiqqan xulosalarni tahlil qiladigan xodimlar va guruh auditi bo'yicha kelishuv partnyorini o'z ichiga olgan partnyorlar.

Guruh moliyaviy hisobotlari — Bittadan ortiq bo'lgan komponentlarning moliyaviy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan moliyaviy hisobotlar. "Guruh moliyaviy hisobotlari" atamasi shuningdek Bosh tashkilotga ega bo'lmagan, ammo umumiyligi boshqaruv ostida bo'lgan komponentlar tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni o'z ichiga olgan jamlangan moliyaviy hisobotlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Guruhboshqarushi—Guruhmoliyaviy hisobotlarining tayyorlanishiga mas'ul bo'lgan boshqaruv.

Guruhlararo nazorat— Guruh boshqaruvi tomonidan guruhning moliyaviy hisobotlarini taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan, amalga oshirilgan va qo'llangan nazorat.

Tarixiy moliyaviy ma'lumotlar— o'tgan davrlarda sodir bo'lgan iqtisodiy hodisalar to'g'risida yoki oldingi davrning ma'lum paytalaridagi iqtisodiy sharoitlar va holatlar to'g'risida ma'lum tadbirkorlik sub'ektiga tegishli bo'lgan va asosan uning buxgalteriya hisobi tizimidan olingan, moliyaviy tusdagi ma'lumotlar.

Ziddiyatlik—Audit qilingan moliyaviy hisobotlarda qaramaqshiliiklar keltirilgan boshqa ma'lumot. Muhim ziddiyatliliklar oldin qo'lga kiritilgan auditorlik dalillari asosida shakllangan auditorning xulosalari to'g'risida va, ehtimol, moliyaviy hisobotlar bo'yicha berilgan auditorlik fikrining asosi to'g'risida shubha uyg'otishi mumkin.

*Mustaqillik*¹²—quyidagilarni qamrab oladi:

- (a) Fikr mustaqilligi - shaxsga professional skeptitsizm, halollik va xolislik bilan ish tutishiga, professional mulohazaga dog' tushiradigan ta'sir ostida bo'lmagan fikr bildirishiga imkon beradigan fikr yurgizish holati.
- (b) Xatti-harakat mustaqilligi —zurur ma'lumotga, shuningdek qo'llanilayotgan ehtiyoj choralarini to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lgan idrokli va xabardor uchinchi tomon auditorlik tashkiloti (firma) yoki ishonch bildirish bo'yicha jamoa a'zosining professional skeptitsizmi, halolligi va xolisligiga dog' tushirilgan degan xulosaga kelishi mumkin bo'lgan ahamiyatli fakt va hollarga yo'l qo'ymaslik.

Moliyaviy hisobotni taqdim qilishga tegishli axborot tizimi— moliyaviy hisobotni taqdim qilish tizimini qamrab olgan ichki nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, tadbirkorlik sub'ektining operatsiyalarini (shuningdek hodisalar va sharoitlarni) boshlash, qayd qilish, qayta ishlash va hisobotda taqdim etish uchun hamda tegishli aktivlar, majburiyatlar va kapitalning buxgalteriya hisobini yuritish uchun mo'ljalangan jarayonlardan va yozuvlardan iborat.

Ajratib bo'lmaydigan risk—(“muhim buzib ko'rsatish riski” ga qarang.)

Dastlabki audit kelishuvi—shunday bir audit kelishuviki, bunda:

- (a) Oldingi davr moliyaviy hisobotlari audit qilinmagan; yoki
- (b) Oldingi davr uchun moliyaviy hisobotlar oldingi auditor tomonidan audit qilingan.

Rasmiy so'rov — So'rov tadbirkorlik sub'ektiga tegishli yoki undan tashqaridagi xabardor shaxslardan moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni izlashdan iborat.

Tekshiruv (audit tartib-taomili sifatida)— ichki yoki tashqi, qog'oz shaklidagi, elektron shakldagi yoki boshqa axborot vositalaridagi yozuvlar yoki hujjatlarni tekshirish yoki aktivlarni tekshirish.

Tekshiruv (sifat nazoratiga nisbatan)— oxiriga yetkazilgan kelishuvlarga nisbatan, kelishuv jamoalari auditorlik tashkilotning sifat nazorati siyosati va tartib-taomillariga rivoja qilganliklari tasdig'ini ta'minlashga mo'ljallangan tartib-taomillar.

Mo'ljallangan foydalanuvchilar— shunday shaxs, shaxslar yoki shaxclar guruhi-ki, ular uchun buxgalter-amaliyotchi ishonch bildirish to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi. Mas'ul tomon yagona foydalanuvchi bo'lmagan holda *mo'ljallangan foydalanuvchilardan* biri bo'la oladi.

Oraliq moliyaviy ma'lumotlar yoki hisobotlar — Moliyaviy davrning oraliq sanalariga (odatda yarim yillik yoki choraklik) chop etilgan moliyaviy ma'lumot (yuqorida ta'riflangan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plamidan kamroq bo'lishi mumkin).

Ichki audit xizmati—Tadbirkorlik sub'ektida xizmat sifatida tashkil etilgan yoki ta'minlangan baholash faoliyatidir. Uning vazifalariga, boshqa vazifalar qatorida, ichki nazoratning mosligi va samaradorligini tekshirish, baholash va monitoring qilish kiradi.

Ichki auditorlar—Ichki audit xizmati faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxslar. Ichki auditorlar ichki audit bo'limi yoki shu vazifani bajaradigan bo'linma tarkibida ishlashi mumkin.

Ichki nazorat—Moliyaviy hisobotning ishonchligi, faoliyatning natijaliligi va samaradorligi hamda qonunchilik va qonun hujjalarga mosligiga qaratilgan tadbirkorlik sub'ektining maqsadlari erishilishiga oqilonalarajada ishonch bildirishni ta'minlash uchun boshqaruva yuklatilgan shaxslar, rahbariyat va boshqa xodimlar tomonidan ishlab

chiqiladigan, amalga oshiriladigan va yuritiladigan jarayon. "Nazoratlar" atamasi ichki nazoratning bir yoki undan ortiq tarkibiy qismalarining har qanday jihatlariga tegishlidir.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari— Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standartlari Kengashi tomonidan nashr etiladi.

O'rganib chiqish—Boshqa tartib-taomillardan yuzaga kelgan masalalarning yechimini topish uchun tadqiq qilish.

Axborot texnologiyalari muhiti (AT muhiti)—Biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash va biznesning strategik maqsadlariga erishish uchun tadbirkorlik sub'ekti tomonidan amalga oshiriladigan siyosatlar va tartib-taomillar hamda AT infratuzilmasi (uskunalar, operatsion tizim, va h.k.) va amaliy dasturiy ta'minot.

Cheklangan ishonch bildirish bo'yicha kelishuv — (Ishonch bildirish bo'yicha kelishuvga qarang)

Listingdagi tadbirkorlik sub'ekti—Aktsiyalari, ulushli yoki qarz qimmatbaho qog'ozlari tan olingan fond birjasida kotirovka qilingan yoki ro'yxatdan o'tgan, yoki tan olingan fond birjasining yoki boshqa tengdosh tashkilotning qoidalariga asosan savdo qilinadigan tadbirkorlik sub'ekti.

Rahbariyat— Tadbirkorlik sub'ekti faoliyatini amalga oshirish bo'yicha ijro mas'uliyatiga ega shaxs(lar). Ba'zi qonunchiliklarda ayrim tadbirkorlik sub'ektlari uchun, rahbariyat boshqaruvi yuklatilgan shaxslarning ba'zilarini yoki barchasini nazarda tutadi, masalan, boshqaruvi kengashining ijrochi a'zolari yoki kompaniyaning boshqaruvchi-egasi.

Rahbariyatning noxolisligi — Ma'lumot tayyorlashda rahbariyatda betaraflikning yetishmasligi (mavjud emasligi).

Rahbariyat tomonidan jalb qilingan ekspert— Tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda tadbirkorlik sub'ekti ular ishlardan yordam sifatida foydalananadigan buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lgan jismoniy shaxs yoki tashkilot.

Rahbariyat tomonidan qat'iy baholash—Rahbariyat tomonidan moliyaviy hisobtlarda tan olish yoki ochib berish maqsadida hisoblab chiqilgan baho sifatida tanlangan qiymat.

Aktivlarni noqonuniy ravishda o'zlashtirish—Tadbirkorlik sub'ekti aktivlarining o'g'irlanishini o'z ichiga oladi va asosan xodimlar tomonidan nisbatan kichik va muhim bo'lmagan qiymatda amalga oshiriladi. Biroq, unda, aktivlar noqonuniy o'zlashtirilgan ekanligini aniqlashni murakkablashtiradigan qilib yashirish yoki chalg'itishga odatda ko'proq imkoniyatga ega bo'lган rahbariyat ham qatnashgan bo'lishi mumkin.

Buzib ko'rsatish — Moliyaviy hisobot moddasining qiymati, tasniflanishi, taqdim etilishi yoki ochib berilishi bilan ushbu moddaning o'rnatilgan tartibda moliyaviy hisobotni taqdim etishga muvofiq qiymati, tasniflanishi, taqdim etilishi va ochib berishi o'rtasidagi farq. Hisobotda buzib ko'rsatish xato yoki siribgarlik natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Auditor moliyaviy hisobotlarning, barcha muhim jihatlarda haqqoniy taqdim etilganligi yoki to'g'ri va haqqoniy tasavvur berishi to'g'risida o'z fikrini bildirgan taqdirda, buzib ko'rsatishlar auditorning fikri bo'yicha moliyaviy hisobotlarning, barcha muhim jihatlarda haqqoniy taqdim etilganligi yoki to'g'ri va haqqoniy tasavvur berishi uchun zarur bo'lган qiymatlar, tasniflar, taqdimotlar va ochib berishlar bo'yicha tuzatishlarni o'z ichiga oladi.

Faktni buzib ko'rsatish — Audit tekshiruvidan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlardagi masalalarga aloqasi bo'lmagan noto'g'ri ko'rsatilgan yoki taqdim etilgan boshqa ma'lumot. Faktning muhim buzib ko'rsatilishi audit tekshiruvidan o'tkazilgan moliyaviy hisobotni o'z ichiga olgan hujjatning ishonchlilikiga putur yetkazishi mumkin.

Modifikatsiya qilingan fikr — qo'shimcha izohlar bilan fikr, salbiy fikr yoki fikr bildirishdan bosh tortish.

Monitoring (sifat nazoratiga nisbatan) — Auditorlik tashkiloti (firma)ning sifat nazorati tizimi samarali ishlayotganligi to'g'risida oqilona ishonch xosil qilish maqsadida sifat nazoratini doimiy qayta ko'rib chiqish va baholashni, shu jumladan davriy ravishda tanlangan tugatilgan kelishuvlarni tekshirishni o'zida namoyon etgan jarayon.

Nazoratlar monitoringi— Belgilangan davr mobaynidagi ichki nazorat faoliyatining samaradorligini baholash jarayoni. U nazorat vositalarining mazmuni va faoliyatini o‘z vaqtida baholash va vaziyatlarning o‘zgarishiga moslashtirilgan zaruriy tuzatuvchi xarakatlarni boshlashni o‘z ichiga oladi. Nazorat vositalari monitoringi ichki nazoratning tarkibiy qismidir.

Salbiy tasdiq talabnomasi— Tasdiqlovchi tomon talabnomada ko‘rsatilgan ma’lumotga nisbatan rozi bo‘lmanida, tasdiqlovchi tomon to‘g‘ridan-to‘g‘ri auditorga javob yo‘llashini talab qilish. *Tarmoq*—: (a) Hamkorlikka yo‘naltirilgan, va

(b) Aniq ravishda foyda yoki harajatlarni bo‘lishishga, yoki umumiyligini egalik, nazorat yoki boshqaruv ostida bo‘lgan, umumiyligini sifat nazorati siyosatlari va tartib-taomillariga, umumiyligini biznes strategiyaga ega, umumiyligini savdo belgisidan foydalanishni, yoki professional resurslarning yirik qismidan birgalikda foydalanishga yo‘naltirilgan yirikroq tuzilma.

Tarmoq tashkiloti— Tarmoqqa tegishli tashkilot yoki tadbirkorlik sub‘ekti.

Rioya qilmaslik (AXS 250¹³ tahririda)— Tadbirkorlik sub‘ektining amaldagi qonun va qonun hujatlarga zid ravishda atayin yoki bilmagan holda harakat qilishi yoki harakat qilmasligi. Bunday harakatlarga tadbirkorlik sub‘ekti tomonidan yoxud tadbirkorlik sub‘ekti nomidan amalga oshirilgan yoki tadbirkorlik sub‘ekti nomidan uning rahbariyati, boshqaruvi yuklatilgan shaxslar yoki xodimlari tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar kiradi. Rioya qilmaslik tadbirkorlik sub‘ektining boshqaruvi yuklatilgan shaxslar, rahbariyati hamda xodimlarining (tadbirkorlik sub‘ekti biznesi faoliyatiga aloqasi bo‘lman) shaxsiy yomon hulq-atvorini o‘z ichiga olmaydi.

Javob bermaslik— Tasdiqlovchi tomon ijobiyligi tasdiq talabiga javob bermasligi, yoki to‘liq javob bermasligi, yoki tasdiq talabi manzilga yetkazilmay qaytib kelishi.

Tanlashga bog‘liq bo‘lman riski — Auditorning tanlash riskiga bog‘liq bo‘lman boshqa sabablarga ko‘ra xato xulosaga kelishi riski.

¹³ AXS 250 “Mehyariv hisobotlar auditida qonunchilik va me’yoniy hujatlarni c’tiboga olish”

Kuzatuvi— Boshqalar tomonidan bajariladigan jarayon yoki tartib-taomilni kuzatishdan iborat, masalan, auditor tadbirkorlik sub'ekti xodimlari tomonidan tovar-moddiy zaxiralarini sanab chiqilishini yoki nazorat faoliyatini amalga oshirilishini kuzatishi.

Boshlang'ich qoldiqlar— Schyotlardagi davr boshiga mavjud bo'lgan qoldiqlar. Boshlang'ich qoldiqlar oldingi davrning yakuniy qoldiqlariga asoslangan bo'ladi va oldingi davrlardagi operatsiyalar va hodisalarning hamda oldingi davrda qo'llanilgan hisob siyosati natijalarini aks ettiradi. Boshlang'ich qoldiqlar davr boshida mavjud bo'lgan, ochib berishni talab etadigan masalalarni ham o'z ichiga oladi, masalan xo'jalik faoliyatining shartli voqealarini va majburiyatlar.

Boshqa ma'lumot— Audit qilingan moliyaviy hisobotlar va ular bo'yicha auditorlik fikrini o'z ichiga olgan hujjatga qonun, qonun hujjat, yoki bojxona talablariga binoan kiritilgan (moliyaviy hisobotlar va ular bo'yicha auditorlik hisobotidan (xulosasidan) tashqari) moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar.

Boshqa masala paragrafi— Auditor fikriga ko'ra foydalanuvchilar auditni, auditor javobgarligini yoki auditorlik hisobotini (xulosasini) tushunishi uchun ahamiyatli bo'lgan, moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan yoki ochib berilgan ma'lumotlardan tashqari masala bo'yicha auditorlik hisoboti (xulosasi) ga kiritilgan paragraf.

Hisoblab chiqilgan baho natijasi— Hisoblab chiqilgan baho uchun asos bo'lgan operatsiya(lar), hodisa(lar) yoki vaziyatlarning hal etilishi natijasida yuzaga kelgan, pulda ifodatlangan haqiqiy qiymat.

Umumiy audit strategiyasi— Auditning ko'lami, muddati va yo'nalishini belgilaydi, va audit rejasini yanada batafsilroq ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Partnyor— Professional xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kelishuvni bajarishga oid majburiyatlarni auditorlik tashkiloti (firma) nomidan olish vakolatiga ega bo'lgan har qanday shaxs.

Muhimlilik chegarasi— Tuzatilmagan va topilmagan buzib ko'rsatishlarning umumiy yig'indisi moliyaviy hisobot uchun o'rnatilgan muhimlik darajasidan oshib ketishi ehtimolini maqbul bo'lgan past darajagacha kamaytirish maqsadida auditor tomonidan moliyaviy hisobot

uchun umumiyl o'rnatilgan muhimlik darajasidan kamroq qilib o'rnatilgan summa yoki summalar. Talabga qarab, operatsiyalar, schyotlar qoldiqlari yoki ochib beradigan ma'lumotning ayrim turkumlari bo'yicha o'rnatilgan muhimlik darajasi yoki darajalaridan auditor tomonidan kamroq qilib o'rnatilgan summa yoki summalar ham muhimlik chegarasi deb ataladi.

Xodimlar—Partnyorlar va xodimlar.

Keng qamrovli —Ushbu atama, buzib ko'rsatishlarga nisbatan qo'llanilib, buzib ko'rsatishlarning moliyaviy hisobotga ta'sirini yoki auditorlik dalillariga tegishli va ularni yetarli toplashning imkonini mavjud emasligi sababli topilmagan har qanday buzib ko'rsatishning moliyaviy hisobotga o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'sirini ta'riflash uchun foydalaniladi. Moliyaviy hisobotlarga keng qamrovli ta'sir deb, auditorning fikri bo'yicha, quyidagilar hisoblanadi:

- (a) Maxsus elementlar, schyotlar yoki moliyaviy hisobotlarning moddalari bilan chegaralanmagan;
- (b) Agar chegaralangan bo'lsa, moliyaviy hisobotlarning salmoqli qismini kamrab oladigan yoki kamrab olishi mumkin bo'lgan; yoki
- (v) Ochib berishga nisbatan, foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotni tushunushi uchun fundamental bo'lgan ta'sir.

Jamlanma— tanlash amalga oshiriladigan va unga nisbatan auditor xulosa chiqarishni xohlaydigan ma'lumotlarning to'liq to'plami.

Ijobiy tasdiq talabnomasi— Tasdiqlovchi tomon talabnomada ko'rsatilgan ma'lumot bilan rozi yoki rozi emasligini, yoki talab etilgan ma'lumotni taqdim qilishini ko'rsatadigan tasdiqlovchi tomonning to'g'ridan-to'g'ri auditorga javob yo'llashini talab qilish.

Buxgalter-amaliyotchi (auditor) — Professional buxgalter-amaliyotchi.

Audit o'tkazilishi uchun dastlabki shartlar—Moliyaviy hisobotlar tayyorlanishida rahbariyat tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asos qo'llanilishi hamda rahbariyatning va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslarning audit o'tkazilishining dastlabki sharti¹⁴ bilan roziligi.

¹⁴ AXS 200. 13 band

Oldingi auditor— Tadbirkorlik sub'ektining oldingi davr uchun moliyaviy hisobotlarining auditini o'tkazgan va joriy auditorga almashtirilgan boshqa auditorlik tashkilotining auditori.

Rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslarning mas'uliyati bilan bog'liq bo'lган va audit o'tkazilishi uchun bajarilishi lozim bo'lган daslabki shart — Ya'ni rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslar AXSlarga muvofiq audit o'tkazilishi uchun fundamental bo'lган quyidagi mas'uliyatga ega ekanliklarini tan oladi va tushunadi. Bu mas'uliyat:

(a) Moliyaviy hisobotlar moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq tayyorlanishi, shu jumladan tegishli hollarda moliyaviy hisobotning haqqoniy taqdim etilishi uchun;

(b) Firibgarlik yoki xato yuzasidan muhim buzib ko'rsatishlardan xoli bo'lган moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan zarur deb belgilangan ichki nazorat; va

(v) Auditorni quyidagilar bilan ta'minlash:

Rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslarga ma'lum bo'lган moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun o'rinli deb hisoblanadigan barcha ma'lumotlar, masalan yozuvlar, hujjatlar va boshqa ma'lumotlardan, foydalanish imkoniyati;

Auditni o'tkazish maqsadida rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shaxslardan auditor talab etishi mumkin bo'lган qo'shimcha ma'lumotlar; va

Auditorning belgilashicha, auditorlik dalillar olinishi zarur bo'lган tadbirkorlik sub'ekti ichidagi shaxslar bilan cheklovsiz muloqot qilish imkoniyati.

Moliyaviy hisobot haqqoniy taqdim etish asosiga muvofiq tayyorlanganida yuqoridagi (a) bandi quyidagicha ifoda etilishi mumkin “moliyaviy hisobotni taqdim etish asosiga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va haqqoniy taqdim etish” yoki “moliyaviy hisobotni taqdim etish asosiga muvofiq holda to'g'ri va haqqoniy taqdimotni ta'minlaydigan moliyaviy hisobotni tayyorlash”.

“Rahbariyat va tegishli hollarda boshqaruv yuklatilgan shasxlarning mas’uliyati bilan bog’liq bo’lgan va audit o’tkazilishi uchun bajarilishi lozim bo’lgan dastlabki shart” ham “dastlabki shart” deb atalishi mumkin.

*Professional buxgalter*¹⁵—Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasiga a’zo bo’lgan tashkilot a’zosi hisoblangan shaxs.

*Professional buxgalter-amaliyotchi*¹⁶— Professional xizmatlar qo’rsatadigan tashkilotning funksional tasnifidan qat’iy nazar (masalan, audit, soliqqa tortish yoki konsalting), professional buxgalteri. Ushbu atama shuningdek professional buxgalterlarni birlashtiruvchi tashkilotga nisbatan ham qo’llaniladi.

Professional murohaza— Audit kelishuvi bo'yicha vaziyatda o'rinti amallar va chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qarorlarni qabul qilish maqsadida buxgalteriya hisobi, audit yoki axloq standartlari doirasida tegishli malaka, bilim va tajribani qo'llash.

Professional skeptitsizm (shubha bilan qarashlik)— Xato yoki siribgarlik sababli yuzaga kelishi mumkin bo’lgan buzib ko’rsatish to'g'risida dalolat beradigan shart-sharoitlar mavjudligi yuzasidan skeptik fikr-hayol yuritish, anglash va dalillarni tanqidiy baholash orqali yondashish.

Professional standartlar— Auditning Xalqaro Standart (AXS)lari va tegishli(mos) ahloqiy talablar.

Professional standartlar (SNXS(1-chi sifat nazoratining xalqaro standarti nuqtai nazaridan¹⁷)— Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari bo'yicha Kengash (XAIBSK)ning Sifat nazorati, Audit, Ko’rib chiqish, Boshqa ishonch bildirish va Turdosh xizmatlar bo'yicha Xalqaro Standartlariga Muqaddimada ta’riflab berilgan XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari, va tegishli(mos) axloqiy talablar.

Perspektiv baholash— Quyidagilarga asoslanib tayyorlangan perspektiv moliyaviy axborot:

А) Kelajakdagи voqealar va amalga oshishi mumkin bo’lgan, ammo kelajakda amalga oshmasligi mumkin bo’lgan rahbariyat xarakatlariiga

¹⁵ BXASK Professional Buxgalterlar uchun Axloq Kodeksida ta’riflangan

¹⁶ BXASK Professional Buxgalterlar uchun Axloq Kodeksida ta’riflangan

¹⁷ SNXS 1 «Moliyaviy hisobdar audit va ularni korib chiqish, ishonch bildirish va boshqa turdosh xizmatlar bo'yicha kelishuvlarni bajaruvchi auditorlarning tashkilotlarida sifat nazorati”

nisbatan gipotetik taxminlar, masalan, agarda ayrim tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati boshlang'ich bosqichda bo'lganda yoki o'z faoliyatida muxim o'zgarishlar qilayotganda; yoki

b) Eng aniq baholangan taxminlar bilan gipotetik taxminlarning birlashishi.

Perspektiv moliyaviy axborot—Kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar va tadbirkorlik sub'ekti tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xarakatlar to'g'risidagi taxminlarga asoslangan moliyaviy axborot. Perspektiv moliyaviy axborot prognoz, perspektiv baholash yoki ikkalasining birlashmasi ko'rinishida keltirilishi mumkin. (*Prognoz va Perspektiv baholashga qarang*)

Davlat sektori—Milliy hukumat, hududiy (masalan, viloyat, tuman yoki hududiy) xokimiyatlar, mahalliy (masalan shahar) xokimiyatlari va ular bilan bog'liq davlat sub'ektlari (masalan, agentliklar, qo'mitalar, komissiyalar va korxonalar).

Oqilona (darajada) ishonech bildirish (audit bo'yicha kelishuvlar va sifat nazorati nuqtai nazaridan)—Yuqori, ammo mutloq bo'limgan durajada ishonch bildirish.

Oqilona ishonech bildirish bo'yicha kelishuv—(Ishonch bildirish bo'yicha kelishuvga qarang)

Qayta hisoblash—Hujjat va yozuvlardagi matematik to'g'rilikni tekshirishdan iborat.

O'zaro bog'liq tomonlar— quyidagi ta'riflarga mos keladigan tomonlar:

(a) Moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosda keltirilgan ta'rifga ko'ra o'zaro bog'liq tomonlar; yoki

(b) Agar moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosda o'zaro bog'liq tomonlarga nisbatan minimal talablar o'rnatilgan bo'lsa yoki umuman talablar qo'yilmasa;

Hisobot beruvchi tadbirkorlik sub'ekti ustidan bevosita yoki bir yohud bir nechta vositachi orqali bilvosita nazoratga ega bo'lgan yoki ahamiyatli ta'sir o'tkaza oladigan shaxs yoki boshqa tadbirkorlik sub'ekti;

Hisobot beruvchi tadbirkorlik sub`ektining bevosita yoki bir yohud bir nechta vositachi orqali bilvosita nazorati yoki ahamiyatli ta`siri ostida bo`lgan boshqa tadbirkorlik sub`ekti; yoki

Quyidagilar asosida hisobot beruvchi tadbirkorlik sub`ekti bilan birgalikda umumiy nazorat ostida bo`lgan boshqa tadbirkorlik sub`ekti:

a. Umumiy nazorat qilish imkoniyatini beradigan ulushlarga egalik orqali;

b. Bir-biriga yaqin qarindosh bo`lgan mulk egalari orqali; yoki

v. Umumiy bosh rahbariyatiga ega bo`lish orqali.

Ammo, umumiy davlat (milliy, hududiy yoki mahalliy) tasarruffidagi bo`lgan sub`ektlar ular jumlasiga kirmaydi, toki ular biri biriga katta miqdordagi resurslarni o`tkazmasa yoki biri biri bilan katta hajmdagi operatsiyalarni amalga oshirmasa.

Turdosh xizmatlar—Oldindan kelishilgan tartib-taomillar va kompilyatsiyalashni o`z ichiga oladi.

Tegishli(mos) axloqiy talablar—Kelishuv guruhi va kelishuv bajarilishi sifatini nazorat qiladigan shaxs rioya qilishi shart bo`lgan Buxgalterlar uchun Xalqaro Axloq Standartlari bo`yicha Kengashning *Professional Buxgalterlar uchun Axlok Kodeksidagi A va B qismlarida ta`riflangan* va shu bilan birgalikda undan ko`ra qat`iy bo`lgan milliy talablardan iborat axlokiy talablar.

Qayta bajarish— Auditor tomonidan tadbirkorlik sub`ektining ichki nazorat tizimi doirasida oldindan amalga oshirilgan tartib-taomillar yoki nazorat chora-tadbirlarini mustaqil tarzda bajarishi.

Xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlarda nazorat vositalarining bayoni va tashkil qilinishi haqida hisobot (xulosa) (AXS 402¹⁸da 1-chi turdag'i hisobot deb ta`riflangan)—O`z ichiga quyidagilarni oladigan hisobot:

(a) Xizmat ko`rsatuvchi tashkilotning tizimi, nazorat maqsadlari va belgilangan sanaga tashkil etilgan va o`rnatilgan tegishli nazorat vositalari to`g`risida ushbu tashkilot rahbariyati tomonidan tayyorlangan bayoni; va

¹⁸ AXS 402 «Xizmat korsatuvchi tashkifotlar xizmatlardan foydalananligi tadbirkorlik sub`ektlari zoditini okazishligilari»

(b) Xizmat ko'rsatish sohasi auditorining xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tizimi, nazorat maqsadlari va nazorat vositalari bayoni hamda belgilangan nazorat maqsadlariga erishish uchun tashkil qilingan nazorat vositalarining yaroqliligi to'g'risidagi auditorlik fikrini o'z ichiga olgan oqilona ishonch bildirish maqsadidagi hisoboti (xulosasi).

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarida nazorat vositalarining bayoni, tashkil qilinganligi va operatsion samaradorligi haqida hisobot (xulosasi) (AXS 402da 2-chi turdag'i hisobot deb ta'riflangan)—O'z ichiga quyidagilarni oladigan hisobot:

(a) Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning tizimi, nazorat maqsadlari va tegishli nazorat vositalari, ularning belgilangan sanaga yoki belgilangan davr ichida tashkil qilinganligi va ishlatalishi, hamda ba'zi hollarda belgilangan davr davomida operatsion samaradorligi to'g'risida ushbu tashkilot rahbariyati tomonidan tayyorlangan bayoni; va

(b) O'z ichiga quyidagilarni oladigan, xizmat ko'rsatish sohasi auditorining oqilona ishonch bildirish maqsadidagi hisoboti (xulosasi):

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tizimi, nazorat maqsadlari va nazorat vositalari bayoni hamda belgilangan nazorat maqsadlariga erishish uchun tashkil qilingan nazorat vositalarining yaroqliligi va operatsion samaradorligi to'g'risidagi xizmat ko'rsatish sohasidagi auditorning fikrini; va

Xizmat ko'rsatish sohasi auditori tomonidan nazorat vositalari ustidan o'tkazilgan testlar va ular natijalari bayonini.

1. Mas'ul tomon

a) To'g'ridan-to'g'ri hisobot berish bo'yicha kelishuvlarda, o'rganilayotgan masala uchun mas'ul bo'lgan; yoki

b) Taqdimnomalarga asoslangan kelishuvlarda, o'rganilayotgan masala to'g'risida ma'lumot berishga (taqdimnomaga) mas'ul bo'lgan hamda o'rganilayotgan masala uchun mas'ul bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs (yoki shaxslar).

Mas'ul tomon bo'lib buxgalter-amaliyotchini yollagan tomon (buyurtmachi) yoki yollamagan(boshqa) tomon bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqish (sifat nazoratiga nisbatan)—Boshqalar tomonidan bajarilgan ish va xulosalar sifatiga baho berish.

Ko'rib chiqish bo'yicha kelishuv—Ko'rib chiqish bo'yicha kelishuvning maqsadi auditorga audit o'tkazilishida talab etiladigan barcha dalillarni ta'minla olmaydigan tartib-taomillar asosida, auditorning e'tiborini tortgan va moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq tayyorlanmagan degan fikrga kelishi uchun asos bo'ladigan qandaydir xolat mavjudligini aniqlash imkoniyatini berishdir.

Ko'rib chiqish tartib-taomillari—Ko'rib chiqish bo'yicha kelishuvning maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan tartib-taomillar, avvalambor, bu tadbirkorlik sub'ekti hodimlariga yo'naltirilgan so'rovlar va moliyaviy ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladigan tahliliy tartib-taomillardir.

Riskni baholash bo'yicha tartib-taomillar— Tadbirkorlik sub'ekti va uning faoliyati muhitini, jumladan, ichki nazoratini tushunish, firibgarlik yoki xato sababli muhim buzib ko'rsatish riskini moliyaviy hisobot va taqdimnomalar darajalarida aniqlash va baholash uchun bajariladigan audit tartib-taomillardir.

Muhim buzib ko'rsatish riski—Audit o'tkazilishidan oldin moliyaviy hisobotlar muhim darajada buzib ko'rsatilganligi riski. U ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, taqdimnomalar darajasida quyidagicha ta'riflanadi:

(a) Ajratib bo'lmaydigan risk— Operatsiyalar turkumi, schyotlardagi qoldiqlar yoki ochib beradigan ma'lumot to'g'risida taqdimnomanining buzilishga (noto'g'ri bo'lishga) moyilligi. Bunday buzilish nazoratning har qanday vositalarini ko'rib chiqishgacha alohida yoki boshqa buzib ko'rsatishlar bilan birga qaralganida muhim bo'lishi mumkin.

(b) Nazorat riski— Operatsiyalar turkumi, schyotlardagi qoldiqlar yoki ochib beradigan ma'lumot to'g'risida taqdimnomada yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan va alohida yoki boshqa buzib ko'rsatishlar bilan birga qaralganida muhim bo'lishi mumkin bo'lган buzib ko'rsatishning tadbirkorlik sub'ekti ichki nazorati tomonidan o'z vaqtida oldi olinmasdan, aniqlanmasdan va tuzatilmasdan qolishi riski.

Tanlash—(Auditorlik tanlashga qarang)

Tanlash riski – Tanlashga asoslangan auditorning xulosasi aynan bir xil audit tartib-taomillari butun jamlanmaga qo'llanilganida chiqariladigan

xulosadan farq qilishi riski. Tanlash riski ikki turdag'i xato xulosaga olib kelishi mumkin:

Nazorat vositalari testi holatida, nazorat vositalari haqiqatdagiga nisbatan samaraliroq degan xulosa, yoki batafsil test holatida, hisobotda haqiqatda mavjud bo'lgan muhim buzib ko'rsatish mavjud emas degan xulosa. Auditor asosan bu turdag'i xato xulosadan tashvishlanadi, chunki u auditning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi hamda noo'rin auditorlik xulosasiga olib kelishi mumkin.

Nazorat vositalari testi holatida, nazorat vositalari haqiqatdagiga nisbatan samaraliroq emas degan xulosa, yoki batafsil test holatida, hisobotda haqiqatda mavjud bo'lmagan muhim buzib ko'rsatish mavjud degan xulosa. Bunday turdag'i xato xulosa auditning samaradorligiga shunday ta'sir ko'rsatadi-ki, odatda u dastlabki hulosalarning noto'g'rilagini tasdiqlash uchun qo'shimcha ish yaratadi.

Tanlash birligi – Jamlanmani tashkil etadigan alohida moddalar.

Ko'rib chiqish miqyosi – Ko'rib chiqish maqsadlariga erishish uchun mavjud sharoitlarda zarur deb hisoblangan ko'rib chiqish tartib-taomillari.

Xizmat ko'rsatish sohasi auditori – Xizmat ko'rsatish tashkiloti ta'labiga asosan, uning nazorat vositalari bo'yicha ishonch bildirish hisoboti (xulosasi) ni taqdim qiladigan auditor.

Xizmat ko'rsatish tashkiloti – Foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy hisobotini tayyorlash bilan bog'liq axborot tizimlarining bir qismini tashkil etadigan xizmatlarni ushbu tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatadigan uchinchi-tomon tashkiloti (yoki uchinchi-tomon tashkilotining segmenti).

Xizmat ko'rsatish tashkilotining tizimi – foydalanuvchi-tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish sohasi auditorining hisobotida qamrab olingan xizmatlarni ko'rsatish maqsadida, xizmat ko'rsatish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan, joriy etilgan va qo'llanilayotgan siyosatlar va tartib-taomillar.

Ahamiyatlilik – Ma'lum holatda masalaning nisbiy muhimligi. Buxgalter-amaliyotchi masalaning ahamiyatliligin o'rganilayotgan holatdan kelib chiqib aniqlaydi. Bunga, misol tariqasida, o'rganilayotgan holat buxgalter-amaliyotchi hisobotidan mo'ljallangan foydalanuvchilar

qarorlarini o'zgartirishi yoki ushbu qarorlarga ta'sir qilishining o'rinali istiqbolini keltirish mumkin; yoki boshqa misol sifatida, o'rganilayotgan holat bo'lib masala haqida boshqaruv yuklatilgan shaxslarni xabardor qilish, ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda masala ular tomonidan muhim deb hisoblanishi yoki hisoblanmasligi to'g'risida mulohaza qilish xizmat qilishi mumkin. Ahamiyatlilik miqdor va sifat omillari nuqtai nazaridan ko'riliши mumkin, masalan, nisbiy kattaligi, mohiyati va o'rganilayotgan masalaga ta'siri va mo'ljallangan hisobotni oluvchilar yoki foydalanuvchilarning ifoda etilgan manfaatlari.

Ahamiyatli komponent – guruh auditni bo'yicha kelishuv jamoasi tomonidan aniqlangan shunday komponent-ki, (i) u alohida olinganida guruh uchun moliyaviy jihatdan ahamiyatga ega, yoki (ii) u o'zining muayyan xususiyati yoki sharoitlari tufayli, guruh moliyaviy hisobotlarida muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lishining ahamiyatli risklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki nazorat tizimining ahamiyatli kamchiligi – ichki nazorat tizimining shunday kamchiligi yoki kamchiliklar kombinatsiyasi-ki, u auditorning professional mulohazasiga ko'ra boshqaruv yuklatilgan shaxslar e'tiborini jalb etishi uchun yetarli darajada muhim deb hisoblanadi.

Ahamiyatli risk – Auditorning mulohazasiga ko'ra audit o'tkazishda alohida ko'rib chiqilishini talab etadigan, muhim buzib ko'rsatish mavjud bo'lishining aniqlangan va baholangan riski.

Kichik tadbirdorlik sub'ekti – odatda, quyidagi sifat xususiyatlariga ega tadbirdorlik sub'ekti:

Mulk egaligi va boshqaruvning kichik guruh qo'lida jamlanishi (ko'p hollarda, yakka shaxs – yoki jismoniy shaxs yoki tadbirdorlik sub'ektiga egalik qiladigan boshqa tashkilot, bunda tashkilotning egasi o'rinali sifat xususiyatlarini namoyish etadi); va

Quyidagi xususiyatlarning biriga yoki bir nechasiga ega:

Oddiy va mukammal bo'lmagan operatsiyalarni amalga oshirish;

Buxgalteriya hisobinining soddalashtirilgan tizimini yuritish;

Ko'p bo'lmagan miqdordagi biznes yo'nalishlari va biznes yo'nalishlari bo'yicha kam miqdordagi mahsulot turlari;

Ko‘p bo‘lмаган мидордаги ички назорат воститари;

Кенг ко‘ламдаги назорат воститари бо‘йича жавобгарликка ега ко‘п бо‘лмаган мидордаги босхарув дарајалари; ўзи

Ко‘п бо‘лмаган мидордаги ходимлар сони ва уларнинг ко‘пчилиги кенг ко‘ламдаги vazifalarga ega.

Ушбу сифат xусусиятларининг ro‘yxati тугал emas, ular faqatgina kichik tadbirkorlik sub‘ektlari uchun hos emas va kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining barchasi ham ushbu xусусиятларни o‘zida namoyon etishi shart emas.

Maxsus maqsadli moliyaviy hisobotlar – Maxsus maqsadli asosga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar.

Maxsus maqsadli asos – Muayyan foydalanuvchilarning moliyaviy ma‘lumotga bo‘lgan talabalarini qondirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosi. Moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosi – moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim qilish asosi yoki muvofiqlik asosi bo‘lishi mumkin.¹⁹

Xodimlar – Partnyorlardan tashqari malakali mutaxassislar, shu jumladan auditorlik tashkiloti tomonidan yollangan har qanday mutaxassis.

Statistik tanlash – quyidagi xусусиятларга ega tanlashning har qanday usuli:

tanlash moddalarining tasodifity tanlanishi; va

tanlash natijalarini baholashda, shu jumladan tanlash riskini hisoblashda, ehtimollar nazariyasidan foydalanish.

(a) va (b) dagi xусусиятларга ega bo‘лмаган tanlash usuli nostatistik tanlash sifatida inobatga olinadi.

Stratififikatsiya – jamlanmani kichik guruhlarga, уларнинг har biri o‘xshash xусусиятларга (ко‘п hollarda, monetar qiymati bo‘йича) ega bo‘lgan tanlash birliklari guruhlariga ajratish jarayoni.

O‘рганилаготган масала тоғрисидаги ма‘лумот – o‘рганилаготган масалани baholash yoki o‘lchash natijasi. Buxgalter-amaliyotchi ishonch bildirish hisobotida (xulosasida) fikr hosil qilish uchun o‘rinli asosni

¹⁹ AXS 200. 13(a)-банди

ta'minlash maqsadida o'rganilayotgan masala to'g'risida yetarlicha tegishli dalilni yig'adi.

Keyingi hodisalar – Moliyaviy hisobotlar sanasi bitan auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi o'rtaqidagi davr mobaynida sodir bo'ladigan hodisalar va auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasidan keyin auditorga ma'lum bo'lgan faktlar.

Xizmat ko'rsatuvchi pudratchi tashkilot – Shunday xizmat ko'rsatish tashkiloti-ki, u boshqa xizmat ko'rsatish tashkiloti tomonidan foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlari tayyorlanishi bilan bog'liq bo'lgan axborot tizimlarining bitta qismi hisoblanadigan ba'zi xizmatlarni foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatish uchun foydalaniladi.

Mohiyati bo'yicha tekshirish tartib-taomillari – taqdimnomalar darajasida muhim buzib ko'rsatishlarni aniqlash uchun mo'ljallangan audit tartib-taomillari. Mohiyati bo'yicha tekshirish tartib-taomillari quyidagilarni qamrab oladi:

batafsil testlar (operatsiyalarning turkumlari, sehyotlardagi qoldiqlar va olib beradigan ma'lumotlar); va

Mohiyati bo'yicha tekshirishning tahliliy tartib-taomillari.

Etarilik (auditorlik dalili bo'yicha) – Auditorlik dalili miqdorining o'chovi. Talab etiladigan auditorlik dalili miqdoriga hisobotda muhim buzib ko'rsatish mavjudligi risklarining auditor tomonidan baholanishi hamda bunday auditorlik dalilining sifati ta'sir qiladi.

Muvofiq mezonlar – (Mezonlar ga qarang)

Tegishli malakaga ega tashqi (jalb qilingan) shaxs – Kelishuv partnyori sifatida faoliyat ko'rsatish uchun vakolatga va qobiliyatlarga ega tashkilotdan chetda bo'lgan shaxs. masalan, boshqa tashkilotdagi partner, yoki a'zolari auditorlik tekshiruvlari hamda oldingi davr moliyaviy ma'lumotlarni ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirishga oid xizmatlar yoki turdosh xizmatlar bo'yicha kelishuvlarni bajara oladigan professional buxgalterlar birlashmasining yohud tegishli sifat nazorati xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilotning (munosib tajribaga ega) xodimi.

Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar (AXS 810 nughtai nazaridan) – Moliyaviy hisobotlardan olingan, ammo moliyaviy hisobotlarga

qaraganda kamroq tafsilotlarga ega bo'lgan oldingi davr moliyaviy ma'lumotlari, biroq, shunga qaramasdan, tadbirkorlik sub'ekti iqtisodiy resurslarining va majburiyatlarining ma'lum paytdagi holati yoki ma'lum davr mobaynidagi o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan strukturasiga mos ravishda, qisqacha moliyaviy hisobotlarda ham taqdim etiladi.²⁰ Bunday oldingi davr moliyaviy ma'lumotlarni ta'riflash uchun turli davlatlarda turlicha terminologiya qo'llanilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot – Moliyaviy hisobotlar bilan birga taqdim etiladigan, ammo moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ularni taqdim qilish uchun qo'llaniladigan asos tomonidan talab etilmaydigan ma'lumotdir. Odatda qo'shimcha jadvallar yoki qo'shimcha izohlar sifatida taqdim etiladi.

Test – Jamlanmaning ba'zi yoki barcha moddalariga nisbatan tartib-taomillarni qo'llash.

Nazorat vositalari testlari – Taqdimnoma darajasidagi muhim buzib ko'rsatishni oldini olish yoki aniqlash va to'g'riflashda nazoratlarning ishlash samaradorligini baholashga mo'ljallangan audit tartib-taomillari.

Boshqaruvin yuklatilgan shaxslar – Tadbirkorlik sub'ektining strategik yo'nalishini nazorat qilish bo'yicha mas'uliyat hamda tadbirkorlik sub'ektining hisobdorligiga tegishli majburiyatlarga ega shaxs(lar) yoki tashkilot(lar) (masalan, korporativ trastlar). Bu moliyaviy hisobot berish jarayonini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ba'zi qonunchiliklarda ayrim tadbirkorlik sub'ektlarida boshqaruvin yuklatilgan shaxslar rahbar xodimlarni o'z ichiga oladi, masalan, xususiy yoki davlat sektoridagi tadbirkorlik sub'ekti boshqaruvin kengashining ijrochi a'zolari, yoki egasi-boshqaruvchi.²¹

Qabul qilinadigan darajadagi buzib ko'rsatish – auditor tomonidan belgilangan pulda ifodalangan summa bo'lib, ushbu summaga nisbatan auditor tegishli darajada ishonch xosil qilishga intiladiki, bunda auditor

²⁰ AXS 200, 13(j)-band

²¹ Boshqaruvin turlicha tuzilishi tog'risidagi ma'lumot uchun, AXS 260 «Boshqaruvin yuklatilgan shaxslar bilan axborot almashinuv» ning A1-A8 bandlariga qarang.

tomonidan belgilangan pulda ifodalangan summa jamlanmadagi haqiqiy buzib ko'rsatishdan oshmasligi kerak.

Qabul qilinadigan chetga chiqishning me'yori – O'matilgan ichki nazorat tartiblaridan chetga chiqishning auditor tomonidan belgilangan darajasi bo'lib, ushbu chetga chiqish darajasiga nisbatan auditor tegishli ishonch xosil qilishga intiladiki, bunda auditor tomonidan belgilangan chetga chiqish darajasi jamlanmadagi haqiqiy chetga chiqishdan oshmasligi kerak.

Noaniqlik – Natijasi tadbirkorlik sub'ektining bevosita nazoratida bo'lmagan, ammo moliyaviy hisobotlarga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, kelgusi harakatlar yoki hodisalarga bog'liq bo'lgan masala.

Tuzatilmagan buzib ko'rsatishlar – Auditor tomonidan audit o'tkazish davomida yig'ilgan va, shu bilan birga, tuzatilmagan buzib ko'rsatishlar.

Modifikatsiya qilinmagan fikr – Auditor moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlari bo'yicha moliyaviy hisobotni taqdim qilish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq tayyorlangan degan xulosaga kelganida bildiriladigan fikr.²²

Foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektining auditori – foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlarini audit tekshiruvidan o'tkazadigan va hisobot (xulosa) beradigan auditor.

Foydalanuvchi tadbirkorlik sub'ekti – Xizmat ko'rsatish tashkiloti xizmatlaridan foydalanadigan va moliyaviy hisobotlari audit qilinayotgan tadbirkorlik sub'ekti.

Mantiqiy izchil tekshirish yoki Mantiqiy bosqichli tekshirish – Bir qancha operatsiyalarni moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish tizimida boshdan ohirigacha tekshirishni qamrab oladi.

Yozma bayonot – Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan muayyan masalalarni tasdiqlash yoki boshqa auditorlik dalilini tasdiqlash maqsadida auditorga taqdim etiladigan yozma bildirgi. Ushbu ma'noda yozma bayonot moliyaviy hisobotlarni, ulardag'i taqdimnomalarni yoki tasdiqlovchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini qamrab olmaydi.

²² AXS 700 ning 35-36 bandlarida mos tarzda moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim qilish asosi yoki muvofiqlik asosi qollanilganda shunday fikrn bildirish uchun qanday iboralar qollanishi kerakligi korib chiqiladi.

Foydalanaligan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2017. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. (yangi tahrir) - T., 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. – T., 1996.
4. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-sonli Farmoni.
5. Mirziyoev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent ; “O'zbekiston” 2017 - 488b.
6. Mirziyoev Sh.M Tanqidiy tahlit, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent ; “O'zbekiston” 2017 - 104b.
7. “O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PQ 3946-sonli Qarori.
8. “Moliyaviy hisobtlarning xalqaro standartlarga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ 4611-sonli Qarori.
9. Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashining (XAIBSK) sisat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlar bo'yicha standartlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan 1999-2005.
11. “Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2005 yil 23 sentyabrdagi 93-son buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 18 oktyabrdagi 977-2-son bilan davlat ro'yxatiga olingan). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005 yil oktyabr, 41-42-son.

12. O'zbekiston auditorlarining kasbga doir Kodeksi. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2005 yil 26 avgustdag'i 4-son va O'zbekiston auditorlar Palatasining 2005 yil 25 iyundagi 3-son qarorlari bilan tasdiqlangan.
13. Адамс Р. Основи аудита. Пер. с англ. Под ред. Проф. Я.В. Соколова.- М.: Аудит, ЮНИТИ, 2003.
14. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит: Пер. с англ. Гл. ред. серии проф. Я.В.Соколов. - М., ФиС, 2003.
15. Azizov Sh.O', Yuldasheva S. Mejdunarodno'y audit. T., Iqtisodiyot-moliya, 2013. 275s.
16. Воронина Л.И., Аудит: теория и практика. - М.: ОМЕГА-Л , 2014. 566с.
17. Дефлиз Ф.Л., Дженик Г.Р. и др. Аудит Монтгомери. Пер. с англ. С.М. Бичковой. под ред. Проф. Я.В. Соколова. - М., Аудит, ЮНИТИ, 2002.
18. Do'smuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. - Т., 2003.
19. Гаврилова С.С. Аудит. – М.: Вектор, 2006.
20. Ilhamov Sh.I .Amaliy audit. Darslik. Toshkent. Iqtisodiyot., 2018. 443b.
21. Karimov N.F.i dr. Metodika provedeniya audita. Toshkent. Palata auditorov Uzbekistana. 2016. 391s.
22. Подолский В.И. Аудит: Учебник для вузов. М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2009.
23. Подолский В.И., Савин А.А. Задачник по аудиту. Учебное пособие. - М., Академия, 2008.
24. Панкова С.В. Международные стандарты аудита. Учебное пособие. - М., экономист, 2003.
25. Ситнов А.Л. Международные стандарты аудита: учебно-практическое пособие. – М., ИД ФБК-ПРЕСС, 2004.
26. Суглобов А.Е. Отвештвенность аудитора по рассмотрению мошенничества и ошибок. // Ж.: Аудит. - М., 2006. № 1, стр.9-12.
27. Справочник аудиторских услуг Узбекистана. Тошкент. Палата аудиторов Узбекистана. 2017. 202с.

28. To'ychiev A.J., Meliev I., Avazov I. Moliyaviy hisobot auditii. T., Iqtisodiyot-moliya, 2017. 159b.
29. Tyutyuryukov V.N. Mejdunarodnie standarti audita. Uchebnik. – M., 2010. 200s.
30. Tulaxodjaeva M.M., Ilxamov Sh.I. Audit. Darslik. 1-2 jild. Toshkent. Iqtisodiyot., 2018.
31. Sheremet A.D., Suyts V.P. Audit. Uchebnik. M.: Infra-M, 2008.
32. Hamdamov B.K. Audit iqtisodi. Monografiya. - T., 2005.
33. Хамдамов Б.К. Развитие контрольно - советующих аудиторских систем в Республике Узбекистана. «Проблемы формирования и развития конкурентоспособной экономики». Международная научно- практическая конференция. Чимкент, 2006. с.173-178
34. Hamdamov B.K. Auditning maqsadi. Jurnal., «O'zbekiston qishloq ho'jaligi». 2007. № 10. 29-30 b.
35. Хамдамов Б.К. Повышение производительности аудиторских организаций . Журнал., «Рынок, деньги и кредит». 2007. № 7. с. 41-43.
36. Hamdamov B.K., Avloqulov A.Z. Moliyaviy hisobot. Iqtisod moliya- nashiriyoti. Toshkent 2008 yil 208b.
37. Hamdamov B.K. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini standartlashtirish. Jurnal "Moliya" № 2. 2011 yil 42-47b.
38. Hamdamov B.K. Moliyaviy hisobot tuzishda buxgalteriya hisobi milliy standartlarining ahamiyati. Jurnal "Moliya" № 1. 2012 yil 52-57b.
39. Хамдамов Б.К. Актуальные вопросы бухгалтерского учета и отчетов в электронной форме. Журнал "Молия" № 3. 2013 год 44-50с.
40. Хамдамов Б.К. Реформирование бухгалтерского учета в Республике Узбекистан. Журнал "Молия" 2014 год №2. 42-47с.
41. Hamdamov B.K. Byudjet tashkilotlarida nazorat muammolari. Jurnal "Moliya" 2015 yil №4. 119-125 b.
42. Hamdamov B.K., Ostonaqulov A. Inqiroz sharoitida buxgalteriya hisobi. Jurnal "Moliya" 2016 yil №3. 34-40 b
43. Xamdamov B.K., Ibragimova K.Sh. Sovershenstvovanie buxgalterskogo ucheta v Uzbekistane na osnove mejdunarodno'x

standartov finansovoy otchetnosti. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1 2017 yil.

44. Hamdamov B.K. O'zbekistonda soliqlar hisobi va uni ijtimoiy mehnat taqsimotiga ta'siri. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №5 2017 yil.

45. Хамдамов Б.К. Проблемы и перспективы развития финансового контроля в РУз. Журнал "Молия" 2018год. №2 23-29 с.

46. Хамдамов Б.К Вопросы вендрения международных стандартов финансовой отчетности бухгалтерского учета в Государственном секторе Республики Узбекистан. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2 . 2018 yil.

47. Хамдамов Б.К Учет фонда бюджетной организации и её проблемы. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1 2018 yil.

48. Хамдамов Б.К Развтие учета и аудита в условиях цифровой экономики. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №3 2018 yil.

49. Хамдамов Б.К Бюджетный контроль. Т., Иктисад – молия, 2018. 210с.

50. Hamdamov B.K., Ostonaqulov A.Z . Byudjet nazorati. T., Iqtisodiyot-moliya, 2018. 316 b.

51. Qo‘ziev I.N., Fayziev Sh.N., Avloqulov A.Z. Ichki audit. T., Iqtisodiyot-moliya, 2015. 189b.

52. Soliq va bojxona xabarlari. - T., Moliyaviy – iqtisodiy gazeta.

53. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – T., Ilmiy-amaliy iqtisodiy jurnal.

54. Bozor, pul va kredit. – T., Bank xodimlari va ishbilarmonlar jurnali.

55. Iqtisodiyot va ta'lif. Ilmiy jurnal. – T., Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti.

56. Moliya. Ilmiy jurnal. – T., Toshkent moliya instituti.

57. www.cer.uz - (tsentr ekonomicheskogo issledovaniya).

58. www.nao.gov.uk - (UK Natsional Audit Office).

59. www.gov.uz – (novosti pravitelstva Uzbekistana).
60. www.mf.uz – (Ministerstvo finansov Uzbekistana)
61. PS “Norma”.
62. IPS “Pravo”.

Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlariga muqaddima

2011 yilning 15 dekabridan e'tiboran kuchga kirdi

KIRISH

1. Ushbu *Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlariga muqaddima* Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi tomonidan chiqariladigan standartlar va qoidalarning qo'llanish doirasasi va vakolatlarini, XAIBSKning Texnik vazifalarida belgilanganidek, tushunishni yengillashtirish maqsadida chiqarilgan.

2. XAIBSK butun jahonda umumqabul qilinadigan xalqaro standartlar va boshqa qoidalar to'plamini ishlab chiqish maqsadiga sodiqdir. XAIBSKning a'zolari jamiyatning umumiyl manfaatlari yo'lida keng va butun dunyoni qamrab olgan buxgalter kasbi doirasida harakat qiladi. Bu esa ular qandaydir masala yuzasidan ularning mamlakati yoki firmasidagi joriy amaliyatga mos kelmaydigan yoki ularni XAIBSKda a'zolikka undagan shaxslarning nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydigan nuqtai nazarni qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

XAIBSKning e'lon qilingan standartlari va qoidalari

XAIBSKning to'la vakolatli standartlari

1. XAIBSKning e'lon qilingan standartlari va qoidalari xalqaro standartlarga muvofiq bajariladigan audit, ko'rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlari bo'yicha kelishuvlarni tartibga soladi. Ular muayyan mamlakatda ushbu mamlakatning milliy standartlariga muvofiq roya etilishi talab etiladigan va tarixiy moliyaviy hisobotlar auditni yoki boshqa ishonch bildirish bo'yicha kelishuvlarni tartibga soladigan mahalliy qonunlar yoki me'yoriy hujjatlardan ustun kelmaydi. Mahalliy qonunlar yoki me'yoriy hujjatlar muayyan masala yuzasidan XAIBSKning standartlaridan farq qilsa yoki ularga zid kelsa mahalliy qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga muvofiq bajarilgan kelishuv g'ayriixtiyoriy ravishda XAIBSKning standartlariga mos bo'lmaydi.

Professional buxgalter kelishuvga tegishli bo'lgan XAIBSKning barcha standartlariga to'liq rioya qilmagan bo'lsa, u XAIBSKning standartlariga muvofiqlik haqida bildirmasligi lozim.

2. XAIBSKning to'la vakolatli standartlari va qoidalari bo'lib XAIBSK tomonidan o'rnatilgan tegishli jarayon amalga oshirilishi natijasida chiqarilgan xalqaro standartlar hisoblanadi.

Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi tomonidan chiqarilgan xalqaro standartlarning vakolatlari

1. Auditning xalqaro standartlari (AXS) tarixiy moliyaviy ma'lumotlarning auditida qo'llanilishi kerak.

2. Ko'rib chiqish bo'yicha kelishuvlarning xalqaro standartlari (KChKXS) tarixiy moliyaviy ma'lumotlarni ko'rib chiqishga nisbatan qo'llanilishi kerak.

3. Ishonch bildirish bo'yicha kelishuvvarning xalqaro standartlari (IBKXS) tarixiy moliyaviy ma'lumotlarning auditini yoki ko'rib chiqilishidan boshqa ishonch bildirish bo'yicha kelishuvlariga nisbatan qo'llanilishi kerak.

4. Turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari (TXXS) kompilyatsiyalash bo'yicha kelishuvlarga, ma'lumotlar ustidan kelishilgan tartib-taomillarni bajarish bo'yicha kelishuvlarga va XAIBSK tomonidan belgilanganidek boshqa turdosh xizmatlari bo'yicha kelishuvlarga nisbatan qo'llanilishi kerak.

5. AXS, KChKXS, IBKXS va TXXSlar birgalikda XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari deb nomланади.

6. Sifat nazoratining xalqaro standartlari (SNXS) XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari amal qilishi doirasida ko'rsatiladigan barcha xizmatlarga nisbatan qo'llanilishi kerak.

Auditning xalqaro standartlari

1. AXSlar mustaqi auditor tomonidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotlarning²³ auditini kontekstida yozilgan. Ushbu standartlar boshqa tarixiy moliyaviy ma'lumotlarning auditiga nisbatan qo'llanilganida,

²³ Boshqacha korsatilgan bolmasa, "moliyaviy hisobotlar" tarixiy moliyaviy ma'lumotlardan iborat bolgan moliyaviy hisobotlarni anglatadi

mavjud sharoitlardagi zaruriyatdan kelib chiqqan holda moslashtirilishi kerak. AXSlarning vakolatlari AXS 200²⁴ belgilangan.

Sifat nazoratining xalqaro standartlari

1. SNXSlar XAIBSKning Kelishuvlar bo'yicha standartlari amal qilishi doirasida auditorlik tashkilotlari (firmalar) tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlarga nisbatan qo'llanilishi maqsadida ishlab chiqilgan. SNXSlarning vakolatlari SNXSlarga kirish qismida belgilangan.

Boshqa xalqaro standartlar

1. 6-8 bandlarda ko'rsatib o'tilgan ayrim xalqaro standartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsadlar, talablar, standartni qo'llashga doir qo'llanma va boshqa sharhlovchi material, kirish qismiga doir material va ta'riflar. Ushbu atamalar ular AXSlarning kontekstida va AXS 200 moliyaviy hisobotlar auditni kontekstida tushuntirilganidek, bevosita aynan shu tarzda talqin qilinishi lozim.

2. 6-8 bandlarda aytib o'tilgan boshqa xalqaro standartlar asosiy printsiplar va zaruriy tartib-taomillarni (qora harflar va "kerak" so'zi bilan ajratib ko'rsatilgan) hamda sharhlovchi va boshqa material, shu jumladan ilovalar shaklida tegishli ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Asosiy printsiplar va zaruriy tartib-taomillar ularning qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatmalarni ta'minlaydigan sharhlovchi va boshqa material kontekstida tushunilishi va qo'llanilishi lozim. Shu bois, asosiy printsiplar va zaruriy tartib-taomillarni tushunish va qo'llash uchun standartning butun matnini ko'rib chiqish zarurdir.

3. Standartning asosiy printsiplari va zaruriy tartib-taomillari kelishuv shart-sharoitlarida o'rini bo'lgan barcha hollarda qo'llanilishi kerak. Biroq, kamdan-kam hollarda, professional buxgalter o'rini bo'lgan zaruriy tartib-taomilning maqsadiga erishi ushbu tartib-taomildan chetga chiqish zarur deb hisoblashi mumkin. Bunday holat yuzaga kelganda, professional buxgalterdan bajarilgan muqobil tartib-taomillar zaruriy tartib-taomilning maqsadlariga erishishni qanday qilib ta'minlaganligi va, aniq bo'limganida, chetga chiqishning sabablarini hujjatlashtirishi talab

²⁴ AXS 200 "Mustaqil auditiining umumiy maqsadlari va auditni Auditning salqaro standartlarga munofiq otkazish"

etiladi. Professional buxgalter o'rini zaruriy tartib-taomildan chetga chiqishi zarurligi kelishuvning o'ziga xos shart-sharoitlarida ushbu tartib-taomil samarasiz bo'lqandagina paydo bo'lishi kutiladi.

4. Qo'llashga doir materialning bir qismini tashkil etadigan ilovalar standartning ajralmas qismidir. Ilovaning maqsadi va ko'zlangan foydalanilishi tegishli standartning asosiy matnida yoki ilovaning nomi va kirish qismida tushuntiriladi.

Professional mulohaza

1. Xalqaro standartlarning xususiyati professional buxgalterdan ushbu standartlarni qo'llashda professional mulohaza qilinishini talab etadi.

Xalqaro standartlarning qo'llanishi

1. Muayyan xalqaro standartning qo'llanish doirasi, kuchga kirish sanasi va uni qo'llashda har qanday o'ziga xos cheklashlar standartda aniq ko'rsatiladi. Xalqaro standartda boshqacha aytib o'tilmagan bo'lsa, professional buxgalter xalqaro standartni unda ko'rsatilgan kuchga kirish sanasidan oldin qo'llashi ruxsat etiladi.

2. Xalqaro standartlar davlat sektoridagi kelishuvlar uchun o'rinnlidir. Tegishli hollarda, davlat sektori tashkilotlariga hos qo'shimcha ko'rib chiqiladigan jihatlar quyidagilarga kiritiladi:

(a) AXS va SNXSlar holatida xalqaro standartning asosiy matniga; yoki

(b) Boshqa xalqaro standartlarning oxirida ko'rsatiladigan Davlat sektoriga tegishli jihatlar (DSJ) bo'limida.

To'la vakolatlari bo'limgan material

1. To'la vakolatlari bo'limgan material XAIBSK tomonidan chiqarilgan Amaliyot izohlari va xodimlar tomonidan e'lon qilingan hujjatlarni o'z ichiga oladi. To'la vakolatlari bo'limgan material XAIBSK Xalqaro standartlarining qismi deb hisoblanmaydi.

Xalqaro audit amaliyoti izohlari

1. Xalqaro audit amaliyoti izohlari (XAAI) auditorlarga Auditning Xalqaro Standartlarida (AXS larda) keltirilgan talablardan tashqari qo'shimcha talablarni yuklamaydi hamda ular auditga o'rini bo'lgan barcha AXS larga rioya etish bo'yicha auditor mas'uliyatini

o‘zgartirmaydi. XAAI lar auditorlarga amaliy ko‘makni ta’minlaydi. Ular milliy standartlar bo‘yicha mas‘ul bo‘lgan tomonlar tomonidan tatbiq etilishiga mo‘ljallanadi, yoki tegishli milliy materialni ishlab chiqishda foydalaniladi. Ular auditorlik tashkiloti (firma)lar trening dasturlarni va ichki yo‘riqnomani ishlab chiqishda foydalanishi mumkin bo‘lgan materialni ham ta’minlaydi.

2. Qamrab oladigan mavzu(lar) xususiyatiga bog‘liq ravishda, XAAI auditorga quyidagilarda yordam berishi mumkin:

- Tadbirkorlik sub`ekti faoliyati shart-sharoitlari to‘g’risida tushuncha hosil qilish, muhim buzib ko‘rsatish risklarini aniqlash va baholash yuzasidan professional mulohaza chiqarish;
- Baholangan risklarga javoban qanday harakatlar qilish to‘g’risida mulohaza chiqarish, shu jumladan mavjud shart-sharoitlarda tegishli bo‘lishi mumkin tartib-taomillar to‘g’risida mulohaza qilish; yoki
- Hisobot berish jihatlarini ko‘rib chiqish, shu jumladan moliyaviy hisobotlar bo‘yicha fikr hosil qilish va boshqaruв yuklatilgan shaxslar bilan axborot almashish.

Boshqa xalqaro standartlarga tegishli amaliyot izohlari

• Yuqorida aytib o‘tilgan maqsadlarda KChKXS, IBKXS, TXXSlari bo‘yicha ham XAIBSK tegishlichcha Ko‘rib chiqish kelishuvlari bo‘yicha xalqaro amaliyot izohlari (KChKXAI), Ishonch bildirish kelishuvlari bo‘yicha xalqaro amaliyot izohlari (IBKXAI), va Turdosh xizmatlar bo‘yicha xalqaro amaliyot izohlari (TXXAI) chiqarishi mumkin.

Xodimlarning e`lonlari

1. Xodimlarning e`lonlari buxgalter-amaliyotchilarining yangi yoki paydo bo‘layotgan ahamiyatli masalalar to‘g’risida xabardorligini mavjud bo‘lgan talablar va ko‘llashga doir materialga havola qilish orqali oshirish yoki ular e`tiborini XAIBSK tomonidan chiqarilgan standartlar va qoidalarning tegishli talablariga qaratish uchun foydalaniladi.

Til

XAIBSKning Xalqaro standartlari, Amaliyot izohlari, muhokama uchun hujjat loyihalari yoki boshqa e`lon qilingan hujjatlarining yagona rasmiy matni bo‘lib ularning XAIBSK tomonidan Ingliz tilida nashr etilgan

XALQARO BUXGALTERLAR FEDERATSIYASI

Tashkil topishi

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) – buxgalter kasbi vakillarining butunjahon professional tashkilotidir. 1977 yilda ta'sis etilgan bo'lib, uning bosh vazifasi quyidagilar orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qilishdir: yuqori sifatli xalqaro standartlarni ishlab chiqish, qabul qilish va joriy etishga o'z hissasini qo'shish va yo'riqnomalar berish; kuchli professional buxgalterlik tashkilotlari va auditorlik tashkilotlarining rivojlanishi, hamda professional buxgalterlar tomonidan yuqori sifatli amaliyotlar qo'llanilishiga o'z hissasini qo'shish; butun jahonda professional buxgalterlarning mavqei yuksalishiga ko'maklashish; buxgalterlik kasbi sohasida masalalar yuzaga kelganda jamiyat manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash.

XBF jahoning 127 mamlakatida 167 haqiqiy va uyushgan a`zolarga ega bo'lib, o'z saflarida davlat sektori, sanoat, savdo, davlat sektori va ta'lim muassasalarida band bo'lgan ikki yarim million nafar ommaviy amaliyotdagi buxgalterni birlashtirgan. Jahonda boshqa biron-bir buxgalterlar tashkiloti xalqaro miqyosda bunday mavqega ega emas, XBF singari xalqaro darajada keng qo'llab-quvvatlanuvchi professional tashkilotlar esa sanoqlidir.

XBF boshqaruv organlari, uning xodimlari va volontyorlari o'z faoliyatida vijdonlilik, shaffoflik, tajribalilik singari qadriyatlarga amal qiladilar. XBF Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash tomonidan chiqarilgan *Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksini* (BXASK Kodeksini) tarqatish yo'li bilan yuqorida zikr etilgan qadriyatlarga sodiqlikni barcha professional buxgalterlar o'rtasida kuchaytirishga intiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun XBF sayti www.ifac.org ga kiring.

Standartlarni o'rnatish bo'yicha tashabbuslar

XBF xalqaro darajada e'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqish, tarqatish va amalga kiritish jamiyat manfaatlarini himoya qilishning asosiy

usulidir, degan qoidaga uzoq yillardan beri amal qilib keladi. Bunday choralar investorlar va boshqa manfaatdor taraflar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun asos bo'ladigan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini shirish imkonini beradi.

Shu bois, XBF standartlarni o'rnatadigan quyidagi to'rtta mustaqil kengash faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan tuzilmalar va jarayonlarni ta'minlaydi: Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari Kengashi (IAASB), Buxgalterlik ta'limning xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IAESB), Buxgalterlar uchun xalqaro axloq standartlari bo'yicha Kengash (IESBA) va Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash (IPSASB). Ushbu standartlarni o'rnatadigan mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarida yuqori sifatlari standartlani ochiq ya samarali ishlab chiqilishini ta'minlaydigan, aniq belgilangan, tegishli jarayonga rivoja qiladilar. Bu standartlarni belgilash bo'yicha mustaqil kengashlar jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan va a'zolari leng jamoatchilik vakillari hisoblanadigan Maslahat guruhlariga egadilar. Mazkur kengashlar quyidagi hujjatlarni chop etadilar:

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi
- Audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish bo'yicha boshqa xizmatlar va turdost xizmatlarning xalqaro standartlari
- Sifat nazorati bo'yicha xalqaro standart
- Talimning xalqaro standartlari
- Davlat sektoridagi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari

IAASB, IAE\$B, IESBA va IPSASB faoliyati Jamiyat manfaatlarini nazorati kengashi tomonidan nazorat qilinadi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ipiob.org saytiga kiring.

Muvafiqlik masalalari bo'yicha maslahat guruhi (CAP) XBF a'zolari XBF va Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash tomonida chop etilgan standartlarni qanday qo'llayotganlari ustidan kuzatishi amalga qshiradi. XBF a'zolarining majburiyatları XBF a'zolik burchlarib o'yicha bayonotlarda sanab o'tilgan. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun See www.ifac.org/complianceprogram saytiga kiring.

Boshqa tashabbuslar

XBF tegishli direktivalarni ishlab chiqadi va professional buxgalterlar biznesda ishlashi uchun zarur bo'lgan resurslarni tarqatishga ko'maklashadi. Shuningdek u kichik va o'rta korxonalar hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar (SMP) ga, shuningdek jahon iqtisodiyotida muhim rol o'yнaydigan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lgan masalalarni yechish bilan shug'ullanadigan guruhlarni ham tashkil etgan.

- **Sohada ishlayotgan professional buxgalterlar Qo'mitasi**

Sohada ishlayotgan professional buxgalterlar Qo'mitasi (PAIB) tijorat, sanoat, moliyaviy xizmatlar, ta'lim, davlat va notijorat sektorlarida ishlaydigan butun jahon professional buxgalterlari va XBFning a'zolariga xizmat ko'rsatadi. Uning maqsadlari tashkilotlar va ularning hissadorlari uchun qiymat yaratish, saqlash va hisobot berishda professional buxgalterlarning muhim roli to'g'risida xabardorlikni oshirish yo'li bilan sohada ishlayotgan professional buxgalterlarning qadrini ko'tarish va hissa qo'shish; a'zo tashkilotlarga ularning a'zolari ushbu rollarni bajarishi uchun ushbu a'zolarning kompetentligini oshirishda ko'maklashishdir. Ushbu maqsadlarga axborot almashinuvini ilgari surish va yaxshi amaliyotlar va g'oyalar bilan o'rtoqlashish orqali erishiladi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun [www.ifac.orgG'paib](http://www.ifac.org/G'paib) saytiga kiring.

- **Kichik va o'rta biznes amaliyoti bo'yicha Qo'mita**

Qo'mita xalqaro standartlarni ishlab chiquvchilar ishiga kichik va o'rta biznes (KO'B) hamda kichik va o'rta biznesda band bo'lgan buxgalter-amaliyotchilar(KO'BBA) ning nuqtai nazaridan bevosita hissa qo'shadi va ishlab chiqilgan standartlar bunday KO'BG' KO'BBA uchun o'rinli va mutanosib bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek Qo'mita KO'BBAni amaliy qo'llab-quvvatlashni, shu jumladan xalqaro standartlarni amalga samarali joriy etish va amaliy menejment singari mavzular bo'yicha qo'llanmalar va onlays-resurslarni ishlab chiqish orqali ta'minlaydi. Qo'mita yangi masalalarni o'z vaqtida hal qilish, ushbu sektorning muhimligi va qadriyatি to'g'risida xabardorlikni oshirish, va bu sohadagi buxgalter-amaliyotchilarning talablariga o'z vaqtida javob berishni ta'minlash maqsadida kichik va o'rta biznesda band bo'lgan

buxgalter-amaliyotchilar forumi kabi axborot tarqatish ishlarini har yili tashkil etish bilan shug'ullanadi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ifac.org'smp saytiga kiring.

- Professional buxgalterlik tashkilotini rivojlantirish bo'yicha Qo'mita

Qo'mitaning e'tibori rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchli professional buxgalterlik tashkilotlarining (PAO) rivojlanishida ular duch keladigan muammolarni yechishga qaratilgan. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi buxgalteriya hisobi to'g'risida xabardorlikni oshirishni ilgari suradigan, rasmiy kasb ehtiyojlariga e'tiborni qaratadigan, va rasmiy kasb olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy foydani ko'rsata oladigan shaxslarni birlashtiradi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ifac.org/about-ifacg/professional-accountancy-organization-development-committee saytiga kiring.

- Transmilliy auditorlar qo'mitasi

Qo'mita Firmalar forumi (FoF)ning ijrochi organi sifatida o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu forum transmilliy auditlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlari (firmalari) xalqaro tarmoqlarining uyushmasidir. Qo'mita Forum va XBF o'rtaida rasmiy aloqalarni ta'minlaydi va Forum a'zolari xalqaro audit amaliyotida yuqori sifatli standartlarga rioya etishini rag'batlantrishda muhim rol o'ynaydi. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ifac.org/about-ifacg/transnational-auditors-committee saytiga kiring.

Boshqa resurstar

- XBF ko'p sonli hujjatlar va materiallarni chop etadi. Mavjud bo'lgan to'plamlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish bo'yicha boshqa xizmatlar hamda turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to'plami

- Ta'limning xalqaro standartlari to'plami

- Professional buxgalterlar uchun axloq kodeksi

Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari to'plami Shuningdek XBF standartlarni qabul qilish va qo'llashga doir yordamchi materiallar, muhokama uchun hujjat loyihalari, maslahat hujjatlari,

axborotnomalar va elektron yangiliklarni ham chop etadi. Mazkur ma'lumotlarning aksariyati bilan XBF saytida bepul tanishish mumkin. To'plamlarning bosma nusxalarini sotib olish mumkin. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ifac.orgG/publications-resources saytiga kiring.

Avtorlik huquqlari va tarjimalar

XBF tomonidan nashr etilgan materiallarga avtorlik huquqi yuzasidan XBFning siyosati uning Siyosat bayonoti "Xalqaro Buxgalterlar Federatsiya tomonidan chiqarilgan nashrlarni ko'paytirish, yoki tarjima qilish va ko'paytirish bo'yicha siyosat"da belgilangan.

XBF ingliz tili ona tili bo'lmagan mamlakatlardagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydigan tomonlar va ulardan foydalanuvchilar, auditorlar, tartibga soluvchi organlar, yuristlar, ta'lim sohasi ishchilari, talabalar, va boshqa manfaatdor tomonlar standartlar bilan o'z ona tilida tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimligini tan oladi. XBFning uning xalqaro standartlarini (yakuniy shaklda) tarjima qilish va ko'paytirish bo'yicha siyosati uning Siyosat bayonoti "Xalqaro Buxgalterlar Federatsiya tomonidan chiqarilgan standartlarni ko'paytirish, yoki tarjima qilish va ko'paytirish bo'yicha siyosat"da belgilangan. Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun www.ifac.orgg/translations saytiga kiring.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
1 BOB. Audit xalqaro standartlarining ahamiyati va vazifalari.....	8
1.1. Auditning shakillanishi va turlari.....	8
1.2. Auditning tashkiliy asoslari va standartlari.....	18
1.3. Moliyaviy hisobot va xalqaro audit standartlarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari.....	24
1.4. Audit xalqaro standartlari to'plami tuzilmasi va klassifikatsiyasi.....	29
2 BOB. Xalqaro audit standartlari asosida auditni tashkil qilish	46
2.1 .Moliyaviy hisobot auditining maqsadi va umumiy tamoyillari.....	46
2.2. Audit o'tkazish shartnomalarini tuzish	51
2.3. Auditni hujjatlashtirish	55
3 BOB. Auditni rejalashtirish.....	66
3.1. Auditni rejalashtirishning umumiylarini ta'lablari	66
3.2 Hisobotdagi xato va firibgarliklarni o'rganishda auditning majburiyatları	69
3.3. Auditda riskni baholash va muximlik darajasi belgilash.....	74
4 BOB. Auditorlik dalillarini yig'ish	84
4.1. Auditorlik dalillarining ko'rinishlari va manbalari	84
4.2. Auditda dalillarini yig'ish usullari	87
4.3. Auditorlik dalilarini yig'ishda ichki nazorat tizimini baholash yo'llari ..	96
4.4. Audit o'tkazish jarayonida boshqa shaxslarning malumotlaridan foydalanish.....	105
5 BOB. Auditlik hulosa va takliflarining xalqaro standartlari	118
5.1.Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik hulosalari	118
5.2.Modifikatsiyalashgan auditorlik hulosalari	126
5.3.Salbiy auditorlik hulosa	136
6 BOB. Auditning boshqa mahsus sohalari	155
6.1. Maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar audit.....	155
6.2. Ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotdagi maxsus elementlar, schyotlar yoki moddalar auditi.....	157
6.3. Qisqartirilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisobot (xulosa) taqdim etish kelishuvlari.....	161
7 BOB. Xalqaro audit amaliyoti yuzasidan yo'riq noma.....	173
7.1. Xalqaro audit amaliyoti izohi.....	173
7.2. Moliyaviy instrumentlarni auditdan o'tkazishda maxsus jihatlar.....	175
7.3. Komp yuterli malumotlar tizimi muhitida audit o'tkazish hususiyatlari.....	181

Содержание

ВВЕДЕНИЕ.....	5
Глава 1 Международные стандарты аудита, их роль и значение.....	8
1.1. Виды и формы аудита.....	8
1.2. Организационные формы и стандарты аудита.....	18
1.3. Вопросы применения Международных стандартов финансовой отчетности и аудита в Республике Узбекистан.....	24
1.4. Структура сборника Международных стандартов аудита и их классификация.....	29
Глава 2. Организация аудита на основе применения Международных стандартов аудита.....	46
2.1. Цель и общие принципы аудита финансовой отчетности.....	46
2.2. Условия договоренности о проведение аудита.....	51
2.3. Документирование аудита.....	55
Глава 3. Планирование аудита.....	66
3.1. Общие процедуры планирования аудита.....	66
3.2. Обязанности аудитора по рассмотрению мошенничества в учете и отчетности.....	69
3.3. Оценка аудиторского риска и определение уровня существенности.....	74
Глава 4. Получение аудиторских доказательств.....	84
4.1. Аудиторских доказательства и источники их получения.....	84
4.2. Процедуры получения аудиторских доказательств.....	87
4.3. Оценка внутреннего аудита при получения аудиторских доказательств.....	96
4.4. Использование результатов работы третьих лиц при проведение аудита.....	105
Глава 5. Международные стандарты аудиторских выводов и заключений.....	118
5.1. Аудиторское заключение по финансовой отчетности.....	118
5.2. Модифицированные аудиторские заключения.....	126
5.3. Отрицательные аудиторские заключения.....	136
Глава 6. Специальные области аудита.....	155
6.1. Аудит финансовой отчетности составленным по специальным заданиям.....	155
6.2. Аудит определенных счетов, элементов счетов или деталей финансовой отчетности.....	157
6.3. Отчет аудитора по специальным аудиторским заданиям.....	161
Глава 7. Положения по международной аудиторской практике....	173

7.1. Коментария по международной аудиторской практике.....	173
7.2.Специальные аспекты проведение аудита по финансовым инструментам.....	175
7.3. Особенности аудиторской проверки в среде компьютерных информационных систем.....	181

CONTENTS

INTRODUCTION.....	5
CHAPTER I. Significance and functions of International Standards on Auditing.....	8
1.1. Types and forms of audit.....	8
1.2. Organizational forms and auditing standards.....	18
1.3. Issues of application of International Financial Reporting Standard and International Standards on Auditing standards in the Republic of Uzbekistan.....	24
1.4. The structure of the collection of International Standards on Auditing and their classification.....	29
CHAPTER II. Organization of the audit based on the application of International standards on auditing.....	46
2.1. The aim and general principles of the audit of financial statements...	46
2.2. Terms of the audit agreement.....	51
2.3. Documenting the audit.....	55
CHAPTER III. Planning an audit.....	66
3.1. General audit planning procedures.....	66
3.2. Responsibilities of an auditor to review accounting and reporting fraud.....	69
3.3. Assessment of audit risk and determining the level of materiality.....	74
CHAPTER IV. Obtaining audit evidence.....	84
4.1. Audit evidence and their sources.....	84
4.2. The procedure for obtaining audit evidence.....	87
4.3. Evaluation of internal audit in obtaining audit evidence.....	96
4.4. Use of third-party performance in auditing.....	105
CHAPTER V. International Standards on Audit conclusions and opinions.....	118
5.1. Audit opinion on the financial statements.....	118
5.2. Modified audit opinion.....	126
5.3. Negative audit opinion.....	136
CHAPTER VI. Special areas of audit.....	155
6.1. Audit of financial statements prepared for special tasks.....	155
6.2. Audit of certain accounts, elements of accounts or details of financial statements.....	157
6.3. Auditor's report on special audit assignments.....	161
CHAPTER VII. Guidance on International Auditing practice.....	173
7.1. Comments on International Auditing practice.....	173
7.2. Special aspects of audit on financial instruments.....	175
7.3. Features of the audit in the environment of computer information systems.....	181

HAMDAMOV B.Q.

**AUDITNING XALQARO
STANDARTLARI**

Bosishga ruhsat etildi: 04.06.2021 yil
Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 15.5. Adadi 50. Buyurtma № 04-06
Tel: (99) 832 99 79; (97) 815 44 54
«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shaxri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

106500

65.053

ISBN: 978-9943-13-902-2



A standard barcode representation of the ISBN number 978-9943-13-902-2.